Abstract: The article analyzes the natural growth indicators of the urban population in the Nakhchivan economic region and examines the issues of ensuring sustainable demographic development by creating an optimal ratio. Absolute and relative natural growth indicators of the economic region in different years were compared with other economic regions of the country. Indicators of birth, death and natural growth of urban population of different administrative regions were investigated on gender distribution, socio-economic, demographic factors affecting it, negative and positive demographic trends that may occur in the future were analyzed. On the basis of indicators of natural growth in the economic region, the number of urban population in perspective was predicted.

It is vital to implement demographic regulatory measures while taking into consideration the strategic relevance of the economic and geographic area in light of the existing indicators of natural population increase. Future labor shortages might become a severe issue if population reproduction is not assured.

Keywords: Nakhchivan, natural growth, birth, death, urbanization

Аннотация: В статье анализируются показатели естественного прироста городского населения в Нахчиванском экономическом регионе, и рассматриваются вопросы обеспечения устойчивого демографического развития путём создания оптимального соотношения. Абсолютные и относительные показатели естественного прироста экономического региона в разные годы были сопоставлены с другими экономическими регионами страны. Были исследованы показатели рождаемости, смертности и естественного прироста городского населения различных административных регионов по гендерному распределению, социально-экономическим, демографическим факторам, влияющим на это, проанализированы негативные и позитивные демографические тенденции, которые могут возникнуть в будущем. На основе показателей естественного прироста в экономическом регионе была спрогнозирована численность городского населения в перспективе.

Жизненно важно осуществлять меры демографического регулирования, принимая во внимание стратегическую значимость экономико-географического района в свете существующих показателей естественного прироста населения. Будущая нехватка рабочей силы может стать серьёзной проблемой, если не будет обеспечено воспроизводство населения.

Ключевые слова: Нахчиван, естественный прирост, рождаемость, смертность, урбанизация

Annotatsiya: Maqolada Naxchivan iqtisodiy hududida shahar aholisining tabiiy o'sish ko'rsatkichlari tahlil qilinib, optimal nisbatni yaratish orqali barqaror demografik rivojlanishni ta'minlash masalalari muhokama qilingan. Iqtisodiy hududning turli yillardagi tabiiy o'sishining mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlari respublikaning boshqa iqtisodiy hududlari bilan solishtirilgan. Turli ma'muriy hududlarda tug'ilish, o'lim va shahar aholisining tabiiy o'sishi ko'rsatkichlari gender taqsimoti, bunga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy, demografik omillar, kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy va ijobiy demografik tendensiyalari tahlil qilingan. Iqtisodiy hududda tabiiy o'sish ko'rsatkichlari asosida kelajakda shahar aholisi soni bashorat qilindi. Aholi tabiiy o'sishining mavjud sur'atlarini hamda iqtisodiy-geografik mintaqaning strategik ahamiyatini hisobga olgan holda demografik nazorat choralari amalga oshirish hayotiy ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlandi. Kelajakda aholini ko'payishi ta'minlanmasa, ishchi kuchi tanqisligi jiddiy muammoga aylanishi mumkin.

Kalit so'zlar: Naxchivan, tabiiy o'sish, tug'ilish, o'lim darajasi, urbanizatsiya

Introduction: As a result of natural growth, other demographic processes, the number of the population, its part below the working age are restored. At the same time, people who retire, lose their ability to work and die are replaced by others. Although migration plays a certain role in population growth, natural growth is the main source of population [7, p. 106]. The natural growth dynamics of the Nakhchivan urban

population has historically been variable. The process was influenced in different ways by socio-political, socio-economic factors. The main factors determining its natural growth are birth and death rates. The diversity of the birth rate of the population is influenced by urbanization, the presence and settlement of the population with different national traditions, religion, marriages, divorces, culture, the level of employment, the population of different nationalities and ethnic groups, the involvement of women in economic activities, the average level of education and provision, and many other factors [8, p. 90]. Wars and epidemics also lead to a decrease in the birth rate. With the weakening of economic development, the problems of providing housing, deterioration of the financial situation arise, as a result, of which the birth rate decreases. But in countries where the Islamic mentality is widespread, the birth rate remains stable.

Another demographic indicator that determines natural growth is death. To a greater extent, the death rate includes the increase in Population Nutrition, epidemics and infectious diseases, the development of healthcare, the formation of a healthy lifestyle, the age composition of the population, and other factors affecting [9, p.282]. With the rise in the standard of living of the population, the average life expectancy also increases and death rate decreases. The high proportion of the elderly population in the general population and the increase of death among children are also factors affecting the dynamics of death rate.

Methods and materials

The works of scientists and researchers of the world and of our country on natural growth processes, as well as the data of Nakhchivan State Statistics Committee, at the same time statistical collections and bulletins were used in the article. Statistical, comparative analysis method and cartographic method were used while research process.

Results and discussions

Nakhchivan economic and geographical region, located in the South-East of the Caucasus, includes Sharur, Babek, Shahbuz, Julfa, Ordubad, Kengerli administrative regions and Nakhchivan city administrative district. In the economic-geographical region, the population is settled in 7 districts, 6 cities, 9 towns and 203 rural settlements. In 2022, the population of the economic region was 463 thousand people, and the urban population reached a record level of 163.4 thousand people (35.3%) [12].

Initial data on the birth rate, death rate and natural population growth in Azerbaijan were collected after the occupation of the region by Russia. Economic backwardness, lack of labor-intensive industries, low level of education and other factors affect natural growth indicators [6, p. 94]. The magnitude of the difference in natural growth indicators between rural and urban areas is not large, because the general lifestyle in small towns and villages in the economic region is not much different from that in cities [11, p.28]. The differences between the city and the village are further reduced due to the fact that it takes a lot of time to improve living conditions in villages, increase employment, construction of social and cultural facilities, organization of healthcare, and move from a rural stereotype with many children to an urban stereotype characterized by a small number of children [10, p.31; 5]. The fact that rural settlements, characteristic of the economic region in recent times, have received the status of province, guarantees that demographic processes of the rural type will develop here for many years to come.

Depopulation of the population (decrease in birth and death), which occurred in many European countries in 1991-2000, when the economic crisis prevailed, was also observed in our country in the form of a sharp decrease in absolute and relative indicators of natural growth. In 2000, the lowest birth rates per 1000 inhabitants of the city were in the Upper Karabakh (6.5 people) and Kelbajar-Lachin (10.0 people) economic districts, and the highest - in the Nagorno-Shirvan (16.9 people) and Lenkoran-Astara (19.2 people) economic districts [6, p. 109].

An analysis of the indicators of natural population growth after 2000 shows that there was no significant difference in the indicators of relative natural population growth in rural and urban areas. In 2007, the relative birth rate of the urban population was higher than that of rural areas. On the other hand, relative death rates were higher in urban areas. However, the relative number of deaths has not changed much. Absolute and relative indicators of natural growth in 2000-2020 reached their peak in 2011. Then sharply decreased. In urban areas, a serious increase in the absolute number of deaths was observed. The absolute number of births in 2000-2020 reached its highest level in 2011. In the following years, the absolute number of birth rates increased, but the relative number decreased. From 2000 to 2011, the death of children under 1 year of age in the country and the economic region decreased sharply. An increase was observed from 2011 to 2021. As a result of socio-economic stability that continued after 2000, natural growth was at the highest level in all administrative regions in 2010. High indicators of natural growth were in Sharur and Julfa administrative regions

The high natural growth of 1985-1990 also led to a high birth rate in the 2010s. And the birth rate in 2010 reached the highest level in all administrative districts, later it decreased. Relatively high birth rates after 2010 were observed in Babek and Kengerlinsky districts. The death rate remained almost constant in the administrative districts.

The natural growth in cities was influenced by the population size, the excess share of the rural population, the provision of jobs, the intensity of migration, the gender and age composition of the population. In 2019, the natural increase per thousand people of the urban population of the economic region decreased by 62.4% compared to 2015, and by 74% in the republic (Table 1). The decrease was observed in all administrative districts. The low absolute population in cities, as well as a decrease in the birth rate and an increase in death rate in the economic area also reduce the natural growth of the urban population.

Table 1
Indicators of birth rate, death rate and natural growth of the urban population. Absolute

Administrative regions	1995			2010			2019		
	birth	death	Natural growth	birth	death	Natural growth	birth	death	Natural growth
Nakhchivan city	1152	316	836	1548	368	1180	816	377	439
Sharur region	145	23	122	134	24	110	85	38	47
Babak region	87	105	18	86	16	70	67	32	35
Ordubad region	209	87	122	175	59	116	119	68	51
Julfa region	204	47	157	287	43	244	127	63	64
Kangarli region	-	-	-	140	29	111	85	25	60
Shahbuz region	83	16	67	123	20	103	48	18	30
Sadarak region	143	26	117	43	3	40	27	5	22
Economic region	2041	533	1508	2536	562	1974	1374	626	748
Azerbaijan Rep.	65055	26353	38702	81752	28369	53383	68665	30517	38148


Source: [2, p.169], [12]

In 2019, the share of the economic region accounted for 5% of the birth rate, 4.9% of death rate, 5.1% of natural population growth in the republic. The highest rates of natural growth in 2019 were recorded in the urban population of Nakhchivan (58.7%) and Julfa (8.6%) and Kangarli (8.2%) districts (Table 1). These administrative districts also had the highest birth and death rates.

Since most of the urban population of the economic district is concentrated in the city of Nakhchivan, an absolute maximum of natural growth among the urban population has been observed here for all time. The natural population growth in the city of Nakhchivan decreased from 1995 to 2005, due to the high birth rate in 2010, the natural growth increased 2.9 times compared to 2005. Over the next 8 years, the natural growth in the city of Nakhchivan decreased. The birth rate has decreased and the death rate has increased. In 1995, the natural increase in the urban population of the Julfa and Sharur districts was high. In 2000, a decrease of up to 4 times was observed in the natural increase of the urban population of Ordubad region. Although this indicator increased relatively in the period after 2000, since 2010, the birth rate among the urban population of Ordubad district has decreased, and the death rate has increased, as a result, natural growth has decreased. And in the Julfa district, the highest rate of natural growth was observed in 2010. In subsequent years, there was a decrease. Absolute population size is one of the main factors influencing natural growth. Although in 2000 the urban population of Sharur district experienced a high rate of natural increase, the birth rate and natural increase of the urban population of the region have declined sharply since 2010. The decline in the birth rate, unemployment, migration of the population to foreign countries led to a decrease in natural growth.

In Shahbuz, Kangarli and Sadarak regions, the natural growth of the urban population reached its maximum level in 2010 and has been declining to date. The gender composition of the population is also one of the main factors affecting the birth rate. Inequality in the number of men and women, more active involvement of young men in the migration process causes a delay in the process of creating a family for women and creates conditions for a decrease in the birth rate [10, p.32].

In 2000, the level of natural increase in the Babek region decreased compared to 1995, but Sharur, Babek and Julfa regions took the leading position in terms of birth rate and natural increase (Graphic 1).



Graphic.1. Indicators of birth, death and natural growth of the urban population. For every thousand people, [2, p.168-171], [12]

The highest rates of natural growth were noted among the urban population of Shahbuz, Babek and Kangarli regions. The year 2010 was characterized by a high birth rate and natural increase per thousand people, and a low death rate. 2010 was also the highest rate among the urban population for the period 1995-2019. The urban population of the economic region exceeded the urban population of the republic in terms of birth rate and natural increase. Since 2010, the birth rate and natural population growth have been steadily declining. The urban population of Kangarli and Sadarak regions was characterized by high birth rates and natural growth. In 2019, natural growth and birth rate decreased in all administrative regions. This year, the urban population was also below the birth rate and the natural growth of the country's urban population. In 2019, the natural growth rate per 1000 people of the urban population of the economic district was 1.3 times lower than the natural growth of the urban population of the republic.

Based on the analysis, it can be said that in 2010-2019, the natural grows in the urban population of the republic decreased by 1.59 times, and in the economic region - by 2.98 times. However, the natural increase in the urban population of the Kangarli and Sadarak administrative regions was 1.4-1.3 times higher than the natural increase in the republic (Graphic 1). In 2019, with the exception of the Sadarak region, the birth and death rates were below the national figure. Analysis of indicators of natural increase by sex is also of great scientific importance (Table 2).

Table 2.

Birth rate, death rate and natural growth in the economic region by gender (by the end of the year)

Year	Economic region						Urban region					
	male			female			male			female		
	birth	death	Natural growth	birth	death	Natural growth	birth	death	Natural growth	birth	death	Natural growth
2000	3093	1035	2058	2712	901	1811	717	279	438	653	230	423

2010	5733	1031	4702	4383	1013	3370	1462	290	1172	1074	272	802
2019	2853	1081	1772	2562	999	1563	746	323	423	628	303	325

Source: Nakhchivan State Statistical Committee

In 2020, boys accounted for 52.9% of births in the cities of the Republic and 53.3% of births in the cities of the Economic Region [3]. In administrative regions, these indicators are different among the urban population. Boys are the majority among those born in Shahbuz and Sadarak districts alone in the urban population of administrative districts. And in Sharur and Julfa refions, this difference is very small. The number of boys per thousand people of birth is also superior, with the exception of Sadarak district (Figure 1)






Figure 1. Indicators of birth, death and natural growth by gender distribution of urban population in Nakhchivan economic region, (2020) [1]

Among the urban population of both the economic region and the republic, there are more men per 1000 people among the dead (Fig. 1). There are also more males in administrative regions with a sharp difference in the number of deaths among the urban population. Ensuring gender equality in the country, and to increase the opportunities for single mothers with many children to use preschool educational institutions, in 2020, the Cabinet of Ministers approved the "Measure Plan for 2020-2025 on the prevention of gender selection of children before birth" [4]. From the analysis it becomes clear that the disproportion of natural population growth by gender in the economic area is also inevitable. This is influenced by the presence of stereotypes in people, a new approach to family planning, medical and technological intervention in the birth of children, the provision of a family with a small number of children. This process can create various problems in the labor market and in the social sphere in the future. Taking into account the dynamics of the urban population and natural growth, the dynamics of the urban population over the next 20 years can be presented as follows (Graphic 2.).



Graphic 2.. The perspective of the number of urban population in the Nakhchivan economic region based on natural growth indicators for 2020 (2040), with a thousand people (Nakhchivan SSC)

In 2000, the economic region was inferior only to Sheki-Zagatala, Lankaran-Astara, Guba-Khachmaz and mountainous Shirvan economic regions in terms of relative natural growth of the urban population (graphic 3). However, in 2020, natural growth declined and was only ahead of the Ganja-Gazakh economic region.



Graphic 3. Indicators of birth, death, natural growth of population in economic regions by urban areas (Nakhchivan SSC)

Absolute indicators of natural growth in the economic region also decreased and became less than in all economic regions. The relative birth and death rates in 2020 have also decreased and lagged behind all other economic regions. And in terms of absolute birth rates in 2020, it surpassed only the Kelbajar-Lachin economic district. And in terms of absolute death rates this year, it surpassed the Kelbajar-Lachin and Upper-Shirvan economic districts (Graphic 4).




Diagram 4. Indicators of birth, death, natural growth of the population by urban areas in economic regions [6, p.88-93], [12]

During the period from 1995 to 2019, diseases of the circulatory system occupied the main place among the main causes of death, and the number of deaths from these diseases increased by 1.5 times. Among the urban population of the Republic of Azerbaijan, the number of deaths from new derivatives has increased, and the number of deaths from some infectious and parasitic diseases has decreased. During this period, the number of deaths from digestive diseases decreased 12.5 times, the number of deaths from respiratory diseases decreased 3.3 times, and the number of deaths from neoplasms increased 2.3 times. In general, the number of deaths from all diseases increased by 1.2 times (table 3).

Table 3.

Causes of death among the urban population

Main reasons	Economic region					Azerbaijan Republic		
	1995	2000	2010	2015	2019	1995	2010	2019
Number of deaths from all causes	533	509	562	589	626	26353	28369	30517
Some infectious and parasitic diseases	25	22	5	4	2	1105	558	426
New developments	46	31	90	82	106	2543	3963	5089
Diseases of the circulatory system	266	296	259	315	386	14972	17335	17731
Diseases of the respiratory system	63	47	83	44	19	1879	840	781
Diseases of the digestive system	32	33	40	98	34	1168	1305	1461

Source: [2, p.335]

Since 2000, as a result of political and economic stability, proper organization of health care, the infant death rate has decreased compared to the 90s. In 2019, infant death under the age of 1 year for every 1,000 live births in the economic district was 4.6 times lower than the national level [12].

Conclusion

The analysis shows that the severe economic crisis of the 1990s, migration and unemployment in the Nakhchivan economic region created conditions for reducing the absolute and relative natural growth of the urban population. According to all indicators of natural growth in the economic region, there is a lag in comparison with other economic regions. The birth rate increased relatively from 2000 to 2010, and then declined again, while the death rate remained mostly stable. The difference in rates of natural increase between rural and urban areas has decreased. The gender gap in term of natural growth rates is getting deeper.

The available indicators of natural population growth make it necessary to carry out demographic regulation measures taking into account the strategic importance of the economic and geographical area. If the reproduction of the population is not ensured, a serious problem of labor shortage may arise in the future.

REFERENCES:

1. *Population of Azerbaijan - 2020 (statistical bulletin)*. Baku: Small enterprises No.9. -2021.-p.140. ARDSK.
2. *Demographic indicators of Azerbaijan - 2019 (Statistical Yearbook)*. Baku: - 2020, Small enterprises No.9. p. 529. ARDSK
3. *Demographic indicators of Azerbaijan - 2020 (Statistical Yearbook)* Baku: 2021, Small enterprises No.9. p. 557. ARDSK
4. *Order of the Ministry of Labour and Social Protection of population of the Republic of Azerbaijan*, March 3, 2020
5. Bestuzhev-Lada, I. V. /*Alternative civilization-Moscow*; VLADOS. 1998, p. 105
6. Eminov, Z. N. / *Population of Azerbaijan*. - Baku: - Chirag, -2005, - p. 560
7. *Demographic development problems and settlement of the population in the Lankaran-Astara economic-geographical region // second book within the framework of "state programs on social economic development of Regions"* Baku: European publishing house - 2019.- p. 216
8. Maksakovsky, V. P. / *Geographical picture of the world (general characteristics of the world)* Textbook. Baku: -2010.- p. 490
9. Mammadov, G. / *Human ecology: Anthropecoecology: textbook* / Baku: OKA ofset, 2015, p. 734
10. Pashayev, N. A., Ayyubov, N. H., Eminov, Z. N. / *Economic, social and political geography of the Republic of Azerbaijan*,. Baku: -2010, p. 416
11. Shahbaz, M. / *Dynamics and structure of the population of the Republic of Azerbaijan: main demographic and ethno-demographic changes (1897-2007)* / Baku: - "Elm", - 2008, p. 240
12. <http://www.stat.gov.az/>

**O'ZBEK TILIDAGI MURAKKAB TARKIBLI AYRIM AFFIKSLARNING TABIATI
XUSUSIDA (ravishga nisbat beriladigan affikslar misolida)**

Asadov To'lg'in Hamroyevich,
Buxoro davlat universiteti,
o'zbek tilshunosligi va jurnalistika
kafedrası dotsenti, f.f.n.
thasadov@buxdu.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek tili grammatikasida munozaralarga sabab bo'lib kelayotgan, ko'pincha ravishga nisbat beriladigan, tarkiban va mazmunan murakkab bo'lgan -gacha, -lab -lay/layin, -(i)n/un -chan/chang -day/dek, -namo, -simon kabi murakkab affikslar, bu affikslarning so'z yasashdagi imkoniyati, mazkur affiksli so'zlar struktur-semantik tarkibi atroflicha tadqiq etilgan. Har bir nazariy fikr misollar bilan keng dalillangan va munosabat bildirilgan.

Kalit so'zlar: so'z yasalishi, so'z yasovchi affiks, murakkab tarkibli affiks, affiksning so'zga birika olish darajasi, unumli va unumsiz affiks, murakkab shakl, yasama so'z, yasama so'z ma'nosi, so'z tarkibi.

Аннотация: В этой статье рассмотрены сложные аффиксы -gacha, -lab -lay/layin, -(i)n/un -chan/chang -day/dek, -namo, -simon, вызывающие дискуссии в грамматике узбекского языка, часто относимые к наречию, сложным словам, досконально изучены возможности этих аффиксов в построении предложений, структурно-семантический состав слов с этими аффиксами. Каждое теоретическое положение подробно доказано и прокомментировано посредством примеров.

Ключевые слова: словообразование, словообразовательный аффикс, аффикс сложного содержания, степень сочетания аффикса со словом, продуктивный и непродуктивный аффикс, сложная форма, сложнообразованное слово, значение сложнообразованного слова, структура слова.

Annotation: In this article, complex affixes such as -gacha, -lab, -lay/layin, -(i)n/un, chan/chang, -day/dek, -namo, -simon which are often the cause of controversies in the grammar of the terms of structure and content the possibility of these affixes in word formation and the structural-semantic composition, of word with this affix researched. Each theoretical point is amply demonstrated and reacted with examples.

Key words: word formation, word forming affix, affix with complex content, degree of attachment of the affix to word, productive and unproductive affixes complex form, fictitious word, derivative word meaning, word structure.

Kirish. Manbalarda ravishga xos affiks sifatida baholanadigan bir qator shakllar ham mavjudki, o'zbek tilshunosligida o'ta ziddiyatli talqinga ega. Bunday shakllar bugungi kunda ravish yasash xususiyatini yo'qotgan (arxaiklashgan) yoki o'z davrida ham ravishga yot affiks bo'lgan. Muayyan bir yasama so'zning semantik va sintaktik tabiatiga tayanib (ish-harakat belgisini bildirishi va hol vazifasida kelishi tabiatidan kelib chiqib), ish ko'rish bir qator affikslarning sun'iy tarzda ravish guruhida o'rganilishiga yo'l ochib berdi. Bu qatorga alla- (allamahal, allavaqat), -(i)n (qishin-yozin, ostin-ustun, birin-ketin), -a (shartta, tappa, guppa), bar- (bartaraf, barvaqt, barhayot), be- (beto'xtov, bevosita, bevaj), -vor (umidvor), -gacha/kacha/qacha (uygacha, kechgacha, kuzgacha), day/dek (yashinday, o'g'riday, bahordek), -lay/layin (butunlay – butunlayin, yoshlay – yoshlayin), -ligicha (xomligicha, butunligicha), -lab (ertalab, ko'plab, tonglab), -chang (kovushchang, mahsichan, ko'ylakchang), -namo (uyalgannamo, olimnamo, oliftanamo), -simon (xafasimon, uyalgansimon, hazilsimon) kabi. Mazkur affikslar bilan yuzaga kelgan so'zlarning fe'llar bilan ham birika olish qobiliyatidan kelib chiqib so'z turkumlari bo'yicha tasniflash (bir tomonlama baholash, ya'ni so'zlarni turkumlashda semantik, sintaktik mezonga tayanib ish tutish) fanda ravish bilan bog'liq muammolarning bir qismi bo'lib yuzaga chiqdi. Ravish so'z turkumining chegarasini belgilash masalasida ravish bilan bog'liq to'g'ri tasnif asosi – ravishlarni belgilashda morfologik tamoyil yetakchi qilib olinishi lozimligiga e'tibor qaratilmadi.

Asosiy qism. Tahlilga tortilgan bu kabi affikslarning ravishga munosabati masalasida dastlab quyidagi umumlashma fikrni ilgari surish mumkin:

1) ravishga batamom aloqasi bo'lmagan affikslar: alla-, -a, bar-, be-, -gacha/kacha/qacha, -vor, -day/dek, -namo, -simon, -in/un

2) ma'lum vaqt ravish yasashda ishtirok etib, bugungi kunda unumdorligini yo'qotgan affiksalar: -lab, -lay/layin, -chang, -ligicha

Birinchi tur affikslardan alla-, -a, bar-, be-, -vor shakllarining ravishga aloqasi yo'qligini izohlashga hojat yo'q, nazarimizda. Faqatgina bu tarkibdan -gacha/kacha/qacha, -lab, -layin, -chang, -day/dek, -namo, -simon, -in/un affikslari ravish shakli sifatida nisbatan ko'proq tasnif va tavsif etilgani sababli ayrim fikrlarni aytib o'tishni, alohida kuzatishni ma'qul ko'rdik.

-gacha/kacha/qacha affiksi. -gacha va uning variantlari -kacha, -qacha affiksining ravish yasovchiga nisbat berilishi[11,532] ham mazkur murakkab shaklning o'rin va paytga munosabat bildiradi olishida ko'rinadi.

O'zbek tilshunosligida -gacha affiks bir qancha muhokamalarga sabab bo'lib keldi. Bu affiks bo'yicha quyidagicha qarashlar ilgari surilgan:

- a) ravish yasovchi affiks;
- b) chegara kelishigi shakli[5,33-39].
- c) -ga va -cha (yuklama) affikslar ketma-ketligidagi shakllar[8,39-40].

Tilshunos olim A.Hojiyev maxsus kuzatuvlaridan birida -gacha affiksi haqida aytilgan fikrlarni umumlashtiradi hamda o'z qarashini bayon etadi. A.Hojiyev -gacha affiksining semantik-grammatik tabiatini, u haqidagi fikrlarni olti betda sharhlab, yakuniy xulosani quyidagicha yozadi: "Birinchidan, hozirgi o'zbek tilidagi uygacha, hozirgacha, bolalargacha kabilardagi -gacha affiksi yaxlitligicha bir affiks – chegara ma'nosini ifodalovchi forma yasovchi affiks, shu formaning o'zi esa chegara formasi hisoblanadi. Ikkinchidan, -gacha affiksi yordamida yasaluvchi shakl kategorial forma hisoblanadi va o'z xususiyatiga ko'ra kelishik formalari qatoriga kiradi (chegara kelishigi formasi bo'ladi)[2,48]".

Bir dalil ahamiyatliki, birinchidan, -gacha affiksining ot so'zlarga cheklanmagan miqdorda birikishi (jumladan: tog'chacha, devorgacha, qirgacha, gulgacha va b.) mazkur affiksning so'z yasovchilik xususiyatini inkor etadi. Ikkinchidan, -gacha affiksining "-cha" qismi zamon/makon kelishiklaridan faqatgina -ga jo'nalish kelishigi affiksi bilan birga kela oladi. Bu esa -gacha affiksining allaqachon murakkab shakl bo'lib ulgurganligiga ishora qiladi.

-lab affiksi. Mazkur affiks ham murakkab bo'lib, -la+b (fe'l yasovchi va ravishdosh) shakllarining qo'shilishidan yuzaga kelgan. Lug'atlarda -lab affiksi bilan hosil bo'lgan yuzlab, pachkalab, yondamalab, chakanalab, donalab, tonnalab, haftalab, pag'alab, sekundlab, pudlab, ataylab, oylab, bo'ylab, chelaklab, amallab, yillab, oqshomlab, so'mlab, tiyinlab, vagonlab, havolab, ko'plab, gektarlab, saharlab, sentinerlab, paqirlab, litrlab, navbatlab, egatlab, soatlab, minutlab, obkashlab, qulochkashlab, oyoqlab, seriyalab, uyalab, kabi 40ga yaqin so'z mavjud[7,35].

Ta'kidlash lozimki, -lab affiksli bu kabi so'zlar ravish so'z turkumi tabiatiga mos, ya'ni morfologik o'zgarishligi bilan ravish so'zlar tarkibidan o'rin ola biladi. Qolaversa, -lab affiksi bilan hosil bo'lgan so'zlar qatori bu kabilardan cheklanib qolmaydi. O'zbek tili leksik qatlami rivoji o'laroq nutqimizda etaklab (paxta termog), mashinalab (tashimoq), kamazlab (tuproq tashimoq), samolyotlab (yordam ko'rsatmoq) kabilardan ham qo'llanadi. Bular til rivojining nisbatan keyingi davriga, aniqrog'i, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab qo'llanila boshlandi.

Kuzatishlar ko'rsatadiki, -lab affiks unumli so'z yasovchi hisoblanmaydi. Buning o'ziga yarasha sababi bor, ya'ni -lab affiksining so'z yasashiga keng "sharoit" mavjud emas – "-lab" uchun asos bo'luvchi qism (jumladan: samolyot, vagon, kamaz) har zamonda ham paydo bo'lavermaydi. Bu bilan -lab affiksining rivoji (yashovchanligi) ot so'z turkumiga oid so'zlar bilan bog'liq deb xulosa chiqara olamiz.

-lay/layin, -(i)n/un affikslari. Ishimizning "Ravishlarga xos tarixiy affikslar tadqiqi va rivoji" bandida mazkur affikslarning tarixiy tabiatiga to'xtalib o'tganmiz. Mazkur affikslar bugungi kunda ravish yasashga xizmat qilmayapti. -(i)n affiksi bilan yuzaga kelgan qishin-yozin, birin-ketin va b. so'zlar o'z davrida ham ravish yasovchi affiks bo'lmagan. Qolaversa, bu kabi so'zlar juda oz miqdorda.

Qadimda -lay/layin affikslari bilan ko'plab so'zlar yasalgani va bu affikslar ma'no-mazmuni, vazifasiga ko'ra -day/dek affikslariga mos keliganligi aytiladi[6,169]. Vaqt o'tib bugungi kunda -lay/layin affiksi faoliyatining o'ta chegaralanganligini tilimizda davr bilan bog'li ravishda -day/dek shakli paydo bo'lishi bilan bog'lash mumkin. -day/dek affiksi faoliyatining oshishi, so'zlarga keng miqdorda birika olish imkoniyati -lay/layin affiksi funksiyasini cheklab keldi. Natijada -lay/layin affiksi unumsiz ravish yasovchi affiksga aylandi.

-chan/chang affikslari. Bu shakl bilan hosil bo'lgan so'zlar ham u qadar ko'p emas. O'zbek tili affikslari tasnifi va tavsifiga bag'ishlangan ishlarda -chan hamda -chang shakllarining differensiyasi sust. Mazkur affikslarning qo'llanishida ham sifat yasovchi -li va ot yasovchi -lik affikslarida uchraydigan holat kuzatiladi. Ba'zida ularning qo'llanishida har xillik kuzatilishini izohlash shart bo'lmasa kerak. Manbalarda

chan va -chang affikslari variant shakli sifatida izohlanib ketaveriladi. Hatto yaqin o'n yillardagi tadqiqotlarda ham -chang affiksi -chan affiksining ko'rinishi sifatida beriladi[11,589].

"O'zbek tilining grammatikasi" asarining "kammahsul sifat yasovchilar" bandida -chan affiksi haqida so'z boradi. Manbada yozilishicha, -chan affiksi sifat yasovchi sanalib, asosdan anglashilgan predmet, hodisa tushunchalariga ortiqlik, faollik kabi belgi ma'nolarini beradi. Kitobda aytilishicha, -chan bilan parallel ravishda -chang affiksi ham ishlatiladi: *ko'ngilchan – ko'ngilchang, ishtonchang – ishtonchan, uyatchang – uyatchan, xayolchang – xayolchan* kabi[10,282]. Manbaning "ravish yasalishi" bandida bu qo'shimchaning har ikkala varianti ham o'z sharhiga ega emas.

"O'zbek tili morfem lug'ati"da ham -chan affiksiga izohlanadi. Lug'atning affikslar tabiati haqida nazariy fikrlar bayon etilgan ILOVA qismida *yashovchan, o'ychan, bo'ychan* kabi birinchi guruh so'zlari ham, *ko'ylakchan, maykachan* kabi ikkinchi guruh so'zlari ham -chan affiksi bilan beriladi[12,443].

A.Hojiyevning "O'zbek tili so'z yasalishi" kitobida boshqacha holat kuzatiladi. -chan affiksi sifat yasalishi, -chang affiksi ravish yasalishi bo'limida sharhlanadi. Unga ko'ra, -chan otlarga qo'shib shaxs yoki predmetning yasovchi asosdan anglashilgan ish, harakat-holatga moyillik belgisini, uning yasovchi asosdan anglashilgan ish, harakat-holatni bajarish qobiliyatiga, xususiyatiga ega ekanini bildiruvchi sifatlar[3,68], -chang esa "shaxsning faqat asosdan anglashilgan kiyimda ekanlik" holatini bildiruvchi ravish (kovushchan, mahsichan kabi so'zlar) yasaydi[3,96]. Olim fikriga ko'ra, kiyim-bosh otlaridan -chang affiksi orqali so'z yasash lozim.

Ko'rinadiki, mazkur affikslarning yagona shakli haqida bir to'xtamga kelinmagan. Bu esa ayrim tushunmovchiliklarga sabab bo'lmoqda.

Amaldagi "O'zbek tilining izohli lug'ati" tahlili ko'rsatdiki, kiyim-bosh otlari (*ishtonchang* so'zi bundan mustasno) -chan affiksi orqali (mahsichan, ko'ylakchan, maykachan, yaktakchan, sarpoychan) berilgan.

"O'zbek tilining izohli lug'ati" ning 5-jildi so'ngida – "So'z yasovchi va shakl yasovchi qo'shimchalarning izohli illyustrativ ko'rsatkichi" qismida ham -chan affiksining grammatik tabiati, so'z yasashdagi ma'no-ifodasi izohlanganligiga guvoh bo'lamiz, -chang affiksi manbada "-chan" ning varianti sifatida qaralgan[11,589].

Mazkur shakllar haqidagi fikr xulosasi sifatida quyidagilarni aytish mumkin:

a) -chan va -chang affikslari shakliy belgisi haqida yagona xulosaga kelish fan oldidagi vazifalardan biri sanaladi;

b) -chang affiksining yuzaga kelishi -chan shakli orqali bog'liq bo'lib, ot oldi va fe'l oldi so'zlarni shartli farqlash hamda ifodada ma'no kuchaytirish maqsadi bilan (uslubiyat talabiga ko'ra) paydo bo'lgan;

c) har ikkala shakl ham belgi ifodasi uchun qo'llanadi, shuning uchun ularni bir umumiy shakl – "chan" shaklida sifat turkumida yasovchi affiks tarzida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

-day/dek affiksi. Bu grammatik shakllar ham munozarali talqinga ega. Ko'pgina darslik va qo'llanmalarda mazkur affiks ravish yasovchi sifatida talqin etiladi. "O'zbek tili grammatikasi" asarida "ot, sifat, olmosh va boshqa turkumdagi so'zlarga qo'shib, ravish yasashi, bunda ma'no jihatdan taqlid va o'xshatish ma'nosini ifoda etishi (askarday, yashinday, burgutdek, chirmovuqday), -day/dek affiksining fonetik varianti sifatida -oq, -dog', -dak, -daka, -daqa, -dayin, -aqa (shundoq, mundog', sizdaka, shundaqa, qushdayin, unaqa, bunaqa) kabilar ham qo'llanishi aytiladi [10,531]. Mazkur manbaning "morfologik usul"da sifat yasalishi bandida -day/dek affiksining sifat yasashi haqida ham so'z boradi[10,279]. Ba'zi manbalarda -day/dek affiksining otga xos shakl ekanligi ham keng izohlanadi.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"ning qo'shimchalar tavsifiga bag'ishlangan qismida ham -day/dek affiksining ham sifat, ham ravish yasay olishi bayon etiladi [11,577]. Kuzatishlar -day/dek affiksining so'z turkumlariga munosabatida yagona fikr mavjud emasligini ko'rsatib turadi. Ko'pgina til hodisalarida uchragani kabi mazkur affiks izohida ham zo'rma-zo'rakilik kuzatiladi. Aslida -day/dek affiksining ham ot oldi, ham fe'l oldi belgi semali so'zlar hosil qila olish imkoniyati (Jumladan: *bahordek ob-havo, boladay qariya; devday ishlamoq, vatanparvarlardek jang qilmoq*) mazkur shaklni sifat va ravish tarkibiga o'rganilishiga sabab bo'lgan.

Yaqin o'n yillarda yaratilgan tadqiqotlarda shu kabi ziddiyatlarning oldini olish, bu shakl haqida bir yechimga kelish maqsadida -day/dek affiksiga ko'makchi affiks deb qarash ommalashmoqda. Ko'p munozaralarga sabab bo'lgan -day/dek affiksi qo'shimchasimon ko'makchi tarzida izohlanmoqda[9,261].

-day/dek affiksi bir qator so'z va affikslar bilan sinonimlikka kirisha oladi. Masalan:

a) -day/dek – kabi, singari, yang'lig', misoli, ko'makchilari; b) -day/dek – go'yo, go'yoki, xuddi, naq, yuklamalari; d) -day/dek – -larcha ravish yasovchi affiksi; e) -day/dek – -cha ravish yasovchi affiksi; f) -

day/dek – -chasiga ravish yasovchi affiksi; g) -day/dek – -ona ravish yasovchi affiksi; h) -day/dek – -namo sifat yasovchi affiksi; i) -day/dek – -simon ravish yasovchi affiksi.

Misollarni kuzatamiz: *osmonday – osmon kabi, bahorday – go'yo bahor, yigitlardek – yigitlarcha, otaday – otalarcha, arslonday – arslonchasiga, mardlarday – mardona, hazillashganday – hazillashgannamo, uyalganday – uyalgansimon* kabi.

Umuman, -day/dek shakllari “affiks ko'makchi” tarzida baholanib, umumiy xulosaga kelinishi bir-biriga zid ko'pgina fikrlarning bartaraf etilishiga ham yordam beradi. Qolaversa, mazkur affiksning tabiati so'z yasovchi bo'la olmasligini ham ko'rsatadi. Buning dalili sifatida quyidagilarni aytish mumkin: a) -day/dek har qanday so'zga – ot va qisman sifat, sifatdosh, harakat nomiga birdek qo'shilib ketaveradi: *onalarday, gulday, Amudaryoday, o'quvchiday, tuyg'uday, yaxshiday, yomonday, o'qiganday, borishday* va h.k. b) -day/dek ba'zi paytlarda belgisiz ham qo'llana oladi: 1. Tosh qotirgan yo'llarni ayoq. 2. Oy borib omon kel. Shu kabi dalillarning o'ziyoq mazkur affiksning so'z yasovchilik tabiatini rad etadi.

-day/dek affiksi ayrim so'zlar tarkibida, xususan, ravishlar tarkibida yaxlitlanib qolgan holda uchraydi. Bu affiksning so'zga yaxlitlanib, bir butun holga kelishi (soddalanishi)da ikki holat kuzatiladi:

a) tublashgan so'zlar: *jinday, jo'jabirday, qittay, arziguday, aytganday, o'lguday, davongirday*;

b) tublashayotgan so'zlar: *shunday, bunday, unday, o'shanday*.

-namo, -simon affikslari. Har ikkala affiks ham o'zlashma sanaladi. -namo fors-tojik tilidan o'zlashgan bo'lib, “tashqi ko'rinish, qiyofa; ko'rsatuvchi, namoyon qiluvchi” kabi ma'no ifodasiga ega [11,586]. -simon affiksi esa asosan otlarga qo'shilib, “shu asosga o'xshash” ma'nosidagi xususiyat, shakl bildiruvchi so'z yasaydi [11,588].

Manbalarda -namo, -simon affikslari ham sifat [10,284], ham ravish yasovchi [10,532] shakl sifatida qaraladi.

“O'zbek tili so'z yasaliishi” kitobida -namo va -simon affikslariga faqat sifat yasovchi deb qaralganligiga guvoh bo'lamiz. A.Hojiyev -namo affiksini shunday ta'riflaydi: “Bu affiks [-namo] yordamida yasalgan oz miqdordagi sifatlar shaxsning asosdan anglashilgan narsa-xususiyat belgisiga egaligini bildiradi [3,75]”. Manbada -simon affiksi haqida quyidagicha fikr bildiriladi: “-simon predmetning yasovchi asosdan anglashilgan narsaga o'xshashligini, shu jihatdan bo'lgan belgisini bildiradi; odamsimon, kumushsimon, sharsimon, gazsimon, qalqonsimon, va b. kabi., bu affiks o'z funksiyasini to'xtatgan emas. Ko'rib o'tilgan ma'noli sifat yasash talabi tug'lsa, -simon affiksi yordamida shunday so'z yasash mumkin bo'ladi [3,69].”.

-simon affiksi narsa-buyumlarga qo'shilib yangi so'z hosil qila olishi tufayli mazkur affiksning imkoniyati -namo affiksiga nisbatan kengroq. Shu bilan birga, -simon va -namo affikslari ko'pgina so'zlarda o'zaro sinonim ham bo'loladi; *maymunsimon*–*maymunnamo*, *ayolsimon*– *ayolnamo*, *kumushsimon* – *kumushnamo* va h.k. -simon affiksi ko'pincha tashqi ko'rinishga, -namo affiksi esa kishining holati, xususiyatiga o'xshashlikni bildiradi.

Keyingi davr tilshunosligi kuzatuvlari asosida yozilgan manbalarda -namo, -simon affikslari bilan hosil bo'lgan so'zlar muayyan bir so'z yasash qolipi hosilalari bo'la olishi aytiladi. Oliy ta'lim talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan “Hozirgi o'zbek adabiy tili” kitobida mazkur affikslar bilan bog'liq so'z yasash qoliplari sifatida “sifat+namo= biror shaxsning asos bildirgan xarakter-xususiyat belgisiga ega ekanligini bildiruvchi sifat” hamda “ot+simon=asosdan anglashilgan narsaga o'xshashlik belgisini bildiruvchi sifat” tarzida izoh beriladi [9,233].

-simon affiksi orqali belgi ifodalovchi so'zlarning paydo bo'lishi birmuncha faol. -simon affiksi ko'plab nutqiy yasama so'zlarni vujudga keltira oladi: *qutisimon, arrasimon, qovurg'asimon, halqasimon, g'altaksimon, ombursimon, trubasimon, sharsimon, butasimon, egarsimon* va h.k.. Mazkur affiks ayrim fan terminlarini yuzaga keltirishda ham faol affiks sanaladi [4,145]. -simon affiksi bugungi kun badiiy parchalarda ham nisbatan faol qo'llanganligiga [1,38] guvoh bo'lamiz: *Unutildi o'tgan ishqsimon/ Daraxtlarning yupun barglari.* (Z.Mirzo)

O'zbek tili so'z yasaliishida -simon, -namo affikslariga nisbatan “ravish yasovchi affiks” qabilidagi fikrlarning kuzatilishiga sabab shundaki, mazkur affikslar bilan yasalgan so'zlar ba'zida ish-harakat belgisini bildirib, hol vazifasida kela oladi: *maymunnamo harakat qilmoq, pahlavonnamo kurashmoq* kabi. Shu tufayli bu shakllar ravish yasovchi affiks tarzida baholangan.

Xulosa. Xullas, ravish so'z turkumining ziddiyatli talqini ayrim affikslarning asossiz ravishda, sun'iy tarzda mazkur so'z turkumiga “tirkalishi” bilan ham bog'liq. Bunga sabab bu affikslar hosil qilgan so'zlarning ma'no-vazifasiga ko'ra ravishlarga teng kelishidir. Payt, o'rin, holat, miqdor ma'no ifodali har qanday so'zni nutq sharoitida hol bo'lak vazifasida kelishiga ko'ra (sintaktik tabiatiga ko'ra) baho berish ushbu so'z turkumini sun'iy ravishda kengaytirib yubordi. Vaholanki, ravish semantik, sintaktik jihatdan

boshqa mustaqil so'zlarga teng kelsa-da, morfologik o'zgarmasligi, darajalanmasligi bilan alohidalik kasb etadi.

ADABIYOTLAR:

1. Asadov T., Mardonova S. *O'zbek tilida faol so'z yasalihi va muallif neologizmlari. Monografiya.* GlobeEdit. 2021.
2. Хожиев А. *Хозирги ўзбек тилида форма ясалиши.* – Т.: Ўқитувчи, 1979.
3. Хожиев А. *Ўзбек тили сўз ясалиши.* – Т.: Ўқитувчи, 1989.
4. Хожиев А. *Ўзбек тили сўз ясалиши тизими.* – Т.: Ўқитувчи, 2007.
5. Негматов Х. *Чегара келишиги. Ўзбек тили ва адабиёти журнали.* 4-сон. 1971. 33-39-б.
6. Нигматов Х. *Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв.* – Т.: Фан, 1989.
7. Қўнғуров У., Тихонов А. *Ўзбек тилининг терс лугати.* – С., 1968.
8. Раҳматуллаев Ш. *От лексемага қўшиладиган баъзи форма ясовчилар. Ўзбек тили ва адабиёти журнали.* 2-сон. 1975. 39-40-б.
9. Sayfullayeva R. va b. *Hozirgi o'zbek adabiy tili.* – Т.: Fan va texnologiyalar. 2010.
10. *Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология.* – Т.: Фан, 1975.
11. *Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5-жилд.* – Т.: Ўз.мил.энц., 2008.
12. Фуломов А. ва б. *Ўзбек тили морфем лугати.* – Т.: Ўқитувчи, 1977.

MIYON BUZRUKNING ADABIY TIL, ISTILOH MASALALARIGA
MUNOSABATI

Azimov Inomjon Mamasodiqovich,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
f.f.n., dotsent
inomjon66@mail.ru

Annotatsiya: O‘tgan asrning boshlarida Qrimda boshlangan jadidchilik harakati O‘zbekistonga ham yoyiladi. Qrim-tatar ziyolilarining ilg‘or fikrlari ta‘sirida o‘zlarining nomlarini tarix sahifalariga yozgan millat qahramonlari yetishib chiqdi. Yevropa, Tatariston, Turkiya davlatlarida bo‘lib, u yerdagi fan-texnika taraqqiyoti, iqtisodiy-madaniy rivojlanishlarni ko‘rib, shunday jamiyat qurishni orzu qildilar. Buning birinchi omili xalqni ma‘rifatli qilish ekanini tushunib yetdilar. Ular millatni savodli qilish uchun ta‘limni isloh qilish, yangi usuldagi maktablar ochish, tez va oson ta‘lim olishga to‘siq bo‘layotgan alifboni isloh qilish, milliy imlo qoidalarini ishlab chiqish tashabbusi bilan chiqdilar. Alifbo-imlo bo‘yicha munozaralar maydoni matbuot edi. Jadidlar o‘z fikrlari, takliflarini matbuot orqali, vaqti-vaqti bilan bo‘ladigan yig‘ilishlarda bayon qildilar. Shu tariqa alifbo isloh qilindi, milliy orfografiyaning yaratilishiga asos solindi.

Maqolada millatning ilg‘or ma‘rifatparvarlaridan biri Miyon Buzrukning alifbo-imlo bo‘yicha qarashlari, mulohazalari bayon qilinadi. Uning adabiy til masalasi, tilga o‘zlashgan o‘zlashma so‘zlarga munosabati, so‘z o‘zlashtirish tamoyillari bo‘yicha fikrlari, ayniqsa, qimmatlidir.

Kalit so‘zlar: jadid, ma‘rifat, adabiy til, jonli til, istiloh, o‘zlashma so‘zlar, arabcha so‘zlar, forsha so‘zlar, sheva, qo‘shimcha, so‘z shakli, matbuot.

Аннотация. Джадидское движение, начавшееся в Крыму в начале прошлого века, распространилось и в Узбекистане. Под влиянием прогрессивных взглядов крымско-татарской интеллигенции выросли герои нации, вписавшие свои имена в страницы истории. Побывав в странах Европы, Татарстане, Турции и увидев там научно-технический прогресс, развитие экономики и культуры, они мечтали построить такое общество. Они поняли, что первым фактором в этом было просвещение людей. Чтобы сделать нацию грамотной, они выступили с инициативой реформирования образования, открытия новых методических школ, реформирования алфавита, который препятствовал быстрому и лёгкому обучению, и разработки национальных правил правописания. Полем для обсуждения алфавита и орфографии была пресса. Джадиды высказывали свои мнения, предложения через печать и на случайных встречах. Таким образом, алфавит был реформирован, заложив основу для создания национальной орфографии.

В статье изложены взгляды и суждения одного из ведущих просветителей нации Миёна Бузрука об алфавите и правописании. Особенно ценны его взгляды на вопрос о литературном языке, его отношении к просторечию и принципам словозаимствования.

Ключевые слова: джадид, просветительство, литературный язык, разговорный язык, термин, заимствования, арабские слова, персидские слова, диалект, суффикс, словоформа, печать.

Abstract: The Jadid movement, which began in the Crimea at the beginning of the last century, also spreads to Uzbekistan. Influenced by the progressive opinions of the Crimean-tatar intellectuals, the heroes of the nation grew up who wrote their names on the pages of history. Having visited the countries of Europe, Tatarstan, Turkey and seeing scientific and technical progress, economic and cultural developments there, they dreamed of building such a society. They realized that the first factor in this was to enlighten the people. In order to make the nation literate, they took the initiative of reforming education, opening new method schools, reforming the alphabet, which is an obstacle to quick and easy education, and developing national spelling rules. The field for the discussion on alphabet and spelling was the press. The jadids expressed their opinions, suggestions through the press and at occasional meetings. The alphabet was thus reformed, laying the foundation for the creation of national orthography.

The article describes the views and opinions of Miyon Buzruk, one of the leading enlighteners of the nation, on alphabet and spelling. Particularly valuable is his views on the issue of literary language, his attitude to loanwords, and principles of word borrowing.

Keywords: *jadid, enlightenment, literary language, colloquial language, term, loanwords, Arabic words, Persian words, dialect, suffix, word form, press.*

Kirish. O'tgan asrning boshlarida milliy tilimiz takomili, rivoji uchun kurashga bel bog'lagan millat fidoyilari – jadidlar shunday buyuk ishlarni amalga oshirib ketdilariki, buning samarasi o'laroq, ularga “millat qahramonlari”, “millat fidoiylari” kabi e'tiroflar berildi. Ularning mislsiz sa'y-harakatlari natijasida milliy o'zbek matbuoti yo'lga qo'yildi, yangi usuldagi maktablar ochilib, ular uchun darslik, o'quv qo'llanmalari yozilib, nashr etila boshlandi, til va adabiyotimiz muammolariga bag'ishlangan ilmiy asarlar, lug'atlar keng kitobxonlar ommasi e'tiboriga havola qilindi.

Jadidlar taraqqiyotga erishishning bosh yo'li ma'rifat ekanini his qilganlari holda, birinchi navbatda, yangi tipdagi maktablar ochish, zamonaviy oliy maktablar tashkil etish, dunyo yangiliklarini xalq o'rtasida keng targ'ib qilish, kishilarni uyqudan uyg'otish uchun matbuotni rivojlantirish; taraqqiyotimizga to'siq bo'layotgan illatlarni fosh qilish uchun teatr san'atini barpo etish, iqtidorli yoshlarni Ovruponing eng ilg'or oliy o'quv yurtlariga o'qishga yuborish orqali milliy ongni shakllantirish, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini singdirishga urindilar [1; b.331]. Afsuski, sobiq sho'rolar tuzumi davrida ularga “xalq dushmani” tamg'asining bosilishi, faoliyati, ilmiy merosining o'rganilishi ta'qiqlanishi natijasida bu davr tilshunosligi istiqlolgacha o'rganilmay kelindi.

Istiqloldan so'ng jadidlar faoliyatini o'rganishga alohida e'tibor qaratildi. Lekin o'sha davrda juda ko'plab taniqli jadid ziyolilari milliy o'zbek adabiy tilini, yaratish, alifboni takomillashtirish bo'yicha jiddiy faoliyat olib borgan bo'lsa-da, hozirgacha ulardan sanoqlilarining faoliyati, ilmiy merosi tadqiq qilindi. Jumladan, M.Qurbonova va Y.Sayidovlar tomonidan Fitratning tilshunoslik merosi, adib asarlarining leksikasi tadqiq qilingan bo'lsa [2; 3], M.Yo'ldoshev va D.Ne'matova Cho'lpon [4; 5], Sh.Bobomurodova Elbek [6], T.Tog'ayev Ashurali Zohiriy [7], A.Boboniyozov, Z.Choriyeva, L.Djalolovalar Abdulla Qodiriy [8; 9; 10], S.Normamatov Abdulla Avloniy [11]ning ijodiy merosi, ilmiy faoliyatini tahlil qilganlar.

Mana shunday millat oydinlaridan biri bo'lgan Miyon Buzrukning milliy adabiy til, istiloh, o'zbek tilida singarmonizm masalasi bo'yicha ilmiy qarashlari haligacha o'rganilmagan. To'g'ri, uning hayoti, ijodiy faoliyati haqidagi umumiy ma'lumotlar bor [12; 13], lekin monografik planda ilmiy tahlilga tortilmagan.

Tadqiqot obyekti va metodlari. Tadqiqot obyekti olimning O'zbekiston milliy arxivida saqlanayotgan “Sharq haqiqati” gazetasida e'lon qilingan adabiy til, imlo masalasi haqidagi maqolasi tashkil etadi. Tadqiqot mavzusini yoritishda analiz, sintez, tavsiflash, tasniflash, qiyosiy-tarixiy, sintaktik-semantik, uslubiy-vazifaviy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Miyon Buzrukning adabiy til, milliy istiloh (atama)lar yaratish bo'yicha qarashlarini o'rganish, fikrlarini umumlashtirish o'zbek tili tarixining o'rganilmagan qismlarini to'ldirish imkonini beradi.

Ma'lumki, o'zbek xalqi hayotida XVI asrdan boshlangan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy, iqtisodiy inqiroz va turg'unlik XIX asr oxirlariga kelib yana ham avj pardasiga ko'tarildi. Ijtimoiy hayotning barcha sohalaridagi inqiroz tilga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. XX asr boshlarida o'zbek til hali zamonaviy muloqot talablarini to'la qondira oladigan darajada rivojlanib ulgurmagani, forsiy hali ham ta'lim tili sifatida o'z mavqeyini yo'qotmagan edi. Bu ijtimoiy hodisa davrning ilg'or ziyolilarini, xususan, jadid harakati namoyandalarini katta tashvishga soldi. Chunki ular millatni shakllantirish uchun til birligi va yagona adabiy til bo'lishi lozimligini teran anglab yetgan edilar. Shuning uchun ular o'zbek tilini inqiroz va turg'unlikdan olib chiqish, yangi o'zbek adabiy tilini shakllantirish va uning manbalarini izlab topishga harakat qilishdi [3; b.29-30]. Lekin o'zbek tilini adabiy til darajasiga ko'tarish, uni adabiyot tiliga aylantirish o'sha davr uchun amalga oshishi qiyin bo'lgan vazifalardan edi. Chunki badiiy adabiyotda fors tili, ilmiy adabiyotda arab tili an'analari davom etayotgan, o'zbek tili “avom tili”, uni yuqori til maqomiga chiqarishga shubha bilan qarash avj olgan davrda bu xususda fikr yuritish qorong'i tunda igna qidirish bilan barobar edi. Ikkinchidan, bu davrda adabiyotda usmonlicha turk tiliga ergashish ham kuchli edi. Bu haqda Vadud Mahmud shunday yozadi: “O'zbekning chig'atay shairlarining sheva ayirmalqlariga kelsak, ikki sheva hukm surganini ko'ramiz. Biri sharq turklari yoki chig'atay shevasidirkim, bizda asasiy sheva shudir va Navayilar, Babirlar, Fazliylar shu sheva bilan yozg'andirlar. Bashqasi g'arb turklari yoki Turkiya shevasidirkim, bu mashhur lirik shair Fuzuliy arqali bizda tarqalg'andir. Ko'b shairlar buning arqasidan barg'anlar. Bu ikki shevaning birinchisi o'zimizniki bo'lg'ani e'tibari bilan, ikkinchisi suyilib o'qilg'ani bilan bizga yat emasdir” [14; b.115].

Bunday holatni nafaqat adabiyotda, balki matbuot, ilmiy adabiyotda ham kuzatish mumkin: “Alarni ushbu g'arazkarana ishlari millata manfaat yerina mazarrat, ittihad yerina iftiraq, basharat yerina ya's

vermaqdin maada aqlan bir tiyinlik o'lsun fayda yetkura almas. Binaan alayhi daimo andisha ila so'ylayur, atrafli mulahazalar ila ish ko'riyur, yana takrar aytaman, gazetalarda bo'sh so'zlar ko'riliyur" [15].

"...sayahat etdugum vaqtlarida Afg'anistan, Hindistan va Farangistan shaharlari sayahatida...bir lisan safar ahlina yuz altun barabarida ishladi, biza mushahada bo'lib, lisanlar tahsiliga ko'shish edub va ham dahr ahlina bir nishan qaldirmak fikri-la bir necha muddati madid bu kitob tadvinina justiju edub, bo'yla bir kitob suratinda xalqga namudar etdim va ham alti lisandan murakkab o'ldig'i uchun, "Lug'ati sittati alsina" tasmiya edub, ikki jild ila tartib etdum" [16; b.12].

Uchinchidan, Fitrat ta'kidlaganidek, matbuot tilida tatarcha til elementlari ko'p aralashgan edi. Shuning uchun ham turli til elementlari aralashib ketgan o'zbek tilini adabiy til darajasiga ko'tarishga asosiy ziyoli qatlam ishonmas edi. Ularning fikrlarini Fitrat quyidagicha ifodalaydi:

"1) biz turkchani admi bir tilda yazarg'a tirishamiz, shuning uchun turkchadan admi so'zlarni chiqarmasga teyish;

2) turkchaga kirib qalg'an arabcha, farsi(y)chaning turkchalari yo'qdur;

3) ilmiy istilahlarning turkchalari yo'qdur;

4) ilmiy istilahlarni turklashdirmak uchun tirishmak vaqtimizni bo'shg'a o'tkargan bo'lamiz;

5) chig'atay tilida bilim o'qumaqchi esak, ikki yuz yil kutib turayliq;

6) arabcha ilmiy-adabiy bir tildir: arabcha ilmiy istilahlarni o'zgartmak to'g'ri emas, biz bilim bitiklarimiz (ilmiy kitoblarimiz)dan ilmiy so'zlarni chiqarib, arabachilar so'zini kirguza almaymiz" [17; b.129].

Shuni qayd etish lozimki, adabiy til, istiloh masalasida jadidlar o'rtasida turli qarashlar mavjud edi. Fitrat boshchiligidagi "Chig'atoy gurungi" adabiy tildagi barcha yot so'zlarni chiqarib tashlash, uning o'rniga o'z tilimizdan istilohlar yasash tashabbusi bilan chiqqan bo'lsalar, Ashurali Zohiriy, Munavvar qori, Behbudiy, Hoji Muin kabi ziyolilar bu fikrga qarshi chiqadilar. Mana shunday jarayonlarda, munozaralarda Miyon Buzruk ham faol qatnashadi, bu bo'yicha o'z fikrlarini bildiradi. Quyida shu xususda so'z yuritiladi.

U "Sharq haqiqati" gazetasida "Adabiy til va istiloh" nomli katta maqola e'lon qiladi [18]. Maqolada adabiy tilni tuzishdagi asoslar, qoida tuzishda tilda juda katta qismni tashkil etgan arab va fors so'zlarga munosabat, yangi kirib kelayotgan so'zlarni qanday olinishi masalalari tahlil qilingan.

Uning fikricha, yangi adabiy tilning bosh asosi adabiy til bilan xalq so'zlashuv tilini bir-biriga yaqinlashtirish kerak. Bu asosni qabul qilish bilan usulsiz va sistemasiz tusda amalga osha borgan ahvolni tasdiq va uning bir maqsad bo'lganini iqrar qilgan bo'lamiz deydi. Bunday taklifni Ashurali Zohiriy ham aytib o'tgan: "Bizdan madaniyrak xalqlarning til va adabiyati – xalq tili va adabiyati asosiga qurilgan va meva bergan. Bir zamanda, yangi madaniyat qurmaqqa boshlag'an bizlar uchun adabiy til asasi mutlaqa janli til (xalq adabiyati) bo'lishi kerak" [19]. Adabiy tilni xalq tiliga yaqinlashtirishda ikki nuqtaga alohida e'tiborga olish zarurligi aytiladi. Birinchidan, o'zbek tiliga kirib qolgan arabcha, forsha so'zlarni milliy qoidaga qanday moslashtirish, ikinchidan, yangi kirib kelayotgan so'zlarni qanday shaklda olish.

Miyon Buzruk adabiy tildan arab va fors so'zlarini chiqarish bo'yicha "Chig'atoy gurungi" ning fikrlariga qisman qo'shiladi, ular aytganidek, so'zlarni yoppasiga chiqarib tashlash yangilish fikr ekanligini aytadi. Uning fikricha, adabiy tilni xalq tiliga yaqinlashtirmoq uchun, albatta, eski adabiy tilni soddalashtirish va omma – xalqning qulog'idan va zehnidan uzoq bo'lgan ko'p arabcha va forsha so'zlarni tildan chiqarish kerak bo'ladi. Tilni soddalashtirganimizda uning o'z xususiyatlari, tarixiy oqimi va so'zni olgan shaklini ko'zda tutish, albatta, lozim bo'ladi. Bu nuqtalardan qaraganda, o'zbek tilining arabcha va forsha so'zlardan tamom qutila olmasligi ko'riladi. Arabcha va forsha so'zlardan tozalash ma'lum bir darajada qilishdan boshqa chora qolmaydi, chunki arabcha va forshadan o'zbekning yolg'iz adabiy tili emas, balki ilmiy tili ham anchagina ta'sirlanib qolgan. Bu jihatdan "Gurung" tashkilotchilarining harakatlari foydasiz ekani, arab va fors so'zlari o'zbek tili ichki qatlamiga naqadar chuqur singib ketgani, ularni butunlay chiqarib tashlash bilan muammo hal bo'lmasligini o'zlari ham tushunib yetganini, shuning uchun bu fikrdan qaytganini, Miyon Buzruk kabi ziyolilar haq ekanini keyingi tajribalar ko'rsatdi.

O'zlashma so'zlar masalasini hatto davr mafkurasi bilan bog'lashga ham harakatlar bo'ldi: "Tuzuk, dunyada boshqa tillardan so'z almag'an bir til yo'q, har xalqning tilida ham boshqa xalqlardan o'tkan va o'zlashib ketgan so'zlar ko'p. Zatan satsial ekanamik va siyosiy munasabatlar arqasida bir xalq ikkinchi xalqdan so'z aladi va o'z tilini bayitadi. Faqat bu ahval har vaqt sinfiy mahiyatda bo'lg'ani uchun o'zbek fiadalizmining adabiy tili fars, arab fiadal saraylaridagi tillardan so'z aldi; arab, fors fiadal saraylarida hukm surg'an diniy, mistik hamda saray kayfu safalari lug'at va terminlar hisobidan o'zini bayitib keldi" [20; b.298].

Ma'lumki, o'zlashma so'zlarning kirib kelishi, uning tilga singishi, qo'llanilishida jonli xalq tili bilan adabiy til o'rtasida jiddiy farq bor. Adabiy tilga o'zlashgan so'zlar o'sha tilning qonuniyatlariga bo'ysunadi,

ayniqsa, arab va fors tiliga xos bo'lgan o'zlashmalar yozilishi va talaffuzi o'zgarmagan holda qo'llanilishda bo'lgan bo'lsa, so'zlashuv tilida hech qanday qonun-qoidalarsiz, xalq talaffuziga mos ravishda qo'llanilib ketavergan.

Olim ayni shu farqlarga ham alohida to'xtalib o'tadi: "Xalq tilining ta'sirlanishi bilan adabiy tilning ta'sirlanishi arasida asosli farq bar: adabiy til arabcha va farscha so'zlarni o'z talaffuzi, o'z ma'nasi va o'z qaidalari bilan ishlata bergan. Ularda hech bir turli o'zgarish yasalmag'an. So'ngra ko'b so'zlarni ehtiyaj uchun emas, balki arabcha va forschaning ta'siriga berilish bilan ularga muhabbat saqlamaq bilan alg'an. Ammaning tili bo'lsa, arabcha va farschadan alg'an so'zlarni asl shevaga singitib yubarg'an. Aling'an so'zlardan ko'blarining qarshiliqlari unutilib ketgan. *Hazir, xabar, tark, qaida, maslahat, para, shakar* kabi" [18].

Miyon Buzruk to'g'ri ta'kidlaganidek, adabiy tildan farqli ravishda omma tili ko'p so'zlarni o'z ma'nalaridan boshqa ma'nolarda ham ishlata beradi. Masalan, *avqot, kasal, maraz, jahl, pora* kabi so'zlar shunday so'zlardandir, chunki *avqot* arabchada *vaqtning* ko'plik shaklidir. *Kasal* arabchada *yalqovlik*, o'zbekchada *xastalik*dir. *Maraz* arabchada mutlaq *xastalik*, o'zbekchada tuzalishi qiyin bo'lgan bir narsadir. *Pora* forschada *bo'lak*dir, o'zbekchada *rishvat*. Shu bilan birga, xalq jonli tilida arabcha va forschaga xos bo'lgan harflar bilan yozilgan har bir so'zning talaffuzi buzib talaffuz qilinadi.

Yuqoridagi fikrlar asosida xalq tili arabcha va forschadan ta'sirlangan bo'lsa-da, o'z istiqbolini qo'ldan bermagan, boshqa tillardan olingan so'zlarni tamsil qilib, o'ziniki qilib olgan, zotan turkiy tillarning omma qismining tamsili hissasi quvvatli bo'lgan degan xulosaga keladi. Shuning uchun o'zbek tilidan arabcha va forsha so'zlarni chiqarib tashlashda xalq tomonidan o'zlashtirilib, faol qo'llanilayotgan so'zlarga tegmaslikni, ularni chiqarishda quyidagi asoslarni nazarda tutish lozimligini aytadi:

1. O'zbekchada muqobili bo'lgan hamda o'zbek xalq jonli tiliga singmagan arabcha-forscha so'zlar chiqarib tashlash. Bu asosga binoan *nusrat, fatx, nasiya, muboriz, mastur, fosh, xurram, paymon, pinhon* kabi so'zlar tamom chiqarilur.

2. O'zbekchada muqobili bo'lgan va bir daraja shevaga o'rnashgan so'zlarning ham o'zbekchalari saqlanib, arabcha va forschalari tark qilinur. Bunga ko'ra *amr, said, shabnam, shoda, sahro, g'alaba, harb* so'zlari ham iste'moldan chiqarilishi kerak, chunki bularning o'zbekchada topilgan muqobillari bor.

3. Arabcha-forscha so'zlarning o'zbekchadagi muqobillari o'zlari qadar ma'lum bo'lmasa-da, ularni shevada saqlamaq kerak. Shu munosabat bilan *pehshana, hayron, nadomat, parishon, shirin, xotir* kabi so'zlarni ishlatish kerak bo'ladi, chunki ularning muqobillari bo'lgan *manglay, o'kunmak, chuchuk, ko'ngil* (*xotir ma'nosida bo'lg'onda*) kabi so'zlarga ko'ra ularni ishlatmak shevaga qulaylik beradi. Asosan bunday nuqtalardan so'zlashda qay birining yengil bo'lishi ko'zda tutiladi.

4. O'zbekcha muqobili bo'lmagan yoki bo'lsa-da, unutilib ketgan arabcha va forsha so'zlarni, albatta, saqlash kerak. Bunga ko'ra *qoida, mol, halak, qasd, say, tark, insof, xabar, ma'no, hamisha, doim, g'am, hasrat, ishrat, nasihat, dunyo, hozir* kabi so'zlarni chiqarib tashlash to'g'ri bo'lmaydi.

5. Xalq tilining buzib o'z ma'nosidan boshqa ma'nolarda ishlatib yuborgan *avqot, pora, kasal* kabi so'zlarga tegmaslik kerak [18].

O'zbek tiliga kirib qolgan "sig'a"lar xususida. Ma'lumki, sig'a arab tilidan o'zlashgan so'z bo'lib, shakl, forma degan ma'noni anglatadi [6; b.126]. Jadidlar bu atamadan keng foydalanganlar. Miyon Buzruk ham o'zbek tiliga kirib qolgan arabcha ko'plik shaklidagi so'zlarni izohlashda mazkur atamadan foydalanadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, Miyon Buzruk chetdan so'z o'zlashtirishni ijobiy holat deb hisoblaydi, lekin xorijiy til qoidalarining milliy tilga o'zlashtirilishini qoralaydi. Masalan, arab tilidan o'zlashgan marosim, sharoit, xaloyiq, ajoyib kabi so'zlar sig'a – arabcha ko'plik shakl ma'nosida ham ishlatilgan. Uning fikricha, bunday sig'a ma'nosidagi so'zlarni rasmlar, shartlar, xalqlar shakllarida o'zbekcha yozish kerak. Shu bilan birga, arabchadagi ko'plik ma'nosini yo'qotib, birlik ism (ot) shaklida ishlatilib kelinayotgan so'zlarni ko'plik shaklida ifodalash uchun ularga –lar qo'shimchasini qo'shish lozimligini aytadi. Masalan, adabiyot, axloq, talaba kabi so'zlarni adabiyotlar, axloqlar, talabalar shaklida qo'llash kabi.

Olimning yuqoridagi fikrlariga qo'shilish mumkin, lekin maktub, kotib, rais, muharrir kabi so'zlarni arabcha ma'nosida qo'llab bo'lmaydi, ularni yozilgan, yozuvchi, boshlovchi, tahrir qiluvchi ma'nolarida ishlatish ham to'g'ri emas, ularni ism (ot so'z turkumi) qilib majlis kotibi, majlis raisi shaklida qo'llash lozim bo'ladi degan fikrlari munozarali. O'zbek tiliga ming yildan oshiq davr mobaynida o'zlashgan, ko'plari xalq tomonidan chet so'z ekanligi farqlanmaydigan holga kelgan so'zlarni bu ko'plik shaklda, uni bunday ifodalash kerak, buning asl ma'nosi bunday, shuning uchun bunday yozish kerak kabi talablarni qo'yish va bu talablarga amal qilish uchun asosiy omma arab tilini yaxshi bilishi kerak. Shuning uchun xorijiy so'zlarga bu kabi murakkab talablarni qo'yish shart emas. Bu so'zlarning hozirgi tilimizda ham

shundayligicha qo'llanilib kelinayotgani, ularning asl ma'nosini faqat mutaxassislargina bilishi fikrimizning dalilidir.

O'zbek tilidagi adatlar haqida. "Adat (odot)" asli arabcha so'z bo'lib, tegishlilik, tarkibiy qism, vosita kabi ma'nolarni anglatadi. Demak, usmonli turk tilshunoslari arab tili grammatikasidagi "odot" termini bilan yordamchi so'zlar, affikslar hamda ayrim modal so'zlarni ataganlar. O'zbek tilshunosi Fitrat o'zbek tili imlosiga bag'ishlangan "Bitim yo'llari" asarida kelishik qo'shimchalari, so'roq yuklamasi (-mi), shakl yasovchi qo'shimchalar (-dek, -day, -cha) haqida fikr yuritar ekan, ularni usmonli turk tilshunoslari kabi "odot" termini bilan ataydi. Demak, hozirga qadar qo'llanilib kelinayotgan "qo'shimcha" termini arabcha "odot" so'zining vosita, tarkibiy qism degan ma'nolari asosida belgilangan bo'lib, 30-yillardan hozirgi affiks ma'nosida qo'llanila boshlangan [8:31].

"Turkcha qoida"da ham "*Odot deb yolg'iz o'zidan bir ma'ni chiqmaydurg'an kalimalarni aytilur*", degan ta'rif beriladi va bu qoida "Bitim yo'llari"da aynan qabul qilingan. 20-yillardagi asarlarda bu termin *belgilar* termini bilan almashtirilgan [21; b.31].

Demak, adat qo'shimcha ma'nosida qo'llangan. Miyon Buzruk arab va fors tillaridan o'zlashgan adat (qo'shimcha)larning qo'llanilishiga ham salbiy munosabatda bo'ladi. O'zbek tilida fors tilidan o'zlashgan –bon, ham–, –dor, –mand, –gar, no–, be– adotlari, arabchadan –iy, –g'ayr adatlari haqida gapirib, –iydan boshqasini iste'moldan chiqarish kerakligini, chunki ularning o'zbekchada ishlatilib kelingan muqobillari borligini aytadi. Forschadagi ham adotiga o'zbekcha –dosh, –dor uchun –li, no–, be– qo'shimchasiga –siz muqobili bor deydi.

Arabcha "g'ayri" adati haqida gapirib, o'zbek tilida uning o'rnida qo'llanadigan yordamchi so'zlar borligini, masalan, "g'ayri ma'lum" o'rniga "ma'lum emas", "ma'lum bo'lmagan" tarzida ishlatishni tavsiya qiladi. –iy adati saqlab qolish kerakligini, shu bilan birga, uni har yerda ishlatish tilning ohangini buzishini, shuning uchun me'yorida ishlatish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, –xona –noma qo'shimchasini ham "bolaxona", "o'g'uznoma" kabi ism bo'lib kelgan holatda ishlatish mumkin, ammo ular vositasida yangi so'z yasalishi to'g'ri emas.

Tirkav haqida. Bu atama jadidlar tomonidan qo'shma so'zlar, so'z birikmasi ma'nosida qo'llanilgan [6; b.127]. Miyon Buzruk Davlatxoja, Abdulla, Abdulrahim kabi inson ism bo'lib ketganlaridan boshqa nusratbaxsh, dilshikasta, zulfi yor kabi so'zlarni umuman chiqarib tashlash yoki yorning zulfi, mahbubning ishq shaklida o'zbek tili qoidasi asosida qo'llash taklifini beradi.

Istiloh masalasi. Ma'lumki, "Istelo" arabcha so'z bo'lib, umum tomonidan kelishib qabul qilingan shartli so'z, maxsus ifoda degan ma'nolarni anglatadi. Terminlarni turkiylashtirishga kirishgan tatar tilshunoslari ana shu istelo anglatgan "maxsus atalgan so'z", "ataq so'z" ma'nosidagi atama terminini yasaganlar. Atama termini 1922-yildan o'zbek tilshunosligida qo'llanila boshlangan [21; b.36]. Olim o'zbek tiliga olinayotgan yangi so'zlar istilo uchun olinayotgani, ammo hozirda yangi tushunchalarni ifoda qilish uchun juda ko'plab yangi so'zlarga ehtiyoj borligi, bu ehtiyojni qondirish uchun har bir yozuvchi ma'lum sistemasiz, o'z-o'zicha so'zlar yasayotgani, bu holatni tartibga solish zarurligini aytadi. Tilga o'zlashgan hamma istilohlarni o'zbekchalashtirishga qarshi chiqadi va bu sohada "Chig'atay gurungi"ning qilib ko'rgan tajribasi, bu tajriba yetarli natija bermagani asos sifatida keltiriladi. Ikkinchidan, hamma istilohlarni arab va fors yoki Yevropa tillaridan tillaridan olinishiga ham qarshi chiqadi.

So'z o'zlashtirishda quyidagi uch asosga e'tibor qaratish lozim deydi:

1. O'zbek tiliga arab va fors tilidan o'zlashib, tilga singib ketgan ilm, muallim, falsafa, maorif, tibbiyot, tabiat kabi so'zlarni o'z o'rnida saqlash. Ammo "Chig'atay gurungi"ning qilgani kabi unutilib ketgan eski so'zlarni tiklash, "atamachiliq, izm, sachim" kabi so'zlar yasamoq kutilgan natijani bermaydi.

2. Unutilgan so'zlarni qaytarish boshqa chora topilmagandagina mumkindir. Shaxslar tomonidan yangi so'zlar yasali, jamiyat tomonidan qabul qilinishining o'zi alohida bir masaladir, chunki jamiyat o'z ruhiga kelmagan so'zni chiqarib tashlay beradi.

3. Turkiy qardoshlardan so'z olish o'rniga omma tiliga murojat qilish kerak. Omma tilida adabiy tilga o'tmagan juda fasix va balix so'zlarni uchratish mumkin. Unday so'zlar yangi texnika uchun topilmag'anda ham ziroat, hayvonot, jug'rofiya va umuman tabiiy narsalarda ko'rinadi.

Bu asoslarning ba'zi o'rinlariga qo'shilgan holda, unutilgan so'zlarni qayta tiklash hamda qarash turkiy tillardan so'z olishga qarshi fikrlariga qo'shilib bo'lmaydi, chunki bu ikki asos milliy tilning rivoji, turkiy tillarning o'zaro yaqinlashuvi uchun juda muhim omil deb hisoblaymiz.

Olim xalq tomonidan poezdni "otash arava" yoki uni so'zda buzib "poyiz", avtomobilni "aptamabil", traktorni "o't amach" deb atalishini ma'qullaydi, ularni shunday tarzda adabiy tilga kiritish taklifini beradi. Ammo yuqorida bildirgan fikriga qarshi chiqib, istilohlarni Yevropa tillaridan, xususan, o'zbek tili bilan hayotda sherik bo'lgan ruschadan olish kerak. Ispolkom, xloppunkt kabi qisqartma so'zlarni, izm bilan

yasalgan kommunizm kabi soʻzlarni ham aynan olish kerak deydi. Albatta, bunday fikrlarni oʻsha davr mafkurasi bilan bogʻliq holda bildirilgani bilan izohlash mumkin.

Miyon Buzruk oʻzbek tili rivoji uchun bajarilishi muhim boʻlgan uchta vazifani aytadi. Birinchidan, ilm ahllari tomonidan tildagi barcha istilohlarning izohlari bilan jamlangan qomus tuzish, soʻngra qomusdagi soʻzlar muqobillarini xalq shevalaridan topish, ularni bir-biri bilan solishtirish. Ikkinchidan, ilmiy tadqiqotlar olib borishda oddiy muallimlarga murojaat qilmasdan, haqiqiy mutaxassislar, olimlar faoliyatiga tayanish, til qonuniyatlari shaharma shahar, qishloqma qishloq yurib tekshirilmogʻi kerak. Bu ikkisi zudlik bilan qilinadigan ishdur. Uchinchidan, oʻzbek tilining mufassal qomusi va mufassal sarfi ishlab chiqilmogʻi kerak. Ayniqsa, oʻzbek tili sarfini tuzish eng muhim vazifadir, chunki oʻzbek tili koʻp shevali, sarfiy jihatdan oʻzaro farqli tomonlari koʻp. Masalan, Toshkentda kelvatman, Fargʻonada kellipan, Namanganda kevuttiman, Buxoro, Samarqandda kelappan. Mana shunga oʻxshash ayirmalarini bilish va oʻzbek adabiy tiliga qanday shaklida olish uchun sarf ilmiga ahamiyat berish zarurdir deydi.

Xulosalar. Miyon Buzrukning ilmiy qarashlarida baʼzi jihatlari munozarali boʻlsa-da, uning adabiy til, uni soddalashtirish, xalq jonli tiliga yaqinlashtirish, chetga kirib kelgan soʻzlarga munosabati, sigʻa, adat, tirikavlar xususida fikrlari, istilohlarni oʻzlashtirish boʻyicha takliflari davr uchun dolzarb hisoblanadi.

Miyon Buzruk ilmiy merosini chuqur oʻrganish, uning faoliyatiga ilmiy baho berish, oʻzbek adabiy tilining rivoji, alifbo-imlo masalalri takomilida uning oʻrnini belgilash tilshunoslar oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Нурмонов А. Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012. – 440 б.
2. Қурбонова М. Фитратнинг тилишунослик мероси. Филол. фан. номз. дисс... – Тошкент, 1993. – 120 б.
3. Сайидов Ё. Фитрат бадиий асарлари лексикаси. Филол. фан. номз. дисс... – Бухоро, 2001. – 204 б.
4. Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадиий тил маҳорати (“Кеча ва кундуз” романи мисолида). Филол. фан. номз. дисс... – Тошкент, 2000. – 120 б.
5. Неъматова Д. Чўлпон публицистик асарларининг лингвистик таҳлили: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. - Т.: ЎзФАТИ, 2004. -24 б.
6. Бобомуродова Ш. Ўзбек тилишунослиги ривожига Элбекнинг роли. Филол. фан. номз. дисс... – Тошкент, 2002. – 132 б.
7. Тогаев Т. Ашурали Зоҳирий ва унинг тилишунослик мероси. Филол. фан. номз. дисс... автореферати. – Тошкент, 2005. – 120 б.
8. Бобониёзов А. А.Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романида тасвирий воситалар ва тил бадиияти: Филол. фанлари ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1995.
9. Чориева З. Абдулла Қодирийнинг «Ўткан кунлар» романидаги мактубларнинг луғавий-маъновий ва услубий хусусиятлари: : Филол. фан. ном. ... дис. автореф. -Т.: ЎзФАТИ, 2006. -23 б.
10. Джалолова Л. Абдулла Қодирийнинг «Ўткан кунлар» романининг лингвистик тадқиқи: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. -Т.: ЎзФАТИ, 2007. -22 б.
11. Нормаматов С. Абдулла Авлоний шеърляти лексикасининг маъновий-услубий хусусиятлари: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. -Т.: ЎзФАТИ, 2011. -25 б.
12. Турдиев Ш. Меросимизнинг бир саҳифаси // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1989, 3 март.
13. Абдулҳайров Б. Яна бир қатагон қурбони (Миён Бузрук ижодида чизгилар) // жаҳон адабиёти, 2005, №11.
14. Вадуд Маҳмуд. Танланган асарлар. –Т.: Маънавият, 2007, Б.115.
15. Ҳожи Муин. Интиқодоти воҳияга бир назар// Туркистон вилоятининг газети, 1909 йил, 12 февраль.
16. Исҳоқхон тўра Ибрат. Танланган асарлар. – Т.: Маънавият, 2005. Б.12.
17. Фитрат Абдурауф. Танланган асарлар, IV жилд. –Т.: Маънавият, 2006. Б.134-135.
18. Миён Бузрук. Адабий тил ва истилоҳ // Шарқ ҳақиқати, 1929, №6
19. Ашурали Зоҳирий. Тил, атама, имло баҳслари // Қизил Ўзбекистон, 1929, 29, 31 март
20. Элбекнинг тилишуносликка оид асарлари (тўпловчи: Ш.Бобомуродова). – Тошкент, 2001.
21. Кадиров К. Ўзбек тили морфологик тизимининг ўрганилиши тарихидан (20-йиллар ўзбек тилишунослиги материаллари асосида). Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс... – Тошкент, 2007.

NEMIS TILIDA GIDRONIMLARNING KELIB CHIQISH TARIXI

Bozorova Rufina Sharopovna,

Buxoro davlat universiteti

Nemis filologiyasi kafedrası o‘qituvchisi

rshbozorova78@buxdu.uz

Annotatsiya: Maqolada Germaniyada mavjud suv havzalariga nom berish tamoyillari, suv nomlarining kelib chiqish tarixi, suv obyektlariga yaqin joyda joylashgan foydali qazilmalar yoki shu yerlarda istiqomat qiluvchi odamlarning uzoq muddatli faoliyati bilan bog‘liq omillar haqida fikr yuritilgan. Bunday omillar ushbu suv obektlarining nomlanishiga bevosita ta’sir qilishi mumkinligi bo‘yicha keng ma’lumotlar keltirilgan. Suv havzalari qadimgi nomlarining tub ildizi hamda ularning ma’nolari misollar yordamida qiyosiy jadvallarda o‘z aksini topgan. Maqola mutaxassislar – tilshunoslar, tarixchilar, o‘lkashunoslar, etnograflar, geograflar, geologlar, jumladan, gidronimlar sir-asrorlari bilan qiziquvchilarning keng ommasi uchun ham foydali. Mazkur ishda qadimgi Yevropa suv so‘zlari, suvning xususiyatlariga ko‘ra nomlar, keng tarqalgan Keltlar daryosi nomlarining kelib chiqish ildizlari o‘zbekcha shakli bilan birgalikda jadvallarda o‘z aksini topgan.

Kalit so‘zlar: gidronim, gidronimiya, potamonim, mikrotoponim, makrotoponim, etimon, etimologiya, xronologiya, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, dominant birikma.

Аннотация: В данной статье обсуждаются принципы именования существующих водоёмов Германии, история происхождения названий вод, полезные ископаемые, расположенные вблизи водоёмов и факторы, связанные с многолетней деятельностью людей, проживающих в этих районах. Имеется обширная информация о том, что такие факторы могут напрямую влиять на наименование этих водоёмов. Корни древних названий водоёмов и их значения отражены в сравнительных таблицах с помощью примеров. Статья полезна специалистам - лингвистам, историкам, краеведам, этнографам, географам, геологам, в том числе широкой общественности, интересующейся загадками гидронимов. В данной работе в таблицах отражены древнеевропейские водные слова, названия по свойствам воды, корни происхождения кельтских речных названий вместе с узбекской формой.

Ключевые слова: гидроним, гидронимия, потамоним, микротопоним, макротопоним, этимон, этимология, хронология, внутренняя мотивация, внешняя мотивация, доминирующее соединение.

Annotation: This article discusses the principles of naming existing reservoirs in Germany, the history of the origin of the names of waters, minerals located near reservoirs or factors related to the long-term activity of people living in these areas. There is a wealth of information on how such factors can directly influence the naming of these bodies of water. The roots of the ancient names of reservoirs and their meanings are reflected in comparative tables with the help of examples. The article is useful for specialists - linguists, historians, local historians, ethnographers, geographers, geologists, including the general public interested in the riddles of hydronyms. In this work, ancient European water words, names according to the properties of water, the roots of the origin of common Celtic river names, together with the Uzbek form, are reflected in the tables.

Key words: hydronym, hydronymy, potamonym, microtoponym, macrotoponym, etymon, etymology, chronology, internal motivation, external motivation, dominant compound.

Kirish. Daryo va ko‘llarning nomlari fanda gidronimlar deyiladi. Ularni tadqiq qilishning shunisi qiziqki, insoniyat o‘tmishi, sivilizatsiyasi va madaniy taraqqiyotining tarixi haqida bebaho ma’lumotlar mavjudligi, gidronimlarni o‘rganish xalqlarning ajdodlar o‘yi, etnogenezi va migratsiyalari haqidagi farazlarni tekshirishga yordam beradi. Gidronimlarni o‘rganuvchi fan – gidronimiya yordamida qadimgi aloqa usullarini kuzatish, ma’lum bir hududdagi aholining etnik tarkibini aniqlash, hayvonlar va o‘simliklarning avvalgi yashash joylarini qayta qurish, foydali qazilmalar konlarini topish va hokazolar mumkin. Germaniyadagi mavjud suv havzalariga nom berish tamoyillarini tushunishga imkon beruvchi tadqiqotimiz suv obektlariga yaqin joyda joylashgan foydali qazilmalar bilan yoki bu yerlarda yashovchi

odamlarning uzoq muddatli faoliyati bilan bog'liqligi, shuningdek, boshqa shunga o'xshash omillar ushbu suv obektlarining nomlanishiga bevosita ta'sir qiladi.

Asosiy qism. Efez, Urff, Eyfa, Grenf va Ryunda (Shvalma irmoqlari) kabi noodatiy yangraydigan daryo nomlaridan Zilberzee va moviy Adria singari mashhur ko'llar nomlariga o'xshash atamalar ko'plab uchraydi. Suv nomlari yoki Gidronim deganda (grekcha *hydor*-“suv”degani) daryo, dengiz, ko'l, kanal, hovuz kabilarning nomlari kiradi. Daryo nomlari va Potamonimlar (grekcha *potamos* “daryo”) oqadigan (daryo, kanal, buloq, anhor v.b.) va oqmaydigan (dengiz, hovuz, botqoq, balchiq) ga bo'linadi. Gidronimlar esa, makrotoponimlar (okean, daryo, dengiz) va mikropotonimlar (anhor, ko'l, hovuz) ga bo'linadi. Ular odatda ma'lum bir joyning qadimiy nomini ifodalaydi. Yevropadagi nomlarning ajoyib o'xshashligi (masalan, Isar, Isere, Iser) qadimgi Yevropa gidronimiyasi (barcha suv havzalari nomlarining vaqtinchalik yoki fazoviy yig'indisi), ya'ni bitta til oldidan qabul qilingan suv havzasi nomlari nazariyasiga turtki berdi. Garchi bu nazariya bahs-munozaralardan xoli bo'lmasa-da, u hali ham qat'iy rad etilmagan. Biroq suv havzalari nomlari ko'pincha ming yillar davomida meros bo'lib kelgan eng qadimiy va eng doimiy suv havzalari nomlari deb hisoblanishi mumkin. Suv havzalari nomlarini o'rganish uzoq an'anaga ega va adabiyotlar ro'yxati mos ravishda kengdir. "Hydronimia Germaniae" turkumi nemis daryo tizimlarining nomlari bilan bog'liq. Suv tizimining gidronimlari, ularning joylashuvi va birinchi tarixiy hujjatlari qayd etilgan, ammo etimologiyasi haqida ma'lumot yo'q. 1985-yildan beri Yevropada nashr etilayotgan "Hydronimia Europea" turkumi suv nomlari tadqiqot sohasini kengaytirib, Yevropani ham qamrab oladi. Bundan tashqari, ma'lum bir mintaqaga masalan, Brandenburg federal o'lkasiga oid bo'lgan suv nomlari haqidagi kitoblar ham mavjud [1]. Hozirgacha suv nomlari bo'yicha ishonchli etimologik leksika yetishmayotgan edi, ammo hozirda u "Nemis suv nomlari kitobi (DGNB)" shaklida chop etilmoqda [2]. Qadimgi Yevropa daryolari nomlarining etimologiyasini Hind-Yevropa tadqiqotlari asosida har tomonlama qayta ko'rib chiqish zarur. Daryo nomlari eng qadimgi qatlamining tizimli, umumlashtirilgan ko'rinishi haligacha mavjud emas [3]. Suv nomlarining tez-tez munozarali etimologiyalari bilan birga, tadqiqot adabiyotlarida batafsil ko'rib chiqishga arziydigan ba'zi bir qiziqarli jihatlari, ya'ni daryo nomlarining rodi va ularning ko'p nomlilik xususiyatlari hozirgacha deyarli ko'rib chiqilmagan.

Daryo nomlari mintaqaning eng qadimgi toponimlari bo'lib, bu ularning yordami bilan tarixiy lingvistik munosabatlar va joylashish harakatlarini keng qamrovli qayta tiklash imkonini beradi. Daryo nomlarining xronologiyasi uchun quyidagi tartib amal qiladi:

a) qadimgi Yevropa: Nemis tilshunosi Hans Krahe faraziy Hind-Yevropa unitar tili va alohida tillarni ajratish o'rtasida suv havzalarining qadimgi Yevropacha nomlarining kelib chiqish tarixini belgilaydi. Qadimgi Yevropa bu yerda til belgisi emas, balki ismning lingvistik kelib chiqishi Hind-Yevropa deb tasniflangan ism sinfiga tegishli ekanligini anglatadi. Qadimgi Yevropa daryolari nomlari bir xil qatlam hosil qilmaydi, chunki ularning kelib chiqishi juda boshqacha bo'lishi mumkin. Ularni mutlaq aniqlashning imkoni yo'q, faqat xronologik jihatdan tadqiq etish mumkin. Suv nomlari bo'yicha qator tadqiqotlar olib borgan nemis olimi Shmid shuning uchun na fazoviy, na vaqtinchalik bir xil bo'lmagan qadimgi Yevropa nomlari tarmog'i haqida fikr yuritib, daryo nomini qadimgi Yevropaga oid nomlar deb tasniflash uchun quyidagi shartlar bajarilishi kerakligini aytadi:

- Daryo nomi faqat bir tilda tushuntirilmasligi kerak.
- U hind-yevropa etimoni va hind-yevropa irsiy so'zining morfologik tuzilishiga ega bo'lishi kerak.
- Semantik jihatdan, oqmoq, oqim, daryo so'zlari maydonidan ma'noga ega bo'lgan kirish so'zlari mos ravishda suv xususiyatlariga yoki ularning hosilalariga ega bo'lishi kerak.
- Fazoviy jihatdan Qadimgi Yevropa nomlari Yevropa bilan chegaralangan (Skandinaviyadan janubiy Italiyagacha, Britaniya orollaridan Boltiqbo'yi davlatlarigacha, Don chegaralari va shimoliy Gretsiyagacha).
- Bu nom uchun Yevropa hududidagi ildiz va tizim jihatidan bog'liq bo'lgan kamida bitta daryo nomi mavjud bo'lishi kerak.

Qadimgi Yevropa daryosi nomini faqat tarixiy dalillar yordamida etimologik aniqlash mumkin. Misol uchun, Elz nomi (Odenwald janubidagi), tarixan villa Alantia, Elentz sifatida manbalarda ko'rsatilgan. Shunday qilib, Alantia nomini qabul qilish mumkin. Bu nemis yoki kelt emas, balki Hind-Yevropa ildizida talqin qilinishi mumkin. Bu bilan Aland (Elbe viloyati), Alanta (Litva) nomlarini solishtirish mumkin. Suv nomlarining etimologiyasini aniqlash faqat Hind-Yevropa tadqiqotlari orqali amalga oshiriladi [4]. Hans Krahe qadimgi Yevropa daryolari nomlarining kelib chiqishi birinchi tovush almashinuvidan oldin bo'lishi kerakligini isbotlaydi. Qadimgi Yevropa gidronimiyasi, ehtimol, miloddan avvalgi 2-ming yillikda Alp tog'larining shimolida to'liq rivojlangan. Ehtimol, u Janubiy Yevropaga miloddan avvalgi 2000 yil atrofida kiritilgan. Qadimgi Yevropa suv havzalari nomlarining yoshi taxminan 2000 dan 2500 yilgacha bo'lishi

mumkin. Ular yaratilgan paytdan beri hech qanday yozma dalillar saqlanib qolmagan. Fazoviy taqsimot nuqtayi nazardan bir qator uzluksizlik markazlarini aniqlash mumkin, ularda nomlarning uzatilishi bir nechta til o'zgarishlari (masalan, Reyn, Moselle viloyati, Boltiqbo'yi davlatlari) bo'yicha turar-joy uzluksizligi bilan kafolatlangan. Alp tog'larining shimolidagi qadimgi Yevropa daryolari nomlari tilning eng qadimgi tushunarli qatlamini tashkil qiladi. Pireney yarim orolida, janubiy Italiyada, Gretsiyada va Fransiyaning janubida Hind-Yevropagacha bo'lgan qadimgi nomlar qatlamlari mavjud (Egey-Pelasg, Iberian). Qadimgi Yevropa daryo nomlarining aksariyati suv so'zlari deb ataladigan so'zlardan, ya'ni (oqayotgan) suv belgilaridan kelib chiqishi mumkin. Eng keng tarqalgan shakllanish namunasi derivatsiyadir. Quyidagilar kesim yasalishi sifatida birlashtiriladi: ma'no anglatuvchi ildiz+hosila qo'shimchasi+fleksion qo'shimcha, masalan,: Ala-nt-ia (Elz) yoki qiyosiy: Ila+r + A (Aller, Iller); Al + s + ina (Else) va hokazo [5].

1-jadval. Qadimgi Yevropa suv so'zlari (H.Krahe bo'yicha alifbo tartibida)

Suv nomlarining Qadimgi Yevropacha ildizi	Ma'nosi	O'zbek tilidagi tarjimasi	Misollar
adu-/adro-	Wasserlauf	Suv oqimi	Attel, Edel, Oder
am-	Flussbett, Graben	Daryo o'zani, chuqurlik	Ohm, Ammer, Ems
ap-	Wasser, Fluss	Suv, daryo	Appelbach, Aisne, Efze
av-	Quelle, Flusslauf	Buloq, daryo oqimi	Ave, Auma
drouos	Flusslauf	Daryo oqimi	Drau, Drohm
el-, ol-	fließen, strömen	Oqmoq, tommaq	Ilm, Elz, Aller, Alster
mor-	Stehendes Wasser, Meer, Sumpf, sumpfiger Wasserlauf	Turib qolgan suv, dengiz, botqoq, botqoqli suv oqimi	Mohra, Mörn
ned-/nod-	Nass, Flut	Nam, toshqin	Neta, Nede
neid-/nid-	fließen	oqmoq	Neiße, Nied, Nethe, Nidda
pel-/pol-	gießen, fließen	Sug'ormoq, oqmoq	Pola
rei-/roi-/ri-/reg-	Fließen, feucht, Wasser	Oqmoq, nam, suv	Regen, Regnitz
sal-	Bach, fließendes Wasser, Strömung	Anhor, oqadigan suv, oqim	Saale, Salm, Selz
ser-/sor-	fließen, strömen	Oqmoq, tommaq	Saar, Sarthe, Serre
souos-	Feuchtes, Flüssigkeit	Nam, suyuqlik	Save, Seve, Savone
ueis-/uis-	fließen, zerfließen	Oqmoq, yoyilmoq	Wiese, Weser, Vezouze
uer-/uor-	Wasser, Regen, Fluss	Suv, yomg'ir, daryo	Würm, Varenne

Suv so'zlaridan tashqari suvning (ayniqsa, rangi) yoki o'zanining xususiyatlariga ko'ra ham ko'plab nomlar mavjud. Quyidagi jadvalda suvning xususiyatiga qarab nomlanishi keltirilgan.

2-jadval. Suvning xususiyatlariga ko'ra nomlar

Suv nomlarining Qadimgi Yevropacha ildizi	Ma'nosi	O'zbek tilidagi tarjimasi	Misollar
ag-	treiben, in Bewegung setzen	Haydamoq (suvni), harakatga keltirmoq	Aire, Eger
albh-	weiß, hell, klar später "Fluss"	Oq, yorug', tiniq daryo	Elbe, Aube, Albe
arg-	klar, glänzend	Tiniq, yaltiroq	Arge, Argen
bhel-	glänzend, weiß	Yaltiroq, oq	Balsenz
dreu-/dru-	laufen, eilen	Yugurmoq,	Drome, Traun

		shoshmoq	
eis-/ois-/is-	(sich)heftig, schnell bewegen	Kuchli, tez oquvchi	Isen, Eisbach, Isar, Isere
kar-	hart, steinig	Qattiq, toshli	Charente, Cher
ner-/nor-	tauchen, Höhle, Grube	Sho'ng'imoq, g'or, o'ra	Nera, Niers
oudh-	reich, reichlich	Boy	Auda
ter-/tor-	schnell, stark	Tez, kuchli	Taro

b) keltcha: Morfologik jihatdan kelt daryosi nomlari qadimgi Yevropa nomlari bilan o'xshashliklarga ega (masalan, qo'shimchalar bilan hosil qilish). G'arbiy va Janubiy Germaniya, Fransiya, Shimoliy Italiya, Shveytsariya va Britaniya orollarida tarqalishi tufayli ularni asosan kelt deb tasniflash mumkin. Agar german yoki nemis etimologiyasi chiqarib tashlansa va keltga mos keladigan apellyatsiya mavjud bo'lsa, ismni ushbu qatlamga kiritish mumkin. Yo'qolgan materik (masalan, Gall) faqat bo'laklarga bo'linganligi sababli, ko'pincha orol kelt tillarida (masalan, gal, simrik, bretin) ekvivalentlaridan foydalanishga to'g'ri keladi.

3-jadval. Keng tarqalgan Keltlar daryosi nomlarining kelib chiqish ildizlari

Ildiz	Ma'nosi	O'zbek tilidagi tarjimai	Misollar
ambe-	Bach	Anhor	Amper, Emmer
an (am)	Sumpf	Botqoq	Ahrbach, Enz
briga-	Högel, Höhe	Qoya, balandlik	Brent, Bregenzer Ach
glan	Hell, rein, lauter	Yorug', tiniq, baland	Glan, Glane
dubro	Wasser	Suv	Tauber
cete	Wiese, Weg	O'tloq, yo'l	Kinzig
kambo	krumm	Qiyshiq	Kamp, Chamb
labaros	rauschend	Shovqinli	Laber, Laaber
Trago-Superlativ-(i)sama	Sehr schnell laufend	Juda tez yuguradigan	Traisen, Dreisam

Ayrim hollarda daryo nomini ma'lum nom qatlamlariga belgilash munozarali bo'lib qolmoqda. Masalan, Reyn (miloddan avvalgi 52 yil atrofida *Rhenum*) kelt daryosi nomlari orasida (Seltcha *renos*, *rian* "dengiz") yoki eski Yevropa nomlari orasida (Hind-Yevropa *reynos*, *-rei*, *-roi*, "oqmoq").

c) germancha: Nemis olimi Bandlning fikriga ko'ra, qadimgi Yevropa so'z yasaliishi german davrida ham samarali bo'lgan, lekin asta-sekin birikmalarning ko'payishi bilan, ya'ni germancha *ahwo* so'zi "Wasser (suv)" bilan almashtirilgan. Qadimgi oliy nemis tili *aha*, germancha *ahvo* mintaqaviy ravishda *-ach* (Germaniyaning janubi va janubi-g'arbiy qismida: Brigach, Wutach), *ohe* (Yuqori Pfalzda: Frankenohe, Fichtenohe), *-ig* (Germaniya janubida: Hässig, Rinnig), *-a* yoki *-e* kabi uchraydi (asosan shimoliy va markaziy Germaniyada: Salza va Verra). Ba'zida *aha* ham *Elz* > *Elzaxdagi* kabi yo'qolib ketgan yoki ikkinchi *-bach* nomi sifatida qayta talqin qilingan (*Salz-aha* > *Salzbach*, *Elm-aha* > *Elmbach*).

Aha ismlari butun mamlakat bo'ylab keng tarqalgan. Boshqa nemis tillarida ekvivalentlar mavjud inglizcha *-ey*, shved./ dan. - *a*, norv. - *aa*. Ular uzoq vaqt davomida, ayniqsa, Germaniyaning janubida samarali bo'lib qolishdi. Bundan tashqari, daryo nomlari ham *-apa* bilan qayta shakllangan, shu bilan *-apa* va *-aha* nomlari ularning tarqalishida asosan bir-birini istisno qiladi. Kvalifikatsiyalar, birinchi navbatda, suvning xossalari, suv havzasining tabiiy muhiti, hayvon va o'simlik nomlari va boshqalarni anglatadi. Bundan tashqari *-aha* kattaroq, endi tushunilmaydigan daryo nomlari uchun ikkinchi darajali sifatida paydo bo'lishi mumkin: *Brigana* > *Brigach*. Dominant birikmalardan tashqari, *Ahe*, *Ach*, *Aa Speyer (bach)* (Spira noaniq etimologiyasi), *Dyussel (Tussale-shoshqaloq suv)* kabi bir qatlamli german daryo nomlari ham mavjud.

d) slavyancha: Xalqlarning ko'chishi jarayonida slavyan qabilalari VI asrdan boshlab Elba va Saaldan sharqda Bavariyaning shimoli-sharqida, Quyi Avstriyada, Karintiya va Shtiriyada joylashdilar. Shuning uchun bu hududlarda suv nomlarining slavyan qatlamini kiritish kerak. Slavyancha *Rietsce-recka* "Daryocha", shuningdek *Rauda-ruda* "Qizil" kabi oddiy daryo nomlari ham ba'zan uchraydi. Slavyan asoslari va tipik chiqishlari bo'lgan hosilalar ko'proq tarqalgan *-ica* (*Kremnitz* < *Kremen-ica* "Kieselbach",

Löwitz < *Lew-ica* “linker Bax”), *nica* (*Oelsnitz* < *Oles-nica* “Erlenbach”, bugungi aholi punktlari nomlari), *Leuschnitz* < *Luznica* “Sumpfbach” -*ovica* (*Teyßwitz* < *Tis-ovica* “Eibenbach”) –*ina* (*Kossein* < *Kos-ina* “Amselbach”) [6]. Biroq -*itz* qo‘shimchasi bilan tugaydigan, slavyan kelib chiqishi bo‘lgan nomlar ham bor, ayniqsa, frantsuz tilida. *Pegnitz* < *Pagniza* Hind-Yevropacha -*bhog* “oqadigan suv”, *Rednitz* < *Radantia* Hind-Yevropacha *redh/rodh* “oqmoq, daryo oqimi”; *Wörrnitz* < *Warinza* (9-asr) < *Varnatiya* Hind-Yevropacha, *uer-* “suv, yomg‘ir, suyuqlik”. -*itz* qo‘shimchasi zaiflashgan Hind-Yevropacha -*entia* dan kelib chiqadi.

f) nemischa: Qadimgi davrlarda qo‘shma so‘zlarning ko‘payishi odatiy xususiyat bo‘lib, barcha nemis daryolari nomlarining taxminan 65-80 foizida eng keng tarqalgan o‘zak so‘z -*bach* va -*beke* ustunlik qilgan. Umumiy o‘zgartiruvchilar sifat (*Schwarz-bach*), ot (*Eber-bach*) va ravish (*Ober-bach*) bo‘ladi. Asosan asoslantirilgan sifatlar sodda so‘zlar sifatida qatnashadi: *Glatt* eski yuqori nemis tilida *glat* “porlash”, *Krum* eski yuqori nemischa *krump Lude* eski saksoniyada *hlud* “baland, ravshan ovozli”, *Lauter* eski yuqori nemischa / eski saksoniyada *hlut(t)ar* “toza, aniq”. Ism olingan Daryo nomlari *Rieth* < eski yuqori nemis *hriot* “Ried”, *Lache* < eski yuqori nemis *lacha* “ko‘lmak”, *Sulz* eski yuqori nemis *sulza* “tuz suv”, *Spring* eski yuqori nemis, *sprinc* “bahor”, Vande eski yuqori nemis Vanda “aylanma, girdob” kabilarni uchratish mumkin. Ayniqsa, ot so‘z birikmalari eng yosh daryo nomi qatlamida ahamiyat kasb etadi. Ular odatda sifat+ildiz so‘zdan iborat (*Frank Saale*, *Bensheimer Bax*, *Weißer Main*). *Tiefenbach*, *Shvartsenbach*, *Lautenbach*da unverbatsiya (birgalikda harakat qilish) mavjud bo‘lib, ular dativ yoki akkusativda old qo‘shimchalardan kelib chiqqan. Hozirgi zamon qo‘shimchalari (*Klingen(d)bach*, *das vallende Wasser*>*Fallendwasser*) va genitiv kelishigidagi shaxs ismlari (*Sigemars Bach* *Simmerbach*) bilan chalkashlik ham sodir bo‘ladi. Bundan tashqari, ko‘p bo‘g‘inli aholi punktlari nomlarining qisqarishi natijasida paydo bo‘lgan qavs shakllari (*Sindelbach*<*Sindelfinger Bax*, *Konsbax*<*Konsheymmer Bax*) va regressiyalar (*Aid*< *Aidlingen*, *Ette*<*Ettenhausen*, *Ditz*<*Ditzenbach*) ham rol o‘ynaydi. Ko‘pincha -*bach* ikkinchi darajali eski nomlarga qo‘shiladi yoki -*apa* va -*aha* (*Kraich*>*Kraichbach*, *Albaha*>*Aalbach*) kabi asosiy so‘zlarni almashtiradi.

4-jadval. Nemis daryolari nomlarining umumiy ildiz so‘zlari

Asosiy so‘z	Ma‘nosi	O‘zbek tilidagi tarjimasi	Misollar
-bach/nd. -beke	Kleiner Fluss	Kichik daryo	Gonsbach, Ellerbek
-graben	Rinne, Wassergraben	Tarnov, zovur	Landgraben
-brunnen/-born	Quelle	Buloq	Mühlbrunnen
nd. –flöte, -flüte	Abflussgraben	Oqava tarnov	Grenzflüte
-floß	Kleiner Bach, Rinne	Kichik anhor, tarnov	Klingelfloß
nd. –föhre, -föhrde	Wasserlauf	Suv oqimi	Kuhföhre
obd. -gießen	Tiefer, langsam fließender Flussarm	Chuqur, sekin oquvchi irmoq	Taubergießen
-grund	Abgrund, Tal, Schlucht	O‘pqn, vodiy, dara	Mühlgrund
-kanal	Kanal	Kanal	Bechteimer Kanal
-klinge	Waldbach	Jilg‘a	Kreuzklinge
nd. –riede, -riehe	Bach, Graben	Anhor, o‘ra	Feldriehe
obd. –runz	Graben, Bachbett	O‘ra, anhor chekkasi	Saurunz
-wasser/nd. -water	Wasser	Suv	Schwarzwasser

Eng qadimgi daryo nomlari odatda suv so‘ziga asoslangan, suv va daryo tubining xususiyatlariga ishora qiluvchi apellativ (ichki motivatsiya), yosh qatlamda atrof-muhit va inson ta’siriga qarab belgilar ustunlik qiladi (tashqi motivatsiya).

Ichki motivatsiya (asosiy nomlash motivlari):

- Suvning xususiyatlari: rangiga qarab (*Schwarzach*-qora suv, *Rötenbach*-qizil ariq), shovqiniga qarab (*Klingenbach*-sharqiroq anhor), hidi, ta’miga qarab (*Sauerbach*-sho‘rsuv), haroratiga qarab (*Kaltbach*-sovuq ko‘l), suvning tozaligiga qarab (*Lauter*-tiniq).

- Harakat: tezlik (yovvoyi) yoki sustlik (yengil)
- Suv ta'minoti (Hungerborn-och, Dürrbach-quruq ariq)
- Qirg'oqning xususiyatlari (Stein -tosh, Moos -mox, Tiefenbach-chuqur ko'l).

Tashqi motivatsiya (shuningdek, ikkinchi darajali nomlash motivlari):

- Daryo oqimining tashqi shakli (Krumbach, Gabelbach)
- Atrof-muhit: fauna (Biberbach), flora (Eschbach), joy (Talbach-vodiy irmog'i)
- Nisbiy joylashuvi (Zwerchbach, Querbach, Ostrach-ko'ndalang)
- Inson foydalanishi (Mühlbach-suv tegirmoni)
- Egasi yoki foydalanuvchi (Nonnenbach-Nonn arig'i, Geroldbach-Gerold arig'i)
- Tarixiy faktlar (Zehntgraben, Galgengraben-bebosh dara)
- Turar joy yoki bino (Dorfbach-qishloq arig'i, Kirchbach-cherkov arig'i).

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, daryo nomlarining nisbiy o'zgarishligi va yuqori doimiylikka qaramay, ularda ma'lum bir o'zgaruvchanlik uchray turadi. Katta daryolarning nomlari asosan butun mamlakat bo'ylab mashhur. Ular har doim muhim transport va savdo yo'llari bo'lib xizmat qilganligi sababli, bir xil nom ko'pincha ularning butun yo'nalishi bo'ylab tarqaldi. A.Groyle (Albrecht Groyle (1942-yil 13-aprelda Bühl shahrida tug'ilgan) — nemis tilshunosi, onomastika va o'rta asr tadqiqotchisi, Regensburg universitetining nemis tilshunosligi bo'yicha faxriy professori) ning fikricha, suv oqimida turli xil bo'lim nomlari yoki umumiy etimonga tegishli bo'lmagan muqobil nomlar mavjud bo'lsa, ko'p tillilik haqida gap boradi. Faqat daryoning turar-joy hududida yagona tilning tarqalishi va rasmiy qoidalar orqali daryoning butun yo'nalishi uchun bitta nom ustun bo'lishi mumkin, ayniqsa, yozma nutqda, og'zaki aloqada esa bo'lim nomlari mavjud bo'lib qoladi. Hatto bugungi kunda ham umumiy nomning tarqalishi to'liq emas, ayniqsa, kichikroq oqimlarda, shuning uchun ismlarning eski shakllari yoki bo'lim nomlari ko'pincha mavjud bo'lib qoladi, ular yangi nomlar bilan raqobatlashadi.

ADABIYOTLAR:

1. I.R. Fischer. *Die Gewässernamen Brandenburgs*. Weimar-1996.
2. A.Greule. *Arbeits- und Darstellungstechniken des deutschen Gewässernamenbuchs*. Ziegler-Windberger-Heidenkummer 2011. S.117-126.
3. H.Bichlmeier. *Analyse und Bewertung der sprachwissenschaftlichen Standarts aktueller Forschungen traditioneller Art zur alteuropäischen Hydronymie aus der Perspektive der heutigen Indogermanistik*. S.397-437.
4. H.Bichlmeier. *Einige grundsätzliche Überlegungen zum Verhältnis von Indogermanistik und voreinzelsprachlicher resp. alteuropäischer Namenkunde*. In. NI 65/96, S.173-178.
5. H.Krahe. *Unsere ältesten Flussnamen*. Wiesbaden.S.39-97.
6. A.Greule. *Etymologische Studien zu geographischen Namen in Europa*. Regensburg. 2007. S.33.
7. H.Krahe. *Unsere ältesten Flussnamen*. Wiesbaden.S.18.
8. Бозорова Р. III. “Сув” сўзи билан боғлиқ фразеологик бирликларнинг немис, ўзбек ва рус тилларидаги таҳлили //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 277-282.
9. Бозорова Р. III. Сув билан боғлиқ жой номларининг лисоний қатламлари таҳлили //Results of National Scientific Research International Journal. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 112-118.
10. Bozorova R. S. *Interpretation of poetonyms in the novel by Johann Wolfgang Goethe “The sufferings of young Werther”* //scientific bulletin of Namangan State University. – 2019. – Т. 1. – №. 12. – С. 182-185.
11. Bozorova R. *Гидропонимларнинг немис, ўзбек ва рус тилларидаги фразеологик бирликларда акс этиши* //центр научных публикаций (buxdu. Uz). – 2022. – т. 26. – №. 26.
12. Abdikarimovich B. O. *The views of Jalaliddin Rumi* //Middle European Scientific Bulletin. 2021. – Т. 12. – С. 319-322.
13. Babayev O. *The first encounter between jaloliddin rumi and shams tabrizi* //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2023. – Т. 27. – №. 27.
14. Sharopovna B. R. *Nomlarni tadqiq qilishda turli yondashuvlar* //Miasto Przyszłości. – 2022. – Т. 30. – С. 337-339.
15. Hayotova D. *Tushuncha va so'z munosabati* //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2023. – Т. 29. – №. 29.

16. Zoyirovna H. D. *Studies on the Concept of "Motherland" ("Heimat") in Cognitive Linguistics* //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2022. – T. 3. – №. 11. – С. 155-158.
17. Nazarova, N. (2022). *Лексико-семантические особенности антропонимов*. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 25(25). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8279
18. Nazarova, N. (2022). *Лингвистическое исследование антропонимов в лексической системе*. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 13(13). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/6674

IKKILAMCHI PREDIKAT BILAN IFODALANADIGAN REZULTATIV TUZILMALAR TURLARI XUSUSIDA

Davlatova Muhayyo Hasanovna,

*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD.) dotsent,
Buxoro davlat tibbiyot instituti Ingliz tili kafedrası mudiri*

hasanovnamuxa@gmail.com

Annotatsiya. Maqola ikkilamchi predikatlar bilan ifodalanadigan rezultativ tuzilmalar tadqiqiga bag'ishlangan. Asosiy predikatda ifodalanadigan voqea-hodisalarni ikkilamchi predikatda ajratgan holda ma'no jihatdan tahlil qilinishi, ikkilamchi predikatlar rezultativ va depiktiv ma'nolar anglatishi tadqiq etiladi. Rezultativlik, o'z navbatida, fe'lining statik xususiyati bilan ham aloqador bo'lib, bunda statik predikat rezultativ tuzilmani hosil qiladi. Gapning kesimida ifodalanadigan depiktiv ma'no, odatda, holatni, holat o'zgarishini, harakatni anglatuvchi fe'lining ma'lum semantik guruhlarida hosil bo'ladi. Shuningdek, depiktiv ifoda ot kesim bilan ifodalanadigan shaxsning jismoniy va psixologik holatini tasvirlashda ham o'z aksini topishi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: ikkilamchi predikat, rezultativ, statik, depiktiv ma'no, semantik guruh, psixologik holat.

Annotatsiya. Статья посвящена изучению результивной структуры, представленной вторичными предикатами. Изучено, что события, выраженные в главном сказуемом, анализируются с точки зрения смысла путём выделения их во второстепенном сказуемом, а второстепенные предикаты означают результат и описательные значения. Результивность, в свою очередь, также связана со статичным характером глагола, где статическое сказуемое образует результивную структуру. Описательное значение, выраженное в составе предложения, обычно образуется в определённых смысловых группах глагола, обозначающего состояние, изменение состояния, действие. Также отмечается, что описательное выражение отражается в описании физического и психологического состояния человека, выраженного причастием существительного.

Ключевые слова: вторичное сказуемое, результивное, статическое, описательное значение, семантическая группа, психологическое состояние.

Annotation. The article is devoted to the study of the result structure represented by secondary predicates. It is researched that the events expressed in the main predicate are analyzed from the point of view of meaning by highlighting them in the secondary predicate, and the secondary predicates mean the result and descriptive meanings. Effectiveness, in turn, is also associated with the static nature of the verb, where the static predicate forms an effective structure. The descriptive meaning expressed as part of a sentence is usually formed in certain semantic groups of a verb denoting a state, a change in state, an action. It is also noted that the descriptive expression is reflected in the description of the physical and psychological state of a person, expressed by the participle of a noun.

Key words: secondary predicate, resulting, static, descriptive meaning, semantic group, psychological state.

Kirish. Amerikalik tilshunos olimi S.Rotshteyn asosiy predikat va ikkilamchi predikatni ma'no jihatdan bir-biriga bog'liq bo'lgan hodisalar sifatida qaraydi. Muallif ikkilamchi predikat va asosiy predikat ifodalaydigan voqea-hodisa vaqti bir-biriga teng kelishi sabab bo'lishi mumkin, degan javobni beradi. Uning fikricha, ikkala predikat ma'no jihatdan bir-birini to'ldiradi (S.Rothstein; 2004, 68-69). G'.Mirsanov esa ikkilamchi predikatlar asosiy predikat anglatadigan aspektual semantikani aniq ifodalovchi ko'rsatgich vazifasini bajarishini ta'kidlaydi (G'.Mirsanov; 2018, 55). Shuningdek, muallif rezultativlikni tugallanganlik freymiga tegishli bo'lgan slot (tugun) sifatida baholaydi (G'.Mirsanov; 2019, 108-109), vaholanki, rezultativlik va tugallanganlik alohida hodisalar sanaladi. Chunki rezultativlik o'ziga xos tuzilmalarni tashkil qiladi. Shuning uchun ham rezultativlikni alohida hodisa sifatida qiyosiy o'rganish o'ziga xos samara berishi mumkin. Ammo muallifning rezultativlikni aspektual semantika turiga kiritishini ma'qullaymiz. Rezultativlikni alohida konstruksiya sifatida tahlil qilishimizga yana bir sabab ingliz tilida majhul nisbat to be ko'makchi fe'li va participle II shakli bilan yasalishi bilan bog'liq. Ammo he is gone tarzidagi rezultativ ifoda ham alohida tuzilma sifatida tan olinadi. Bundan tashqari mazkur birikmalar perfekt shakli bilan qarama-qarshi qo'yilishi ham odat tusiga kirgan. Masalan: *He has fallen* grammatik perfekt shakli ma'no

jihatdan harakatning hozirgi voqelik paytigacha sodir etilganligini anglatga, *He is fallen* rezultativ ma'noni ifodalaydi, berilayotgan ma'lumot natijani bildiradi. Bu kabi hodisalar ingliz tilidagi to fall, to set, to go, to do kabi qator bog'lovchi fe'llarga xos xususiyat sanaladi.

The sun is set/has set "Quyosh botdi" /He is gone to the market "U bozorga ketdi".

G'.Mirsanovning ta'kidlashicha, chegaralangan o'timli fe'llar obyekt holatini o'zgartirish ma'nosida rezultativ ma'noni anglatadi: But all that had ended when they moved the first shovel (Stone, 275) (G'.Mirsanov; 2019, 106). Fikrimizcha, mazkur holda fe'ning o'timli shaklidan tashqari to'ldiruvchi vazifasida kelgan birlikning son ko'rsatgichi, miqdoriy ko'rsatgichlariga ham bog'liq. Xususan, ushbu birikmani ko'plik shaklga transformatsiya qiladigan bo'lsak (moved several shovels) rezultativlik semasi o'z-o'zidan yo'qoladi.

Ma'lumki, fe'l leksemasi ifodalaydigan rezultativ ma'no aspekt shaklining semantikasi va fe'ning aksional (chegaralangan) turiga bog'liq tarzda quriladi (C.Smith; 1991, 1997). Mazkur qurilma har qanday voqea-hodisaning tilda ifodalanishida qatnashadigan ishtirokchilar hamda predikatda aksional tasnif tarzida aks etadigan ontologik xususiyat bilan bog'liq. Ma'lum tarzda ifodalanadigan voqea-hodisalar grammatikada o'ziga hos qurilmalar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ingliz tili grammatikasida shu kabi tuzilmalar ikki turda o'z ifodasini topadi: rezultativ va kauzativ tuzilmalar (A.Goldberg; 1995, 2005; W.Croft, 2001). Ushbu tuzilmalar o'ziga xos ma'no ifodalashi bilan ajralib turadi. Masalan: *She sneezed the napkin off the table*.

Asosiy qism. Ingliz tili grammatikasida ma'lum fe'llar guruhi doirasida yasaladigan shu kabi tuzilmalarning ikki xil ma'no (kauzativ va rezultativ) anglatish imkoniyatlari ko'plab tortishuvlarga sabab bo'lib kelmoqda. Fe'l semantikasi va kognitiv semantika bilan shug'ullanadigan ko'plab tilshunolar uni kauzativ tuzilma sifatida talqin etishadi (F.Palmer, 1988; J.Carrier, J.Randall; 1992, 173–234). Fe'ning aspektual semantikasi bilan shug'ullanadiganlar esa uni rezultativ semantikasi anglatuvchi alohida hodisa sifatida baholashadi (D.Dowty, 1972, Z.Vendler, 1967; C.Tenny, 1994; M.Krifka, 1998). Mazkur tuzilmalarni hosil qiladigan fe'llarni G.Gatenneli perifrastik kauzativ fe'llar deb nomlaydi (G.Gilquin; 2010, 37). Muallifning ta'kidlashicha, har bir perifrastik kauzativ fe'l bir turdagi ma'noni bir necha tuzilmalarda ifodalash imkoniga ega. Masalan, *get* fe'li bilan [X *get* Y Vto-inf], [X *get* Y Vpp], [X *get* Y Vprp] kabi qolipidagi tuzilmalar hosil bo'ladi. Konstruktiv grammatika sohosi vakillarining ta'kidlashicha, tuzilmalar bir-biridan shaklan farqlansa, ular alohida tuzilmalar sifatida baholanishi kerak. Chunki ular semantik yoki pragmatik nuqtayi nazardan turli ma'noni anglatishi mumkin va shuning uchun ham alohida tahlil qilinishga moyildir (A.Goldberg, 1995). Quyidagi misollarga e'tibor qaratamiz: *The door banged behind her and John Ryan saw, through the bedroom window, his wife run across the small foot bridge opposite the pub* (Maeve Binchy, 4). Keltirilgan misolda X adj.reflexiveVprp qolipi rezultativ tuzilmani hosil qilgan va ushuning ifodasi keyingi voqea-hodisalar uchun referensiya vazifasini bajargan.

Ma'lum turdagi birikmalarda kauzatsiya subyekti va kauzatsiyaga uchraydigan obyektning umumiy semantikasi fe'l kesimda aks etadi. Mazkur hol ingliz tiliga xos xususiyat sanaladi. Masalan: *And every evening while she was getting supper she made him take me out on the end of a string for a walk*.

O'zbek tilida esa biroz boshqacha vaziyatni kuzatishimiz mumkin. Kauzativ ifoda fe'lga morfologik qo'shimcha qo'shish orqali yuzaga keladi hamda subyekt harakatni amalga oshiruvchi vazifani bajaradi. Masalan: *Cho'l shamoli esib qamishzorlarda uvladi, qiz sochlarini to'zg'itdi, qoshlarini berkitib tashladi* (Said Ahmad, 362). Ushbu misolda V cause -it -Y konstruksiyasida kauzativlik -it suffiksi bilan ifodalangan. Kauzatsiya ta'sirida obyektning (sochlar, qoshlar) holati o'zgargan, rezultativ ma'no ifodalangan.

Ingliz tilida ikki predikatdan tashkil topgan va ma'no jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan tuzilmalar mavjud. Mazkur tuzilmalar rezultativ, kauzativ, depiktiv kabi turlarga bo'linadi. Xususan, birlamchi predikat subyekt harakatini ifodalasa, ikkilamchi predikat predikativ harakat natijasini, subyekt holatini, subyekt harakati tasvirini ifodalaydi. Rezultativlik va kauzativlik ma'lum ma'noda biri-birini to'ldiradi. Ba'zi hollarda bir tuzilma doirasida rezultativ va kauzativ ma'nolar birgalikda ifodalanishi mumkin. Rezultativlik ikkilamchi predikat vazifasida sifatdosh, infinitiv kabi fe'ning shaxssiz shakllari qo'llanilishida kuzatiladi. Depiktiv harakat va holatning qay tarzda amalga oshirilganligini ravish yoki sifat bilan ifodalangan tuzilmalarda kuzatish mumkin. Mazkur belgilar sirtidan o'xshash tuzilmalarda rezultativlikni depiktivdan farqlash imkonini beradi.

1) rezultativlik depiktivdan vaziyat bilan bog'liq harakat turida farqlanadi: *He left the party angrily // He was upset of the party*. Birinchi misolda shaxsning kechani qay tarzda tark etgani tasvirlangan. Misoldagi *the party angrily* konstruksiyasidagi depiktivlik *angrily* ravishi bilan ifodalangan. Keyingi misolda shaxsning kechadagi vaziyat ta'sirida yuzaga kelgan holati rezultativlikni hosil qilgan;

2) rezultativlik va depiktivlik ikkilamchi predikatda ishtirok etayotgan shaxssiz fe'ning leksik-semantik ma'nosiga bog'liq tarzda yuzaga keladi. *The cold made his nose run // The smell of the roast beef made Willy realize that he was hungry*. Birinchi misolda kauzativlik va rezultativlik bir tuzilma tarkibida ifodalangan. Kauzativlik asosiy predikatdagi kauzativ fe'lga xos bo'lsa, rezultativlik *his nose run* qurilmasining infinitiv bilan ifodalangan ikkilamchi predikatida o'z ifodasini topgan. Ikkinchi gapda esa kauzativlik va depiktivlik bir konstruksiyada o'z aksini topgan. Bu misolda ham kauzativlik bosh predikatdagi fe'lga xos xususiyat sanalsa, depiktivlik ikkilamchi predikat va to'ldiruvchi ergash gap anglatgan ma'nodan anglashiladi. O'zbek tilida rezultativ, kauzativ yoki depiktiv tuzilmalar bir-biriga yaqin ifodaga ega. Kauzatsiya mantiqan anglashiladi. Rezultativlik va depiktivlik bir tuzilmada ifodalanishi mumkin. Rezultativlik butun tuzilmaga xos ma'no bo'lsa, depiktivlik axborot xususiyatiga egaligi bilan baholanadi. Masalan: *U singan, parcha-parcha bo'lib ketgan oyna orasidan hamon iljayib qarab turardi* (Said Ahmad, 294). *Qurib-qovjirab qolgan qamishlarni olov bir chekkadan yamlab borardi* (Said Ahmad, 319).

Mazkur misollarda rezultativlik biror oldingi harakat oqibatida yuzaga kelgan yangi holat yoki harakatning natijasi sifatida baholanadi. Rezultativlik ba'zan holat ma'nosi bilan bog'liq grammatik shaklga ega bo'lsa, boshqa hollarda leksik-semantik xususiyatga ega. Keltirilgan misollardagi rezultativlik aynan ikkilamchi predikatga tegishli. Ikkilamchi predikat vazifasidagi *sinmoq, parcha-parcha bo'lmoq, qovjiramoq* fe'llarining leksik-semantikasida rezultativlikka yo'naltirilganlik mavjud. Aynan leksik-semantik usullarga moyil tillar tizimida ham rezultativlikning ifodalanishi ba'zi grammatik shakllarga bo'ysunadi. Rezultativlikning grammatik ko'rsatkichlari sifatida holat o'zgarishini anglatuvchi fe'llarning majhul nisbat shakli yoki sifatdosh shakllarini keltirish mumkin.

Tuzilmalar fe'l semantikasi tahlilida muhim o'rin tutadi. Bunda ma'lum fe'l sinfi doirasida yuzaga keladigan birikuvlar ajratib olinadi hamda tuzilma hosil qilish imkoniyatlariga qarab baholanadi. Natijada, ma'lum guruhga oid bo'lgan fe'llar anglatadigan ma'no nutqiy tuzilma ifodalaydigan ma'noga aloqadorligining bir necha usullari belgilanadi. Buning oqibatida fe'l anglatadigan ma'no bevosita o'zi ishtirok etayotgan tuzilma ma'nosini aks ettirmaydi. Konstruksiyalar tuzilishi har doim ham aytilgan tartibga ega bo'lavermaydi. Bu har bir til oilasiga mansub strukturalarning farqlanishi bilan bog'liq. Tillararo qiyoslashda fe'larning morfologik belgilari tuzilma yasallishiga ta'sir etishiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Misol uchun, *possesciv, applikativ, kauzativ* kabi lisoniy tushunchalar ingliz tilida fe'l leksemasining xususiyati sifatida baholanadi. Boshqa tillarda, xususan, o'zbek tilida fe'ning kategorial o'zgarishi morfologik belgilarga bog'liq. Fe'l o'zagiga qo'shiladigan qo'shimchalar, analitik shakllarni hosil qiladigan ko'makchi fe'llar ma'lum sinfga yoki guruhga tegishli bo'lgan fe'lni semantik jihatdan kichik guruhlarga ajralishi mumkin. Bu kabi hollarda leksik hodisaga asoslanish orqali tuzilmalarni farqlash amaliy ish bermasligi mumkin. Shuning uchun ham tuzilmalarni aniqlash va tahlil qilishda barcha leksik, morfologik, sintaktik vositalarga asoslanish ma'lum natijalarga olib keladi. O'zbek tilidan farqli o'laroq ingliz tilidagi ba'zi fe'llar guruhi tuzilmalarning asosini tashkil qiladi. Buni chegaralangan xususiyatli fe'ning depiktiv sifat bilan birikkanligida kuzatishimiz mumkin. Masalan: *The door closed shut* (O'Henry, 364). Misoldagi rezultativ konstruksiya *close* fe'lining aksional xususiyati va *shut* sifati semantik munosabatida hosil bo'lgan.

Xulosa. Rezultativlik fe'l harakati natijasida yuzaga kelgan holat o'zgarishi bilan bog'liq bo'lib, argument semantikasiga xos hodisa bo'ladi. Argument bu kabi hollarda patsiens vazifasini bajaradi. Shuning uchun ham ingliz tilida rezultativ tuzilmalar ham o'timli, ham o'timsiz fe'llardan keyingi pozitsiyada yuzaga kelishi mumkin. O'timli fe'llardan keyingi pozitsiyada hosil bo'ladigan rezultativ konstruksiyalar vositasiz to'ldiruvchiga taalluqli bo'ladi. Masalan: *"I had brushed my hair very smooth."* (Ch. Bronte, *Jane Eyre*);

"You killed it stone-dead." (Somerset Maugham, *"Altogether"*).

Mazkur misollarni sintaktik-semantik shakllanishga ko'ra ikki turdagi rezultativ konstruksiya tarzida baholash mumkin. Birinchi misolda o'timli fe'l va rezultativ fraza ma'no jihatidan uyg'unlashgan. Ikkinchi misolda esa rezultativ ma'no fe'l semantikasiga taalluqli hisoblanadi.

Ingliz tilida rezultativlikning o'timsiz fe'l yordamida hosil bo'lishi ham kuzatiladi. O'timsiz fe'l yordamida ifodalanadigan hodisalar "intransitiv rezultativ tuzilmalar" deb ataladi. Qiyoslang:

- a. *The joggers ran their Nikes thread bare.*
- b. *The kids laughed themselves into frenzy.*
- c. *He sneezed his handkerchief completely soggy.*
- d. *The boy cried himself sick.* (Rothstein S., 1992; 127)

Keltirilgan (a) misolda "Yuguruvchilar oyoq kiyimlarini yugurish orqali chokidan so'tiltirishdi", (b) misolda "Bolalar kulgudan o'zlarini yo'qotib qo'yishdi", (s) misolda "U aksa urish bilan ro'molchasini ho'l qilib yubordi", hamda (d) misolda "Bola yig'layverib kasal bo'lib qoldi" kabi ma'nolar ifodalangan. Mazkur

misollardagi rezultativ ma'nolar kompozitsional tasviriy ifoda natijasida yuzaga kelgan. Rezultativlik semantikasi fe'l va unga vositali to'ldiruvchining birikishi natijasida yuzaga kelgan.

Rezultativ tuzilmalar majhul ma'no yoki majhul nisbat shakllarida semantik jihatdan egaga bog'langan holda ham ifodalanadi. Masalan: "I charged with them, and got knocked silly for my pains." (Rider Haggard, "King Solomon's Mines", 93);

The tools were wiped clean. (O'Henry, 78).

ADABIYOTLAR:

1. Davlatova, M. H. (2019). Variability of Aspectual Meanings in English. *European Journal of Research and Reflection in Educational Science*, 7(12.2019), 778-780.
2. Davlatova, M. H. (2020). An Integrative history of Aspectual meanings. *JournalNX*, 6(04), 17-22.
3. Davlatova, M. H. (2020). Aspectual variability of information culture in the history of the English language. *International Journal on Integrated Education*, 3(3), 24-28.
4. Davlatova, M. H. (2020). Lexico-semantic Structure and Its Analysis on the Example of Verbs. *JournalNX*, 6(06), 189-192.
5. Davlatova, M. H. Relation of lexical-semantic structure of verbs in the linguistic essence. *IEJRD-International Multidisciplinary Journal*, 6(5).
6. Hasanovna, D. M. (2021). Semantic implementation of resultative structures. *Methods*, 7(6).
7. Davlatova, M. X. (2015). The role of songs in learning English. *Molodoy uchenyy*, (10), 1145-1147.
8. Hasanovna, D. M. (2021). Different aspects of resultative structures according to their linguistic essence. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2 (05), 475-479.
9. Davlatova, M. X. (2017). Etapy raboty s videotekstami na zanyatiyax Angliyskogo yazyka. *Internauka*, (9-2), 16-19.
10. Davlatova, M. X. (2015). The role of songs in learning English. *Molodoy uchenyy*, (10), 1145-1147.
11. Hasanovna, D. M. (2019). Variability of aspectual meanings in english. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 7.
12. Hasanovna, D. M. (2021). Linguistic and cognitive features of performing effective actions. *World Bulletin of Social Sciences*, 3(10), 41-44.
13. Davlatova, M. X. (2018). Rabota nad videotekstom na zanyatiyax angliyskogo yazyka. *Teoriya i praktika sovremennoy nauki*, (4), 242-246.
14. Davlatova, M. (2020). Aspectual and lexico-semantic classification of verbs. *So'z san'ati xalqaro jurnali*, 1.
15. Hasanovna, D. M. (2021). Different aspects of resultative structures according to their linguistic essence. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2(05), 475-479.
16. Hasanovna, D. M. (2022). Aspectual and lexical-semantic classification of verbs. *JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 8(2), 116-121.
17. Shadmanov, K. B., Davlatova, M. H., Ostonova, S. N., & Radjabova, A. T. (2020). English renaissance: transformation of 61 philosophy understanding as a factor of information culture development of the epoch. *Cross-Cultural Studies: Education and Science*, 5(1), 61-67.
18. Davlatova, M. X. Rabota nad videotekstom na zanyatiyax Angliyskogo yazyka. *Teoriya i praktika sovremennoy nauki*, 242-246.
19. Hasanovna, D. M. (2022). Aspectual and lexical-semantic classification of verb novateur publications *JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal* ISSN No: 2581-4230.
20. Hasanovna, D. M. (2022). Resultative and Causative Meanings in English and Uzbek Languages. *Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali*, 297-302.
21. Hasanovna, D. M. (2022). On the interrelationship of resultive and causative meanings. *World Bulletin of Public Health*, 9, 212-215.
22. Davlatova, M. X. (2021). The expression of resultative and depictive constructions in english and uzbek languages. *Mejdunarodnyy jurnal iskusstvo slova*, 4(5).
23. Davlatova, M. X. (2018). The easy way of learning english with the help of songs. *Teoriya i praktika sovremennoy nauki*, (4), 578-581.
24. Hasanovna, D. M. (2021). Semantic Implementation of resultative structures. novateur publications *JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*.

25. Davlatova, M. X. (2013). *Xoroshee povedenie-vajnyy sposob formirovaniya lichnosti*. Vestnik Tadjikskogo natsionalnogo universiteta, (3-6), 237-241.
26. Hasanovna, M. D. (2022). Typology of expressive emotional and linguistic features. *International Journal Of Literature And Languages*, 2(11), 65-69.
27. Davlatova, M. K. (2021). The process of transformation of philosophy understanding as factor of information culture of the period of the english renaissance (XVI C.). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(5), 949-957.
28. Davlatova, M. H. (2021). Rezultativlikning aspektual tadqiqotlar doirasida o'rganilishi. *Scientific progress*, 2(2), 1678-1683.
29. Davlatova, M. (2020). Fe'llarning aspektik va leksik-semantik tasnifi. *mejdunarodnyy jurnal iskusstvo slova*, 3(1).
30. Muhayyo, D. (2017). The rotor construction of cotton raw in appearing vertical boundary. *Internauka*, (9-2), 76-78.
31. Davlatova, M. H. Relation of lexical-semantic structure of verbs to resultability.
32. Shirinova, N. D., & Davlatova, M. K. Morphological way of differentiation of substance and attributive meanings in the language system. *ilmiy xabarnoma. nauchnyy vestnik Uchrediteli: Andijanskiy gosudarstvennyy universitet im. ZM Babura*, (1), 86-89.
33. Davlatova, M. H. (2020). Lexico Semantic Structure and its Analysis on the Example of Verbs *Journal NX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*. Issue, 6, 189-192.
34. Shirinova, N. D., & Davlatova, M. X. Morfologicheskoy sposob razgranicheniya znacheniy predmetnosti i kachestvennosti v sisteme yazyka. Muassis: Buxoro davlat universiteti Tahririyat: Muharrirlar: M.Q Abuzalova M.A Bokareva N.N Voxidova, 40.
35. Zayniddinovna, T. N. (2021). The Image of the Eastern Ruler in the Works of Christopher Marlowe. *Central Asian Journal Of Social Sciences And History*, 2(10), 10-14.
36. Zayniddinovna, T. N. (2022). The Problem of "A Strong Personality" in Shakespeare'Dramas: Richard III and Macbeth. *Middle European Scientific Bulletin*, 20, 7-10.
37. Zaynitdinovna, T. N. (2022). Lyrical Dialogue in Shakespeare's Poems as a Reflection of Renaissance Anthropocentrism and a Strong Personality. *Middle European Scientific Bulletin*, 21, 120-125.
38. Tasheva, N. Z. (2022). Kristofer marlou (literaturnyy analiz): tamerlen velikiy kak tip lichnosti vostochnogo pravatelya. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(2), 234-239.
39. Obidovna, D. Z. (2022). Gender differentiation of masculine and feminine verbalization. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(05), 59-65.

LINGVOMADANIYATSHUNOSLIKNING FAN SIFATIDA SHAKLLANISHI,
RIVOJLANISH BOSQICHI VA SOHANI O‘RGANISHGA DOIR YONDASHUVLAR

Fayzullayev Otabek Muhammadovich,

Buxoro davlat universiteti

Tarjima nazariyasi va lingvodidaktika kafedrası o‘qituvchisi, dotsent

o.m.fayzullaye@buxdu.uz

Ergasheva Gulyora Rapqatjon qizi,

Buxoro davlat universiteti 2-bosqich magistranti

g.r.ergasheva2022@buxdu.uz

Annotatsiya. Hozirgi globallashuv, integratsiyalashuv va madaniyatlarning aralashuvi yuz berayotgan davrda turli xalqlarning tili va madaniyatini o‘rganish, ularni qiyosiy tahlil qilish dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Bu masalarni hal qilish uchun nafaqat ma‘lum bir millat tilini, balki uning madaniyatini o‘rganish ham muhim hisoblanadi. Ko‘p yillik izlanishlar va taraqqiyot natijasida tilshunoslikda XX asrning oxirlariga kelib yangi soha “Lingvomadaniyatshunoslik” vujudga keldi va “til madaniyat bilan bog‘liq bo‘lib qolmasdan, uning o‘z madaniyatida kelib chiqqan va uni ifodalaydigan vositadir” dega faraz qabul qilinadi boshlandi. Shu bilan bir paytda til madaniyatning yaratilish vositasi, rivojlanishi, matnlar ko‘rinishida saqlanishi va uning tarkibiy qismi ham hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: lingvomadaniyatshunoslik, lingvokulturologiya, til, madaniyat, etnolingvistika, sotsiolingvistika, lingvomamlakatshunoslik, rivojlanish bosqichlari, lingvokulturologik maktablar, lingvomadaniy birliklar.

Аннотация. В нынешний период глобализации, интеграции и смешения культур одной из актуальных задач является изучение языка и культуры различных народов, их сравнительный анализ. Важным условием решения этих вопросов является изучение не только языка той или иной нации, но и её культуры. В результате многолетних исследований и разработок к концу двадцатого века в лингвистике возникла новая отрасль “лингвокультурология”, и стала приниматься гипотеза о том, что “язык, не оставаясь связанным с культурой, является средством её происхождения и выражения в собственной культуре”. При этом язык является средством создания, развития, сохранения культуры в виде текстов, а также её составной частью.

Ключевые слова: лингвокультура, линвокультурология, лингвокультурология, язык, культура, этнолингвистика, социоллингвистика, лингвострановедение, этапы развития, лингвокультурологические школы, лингвокультурные единицы.

Annotation. One of the urgent tasks is the study of the language and culture of different people, their comparative analysis during the current period of globalization, integration and interference of cultures. An important condition for solving these parables is the study not only of the language of a particular nation, but also of its culture. As a result of many years of research and development, by the end of the 20th century, a new field in linguistics “Linguocultural science” arose, and the hypothesis that “language, without becoming related to culture, is a tool that originates in its own culture and represents it” began. At the same time, language is a means of creation, development of culture, preservation in the form of texts, and is also a component of it.

Keywords: linguistic and cultural studies, language, culture, ethnolinguistics, sociolinguistics, stages of development, linguoculturological schools, linguoculturological units.

Kirish. Uzoq yillar mobaynida til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik muammosi ko‘pchilik olimlar o‘rtasidagi munozaralarga sabab bo‘ldi. Ularning ayrimlari til madaniyat bilan yaxlitning bir qismi sifatida bog‘liq desa, ba‘zilari til faqat madaniyatni ifodalash shakli deb hisoblashadi.

Mavzuga doir adabiyotlarning tahlili. Turli millatga mansub olimlar tomonidan soha rivojiga turlicha hissa qo‘shilgan, jumladan, ingliz tilshunos olimlari Judith M., Thomas N., Intercultural communication in contexts”, Geertz.C. The interpretation of culture, Vorobyov V.V. Лингвокультурология в кругу других гуманитарных наук, Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ.

высш. Учеб Красних В.В. Этнопсихолитгвистика и лингвокультуроология, Телия В.Н. Русская фразеология: Семантический. Прагматический и лингвокультурологический аспекты.

Tadqiqot metodologiyasi. Lingvomadaniyat tilshunoslikning mustaqil yo'nalishi sifatida XX asrning 90-yillarida vujudga kelgan. "Linguaculture", ya'ni "Lingvokulturologiya" atamasining kelib chiqishi haqida esa turli xil qarashlar mavjud. Ingliz tilida faoliyat yuritgan inglizabon olimlarning fikricha, lingvomadaniyat tushunchasi amerikalik antropolog Maykl Eger tomonidan yaratilgan bo'lib, tilning madaniyat bilan bog'liqlikda rivojlanishi demakdir. M.Eger "*linguaculture*" atamasidan birinchi marta o'zining "Language Shock: Understanding the culture of conversation" kitobida foydalangan. Shuningdek, *Linguaculture* atamasi keyinchalik boshqa bir amerikalik tilshunos va antropolog Paul Friderix tomonidan *Linguaculture* atamasiga aylantirilgan deb taxmin qilinadi. M.Eger lingvomadaniyatni til va madaniyatni bog'lovchi ip sifatida talqin qiladi. Bundan tashqari uning qayd etishicha, til va madaniyat barcha zamonlarda ham bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan va tilni madaniyatdan ayri holda o'rganishning imkonini yo'q. Shu sababli bir millat tilini o'sha millatning madaniyatini o'rganmasdan to'laqonli ravishda o'rganib bo'lmaydi. Olim Lingvomadaniyatni 2 ta madaniyat(LC1 – Source linguaculture hamda LC2 – Target linguaculture)ning bog'liqligi sifatida izohlaydi. Lingvomadaniyat asosan tilshunoslar tomonidan o'rganiladigan soha bo'lgani uchun bunda ikki til ikki madaniyat bir-biri bilan taqqoslanadi va solishtiruv natijasida kelib chiqqan yangiliklar, tilshunos yoki tarjimon uchun hayratlanarli holatlar Egerning fikricha, *Rich points*, ya'ni o'rganilayotgan madaniyatning kuchli jihati deb e'tirof qilinadi. Odamlar bu kuchli jihat bilan o'zlariga tushunarsiz bo'lgan va o'z madaniyatida duch kelmagan holatlarda to'qnashadilar. Bunday holatlar faqat tilda emas, kundalik hayotda ko'p kuzatiladi. O'z madaniyati va o'zga madaniyat o'rtasida yuzaga kelgan bu katta bo'shliq Culture shock deb ataladi [4, b.470].

Shuningdek, ba'zi boshqa tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, "lingvokulturologiya" lotincha lingua "til", cultus "hurmat qilish, ta'zim qilish", yunoncha "ilm, fan" degan ma'nolarni anglatib, ushbu termin V.N.Teliya rahbarligida Moskva frazeologik maktabi asoschilari Yu.S.Stepanov, A.D.Arutyunova, V.V.Vorobyov, V.Shaklein, V.A.Maslova tomonidan olib borilgan izlanishlar bilan bog'liq ravishda paydo bo'lgan[10.b, 286].

V.A.Maslovaning ta'rifiga binoan, lingvomadaniyatshunoslik bu – "Tilshunoslik va madaniyatshunoslik chorrahasida vujudga kelgan tilshunoslikning bir bo'limidir"[8.b,35-36]. Bundan tashqari, "Madaniyatshunoslik va tilshunoslik, etnolingvistika va madaniy antropologiya ilmiy tadqiqotlar natijalarini o'zida mujassam etgan bilimlarning integral sohasi"[10.b,286].

V.N.Teliya ham lingvomadaniyatshunoslikni etnolingvistikaning bir qismi sifatida hisoblab, uni "til va madaniyatning o'zaro sinxron ta'siridagi muvofiqlikni o'rganish va tavsiflashga bag'ishlangan fan" deb izohlagan [10.b, 217-218].

V.V.Krasnixning ta'kidlashicha, lingvomadaniyatshunoslik "Til va nutqda madaniyatning namoyon bo'lishi. Aks etishi va fiksatsiyasini o'rganuvchi fan bo'lib, dunyoning milliy manzarasini, lingvistik ongini, mental-lingualni murakkab o'rganish bilan bevosita bog'liq"dir[9.b, 12].

Tilshunoslikda XX asrning oxiriga kelib "til madaniyat bilan bo'g'liq bo'lib qolmasdan, balki uning o'z madaniyatida o'sib chiqqan va uni ifodalaydigan vositadir" degan faraz qabul qilina boshlandi. Chunki til vositasida madaniyatning moddiy va ma'naviy asarlari yaratiladi. Aynan shu g'oya asosida lingvokulturologiya fanning yangi, maxsus sohasi sifatida XX asrning 90-yillarida vujudga keldi. Lingvokulturologiya tilshunoslikdagi antroposentrik paradigmaning mahsuli bo'lib, u so'nggi yillar davomida rivojlanib kelmoqda. V.A.Maslova lingvokulturologiya rivojlanishini uch davrga ajratadi:

1. Fanning shakllanishiga asos bo'lgan dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi;
2. Lingvokulturologiyaning alohida tadqiqot sohasi sifatida rivojlanishi;
3. Lingvokulturologiyaning fundamental, mustaqil fan sifatida vujudga kelishi.

XX asrning oxiriga kelib Moskvada to'rtta lingvokulturologik maktab vujudga keldi:

1. Yu.Yu. Stepanov maktabi. Bu maktabning maqsadi madaniyatning davomiyligini diaxron nuqtayi nazardan tasvirlashdir. Yo'nalish turli davrlarda yaratilgan matnlar yordamida, ya'ni tilning faol egasi emas, balki tashqi kuzatuvchisi sifatida ish bajaradi.

2. N.D.Arutyunova maktabi. Ushbu maktab turli xalqlar va davrlarga oid matnlardagi umummadaniy terminlarni tadqiq etadi. Mazkur madaniy terminlar ham tilning faol egasi emas, balki tashqi kuzatuvchisi nuqtayi nazaridan o'rganiladi.

3. V.N.Teliya maktabi. U Rossiya va xorijda frazeologizmlarni lingvokulturologik tadqiq qilish bilan shuhrat qozongan maktab hisoblanadi.V.N.Teliya va uning shogirdlari lisoniy mohiyatlarni jonli til egasining refleksi nuqtayi nazaridan tadqiq qilishgan, ya'ni bu madaniyat semantikasini bevosita til va madaniyat subyekti orqali egallashga qaratilgan yo'nalishdir.

4. V.V.Vorobyov, V.M. Shaklein maktabi. Ular Ye.M. Vereshchagin va V.G.Kostomarovlarning ta'limotlarini rivojlantirishdi.

XXI asrning boshlariga kelib lingvokulturologiya jahon tilshunosligidagi yetakchi yo'nalishlardan biriga aylandi. Lingvokulturologiya tilda va diskursda o'z aksini topgan va mustahkamlangan xalq madaniyatini o'rganadi.

Hozirgi tilshunoslikda lingvomadaniyatshunoslikning nazariy va uslubiy tushunchalari V.V.Vorobyovning "Lingvokulturologiya" monografiyasida aniq yoritilgan. Ushbu monografiyada muallif lingvomadaniyatshunoslikni bir necha jihatlarida izohlaydi:

- bu sintezlovchi tipdagi ilmiy fan, madaniyat va filologiyani o'rganuvchi fanlar orasidagi chegara;
- lingvomadaniyatshunoslikning asosiy obyekti – madaniyat va tilning faoliyat ko'rsatish jarayonidagi munosabati va o'zaro ta'siri va bu ta'sirning yagona tizimli yaxlitlikdagi talqinini o'rganish;
- lingvomadaniyatshunoslikning predmeti – jamiyat borligining til aloqasi tizimida takror ishlab chiqariladigan va uning madaniy qadriyatlariga asoslangan milliy shakllari, dunyoning lisoniy manzarasini tashkil etuvchi barcha narsalar;
- lingvomadaniyatshunoslik yangicha fikrlash tomonidan ilgari surilgan madaniy qadriyatlarning yangi tizimiga, jamiyatning zamonaviy hayotiga, fakt va hodisalarni to'liq va xolisona talqin qilishga asosiy e'tiborni jalb qiladi;

- xalq madaniyatini obyektiv, to'liq va yaxlit talqin qilish lingvomadaniyatshunoslikdan xalq madaniyatining uning tilida, ularning dialektik o'zaro ta'siri rivojlanishida tizimli tasvirini talab qiladi.

Yuqorida berilgan fikrlarga asoslangan holda, V.V.Vorobyov tilshunoslik va madaniyatshunoslik chorrahasida vujudga kelgan lingvomadaniyatshunoslik ma'lum bir milliy-madaniy hamjamiyati til shaxsining ma'naviy qadriyatlari va tajribasini ma'lum bir shaklda shakllangan majmuasini o'rganadigan yangi filologik fan bo'lib, eng avvalo, jonli kommunikativ jarayonlarni va ularda o'rgatilayotgan lingvistik iboralarning xalqning sinxron harakat qiluvchi mentaliteti bilan bog'lanishini o'rganadi va ta'limning tarbiyaviy va intellektual vazifalarini bajarilishini ta'kidlagan [7. b, 77].

Til, madaniyat, etnosning o'zaro aloqasi masalasini o'rganish fanlararo muammo hisoblanadi. Mazkur muammoning yechimini falsafa, sotsiologiyadan tortib, etnolingvistika va lingvokulturologiyagacha bo'lgan bir necha fanlarning birgalikdagi sa'y-harakatlari bilangina hal qilish mumkin. Lingvokulturologiya etnolingvistika va sotsiolingvistika bilan chambarchas aloqadadir. Hatto V.N.Teliyaning fikriga ko'ra, lingvokulturologiya etnolingvistikaning tarkibiy qismidir. Ammo lingvokulturologiya ham, etnolingvistika ham o'z mohiyatiga ko'ra alohida fanlardir.

Sotsiolingvistika tilshunoslikning tilni va uni mavjud bo'lgan ijtimoiy sharoitlar bilan bog'liqligini o'rganadigan sohasi bo'lib, bu soha ham lingvokulturologiyan fani bilan bog'liqdir.

Lingvokulturologiyaning Lingvomamlakatshunoslikdan ham ajratish lozim. *Lingvomadaniyatshunoslik* va *lingvomamlakatshunoslik* o'rganish obyektlariga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Lingvomamlakatshunoslik tilda o'z aksini topgan realiyalarni o'rganadi.

Lingvokulturologiya *etnopsixolingvistika* bilan ham o'zaro bog'liqdir. Etnopsixolingvistika nutqiy faoliyatda muayyan an'analar bilan bog'liq muomala elementlarining qanday paydo bo'lishini, turli til egalarining verbal va nonverbal muloqotidagi farqlarni o'rganadi. Etnopsixolingvistikaning asosiy tadqiqot metodi assotsiativ eksperiment bo'lsa, lingvokulturologiya o'rniga ko'ra tilshunoslik va madaniyatshunoslikning turli metodlaridan foydalanadi.

Lingvokulturologiyaning predmeti o'zaro aloqada bo'lgan til va madaniyat hisoblanadi. Lingvokulturologiya madaniyatshunoslik va tilshunoslik kesishgan nuqtada shakllangan tilning tadqiqining yangi sohasidir. Lingvokulturologiya madaniyat va tilning o'zaro aloqasini, ta'sirini, tilda o'z aksini topgan xalq madaniyatining ko'rinishlarini tadqiq etadi. Bundan tashqari lingvomadaniyatshunoslikning predmeti sifatida madaniyatda ramziy, obrazli, metaforik ma'no kasb etgan va natijalari inson ongida umumlashtirilib mif, afsona, folklor va diniy diskurslarda, poetik va prozaik badiiy matnlarda, frazeologizmlarda, metaforalarda va ramzlarda aks etadigan til birliklari ham nazarda tutiladi. Bu holatda bir necha lingvokulturologik birlik bir vaqtning o'zida bir qancha semiotik tizimlarga tegishli bo'lishi mumkin, bunda biror bir odat frazeologizmga, maqolga yoki matalga aylanishi mumkin.

Lingvokulturologiyaning obyekti – madaniyat va tilning o'zaro aloqasi va ta'sirini yaxlitlikda tadqiq qilishdir. Lingvomadaniyatshunoslik tilni madaniyatning fenomeni, madaniyatning tashuvchisi sifatida o'rganadi. Madaniyatni esa o'sha tildan foydalanuvchi inson yaratadi. Lingvokulturologiyaning obyekti lingvistika va kulturologiya, etnografiya va psixolingvistika singari qator fundamental fanlarning kesishmasida joylashadi.[8. b, 35-36]

Tadqiqot obyektining vaziyatidan kelib chiqib, uning alohida lingvomadaniy birliklardan tashkil topgan bir qancha predmetlarini ko'rsatish mumkin. Bularga quyidagilar misol bo'la oladi: muqobilsiz leksika va lakunalar, mifologiyalashtirilgan til birliklari, tilning paremiologik fondi, tilning frazeologik fondi, o'xshatishlar, ramzlar, stereotiplar, tilning metaforalari va obrazlari, tilning stilistik qatlami, nutqiy muomala va nutq etikasi.

Tilshunoslikda tilni obyekt sifatida grammatik va leksik tomondan tadqiq etilsa, lingvomadaniyatshunoslikda esa tilning tarixan rivojlanishi, ko'p asrlik o'tmish va mahalliy hayot tarzi ta'sirida, turli marosim, an'ana va urf-odatlar ta'sirida yuzaga kelgan so'zlarning mohiyati o'rganiladi.

Lingvomadaniyatshunoslikning mustaqil fan sohasi sifatidagi maqsadi quyidagilardan iborat:

- til konseptlari shakllanishida madaniyat qay darajada ishtirok etishini tadqiq etish;
- til belgisi ma'noning qaysi qismiga "madaniy ma'nolar" biriktirilishini o'rganish;
- bu ma'nolar so'zlovchi va tinglovchi tomonidan anglashilish-anglashilmasligi va nutq strategiyasiga ta'sirini o'rganish;
- til egasining lisoniy-madaniy qobiliyati bor-yo'qligini tekshirish;
- konseptosfera, ya'ni muayyan madaniyatning asosiy konseptlari yig'indisi, bir madaniyat va ko'p madaniyat egasi yo'nalgan madaniyat diskursini o'rganish;
- mazkur fanga doir asosiy tushunchalarini sistemalashtirish va terminologik apparatni yaratish [1.b, 32-34].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, lingvomadaniyatshunoslik globallashtirish, til va madaniyatning aralashuvi asosida XX asrning o'rtalariga kelib, tilshunoslikning mustaqil bo'limi sifatida vujudga keldi. Lingvomadaniyatshunoslik va lingvokulturologiya atamalari bir xil ma'noli so'z bo'lib, inglizcha "Linguoculture" so'zining o'zbek va rus tillaridagi tarjimalari hamda yangi fan nomi hisoblanadi. Lingvomadaniyatshunoslik fani etnolingvistika, sotsiolingvistika, etnopsixolingvistika, lingvomamlakatshunoslik, madaniyatshunoslik fanlari bilan chambarchas bog'liqdir.

ADABIYOTLAR:

1. Judith Martin, Thomas Nakayama. *Intercultural communication in contexts*. -5th ed.-New York:Mc Graw-Hill, 2010.-528p.
2. Geertz.C. *The interpretation of culture*.-New-York:Basic books, 1973. – 473 p.3
3. Xafizovna R.N. (2022). *Discourse Analysis of Politeness Strategies in Literary Work: Speech Acts and Politeness Strategies*. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 5, 123-133
4. Zokirova N.S (2020) *Translatology and the analysis of its linguistic mechanism*. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 1(4), 8-10.
5. Nafisa K. *Cognition and Communication in the Light of the New Paradigm* //European journal of innovation in nonformal education. – 2021. – T. 1. – №. 2. – C. 214-217.
6. Ruziyeva Nilufar Xafizovna, & Xolova Madina Boboqulovna. (2022). *Politeness In Literary Works: An Overview*. *Eurasian Research Bulletin*, 7, 200–206.
7. Zokirova Nargiza Savriyevna. (2022). *The Concept of Discourse as A Cognitive Phenomenon of Translation*. *Eurasian Research Bulletin*, 7, 207–211.
8. Ruziyeva, N. (2022). *Негативные стратегии вежливости на английском языке. центр научных публикаций (buxdu.Uz)*, 8(8).
9. Xafizovna R.N. (2023). *The Study of Context: From Static to Dynamic*. *Miasto Przyszłości*, 32, 242–246.
10. Xafizovna R.N. (2022). *Linguistic Politeness Theory Review: Yueguo Gu, Sachiko Ide, Shoshena Blum Kulka, Bruce Fraser and William Nolen, Hornst Arndt and Richard Janney*. *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*, 2(5), 145–152.
11. Ruziyeva Nilufar Xafizovna, & Xolova Madina Boboqulovna. (2022). *Politeness In Literary Works: An Overview*. *Eurasian Research Bulletin*, 7, 200–206.

KINOFILMLAR TILIDA EVFEMIZMLARNING TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI

Shirinova Mexrigiyo Shokirovna,

Buxoro davlat universiteti

O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika

kafedrası o‘qituvchisi, PhD

m.sh.shirinova@buxdu.uz

Rzayeva Chinara Vagif gizi,

Ozərbaycan Respublikası

Milliy Azərbaycan ilmiy akademiyasının

Naxçıvan bo‘limining dotsenti,

filologiya fanlari doktori

Annotatsiya. Maqolada mustaqillik davri o‘zbek kinofilmlari tilida uchraydigan evfemizmlarning me‘yoriy-nome‘yoriy holatlari ortologik aspektida o‘rganilgan. Tabu va evfemizm tushunchalari ilmiy adabiyotlarda hamisha yonma-yon izohlanishi ta’kidlangan hamda mazkur tushunchalarga oid tadqiqotlar tahlilga tortilgan. Kinofilmlar tilida uchraydigan evfemizmlar tanlab olinib, ma’noviy guruhlariga ajratilgan. Filmlarda leksik, leksik-ekstralingvistik evfemizmlardan tashqari ekstralingvistik evfemizmlardan foydalanilgan kadrlar mavjudligi ham ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: tabu, evfemizm, kino tili, adabiy me‘yor, leksik evfemizm, leksik-ekstralingvistik evfemizm, evfemizm vazifasi.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ЭВФЕМИЗМОВ В ЯЗЫКЕ КИНОФИЛЬМОВ

Аннотация. В статье в орфологическом аспекте исследуются нормативные и ненормативные случаи применения эвфемизмов, встречающиеся в языке узбекских фильмов периода независимости. Отмечается, что в научной литературе понятия табу и эвфемизм всегда трактуются во взаимосвязи, наряду с этим анализируются исследования, связанные с этими понятиями. Эвфемизмы, встречающиеся в языке кинофильмов, были отобраны и разделены на смысловые группы. Отмечается, что помимо лексических и лексико-экстралингвистических эвфемизмов, в фильмах присутствуют также кадры с использованием экстралингвистических эвфемизмов.

Ключевые слова: табу, эвфемизм, киноязык, литературная норма, лексический эвфемизм, лексико-экстралингвистический эвфемизм, функция эвфемизма.

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF EUPHEMISM IN THE LANGUAGE OF CINEMA

Annotation. In the article, in the orthological aspect, normative and non-normative cases of the use of euphemisms, found in the language of Uzbek films of the period of independence, are examined. It is noted that in the scientific literature the concepts of taboo and euphemism are always interpreted in conjunction, along with this, studies related to these concepts are analyzed. Euphemisms found in the language of films were selected and divided into semantic groups. It is noted that in addition to lexical and lexical-extralinguistic euphemisms, the films also contain shots using extralinguistic euphemisms.

Key words: taboo, euphemism, film language, literary norm, lexical euphemism, lexical-extralinguistic euphemism, euphemism function.

Kirish. Tilshunoslikka oid manbalarda tabu va evfemizm ko‘pincha yonma-yon qo‘llanilib, etnolingvistikaning tadqiq obyekti ekanligi ta’kidlangan. Har bir tilda aytilishi nojoiz bo‘lgan, taqiqlangan so‘zlar mavjud bo‘lib, uni tilshunoslikda, odatda, tabu termini bilan nomlanadi. Tabu “man qilingan, taqiqlangan” kabi ma’nolarni anglatadi. Ushbu birlikning qo‘llanilishi qadimgi davrlarga borib taqalganligi sababli qachon paydo bo‘lganligi haqida aniq ma’lumot mavjud emas. Ibtidoiy jamoa davrida ham odamlar sehr-jodu bilan bog‘liq turli tushunchalarni ishlatishdan qo‘rqishgan. Natijada, ushbu so‘zlarning o‘rnida yumshoqroq, chiroqli, shuningdek, sirli so‘zlarni izlash boshlangan.

Tabu etnografik tushuncha bo'lib, u afsona va e'tiqodlar ta'sirida paydo bo'ladi. Yevropaning shimolidagi dastlabki qabilalar uchun ayiq juda xavfli, qo'rqinchli hayvon sanalgan. Uning g'azablangan paytidagi holatidan qattiq qo'rqanliklari sababli ayiq so'zi o'rnida "asal yeyuvchilar", "asal yalaganlar" kabi birliklardan foydalanishgan. Bu eng qadimiy, bundan ming yil ilgari ishlatilgan birinchi evfemizm sifatida qaraladi.

Asosiy qism. Evfemizmlarni ilk marta eski va zamonaviy turga ajratishni o'rinli deb bilgan tadqiqotchi B.A.Larin edi. U eski va zamonaviy evfemizmlarga ajratish man qilingan maqsadga bog'liqligini ta'kidlaydi [1]. Tilshunos O.D.Pastuxova "Tabu va evfemizmlar ma'nosi bir-biriga yaqin so'zlar, matnlarda ularni kontekstual sinonim deb atash mumkin" [2] deb hisoblaydi.

Evfemizmlar ijtimoiy ahamiyatga ega vositalar sanalib, ko'p hollarda ular faqat uslubiy sinonimlar yoki biror til birligining o'rnini bosadigan vositalar emas, balki muayyan hodisaga yangicha munosabatda bo'lishni, uni ko'rib chiqishning yangi ko'lamini, hodisaning yangi axloqiy-estetik ko'rinishini o'z ichiga oladi. Shunga asoslanib aytish mumkinki, ko'p miqdordagi evfemizmlarning paydo bo'lishi odamlarning hayotida jamiyat bilan bog'liq o'zgarishlar mavjudligidan dalolat beradi, shuningdek, ular ongida ijtimoiy-siyosiy tushunchalarning paydo bo'lishi hamda mustahkamlanishi natijasidir. Bir tomondan, evfemizmlar jamiyat ongida paydo bo'lgan o'zgarishlarni aks ettiradi, boshqa tomondan esa, jamiyatga yangi g'oyalarni tarqatish, mustahkamlashga yordam beradi. Evfemizm majoziy talqin qilish uchun muhim vosita sanalib, og'zaki muloqotning samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. "Evfemizatsiya bu – nomni rad etish yoki kod nomini berish to'g'risidagi guvohnoma" [3] degan fikrdan ham anglash mumkinki, evfemizmlar ma'lum bir so'zlarning o'rnida ishlatiladi.

Har qanday til boyligida evfemizmlar alohida o'ringa ega bo'lib, til egalarining ma'naviy olami, dunyoqarashi, axloq-odobi, madaniyati hamda so'zlashish etikasini namoyon etadi. Evfemizm grekcha so'zdan olingan bo'lib, "yaxshi (muloyim, chiroyli) so'zlayman" degan ma'noni anglatadi. Shuningdek, "narsa-hodisaning ancha yumshoq shakldagi ifodasi; qo'pol, beadab so'z, ibora va tabu o'rnida qo'pol botmaydigan so'z (ibora)ni qo'llash" [4] kabi ma'nolarni ifodalashi lug'atlarda aks etgan. Ma'lumotlarga qaraganda, "evfemizm" atamasi 1793-yilda ilmiy muomalaga kiritilgan (prefiks eu – yaxshi, juda yaxshi ma'nosida) [5]. Ko'pgina tadqiqotchilar fikriga ko'ra, evfemizmlar – qo'llanilishi noo'rin, aytilishi taqiqlangan so'zlarning o'rnida almashinib keluvchi birlik.

Jahon tilshunosligida tadqiq obyekti evfemizm bo'lgan ilmiy ishlar anchagina bo'lib, bu holat evfemizm hodisasining xilma-xil qirralari mavjudligi va turli sohalar bilan chambarchas bog'liqligidan dalolat beradi. Buni evfemizmlarga berilgan turli-tuman ta'riflar ham isbotlaydi. Jumladan, "ma'lum bir sabab bilan qo'llash maqsadga muvofiq bo'lmagan yoki noqulay sanalgan ifodaning o'rnida qo'llanuvchi so'z, ibora" [6], "qo'pol ifodaga ega bo'lgan, voqea-hodisaning nomini yoqimli, yumshoq ifodalagan mo'tadil ma'no" [7], "...man qilingan so'zlarni almashtirish uchun boshqa so'zlar – evfemizmlar kerak. Evfemizmlar – man qilingan so'zlar o'rnida ishlatiladigan, ruxsat berilgan o'rinbosar so'zlardir" [8] va boshqalar.

O'zbek tilshunosligida ham evfemizmlar masalasi bir qator ishlarda tadqiq etilgan. Ayni ishlar sirasiga N.Ismatullayev, A.Omonturdiyev, M.Mirtojiyev, A.Mamatov, X.Qodirova, Z.Xolmanova, D.Rustamova kabilarning tadqiqotlarini kiritish mumkin [9-20]. Bundan tashqari, keyingi yillarda evfemizmlarni tor doirada o'rgangan yosh olimlar – N.G'aybullayeva, Sh.Gulyamovalarning [21-24] ishlarini ham sanash mumkin.

O.D.Pastuxova "Tabu so'zlar hozirgi davr uchun ahamiyatli emas, bugungi kunda u o'z rolini yo'qotgan deb aytish mumkin" deydi. Haqiqatdan ham, ilk tabular paydo bo'lish sababiga ko'ra o'z vazifasini o'tab bo'ldi, ammo zamonaviy mazmundagi tabular mavjudligini inkor etib bo'lmaydi. Bunday birliklar sirasiga aytilishi noqulay, uyatli sanalgan yoki ko'rsatilishi milliy mentalitetga mos kelmaydigan ham lisoniy, ham ekstralingvistik vositalar orqali ifodalangan lug'aviy birliklarni kiritish mumkin. Aynan shu ikki turdagi tabular o'zbek kinofilmlari tilida mavjud. Masalan, o'zbek oilalarida er-xotin bir-biriga *er*, *xotin* deb yoki ismini aytib murojaat etishi o'zbek muloqot etikasiga unchalik mos tushmasligini yaxshi bilamiz, ammo ba'zi film qahramonlari nutqida urning o'z ayoliga nisbatan xotin so'zidan ko'p foydalanishi yoki ismini aytib chaqirishi uchraydi. Ushbu holat yaqinda turmush qurgan yoki hali farzand ko'rmagan er-xotinlar nutqida uchrasa, me'yoriy holat hisoblanadi, ammo bir necha farzandli yoxud yoshi katta insonlarning nutqida ishlatilishi o'zbek xalqiga xos mentalitet me'yoriga zid. Bundan tashqari, film nomiga "Xotinimning dugonasi" deya nom berilishi ham zamonaviy tabudan foydalanish sanaladi. Ayni shu holatlarni kino tilida tabudan foydalanish me'yorining buzilishi deb atash mumkin. Shuningdek, "Ichkuyov" filmida Go'zal ismli qahramonning o'z onasiga qarata aytgan quyidagi gaplarini "hazm qilib" bo'lmaydi:

– Oyi, nimaga indamaysiz? *Eriyizga* bir nima desayiz-chi [00:43:16].

Qiz o'z otasiga nisbatan *eriyizga* degan qo'pol, taqiqlangan so'zni ishlatadi. Mazkur o'rinda tabu so'z juda noo'rin tanlangan hamda kino tilini yaratishda o'ta jiddiy xatoga yo'l qo'yilgan. Buni har qanday izoh bilan ham oqlab bo'lmaydi. Ekranga olib chiqilgan ushbu xunuk holat tomoshabin, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodning nutq madaniyatiga jiddiy ta'sir o'tkazadi.

Insonlar o'zi qo'rqqan, xavfli deb sanagan voqea-hodisa, tushunchalarni ishlatmaslikka harakat qilishgan. Ko'pincha, bolalar ota-onalariga «Men qanday tug'ilganman?» deb savol berishadi. Bunga javoban ular to'g'ridan-to'g'ri emas, balki o'rinbosari bo'lgan boshqa so'zlar (evfemizmlar) bilan javob qaytarishadi: «Laylak sizni olib keldi», «Sizni yo'ldan topib oldik» yoki «Biz sizni shifokorlardan sotib oldik» va hokazo. Biz bu holatni «Qaysarginam 2» filmidagi Jasur va Jasmina dialogida ham kuzatamiz:

- Birinchidan, bu sani qorningda.
- Hmm.
- Ikkinchidan, buni manga umuman aloqasi yo'q.
- Tushunmadim.
- Nimani tushunmaysan?
- Nima buni *laylak tashlab ketdimi* bizga? [00:01:57]

Bundan tashqari, aynan shu parchada olmosh so'z turkumiga mansub buni so'zi ham evfemizm vazifasini o'tagan, chunki kinoqahramon odob me'yoriga rioya qilgan holda «qornimdagi homila» jumlasini ochiqdan-ochiq qo'llamaydi. Bugungi kunda tabu-evfemizmlar avvalgidek sehr-jodu, e'tiqod bilan bog'liq vazifani emas, butunlay boshqa, ya'ni xalqning muloqot etikasi bilan bog'liq vazifani bajaryapti. Endilikda har bir kishi nutqida evfemizmdan foydalanmoqchi bo'lsa, avvalo, xalqning so'z qo'llash madaniyati, odob-axloq qoidalarini puxta egallashi, qo'pol so'zlar o'rnida uning yumshoq variantini tanlay olishi talab etiladi. Bu esa kishining qanchalik madaniyatli, saviyasi baland inson ekanligini ko'rsatadi.

O'zbek muloqot madaniyatida evfemizmlardan unumli foydalaniladi, sababi, xalqimiz tabiatan xushmuomalalikni sevuvchi, yumshoq fe'lli, suhbatdoshining dilini og'ritmaslikka harakat qiluvchi mehribon xalqdir. Buni betakror badiiy asarlar, sahna asarlari, kinofilmlar, yuksak madaniy nutq egalari misolida yaqqol kuzatish mumkin. Evfemizmlar davr, vaqt bilan bevosita bog'liq bo'lganligi bois hamisha yangilanib turadi. Mustaqillik davri o'zbek kinofilmlari tilini kuzatganimizda bunga amin bo'ldik. Ma'lumki, kinofilmlar tili og'zaki nutqning bir ko'rinishi sanalib, ommaga taqdim etiladigan «andaza» tildir. Kinolarda evfemizmlardan qay darajada foydalanilayotgani aniqlash maqsadida bir necha filmlardan olingan misollarga e'tiborimizni qaratamiz. «Janob qorovul» filmidagi Solijon aka bilan homilador kotiba o'rtasidagi dialog quyidagicha kechadi:

- Nima kutyapsizlar? Xo'jayinmi, kotibami?
- Xo'jayin [00:22:20].

Muloqot strategiyasi – soʻzlovchining nutqiy faoliyatni amalga oshirishning ijodiy rejasini tuzib olishidir. Unda muayyan muloqot interaksiyasida umumiy lisoniy/lisoniy boʻlmagan bosh masala oʻz yechimini topadi. Bu moslashuvchan mexanizm muloqot jarayonida doimiy tuzatishlarga uchraydi, samarali yechim topish imkonlarining izlanishida boʻladi. Umumiy koʻrinishda strategiya – bu qoʻyilgan masalalar yechimining samarali yoʻllarini vaziyatga mos ravishda oʻzgaruvchan va muayyan joydan (lokal) boshqarish usulida nazorat qilinuvchi, kognitiv rejaning tavsifidir. Strategiyalar “tanlovga” bevosita bogʻliq boʻlib, kommunikantga qoʻyilgan masalalarni eng yaxshi tarzda yechish imkonini beradi. Muloqot maqsadiga eng maqbul yoʻl bilan erishish strategiyaning “yaxshi” koʻrinishi hisoblanadi.

Nutqiy strategiya nutqiy aktlar nazariyasining bir boʻlagi sifatida muloqotning samarali kechishini taʼminlovchi usullardan biri sanaladi. Nutqiy akt jarayonida nutqiy strategik vazifani birgina soʻz yoki gap tashkil qilishi mumkin. Nutqiy akt nazariyasi uchun soʻz yoki gap asosiy birlik emas. U gap yoki soʻzdan tayyor “material” sifatida foydalanmaydi. Unga nutqiy muloqot jarayonida yaratiladigan hodisa sifatida qarash lozim. Nutqiy akt mazmuni toʻliqicha soʻzlovchining muloqot maqsadi bilan bogʻliq boʻladi.

Yuqorida aytib oʻtilganidek, strategiyalar maʼlum taktikalar yordamida amalga oshiriladi. Taktika deb, soʻzlovchi tomonidan koʻzlangan javob harakatlarini yoki oʻzining nutqiy harakatiga javoban tinglovchidan uning noverbal reaksiyasini olish uchun oʻzidagi bor verbal qobiliyatlarni mohirona, dinamik holatda qoʻllay olishi tushuniladi. Modomiki, suhbatlashish qoidasi oʻziga xos shartlar asosida qurilar ekan, dialogik diskurs ijtimoiy-psixologik omillar, jumladan, diskurs ishtirokchilarning mavqeyi, ularning yoshi, jinsi, ularning qiziqishlari asosida yuzaga kelishi tabiiy. Oʻzaro hamkorlik ishtirokchilari mushkul vaziyatda qanday yoʻl tutishlarini aniqlab beruvchi umumiy strategiyaga ega boʻlishlari lozim. Masalan, kommunikantlar umumiy xushmuomalalik strategiyasi bilan harakatlar ketma-ketligiga qandaydir taʼsir oʻtkazishi mumkin. Bu strategiya qaysi semantik mazmunni ifodalash kerak, qaysini esa yoʻq, qaysi nutq aktlari mumkin, qaysisi

mumkin emas, ayniqsa, qaysi stilistik mazmunni ifodalash ma'qulroq ekanligini aniqlab beradi, ya'ni nutq strategiyalari, odatda, semantik, pragmatik va stilistik tanlovning lokal imkoniyatlarini cheklab qo'yadi.

Strategiyalar samaralilik xususiyatiga ko'ra kuchli, kuchsiz, moslashuvchanligi bilan o'zaro farqlanadi. "Samarali kuchli nutqiy muloqot strategiyasi" tushunchasiga muloqot ishtirokchisining nutqiy muomala yo'nalishi kiritildi. Har qanday kommunikativ vaziyatda ham muloqot ishtirokchisi qisqa muddat ichida o'z maqsadiga erishish uchun muloqot prinsiplari, me'yorlari va qoidalarini ongli ravishda buzadi. Shuning uchun muloqot strategiyalarini ikki guruhga ajratamiz.

Kommunikantning kuchsiz nutqiy muloqot strategiyasi – u har qanday vaziyatda ham nutqiy muloqotning qoida va ma'yorlariga rioya qilishga urinadi.

Moslashuvchan nutqiy muloqot strategiyasi – dialogik diskursdan kelib chiqib, muloqot qoidalari va me'yorlarini qabul qilmaydi yoki ularga amal qilishga intiladi. Ko'rsatib o'tilgan strategiyalarda shaxslarning uchta tipi mos keladi, ya'ni avtoritar, liberal va demokratik. Nutq strategiyasini tashkil etuvchi elementlar argumentasiya (ishontiruvchi), motivasiya (yangilikka undovchi), baho beruvchi, hissiyotni ifodalovchi kabi harakat turlarini o'z ichiga oladi. Nutq egasining u yoki bu mexanizmi ijtimoiy me'yorlar, turli xil qadriyatlar tizimida birlashib, insonning nutqiy faoliyatidagi o'rnini belgilaydi.

Kommunikativ strategiyalar va taktikalar harakatlarning kognitiv rejasi hamda uning aniq amalga oshirilishi sifatida o'zaro bog'liqdir. Bu taktika milliy shartlanganlik bilan tavsiflanadi. Shunday qilib, interaksiya yoki dialogik diskurs – bu muayyan strategiya yoki ma'lum interaksonal intensiyaga xos ravishda nazoratda bo'lgan u yoki bu vazifaning yechimini o'z ichiga olgan nutqiy harakatlarning ketma-ketligidir. Strategiya so'zining leksik ma'nosi asosida ijtimoiy vaziyatga aloqador bo'lgan qarama-qarshilikni biror konfliktsiz yo'l bilan hal qilish g'oyasi yotadi. Mazkur tushunchaning psixologik tahlilida muloqot ishtirokchilarining o'zini tuta bilishi, vaziyatni keskin tus olishiga yo'l qo'ymaslik taktiklari e'tiborga olinadi.

Kommunikativ strategiyalarda interaksonal intensiyalar yetakchi o'rinni egallaydi. Interaksonal intensiyalar – ma'lum bir maqsadga erishish uchun kommunikantlar tomonidan sodir qilinayotgan, muloqotning ijtimoiy me'yorlari aks etgan lisoniy harakatlar. Interaksonal intensiyalar deb kommunikantlarning ijtimoiy hodisalar kontekstidagi nutqiy strategiyasini ham aytish mumkin. Interaksonal intensiyalarning o'zaro hamkorligi orqali interaksiyalarning mazmuni aniqlanadi. Ya'ni shaxslararo muloqotning qaysi turi ekanligi: sharhlash (argumentatsiya), munozara, janjal va h.z.

Muloqotning har bir turi interaksiyalarni yuritish qoidalarining ketma-ketligi bilan aniqlanadigan interaksonal yo'nalishlarning ma'lum to'plami bilan ta'riflanadi. Bu qoidalar ijtimoiy konvensiyalar sifatida kommunikantlarning interaksiyalarini boshqaradi. Har bir kommunikant umumiy ko'rinishda o'z suhbatdoshini qanday qilib ma'lum harakatga undash, o'zining nuqtayi nazarini sharhlash, kerakli ma'lumotni ajratib olish, unga yuklanayotgan harakatni bajarishdan bosh tortishni va h.z.larni biladi.

Interaksiyalarni yuritish qoidalari kommunikantlar tezarusining, "kundalik (oddiy) bilimlar"ining bir qismiga kiradi, ya'ni barcha til egalariga konvensial jihatdan turli strategik diskurslarning sxemalari ma'lum. Zamonaviy tilshunoslikka oid tadqiqotlarda strategik diskursning tipologiyasini tuzishga harakatlar amalga oshirilmoqda. Tipologik tadqiqotlarning maqsadi mazkur turdagi diskurs uchun maqbul yoki unga xos bo'lgan diskurs quriladigan dominant modelni aniqlashdan iborat. Diskurs turkumini (dialog mavzusini va nutqiy replikalar bilan almashinish dinamikasini) taksonomik belgilar sifatida qabul qilganda dialogik diskurslar quyidagicha farqlanadi:

1. Neytral dialog – sheriklar o'rtasidagi masofa saqlab qolingan suhbat;
2. Dialogik uyg'unlik (dialog-unison) – shaxsiy-maishiy mavzular bilan;
3. Dialog-munozara – neytral-abstrakt mavzu bilan;
4. Dialog-voqelik – sheriklar tomonidan emotsional jihatdan keskin his qilinadigan shaxsiy-kundalik mavzu bilan.

Ijtimoiy motivlarning to'rtta sinfidan kelib chiqqan holda ularga mos dialogik diskurs turlari ajratiladi: affilyativ, interpretasion, dialog-intervyu va instrumental. Agar dialogdagi ehtiyoj, ekspressiv makrointensiya bilan, ya'ni muloqot sherigini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan hamda muloqotni davom ettirish uchun ko'ngil ochar vositalar orqali muloqot sherigini qo'llab-quvvatlash bilan ifodalangan bo'lsa, unda dialogik diskurs affilyativ deb tavsiflanadi.

Interpretasion dialog koordinativ makrointensiyani amalga oshiradi, unda subektning ehtiyoji uni sosiumda identifikasiyalash va ajratib ko'rsatishlarida aks etadi.

Individning kognitiv ehtiyojining amalga oshirilishi natijasida dialog-intervyu, ya'ni evristik makrointensiya hosil bo'ladi. Sheriklar o'rtasidagi ma'lumotlarning mavjud emasligi dialog-intervyuning asosiy belgisi hisoblanadi. Faoliyatni me'yorga keltirishga ehtiyoj, dialog diskursning instrumental turining

asosida yotgan, muntazam makrointensiyada qayd etiladi. Mazkur turning illokutiv tarkibiga, odatga ko'ra, turli darajadagi imperativlikka undash kiradi.

Ijtimoiy tilshunoslikda dialogik diskurslarning tasnifi shaxsga yo'naltirilgan va mavqega yo'naltirilgan diskurslar bilan qarama-qarshilikda quriladi [1]. Birinchisida – muloqotda bir-birlarini yaxshi biladigan, tanish kommunikantlar ishtirok etadi, ikkinchisida esa – interaksiyada u yoki bu ijtimoiy guruh namoyondalari yuzlashadi.

Shaxsga yo'naltirilgan diskurs ikki xil ko'rinishda namoyon bo'ladi: maishiy va hayotiy diskurslar.

Maishiy diskurs – o'z-o'zidan aniq-ravshan kommunikativ vaziyat sababli sodir bo'layotgan holatni, faqatgina serqirra emotsional modal-baholash kvalifikatsiyasi jihatidan dolzarb sanalgan ma'lumotni yetkazish uchun vaqtni minimallashtirishga hamda muloqotning o'ziga xos qisqartirilgan kodiga chiqishga urinish bilan tavsiflanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, ma'lum sotsium me'yorlariga rioya qilgan holda amalga oshiradigan muayyan guruh a'zolarining nutqiy muloqoti mavqega yo'naltirilgan diskurs deyiladi. Muloqot samaradorligining zaruriy shartlardan yana biri – nutqiy muloqotning eng asosiy vositasi bo'lmish lisoniy til umumiylikiga ega bo'lishidir. So'zlovchi va tinglovchi o'rtasida til, ya'ni lisoniy umumiylikdan tashqari muloqotning nolisoniy omillardan foydalanishida ham umumiylik bo'lishi lozim. Muloqot shartlaridan yana biri – har ikkala tomonning muloqot jarayonida faolligi va bir-biriga ta'siridir. Suhbatdoshlardan biri, masalan, so'zlovchi faol bo'lib, tinglovchi passiv bo'lsa yoki tinglovchi ham so'zlovchi ham passiv bo'lsa, muloqot samarasiz yakunlanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Абрамова Т.В. Диалогизм в прагматической лингвистике и изучение речевого этикета // Теоретическая и прикладная лингвистика: Межвуз. сб. научн. тр. – Воронеж, 2002. – № 3.
2. Боймуродова Л. Сиёсий дискурда нутқий стратегия ифодаси (Х.Клинтон нутқлари асосида) // Иностранная филология: язык, литература, образование, 2021. – № 1 (78). – С. 138-143.
3. Эрнazarova M. Грамматик маъно лисоний ва прагматик омиллар яхлитлигида. Филол. фан. д-ри (DSc) ... дисс. – Самарқанд, 2018. – Б. 15. <http://library.ziyounet.uz/ru/book/download/99327>
4. Намроева Н. Тилга антропоцентрик йўналишида ёндашув: фатика ва унинг хусусиятлари // Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
5. Намроева Н. Илтифот ва унинг метакоммуникатив вазифалари // Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
6. Махсудова М.А. Мuloqot психологияси. – Наманган, 2005. <https://uz.denemetr.com/docs/768/index-93638-1.html>;
7. Розикова Н. Жамият ижтимоийлашуви юзасидан олиб борилаётган ислохотларда мuloqotнинг психологик аҳамияти. <https://znanio.ru/media/zhamiyat-izhtimoiylashuvi-yuzasidan>
8. Сафаров Ш.С. Прагматическая лингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 318 б.
9. Слюсарев Н.А. Проблемы функционального синтаксиса современного английского языка. – М.: Наука, 1981. – 206 с.
10. Зернецкий П.В. Единицы речевой деятельности в диалогическом дискурсе // Языковое общение: Единицы и регулятивы. – Калинин: КГУ, 1997. – С. 148.
11. Шерба Л. В. Восточно-лужское наречие. Петербург, 1915, стр. 4.

LANGUAGE CRIMES IN ENGLISH LANGUAGE

Ismoilova Dilorom Rustamjon qizi,
Fergana state university EFL teacher
d.r.ismoilova@mail.ru

Annotation: The article scrutinizes the semantic-structural features of language crimes in English language based on the methods of structural linguistics. The author conducted an analysis based on the role of these elements in the system. Also, various linguistic relations between the words representing the language crimes have been researched.

According to the object of crimes committed with the help of language, they are divided into two types, such as the names of crimes directed at a person and crimes directed at property. Components in this paradigm can belong to several fields at the same time.

The article emphasizes the contradiction of the elements belonging to the same paradigm based on their general and specific characteristics.

Key words: paradigm, constituents, language crimes, semantic field, microfield, microfield components, opposition, gradation, synonymy, dominant word, periphery, white collar crimes, Internet related crimes.

Аннотация: В данной статье на основе методов структурной лингвистики исследуются семантико-структурные характеристики названий преступлений, встречающихся в английском языке. Автор провёл анализ, исходя из роли этих элементов в системе.

По объекту преступления, совершаемые с помощью языка, делятся на два вида, такие как наименования преступлений, направленных против личности, и преступлений, направленных против собственности. Компоненты этого микрополя могут принадлежать одновременно нескольким парадигмам.

Также исследованы различные языковые отношения между словами, обозначающими названия преступлений, совершённых с помощью языка. В статье подчёркивается противоречие элементов, принадлежащих к одной парадигме, по общим и специфическим признакам.

Ключевые слова: парадигма, составляющие, преступления, совершаемые посредством языка, семантическое поле, микрополе, компоненты микрополя, противопоставление, градация, синонимия, доминантное слово, периферия, преступление должностных лиц, преступления, связанные с Интернетом.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilidagi til vositasida sodir bo'ladigan jinoyat nomlarining semantik - struktur xususiyatlari struktur tilshunoslik metodlari asosida o'rganilgan. Muallif mazkur elementlarning sistema ichida o'rni asosida tahlil olib borgan.

Til yordamida sodir etiladigan jinoyatlar obyektiga ko'ra shaxsga va mulkka qaratilgan jinoyat nomlari kabi ikki turga ajratiladi. Mazkur maydondagi komponentlar esa bir vaqtning o'zida bir nechta paradigmalarga mansub bo'la oladilar.

Shuningdek, til yordamida sodir bo'ladigan jinoyat nomlarini ifodalovchi so'zlar o'rtasidagi turli lingvistik munosabatlar tadqiq qilingan. Maqolada bir paradigmaga mansub elementlarning umumiy va xususiy belgilari asosida zidlanishiga urg'u berilgan.

Kalit so'zlar: paradigma, konstituyentlar, til vositasida sodir bo'lgan jinoyatlar, semantik maydon, mikromaydon, mikromaydon komponentlari, oppozitsiya, darajalanish, sinonimiya, dominant so'z, periferiya, mansabdor shaxslar jinoyati, interet bilan bog'liq jinoyatlar,

Introduction. In linguistics, the perfection of a theory is to be taken into account to the extent that it is faced by the learners of the language to which this theory is applied and its real owners as well as that it is for convenience. The language vocabulary is grouped by the content field method. This is a systematic study of the lexical structure of the language. The lexicon, whether native or non-native, remains the largest and most difficult part of linguistics.

Although the language has a lot of grammatical and syntactic development, they can be developed in a short period of time because they have the nature of accuracy. Vocabulary is an exception and requires lifelong learning. [2; p. 205]

Linguistic part is considered an important part of production devoted to language learning. Because the dictionary reflects the image of the language itself. At this point, it is appropriate to recall the famous words of the linguist Wilkins: "Without the help of grammar, very little content can be conveyed, but nothing can be explained without vocabulary (words). [6; p. 111]

A system-in-system approach can be a solution to this problem in linguistics to a certain extent. Formation of the thematic index of the language serves as a systematic lexical bank not only for the representatives of other nationalities learning the language, but also for native speakers of the same language.

A large part of the semantic field of "crime" is represented by lexical units. In Western linguistics, the terms word and lexeme are used as invariants as linguistic units of the lexical level. For example, scientists like Matthew, Lyons and Kempson used the term "word", while linguists like Holliday, Sinclair and Jones preferred to use "lexeme". In Uzbek linguistics, linguists clarified the differences between word and lexeme. According to them, a lexeme has a name, an expression, and a functional meaning, and a word is distinguished by the fact that it expresses a grammatical meaning. [1; p. 128] Touching on this issue, R. Rasulov says that the word is the expression of a lexeme in a certain form and content in speech.[5; p 230]

Materials and methods. "Crime" is considered a separate field in the semantic system of the Uzbek and English languages and combines several microfields. It should be noted that until today, there is no unified classification of microfields in scientific works devoted to the semantic field of "crime". In particular, the Australian researcher I. Langford studies the field of "crime" by dividing it into 3 microfields, such as "crimes against the person", "crimes against property" and "crimes against society".

Another classification belongs to S. Sheludchenko and T. Kalinushko, although the authors did not analyze the field of "crime" in the section of the entire vocabulary of the language, their scope of classification is wider than Langford's classification. Researchers named 3 works by A. Christy as "types of crime", "criminal", "object of crime", "law enforcement officers", "investigation process", "types of punishment", "crime tools", "crime analyzed in microfields such as "consequences".

In the Uzbek language, researcher N. Jumaniyozova classifies the crime frame in the legal discourse as composed of subframes such as types of crimes and names of crimes.

"Language crimes" is an individual microfield as a part of the "crime" semantic field. Within this microfield, synonymous and hyper-hyponymous relationships are commonly observed.

Results and discussions. The constituents of the subfield "languages crime" remain with the scheme of causing no physical harm to the victim. [4; p 98] For example, the lexeme of *fraud* means the crime of acquiring the trust of other persons and property by deception. At the same time, schemes of deceiving and impersonating official office workers, keeping fake documents for ulterior purposes also make up the content of this lexeme. Communication is central to the process of doing this work.

According to the property of discreteness (divisibility) of the field, fraud lexeme is a subfield of "language crimes", while "fraud" is dominant for other relevant lexemes. They are tax fraud, credit card fraud, wire fraud, security fraud, bankruptcy fraud, Medicare fraud, computer fraud, insurance fraud, mail fraud, internet fraud, bank account takeover fraud, voter fraud, healthcare fraud, which make up this subfield. In the lexical units such as driver's license fraud, elder fraud, electoral fraud and for them "fraud" is considered an integral (unifying) term which provides each of them differential (differentiating) signs.

Due to the semantics of units such as wire fraud, credit card fraud, computer fraud, mail fraud, internet fraud contains special meaning such as "computer technology, Internet", consequently, they are considered members of the micro-field of "cybercrimes" at the same time.

It seems that the lexical units representing different forms of fraud belong to more than one microfield according to semiotic differences, and they perform the function of interfield border. This linguistic phenomenon, in turn, ensures the interaction of the semantic fields that make up the language system.

The nomination of the person who committed this crime is represented by several lexical units. Fraudsters, and swindlers are common among them. In addition, since fraud itself has become a noun phrase through conversion, it also carries the meaning of "fraudster".

The word *threat* means to speak in a tone of intent to harm another person. According to its legal content, it is a crime to threaten the victim with bad events that will happen in the future. In this case, intimidation and threats can be carried out not only verbally, but also through extralinguistic means, various hand movements (showing a weapon or showing the shape of a weapon through the hand). In English, the method of carrying out this crime, *intimidation* and *coercion*, differ in their specific meanings according to

whom and for what purpose, but under the general meaning of "threat" extortion, coercion, duress, blackmailing and intimidation lexical units are combined into the content group "threatening". A person who commits the crime of threats in various forms is called as a threatener, coercer, blackmailer or intimidator.

One of the main principles of the semantic field theory is to determine the type of interaction of elements within the field. It should be noted that the members belonging to the content group "threatening" enter into mutually meaningful relations. Each of the elements belonging to this synonymous series has a distinctive content. For example, if we take the word extortion into a sem5; antic analysis, originally this lexeme was used only in an official manner, in which the criminal was considered only an office worker. Due to the phenomenon of semantic expansion, extortion in modern English began to be used not only for government workers, but also for ordinary people.

In the semantic structure of the *coercion* in the criminal context, there is also a specific term of the use of force in addition to the general term of intimidation. *Duress* is also defined as a component that integrates into the semantic paradigm of "threatening" in the English dictionary with the additional meaning of "forcing another person to do something he does not want to do". [3; p. 433] *Intimidation*, along with the meaning of purposefully threatening to achieve one's goal, also carries the meaning of "getting nervous". *Blackmail* is the threat of revealing someone else's secret, demanding money or forcing them to do something.

Perjury is one of the central constituents of the microfield of language crimes. It is considered as a language crime committed during direct communication as well. The core of perjury is swearing in the courtroom only to tell the truth but giving false testimony. According to the Federal Law of the USA, a person who deliberately violates the law on oath, who presents information that he knows to be false, is represented by the lexeme of liar or perjurer.

Another "young" type of crime in the criminal world is *defamation*, and since the 1980s, attempts have been made to clarify it as a language-based crime. Before that, attention was paid to the study of defamation based on the theory of speech acts, discursive analysis and the laws of pragmatics.

Defamation is the provision of various defamatory, fabricated information in order to damage the social status and respect of other persons in society. Today, defamation is taking root in social networks. Since its main essence is implementation through language, this crime is the central part of the microfield of "language crimes". If defamation spreads on social networks and websites, this lexeme was included in "Internet-related crimes" or if this crime is committed against women, with this semiotic symbol, they are considered peripheric members of the "gender-based crimes" microfields.

If the insulting words that make up the substantive basis of the lexeme of defamation, which destroy human honor and dignity as well as they are verbal this crime is called as slander, or libel, if they are written. In general, defamation is divided into two types: direct and indirect. In the crime of direct defamation, insulting words and phrases in the traditional pattern (formula) are used, and in indirect defamation, unusual words and phrases are used. According to the law, the consequences and effects of libel (written slander) are more serious and last longer than slander (verbal slander) according to the level of danger. Although there is no special lexeme in English for the person who commits the crime of defamation, it is represented by the defendant in legal documents. But for special forms of this crime, lexemes slanderer and libeler are available in the English vocabulary.

Insult is very close to defamation in terms of its spiritual characteristics but has a certain semantic identity in the group of language crimes. According to the semantic analysis, if the lexeme of defamation is dominated by the theme of "trying to destroy one's reputation", the content of stroke is dominated by the content of "injuring personal feelings". That is, insult occurs as a result of severe mental stress, and it is a crime to say insulting words directly to the victim. The difference between these two components is that "directly speaking insulting words to the victim" in insult and "saying insulting words through a 3rd person or through the media" characteristic of defamation.

In English law, the degree of danger of insult is not considered higher than defamation. Because its effect ends with mental damage to the victim.

A type of crime that belongs to the micro-field under semantic analysis and occurs in every aspect of life is represented by the lexeme of plagiarism. It carries the content of presenting his works as his own. Plagiarism has been ironically named "patchwork" by some linguists. Johnson calls this crime a theft. It should be noted that this crime is relatively young compared to other elements in the microfield. Because only after the invention of the printing press, a wide path was opened for copying. The terms plagiarizer, plagiarist and literate pirate are used for the perpetrators of this crime.

Conclusion. Indeed, without words, neither speech, text, nor a whole language system would exist. Vocabulary is considered the central part of the language and forms the changing basis of the language. Until

today, the vocabulary of English and Uzbek languages has been polished, enriched by means of internal and external methods, and has acquired its own "treasure of words". Over time, most of these words were not widely used, even by local speakers, they were forgotten and went out of circulation.

It should be noted that the method of dividing into components is important for semantic research. Because some semantic features are shown directly, and some are hidden. Terms such as sememe and semantic sign are also used to describe semantic features. According to Lehrer, semantic components, that is, semantic properties, are theoretical structures characterizing the entire vocabulary of a language. Each lexical unit is explained according to these components. Unlike traditional lexicography, the method of componentization takes a systematic approach to analysis.

REFERENCES:

1. Iskandarova Sh., Qurbonova B. *Theory of Linguistics*. – Fergana, 2020. – P. 128.
2. Leech G. N. *Semantics: The study of meaning*. (2nd edition). – Harmondsworth Penguin Education, 1981. – P. 205.
3. *Macmillan English Dictionary*. – Macmillan Publishers, – 2007. – P.433.
4. Shuy. *Language crimes: the use and abuse of language evidence in the courtroom*. – Cambridge, MA Blackwell, 1993. – P. 98.
5. Rasulov R. *General linguistics*. – Tashkent, 2007. – B. 230.
6. Vilkins D.A. *Linguistics in language teaching*. – London: Edward Arnold, 1972. – P. 111.

TILNING NOMINATIV VA EKSPRESSIV FUNKSIYALARINING
O‘RGANILISHI

Narzullayeva Firuza Olimovna,

Buxoro davlat universiteti

Tarjimashunoslik va ingvodidaktika

kafedrası o‘qituvchisi

f.o.narzullayeva@buxdu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilning nominativ va ekspressiv funksiyaga ega ekanligi, til elementalrida, ayniqsa, so‘zda o‘z aksini topishi hamda ularning ingliz va o‘zbek tillarida qo‘llanishi, tilshunoslikda semasiologik yo‘nalishdagi tadqiqotlar, olib borilishi, pragmatika – hodisa, predmetni anglatib, so‘z, shu bilan birga uning dinamik butunlikdagi, tarixiy borliqdagi aloqa va munosabatlarini ham bildirishi. "Borliqning bir bo‘lagini" va bu bo‘lakning mazkur borliqning boshqa unsurlariga nisbatan munosabatini tushunishini aks ettiradi. Bu munosabatlarning muayyan davrdagi jamiyat va xalq tomonidan qanday anglashilgani va anglashilayotganini aks ettirishi haqida fikr yuritiladi

Kalit so‘zlar: nominativ, ekspressiv, stilistik bo‘yoq, qo‘shimcha ma‘no, semasiologiya, pragmatika, denotativ, konnotativ, ingerent, adgerent.

Аннотация: В данной статье рассматривается тот факт, что язык имеет номинативно-экспрессивную функцию, что находит отражение в языковых элементах, особенно в словах, и их употреблении в английском и узбекском языках. Исследование в направлении семасиология в языкознании, прагматика - явление, предметное значение, в то же время выражает связь и отношения в динамическом целом, историческом бытии, и отражает понимание «части бытия» и отношение этой части к другим элементам этого бытия. Приводятся мнения о том, как эти отношения понимались и понимаются обществом и людьми определённого периода.

Ключевые слова: номинатив, экспрессив, стилистическая окраска, дополнительное значение, семасиология, прагматика, денотатив, коннотатив, ингерент, адгерент.

Annotation: This article discusses the fact that language has a nominative and expressive function, which is reflected in language elements, especially in words, and their use in English and Uzbek languages. Research in the direction of semasiology in linguistics, pragmatics - phenomenon, object meaning, the word, at the same time, it expresses the communication and relations in the dynamic whole, the historical existence, and reflects the understanding of "a part of existence" and the relation of this part to other elements of this existence. It is thought about how these relations were understood and are being understood by the society and the people of a certain period.

Key words: nominative, expressive, stylistic color, additional meaning, semasiology, pragmatics, denotative, connotative, inherent, adherent.

Kirish

Kishilar orasida muhim aloqa vositasi bo‘lgan til nominativ, kommunikativ xususiyatlarga ega bo‘lgan murakkab hodisadir. Tilning nominativ va ekspressiv funksiyaga ega ekanligi, til elementalrida, ayniqsa, so‘zda o‘z aksini topadi.

Tilshunoslar tilda ikki xil ma‘no: denotativ (atash) va konnotativ (qo‘shimcha) ma‘no mavjudligini qayd etadilar. So‘zning qo‘shimcha ma‘nosi turli nomlar bilan ataladi. Chunonchi stilistik bo‘yoq, qo‘shimcha ma‘no (созначение), ekspressiv ma‘no ottenkasi. So‘z semantikasi faqat denotativ (atash) ma‘nosi bilan cheklanib qolmay, so‘zda konnotativ ma‘no ham mavjud. Keyingi davrdagi ilmiy ishlarda til birliklaridagi denotativ ma‘nolar umumtilshunoslikda atroflicha o‘rganilganligi qayd etilgan.

So‘zning denotativ (atash) ma‘nosiga bag‘ishlangan turli darslik, o‘quv qo‘llanmalari, monografik tadqiqotlar yaratilgan. Ammo konnotativ ma‘no til yaruslarining barchasida mavjudligiga qaramasdan, ular to‘g‘risida hali yetarlicha ilmiy xulosalar chiqarilmagan. Bu tilshunoslikda semasiologik yo‘nalishdagi tadqiqotlar olib borishni kuchaytirishini taqozo etadi.

Konnotativ ma‘noning turlari, ularning so‘zni til va nutq elementi sifatida olingan holatlarda so‘z semantikasiga munosabati, shuningdek, fonetik vositalarda ifodalangan konnotativ ma‘nolar, ya‘ni nutq

tovushlarining talaffuzi bilan bog'liq uslubiy xususiyatlar, tilda mavjud supersegment fonetik vositalarda ifodalangan qo'shimcha ma'no "bo'yog'i" hamda morfologik birliklarda ifodalangan konnotativ ma'nolar tadqiqi kabi qator masalalar tilshunoslikda haligacha uzil-kesil o'z yechimini topganicha yo'q. Bu haqda tilshunoslikda turlicha qarashlar mavjud bo'lib, ba'zi olimlar so'zning konnotativ ma'nosi so'z semantikasi komponentiga kirmaydi,- degan fikrlarni bildirsalar, boshqa tilshunoslar konnotativ ma'no so'z semantik strukturasining bevosita tarkibiy qismlardan biri deb qaraydilar.

Ayrim tilshunoslar esa, konnotasiya so'z pragmatikasining bir qismi deb ta'riflaydilar. Ilmiy adabiyotlarda esa konnotasiya denotasiyaga ilova qilingan, til birligining konnotativ ma'no ifodasi, uning atrofini o'rab olgan qo'shimcha semalardir degan ta'riflar mavjud.

Konnotasiya til birliklari semantikasiga kiruvchi semantik mavjudlik bo'lib, u nutq subyekting borliqqa emotiv baholash va uslubiy belgilangan munosabatini ifoda etadi. Tilshunoslikda konnotasiyani tadqiq etishda xuddi shu tarzda pragmatik baho hisobga olinmoqda. Pragmatika hozirgi davr tilshunosligida nisbatan torroq ma'noda tushuniladi. Fikrimizcha, tilda doimiy (turg'un) holatga ega bo'lgan pragmatik axborot lingvistik qiziqish tug'dirdi. Ushbu fikrdan kelib chiqib, biz pragmatika deb, so'zlovchi tomonidan til birligida mustahkamlangan quyidagi uch narsaning baholashini tushunamiz: axborot predmeti bo'lgan borliqni, axborot mazmunini va adresatini.

Bevosita "pragmatika" terminini akademik V.V.Vinogradov ishlarida uchramaydi, ammo u tilning turli birliklarida real pragmatik ma'lumotlar mavjudligini qayd etadi.

"Pragmatika – hodisa, predmetni anglatib, so'z, shu bilan birga uning dinamik butunlikdagi, tarixiy borliqdagi aloqa va munosabatlarini ham bildiradi." Borliqning bir bo'lagini" va bu bo'lakning mazkur borliqning boshqa unsurlariga nisbatan munosabatini tushunishini aks ettiradi. Bu munosabatlarning muayyan davrdagi jamiyat va xalq tomonidan qanday anglashilgani va anglashilayotganini aks ettiradi".

Konnotasiya so'zining birinchi marta tilshunoslikda termin sifatida qo'llanilishini kuzatish murakkab. Biroq shuni aytish mumkinki, XIX asrning o'rtalarida sinonimik lug'atlar nazariyasi va ularni yaratish amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan ingliz leksikografik adabiyotida "konnotasiya" termini ikki xil ma'nosi shakllangan. Birinchidan, konnotasiya-so'zning izohida bevosita kiritiladigan leksik ma'nolarning "qo'shimcha" (modal, emosional –ekspressiv) elementlari deb qaralgan. Ikkinchidan, konnotasiya – narsa va borliqning boshqa obyektini qonuniy baholash so'zining bevosita leksik ma'nosiga kiritilmagan. XIX asrga kelib, konnotasiya so'zining yuqorida ko'rib chiqilgan ma'nolaridan tashqari yana bir nechta ma'nolari (izohlari) borligi aniqlandi. Ushbu izohlar talqinida konnotasiya terminiga turli ta'riflar berilganligi aniqlandi. Chunonchi, konnotasiya denotasiyaga qaramaqarshi ma'no (logik qarash); konnotasiya so'zning sintaktik valentligi (psixolingvistik qarash); konnotasiya –majoziy unsurlarga (elementlarga) asoslangan ko'chma ma'no; konnotasiya leksik ma'noning majburiy bo'lmagan, qo'shimcha ikkinchi darajali (fakultativ) unsuri (element) ekanligi qayd qilngan.

Asosiy qism

Yevropa va rus tilshunosligida konnotasiya, konnotativ ma'no terminlari I.A. Melchuk, L.I. Iordanskaya, A.K. Jolkovskiy, K. Byuler, A.V. Isachenko, R.Tokariy, Y. Bartminskiy kabi yetuk olimlarning ishlarida uchraydi. Konnotasiya so'zining evolyusiyasi va uning turlicha qo'llanishi ta'rifi A.V. Barovskiy ishlarida to'liq yoritilgan. Ammo shuni alohida ta'kidlash lozimki, Y.J. Uotli XIX asrning eng mashhur kitobi "Selection of synonyms" (1951) "Sinonimlar saylanmasi" so'z boshida konotasiya so'zining izohida bevosita kiritiladigan leksik ma'nolarning qo'shimcha (modal, emosional - ekspressiv elementlari) deb ta'riflangan. Rus tilshunosligida ham konnotasiya termini izohiga turlicha fikrlar orqali yondashilgan, V.V.Vinogradov, P.A. Pletnevning A.K. Grotga (1945-yil 29-sentyabr) yozgan maktubidan quyidagi iqtibosni keltiradi: "Men tilda mutlaq bir xil ma'noga ega bo'lgan so'zlar yo'qligini aniqladim, chunki leksik ma'no bilan birgalikda har bir so'z bilan miyaga asr, xalq, joy, hayot g'oyasi keladi. Buning hammasi oddiy misol "борода" va "брада" asosida aniqladim. Birinchi so'z o'quvchi xayolida rusni, uning erkagi, savdogari, ruhoniysi ko'rinishida gavdalantiradi. Ikkinchi so'z esa, biz yahudiy patriarxlarni (oliy ruhoniylilik mansabi) davriga, sharq xalqlari hayotiga olib kiradi, chunki bu so'z ongimizda cherkov (ya'ni diniy) kitoblardan kirib qolib o'rnamashgan; Terminning bunday tafovutli bo'lishi tarixiy nuqtai nazardan aniq, bunga sabab bu termin turli xil fan doirasida yuzaga keladi. Shu sababdan garchi keyingi yillarda lisoniy birliklarning konnotativ aspektiga qiziqish ortgan bo'lsa-da, konnotasiya tushunchasi turli fan doirasida turlicha talqin etilmoqda. Jumladan, uslubshunoslikda konnotasiyaga uslubiy ma'no sifatida qaralib, uni emosional bo'yoq bilan bog'lab o'rganiladi. Tarjimashunoslikda konnotasiyaga pragmatik ma'no sifatida qaraladi. Ma'noni sistem aspektida o'rganuvchi semasiologlar konnotasiyaga ekspressiv bo'yoq, emotiv ifoda tarzida qaraydilar. Psixologik yo'nalishdagi tadqiqotlarga esa konnotasiyaga semantik assosiasiyalar sifatida yondashiladi. Ushbu terming qanday baho berilmasin, baribir uning asosiy vazifasi

nutq pragmatikasi bilan bevosita va uzluksiz bog'langan ta'sir etish funksiyasidir. Bu ta'sir ifodalanayotgan fikrning so'zlovchi uchun qay darajada muhimligini adresatga yetkazish jarayonida yuzaga chiqadi. Nutq subyekti bo'lgan so'zlovchining borliqqa munosabati-bu baholashi muhim sanaladi. Lingvistika doirasida yuqoridagi sanalgan ma'nolarning saqlanib qolinishini tushunish ancha mushkul, chunki konnotasiya terminini deyarli hamma ma'nolari uchun hozirgi tilshunoslik batafsil va mantiqan aniq tushunchalarga ega, ya'ni modallik doirasi, baholash komponenti, semantik – sintaktik valentlik va hokazo. Bunda konnotasiya terminiga daxldor bo'lib faqatgina bitta ma'no (izoh) qoladi, bu berilgan so'zning nomi bo'lgan bog'liq obyektining mazkur tilda qonunlashtirilgan baholanishidir.

So'z semantik strukturasi o'rganishda ikki xil konnotasiya mavjudligi qayd etiladi: ingerent konnotasiya – so'z kontekstdan tashqari olingan holatda unga xos bo'lgan konnotativ ma'no va adgerent konnotasiya - so'zda ma'lum kontekstda hosil bo'ladigan konnotativ ma'no. E.Qilichev o'zining "Badiiy tasvirning leksik vositalari" monografiyasida bu haqda asosli fikrlarni bayon etgan. Uning fikricha, konnotativ ma'no so'z semantikasidan denotativ ma'no ajratilgandan keyin hosil bo'ladigan ayirmaga teng, ya'ni konnotativ ma'no (K) teng so'z semantikasi. (S) ayiruv denotativ ma'noga (D) yoki $K=S-D$.

Ingerent va adgerent konnotasiyani izchillik bilan farqlash lozim, chunki har ikkalasini farqlamasdan turib, na so'z semantikasini o'rganish va na konnotativ ma'noni so'zning semantik strukturasi kirish kirmasligini hal etish mumkin. Har qanday konnotativ ifodalarda denotativ ma'noga xos ma'lum semalar saqlangan. so'zlovchi pragmatik maqsadini namoyon etishda ana shu sema (belgi)ni nazarda tutadi. Shu sababdan denotasiya subyekti baholash va tushunish vazifasini bajaradi. Shu boisdan konnotasiyaga, oddiy birlashtiruvchi halqa sifatida emas, balki so'z (va boshqa til birliklari)ning barcha ma'nolari asosida obyektivlik va subyektivliklarni bog'lovchi vosita sifatida munosabatda bo'lish talab etiladi. Chunonchi, har qanday konnotativ ifodalarda denotativ ma'noga xos bo'lgan ma'lum belgi (semalar), albatta, ifodalangan bo'ladi. Til tadqiqotchisi M.Mamadaliyeva o'zining "O'zbek tilida nominativ birliklarning konnotativ aspekti" nomli ishida asosli faktlar bilan isbotlaydi. Uning fikricha, konnotativ ma'no tasodifan sodir bo'lmaydi, u ma'lum asoslarga tayangan holda paydo bo'ladi va har qanday konnotativ ma'noda denotativ ma'no saqlanadi.

Konnotasiya hozirgi davrda uch yo'nalishda o'rganilmoqda. Birinchi yo'nalish semantik yo'nalish bo'lib, J.Yelmesleva, R.Barta ishlarida ko'zga tashlanadi. Ikkinchi yo'nalish psixolingvistik yo'nalish bo'lib, bu yo'nalishga xos fikrlar A.Leontev, L.Zalevskaya ishlarida olg'a surilgan. Uchinchi yo'nalish sof lingvistik yo'nalish bo'lib Sh.Balli, V.N.Teliya kabi tilshunoslarning ishlarida uchraydi. Ammo o'zbek tilshunosligida sof konnotativ yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar kam sonli bo'lib, prgmatikaga oid tadqiqotlardagina ayrim fikr-mulohazalar bildirilgan. Jumladan, o'zbek tilshunosligida ekspressiv bo'yoqning barcha turlarini o'z ichiga olgan tushunchalar keng tarqalgan bo'lib, ular quyidagilar: ekspressivlik (A.Abdullayev), uslubiy ma'no (G.Abdurahmonov, M.Sodiqova), metaforik ma'no (B.Umrzoqov), pragmatik ma'no (Z.Tohirova), stilistik sema (Sh.Rahmatullayev), ekspressiv ma'no (E.Begmatov), emosional ekspressiv bo'yoq (A.Shomaqsudov, B.O'rinboyev), konnotativ ma'no (E.Qilichev, A.Mamatov, S.Karimov), fonetik vositalarda ifodalangan konnotativ ma'no (A.Haydarov), fonografik vositalarda ifodalangan konnotativ ma'no (G.Yaxshiyeva) fonosemantik vositalarda konnotativ ma'no (Z.Qobilova). Tildagi barcha yaruslar bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lgani kabi, fonetika va stilistika o'rtasidagi bog'lanish tufayli fonetik uslubiyat paydo bo'lgan.

Fonetik vositalarda ifodalanayotgan konnotativ ma'nolarning jozibadorligi tilning turli yaruslarida o'zaro aloqadorlikda namoyon bo'lganligi sababli ularda uslubiy imkoniyatlar katta bo'ladi. Odatda, tildagi biror xususiyat leksik va grammatik jihatdan to'la namoyon bo'lmasa, fonetik tomondan ekspressiv shakllantirish natijasida to'ldiriladi.

Shunday qilib, barcha til birliklari konnotativ ma'nolarga ega. Ular tilshunoslar tomonidan bir qadar o'rganilgan. So'zdagi nutq tovushlarning turli xil talaffuzi xilma-xil konnotativ ma'nolarni hosil qiladi. Bunday ma'nolar so'zdagi denotativ ifodaga ilova bo'lib, u so'zlovchi va tinglovchining turli xil munosabati: ichki – hayajoni, xursandligi va xafa bo'lishi, rozilik, taajub, yalinish, hayratlanish, kinoya, istak – tilak, ta'sirlanishni aks ettiradi. Nutq tovushlarida ifodalangan konnotativ ma'no ularning paradigmatic va sintagmatik munosabatida yaqqol namoyon bo'ladi. Nutqning tovushning tuzilishi fikr mazmuni bilan organik bog'langan ahamiyatga ega bo'ladi. Badiiy nutqda adgerent konnotasiya boshqa nutq uslublariga qaraganda kuchli ifodalangan bo'ladi. Nutqda qo'shimcha ma'no bo'yog'i nafaqat unli yoki undosh tovushlarning turli xil talaffuzida, balki supersegment vositalar yordamida ham faol ro'yobga chiqadi.

Xulosa

Ma'lumki, barcha til birliklari konnotativ ma'noga ega. Ular tilshunoslar tomonidan bir qadar o'rganilgan. Shunga qaramay, bu sohadagi ilmiy izlanishlarni yanada davom ettirish davr talabidir. So'zda nutq tovushlarning turli xil talaffuzi xilma-xil konnotativ ma'nolarni hosil qiladi. Bunday ma'nolar so'zda denotativ ifodaga ilova bo'lib, u so'zlovchi va tinglovchining turli xil munosabati: ichki- hayajoni, xursandligi va xafa bo'lishi, rozilik, taajub, yalinish, hayratlanish, kinoya, istak-tilak, ta'sirlanishni aks ettiradi. Nutq tovushlarida ifodalangan konnotativ ma'no ularning paradigmatic va sintagmatic munosabatida yaqqol namoyon bo'ladi. Nutqning tovushning tuzilishi fikr mazmuni bilan organik bog'langan badiiy ahamiyatga ega bo'ladi. So'z semantikasida 2 xil ya'ni ingerent va adgerent konnotasiy amavjudligi ta'kidlab o'tilgan. Badiiy nutqda adgerent konnotasiya boshqa nutq uslublari qaranganda kuchli ifodalangan bo'ladi. Nutqda qo'shimcha ma'no bo'yog'i nafaqat unli yoki undosh tovushlarning turli xil talaffuzida, balki supersegment vositalar yordamida ham faol ro'yobga chiqadi. Fonetik uslubiyat, ya'ni tovush material, bo'g'in, urg'u hamda intonasiya turli konnotativ ma'nolar ifodalay olishini alohida ta'kidlash lozim.

Badiiy adabiyot tilni o'rganish va tahlil qilishning ham nazariy ham amaliy masalalari ko'pdan buyon filologlarni qiziqtirib kelmoqda. Chunki muayyan til stilistikasining rivojlanishida milliy badiiy adabiyot tilining ahamiyati kattadir. Badiiy asar tilida keng qamrovli birliklar fonetik, leksik, grammatik va majoziy vositalarni kuzatish mumkin. Shu bilan birga ijodkorning so'z boyligidan o'ziga xos tarzda foydalanishi, morfologik shakllar va sintaksik qurilmalarni tanlashi va boshqa jihatlarda yozuvchilarning individual uslubi ham yuzaga chiqadi.

Xuddi tanganing ikki tomonini ajratib bo'lmaganidek, badiiy adabiyot tilini yoki badiiy asarning alohida bo'laklarga ajratib qarash o'zini oqlamaydi. Badiiy asar tilning lingvistik tahlilida ham yozuvchining muayyan til birliklaridan foydalanib, qanday ma'no yuzaga chiqarishi o'z-o'zidan e'tiborga olinadi. Faqat bunda o'sha til elementlarining kelib chiqish faktiga chuqurroq yondoshiladi. Shuning uchun yozuvchi uslubini yuzaga chiqaruvchi omillar xususidagi masalaga lingvistik aspektda yondashish o'rinli deb bilamiz. Shu bilan birga, o'rni bilan adabiy tahlilga ham murojaat qilamiz. Tilning rivojlanishi umumiy adabiy til darajasida doim beqiyosdir. Shunday ekan, bugungi davr ingliz va o'zbek adabiyotiga o'z hissasini qo'shayotgan ijodkorlar asarlarining tili va uslubini o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Ishimizda ingliz va o'zbek adabiyoti namunalari misolida badiiy nutq individualligining lingvistik xususiyatlarini ta'minlovchi omillar tilning barcha sathlari doirasida o'rganiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Abduazizov. A., Ayub G'ulomov. *Intonasiya haqida Ayub G'ulomov va o'zbek tilshunosligi// ToshDu ilmiy maqolalar to'plami.*-T.: 2004.,-B.9-11.
2. Abduazizov. A *O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi.*//Toshkent . O'qituvchi 1992-134b.
3. Abduazizov. A *Fonostilistik vositalarning o'rganilishiga doir//O'zbek tili va adabiyoti.* -T.: 1985 №2- B .24-28.
4. Abdullayev. A *Ma'no kuchaytirishning fonetik usuli// O'zbek tili va adabiyoti,* 1969, №2. 55-58-b.
5. Abdullayev. A *Hozirgi o'zbek tilida ma'no kuchaytirishning fonetik va morfologik usuli.* Filol.fan.nomz.diss. -T.: 1970. 122b.
6. Abdullayev. A *O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi.* -T.:Fan,1983. 88b.
7. Abdullayev. A *Ko'chirma gapli konstruksiyalar komponentlari o'rtasidagi intonatsion munosabat// O'zbek tili Grammatik qurilishi, leksikologiyasi va dialektologiyasi masalari SamDu ilmiy ishlar to'plami.V chiqish.- Samarqand. 1976. -B.52.*
- 8.Abdullayev F.*Cho'ziq unlilarning tabiati to'g'risida // Ozbek tili va adabiyoti.* -T.,1959-№3-B.44-46.
9. Abdurahmonov.X.,Maxmudov.N. *So'z estetikasi.* -T.: "Fan". 1981. 58 b.
10. Аванасьев . Р.И *Фонетика современного русского литературного языка:*N., 1965.-С.312.
11. Азнаурова . Э.С. *Очерки по стилистике слова.* -Т.: Фан. 1973.
12. Айдарова.В.Н.*Фонетические средства стилистики –Л.:1971б-С359-364.*
13. Антипова. Д.Н.*Сопроводительный курс фонетики и интонации.* -М.:1977.С.46.
14. Арнольд.И.В *Стилистика современного английского языка.- М., "Просвещение", 1990.- С.209-221.*
15. Артемов .Е.А. *Об .Интонеме//phon.Basel, no V.1965. 12-№34.*
17. Астафьева.И.М *Виды синтаксических повторов, их природа и стилистическое использование.* 1962-С.14-16.

18. Axmedova.N.SH. *O'zbek tilida murojaat birliklarining semantic-konnotativ tadqiqi.* Filol.fan.nomz.diss.avtireferati. T.2008-25b.
19. Ayub G'ulomov. *O'zbek tilida urg'u.* 1947.32b.
20. Балли. Ш. *Французская стилистика*-М.,1961,с214.
21. Баришникова К.О.О Лингвистическом аспекте фоностилистических исследований.(звуки, слоговый акцент. Интонация).- Вильнюс. 1972-с267-278.
22. Boboxonova.L.T.Ingliz tili stilistikasi. –Toshkent."O'qituvchi", 1995.140b.

OLAMNING KONTSEPTUAL MANZARASI KOGNITIV TAJRIBANING MUHIM
KOMPONENTI SIFATIDA

Rabieva Mohidil G'ayratovna,
Buxoro davlat universiteti
Tarjimashunoslik va lingvodidaktika
kafedrası o'qituvchisi
m.g.rabieva@buxdu.uz

Annotatsiya: Maqolada insoniyatning ko'p asrlik tajribasida, ijtimoiy taraqqiyot bosqichida va moddiy madaniyatda o'z aksini topgan dunyo haqidagi bilimlar, fikrlar, g'oyalar majmui sifatida dunyoning kontseptual manzarasi masalalari muhokama qilinadi. Tushunchalarni tizimlashtirish muammolari ko'tariladi. Olamning kontseptual manzarasining axborot birligi tushunchadir. Konsept fikrlash natijalarini jamlaydi, etnik guruhlarining mentalitetiga ta'sir qiladi. Inson dunyoqarashi asosida dunyoning kontseptual tasviri yotadi. Tarjimada ikkita madaniyatni - kontseptsiya madaniyatini va qabul qiluvchi madaniyatini hisobga olish, asl til va maqsadli tilning lingvomadaniy tushunchalarini tarjima qilishga ehtiyotkorlik bilan yondashish muhimdir.

Kalit so'zlar: dunyoning kontseptual manzarasi, kontsept, mentalitet, kontseptosfera, kompetentsiya, lingvomadaniyatshunoslik.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы концептуального ландшафта мира как совокупности знаний, мыслей, представлений о мире, отражённых в многовековом опыте человечества, этапе общественного развития и материальной культуры. Поднимаются проблемы систематизации понятий. Информационной единицей концептуальной картины мира является концепт. Концепт обобщает результаты мышления, влияет на менталитет этносов. Концептуальный образ мира основан на мировоззрении человека. При переводе важно учитывать две культуры - культуру концепта и культуру реципиента, и тщательно подходить к переводу лингвокультурных концептов исходного языка и языка перевода.

Ключевые слова: концептуальная картина мира, концепт, менталитет, концептосфера, компетентность, лингвокультурология.

Annotation: The article deals with the issues of the conceptual landscape of the world as a set of knowledge, thoughts, ideas about the world, reflected in the centuries-old experience of mankind, the stage of social development and material culture. The problems of systematization of concepts are raised. The information unit of the conceptual picture of the world is the concept. The concept summarizes the results of thinking, affects the mentality of ethnic groups. The conceptual image of the world is based on the human worldview. When translating, it is important to take into account two cultures - the culture of the concept and the culture of the recipient, and carefully approach the translation of lingua-cultural concepts of the source language and the target language.

Key words: conceptual view of the world, concept, mentality, conceptsphere, competence, linguistic and cultural studies.

Kirish

Yana bir ingliz urf-odatlaridan biri bu to'ydagi kiyim-kechak masalan, ingliz ayollari o'zbeklar yoki amerikaliklarga qaraganda oddiyroq to'y liboslarini afzal ko'rishadi. Ko'pchilik britaniyalik kelinlar oq yoki krem rangli liboslarni afzal ko'radilar, garchi kelin do'konlarida har doim to'y liboslarining rangli modellari bo'ladi. Kelinlarning ko'ylaklari uchun kuyovning kamzuli va galstuklari va kuyovlar uchun bir xil rangdagi mato sotib olinadi. Zamonaviy britaniyalik kelinlar qizi uchun to'y libosini qoldirmaslikni afzal ko'radilar, chunki moda o'zgarmoqda. To'y libosi sotiladi yoki to'ng'ich uchun suvga cho'mish uchun ko'ylak yasaladi. Kelinlar a white wedding gown with a veil/parda bilan oq to'y libosini kiyishadi, ular kelinning yuzini yopishgan va keyin kelinning otasi tomonidan kuyov va mehmonlarga ochib berilgan. "White wedding" /"Oq to'y" an'anasi doirasida beva yoki ajrashganning ikkinchi yoki uchinchi to'yida oq libos va parda o'rinni deb hisoblanmaydi sababi hozirgi kunda bu muammo emas. Kuyovlar esa 3 qismli kostyum kiyishadi.

Nikoh odatda Rolls Royces yoki retro avtomobillardan tashkil topgan to'y korteji cherkovga boradi va limuzinlar juda kam tanlanadi. Qurbongohga ketayotgan kelinning oldida (bugungi kunda kelinlar otasi yonida bo'lmagan holda, qurbongohga o'zlari borishni afzal ko'rishadi), gul gulbarglarini sochadi. To'y marosimidan so'ng darhol barcha mehmonlar bilan fotosessiya tashkil etiladi. Qoida tariqasida, guruh fotosuratlarini er-xotin turmush qurgan cherkov yaqinida olinadi. Ammo tashqarida ob-havo yomon bo'lsa, cherkov devorlari ichida suratga olishga ruxsat beriladi.

An'anaga ko'ra, kelinlar yovuz ruhlarning ta'siriga eng zaif deb hisoblangan va shuning uchun to'ylar bilan bog'liq ko'plab an'analar va urf-odatlar, birinchi navbatda, yangi turmush qurganlarni zarur himoya bilan ta'minlash uchun chaqirilgan. Shuningdek, odamlarning o'tiradigan tomoni ular kelinning yoki kuyovning do'stlari yoki oilasi ekanligiga bog'liq. Oldingi qatorlar odatda yaqin oila yoki do'stlar uchun ajratiladi, birinchi o'rindiqlar esa kelin-kuyov uchun ajratilgan bo'ladi. Kuyov va uning eng yaxshi odami kelinning kelishini cherkov ichida kutishadi. Odatda, kelinga otasi hamrohlik qiladi, u kelinlarning chap tomonida turadi. Marosim paytida kelin va kuyov o'zlarining wedding vows/nikoh va'dalarini berishadi. Nikoh qasamlari - bu nikoh marosimida er-xotinning bir-biriga bergan va'dalari. G'arb madaniyatida bu va'dalar an'anaviy ravishda mehr-oqibat, sodiqlik, so'zsiz hurmat va doimiylik tushunchalarini o'z ichiga oladi. Qasamyod qilinganidan keyin er-xotin uzuk almashadi. Nikoh uzugi chap qo'lning uchinchi barmog'iga qo'yiladi, bu "uzuk" barmog'i deb ham ataladi. Nikoh uzugi, odatda, oddiy oltin uzukdir. To'y marosimidan so'ng, kelin, kuyov va ikkita guvoh to'y daftariga imzo chekish uchun yon xonaga ketishadi. Busiz nikoh qonuniy emas va nikoh guvohnomasi berilmaydi. Shundan so'ng, mehmonlar omad tilash uchun yangi turmush qurgan juftlik ustiga gul barglari, konfeti tashlash uchun chiqishadi. Kelin barcha yolg'iz va turmushga chiqmagan mehmonlarga orqasi bilan turadi va guldastasini boshi uzra ularga tashlaydi. Kim guldastani ushlasa, u keyingi turmushga chiqadi. Hozirgi kunda ushbu an'ana o'zbek to'ylarida ham uchramoqda. Odatda, to'ydan so'ng kelin-kuyov honeymoon/asal oyiga jo'nab ketishadi, ba'zan esa to'ydan keyin ham to'g'ri borishadi. Uyga qaytgach, er xotinini yangi uyiga olib borishi an'anaga aylangan. Bu kelinni ostonadan ko'tarish deyiladi. Odatda, ingliz to'ylarida kelin cherkovga kirganda, unga bug'doy sepiladi. Shunga o'xshash to'y an'analari ko'plab xalqlarda o'tkazilgan bo'lib va hozirgi kunda mavjud. Shu kunlarda Angliyada kelinga ham sepiladi, lekin yolg'iz emas, balki kuyov bilan birga. Albatta, kirishda emas, balki chiqishda, yoshlar allaqachon turmush qurganlarida. Ha, va asosan, bug'doy bilan emas, balki rangli guruch, rangli konfeti, atirgul barglari va boshqalar bilan sepiladi. Asal oyida qadim zamonlarda yoshlar uchun to'y uchun asalli ichimlik pishirilgan. Yangi turmush qurganlarga asalli ichimlik beriladi. "Asal oyi" atamasining kelib chiqishi erkaklar bo'lajak xotinlarini o'g'irlab ketgan kunlarga borib taqaladi, deb ishoniladi. Keyin er-xotin kelinning ota-onasidan to'ygacha yashirinishga majbur bo'ldi. Yangi turmush qurganlar to'ydan keyin yana bir oy qochishadi. Marosimdan so'ng mehmonlar, odatda, mehmonxonada, restoranda yoki shunga o'xshash biror joyda o'tkaziladigan ziyofatga yo'l olishadi. Barcha mehmonlar kelgandan so'ng, kelin va kuyov e'lon qilinadi, hamma o'rnidan turadi va er-xotin o'z joylariga yo'l olishadi. Ular, odatda, ota-onalar, eng yaxshi erkak va xizmatkor bilan "yuqori stolda" o'tirishadi. Acceptance ritual/Qabul marosimida ovqatdan so'ng nutqlar bo'lib o'tadi/ - Kelinning otasi yangi kuyovini oilada kutib oladi, eng hurmati baland odam nutq so'zlaydi (bu odatda hazil bo'lishi kerak) va keyin kuyov aytadi o'z nutqini. Nutqlar uchun har bir kishiga shampn (yoki alkogolsiz ekvivalent) beriladi va ular har bir nutqdan keyin er-xotinni tost qiladilar. Nikoh to'yining yakunida er-xotin an'anaviy mevali tort bo'lgan wedding cake/to'y tortini kesib tashlashadi. Tortni birgalikda kesish juftlik uchun omadli hisoblanadi. Bu ularning nikoh paytida birga ishlashlarini anglatadi. Har qanday raqs kelin va kuyov tomonidan boshlanadi, bu First dance/"Birinchi raqs" deb ataladi, ko'pincha er-xotin o'zlari yoqtirgan musiqa yoki qo'shiqni tanlaydilar. Qabul marosimidan kelin eri bilan birga yangi hayot boshlash uchun ketadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, to'y marosimidan tarkibiy qismlar qo'shilishi va olib tashlanishi bilan birga, nikoh marosimida bir-biriga bog'langan umumiy ritualistik model hali ham mavjud.

Ritualga bo'lgan ehtiyoj saqlanib qolmoqda, chunki u ko'p juftliklar orzu qiladigan izchillik va madaniyat tuyg'usini ta'minlaydi. To'y marosimi oilaviy siyosat va madaniy oqibatlar haqida gapirish mumkin bo'lsa-da, madaniyatni kesib o'tadigan bir nechta marosimlar ham mavjud. To'yning yana bir marosim elementi - umumiy to'y liboslari. Kelin pardasi turli madaniyatlarda ramziy bo'lib kelgan. Leysi (1969) ga ko'ra, masalan, parda xristian, yahudiy, musulmon va hindularning to'ylarida muhim ahamiyatga ega bo'lib, u ruhlardan himoya qilishdan tortib, kelinning pokligini sovg'a sifatida o'rashgacha, fazilat ramzi bo'lgan oq pardani saqlab qolishgacha bo'lgan. Angliyadagi madaniyat doimiy ravishda din va oilaviy an'analarga asoslangan bo'lib, Boles (1996) tomonidan o'rganilgan bugungi din amaliyotlarida ham ko'rinib turibdi. Turli xil tashkiliy tuzilmalar va ilohiyotlarning uchta mazhabini birlashtirgan narsa, ular erta janubda erkaklar va ayollarni chinakam dindor qilgan narsalarni tushunish edi, Heyman (2006) bu bog'liqlik tavba qilish va qayta tug'ilish degan xulosaga keldi. Oila atamasi so'nggi bir necha asrlarda bahs-munozaralardan biri bo'lib kelgan, chunki ota - ona va bola it va oq panjara bilan o'chgan. Mintz (1988) Britaniya oilasi inqilobni boshdan kechirganini aniqladi, chunki "oila ichidagi munosabatlar patriarxal hokimiyatga emas, balki mehr va o'zaro manfaatlarga asoslanadi". Oilaviy an'analari yoki diniy rishtalar ta'sirida bo'ladimi, ingliz to'yi so'nggi bir necha o'n yilliklar davomida ma'lum bo'lgan ko'plab narsalar bilan ajralib turadi. Heyman (2006) tavba qilish va qayta tug'ilish degan xulosaga keldi. An'anaviy urf-odatlarining keng ro'yxatini Buyuk Britaniyada to'y haqida gap ketganda topish mumkin. Aksariyat juftliklar ushbu an'analardan ba'zilarini o'z marosimlariga qo'shadilar, lekin har bir er-xotin bir-biridan farq qiladi va Britaniya to'y an'analari qanchalik qabul qilishmasin, ikkita marosim bir xil emas.

Biroq, madaniyat va urf-odatlar haqida gap ketganda, barcha juftliklar obuna bo'lgan bir nechta an'analari mavjud. Qayerdan bo'lishingizdan qat'i nazar, har doim esda tutingki, baxtli va muvaffaqiyatli to'yning kaliti mehmonlaringizning zavqlanishiga ishonch hosil qilishdir. Bu yerda Buyuk Britaniyadagi eng mashhur to'y an'anaviy urf-odatlar sizga qadim zamonlardan to hozirgi kungacha bo'lgan britaniyalik to'y tajribasi orqali yo'l-yo'riq ko'rsatib o'tamiz.

Kelinning fazilatli qiyofasi faqat to'y libosining rangida mustahkamlanadi, chunki oq to'y libosi oilalarni birlashtirish uchun bokiralik va sharafni ifodalaydi. Chesser (1980) ta'kidlaganidek, er-xotinlar "ochiq va halol muloqotni talab qiladigan o'ziga xos ramziy ma'noga ega marosimlarni ongli ravishda va o'zaro tanlash" kerak. Ushbu qadimiy marosimlar insonning o'z mavqeini tasdiqlashga bo'lgan istagini o'ziga xos tarzda tartibga soladi.

ADABIYOTLAR:

1. Aguiar, M. (2013), "Arranged Marriage: Cultural Regeneration in Transnational South Asian Popular Culture" *Cultural Critique*, 84: 181-214.
2. Rosenberg-friedman, L. (2012). *Wedding Ceremony, Religion, and Tradition*. *Israel Studies Review*, 27(1), 98-124.
3. Uzakova Lola. 2022. "Linguistic-Cultural Study of Lexical Units Related to the Word "Wedding" in Uzbek and English Languages" *PINDUS Journal of Culture, Literature, and ELT (PJCLE) Academic journal*
4. Uzakova Lola. 2022 "O'zbek va ingliz tillaridagi "to'y" leksemasi bilan bog'liq leksik birliklarni lingvokulturologik tadqiqi" (to'y so'zi bilan bogliq etiket shakllari) *International conference on teaching, education and new learning technologies* 2023/1 p958-961
5. Uzakova L. "O'zbek va ingliz nutqiy etiketlarining qiyosiy tadqiqi" «scientific progress» *Scientific Journal* ISSN: 2181-1601 / Volume:1, ISSUE: 3 B 213-216
6. Tuychiyev Ashurali, & Khairullayev Farrukh. (2023). *The basics of building a training session for young athletes*. *Conferencea*, 55–65. Retrieved from
7. Kaharova, M. (2021). *Micro field of lexemes which denote uzbek peoples'holidays and work ceremonies. theoretical & applied science* Учредители: Теоретическая и прикладная наука,(9), 646-648.
8. Ходжаев, М., & Қаххорова, М. (2013). *Чем тили ўқитиш методикаси*. Т.:«Fan va texnologiya, 148.
9. Kakharova, M., & Yusupova, D. (2022). *New Approaches to Lesson Plan*. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 3(1), 40-42.

“AVOIR” FE’LI ISHTIROKIDAGI INSON HIS-TUYG’ULARINI IFODA ETUVCHI
FRAZEMALAR TARJIMASINING O’ZIGA XOSLIKLARI

Xolova Shahnoza Davronovna,

Buxoro Davlat universiteti

Tarjimashunoslik va lingvodidaktika kafedrasi o‘qituvchisi

Shaxnozaxolova25@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada frazeologiyaning alohida bo‘lim sifatida shakllanishi, uning rivojida fransuz olimlarining qo‘shgan hissasi haqida so‘z borgan. Shuningdek, fransuz tilida ko‘p qo‘llanadigan “avoir” fe‘li yordamida inson his-tuyg‘ularini ifoda etuvchi frazemalarning o‘zbek tiliga tarjimasida diskursiv va lingvomadaniy nuqtai nazardan mutarjim e‘tibor qaratishi lozim bo‘lgan jihatlar tahlil qilingan. Ushbu frazeologik birliklarning fransuz va o‘zbek tillaridagi muqobillik va farqli jihatlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: frazeologiya, tahlil, termin, “avoir” fe‘li, his-tuyg‘ular, frazeologik birlik, ma‘no, tarjima, ibora.

Abstract: This article talks about the formation of phraseology as a separate department, the contribution of French scientists to its development. It also analyzed the aspects that the translator should pay attention to from a discursive and linguocultural point of view when translating phrases expressing human feelings into Uzbek using the verb “avoir”, which is often used in French. Alternative and different aspects of these phraseological units in French and Uzbek are shown.

Key words: phraseology, analysis, term, verb "avoir", emotions, phraseological unit, meaning, translation, expression.

Аннотация: В данной статье говорится о становлении фразеологии как отдельного отдела, вкладе французских учёных в её развитие. Также были проанализированы аспекты, на которые переводчику следует обратить внимание с дискурсивной и лингвокультурологической точки зрения при переводе фраз, выражающих человеческие чувства, на узбекский язык с помощью часто употребляемого во французском языке глагола «avoir». Показаны альтернативные и разные аспекты этих фразеологизмов во французском и узбекском языках.

Ключевые слова: фразеология, анализ, термин, глагол «avoir», эмоции, фразеологизм, значение, перевод, выражение.

Kirish

Tarixiy lug‘atlarga ko‘ra, frazeologiya atamasi ilk bora nemis gumanist olimi Michael Neanderning 1558-yiga nashr etilgan *Phraseologia Isocratis Graecolatina* nomli yunon-lotin lug‘ati sarlavhasida tilga olingan. Asli lotin tilida kelib chiqqan *phraseologia* so‘zi “phrasis” “gapirish usuli” va “logia” “nutq, fan, ta’limot” so‘zlaridan olingan. XVII asrda ushbu termin jumla va idiomalar to‘plami, so‘zlarni tartiblash usuli, o‘ziga xos ifoda usuli sifatida qabul qilingan. O‘tmishda frazeologiyaning maqsadi faqatgina maqol va hikmatli so‘zlarni tahlil qilish hisoblanar, binobarin u paremiologiya deb nomlanar edi. Vaqt o‘tishi bilan, frazeologiya so‘zi leksikografik asarlarda ko‘rina boshladi va idiomatologiya atamasi bilan raqobatga kirishdi. Bu davrda, frazeologiya termini avvalo biror tilga oid hamda boshqa tilga tarjima qilishda qiyinchilik tug‘diradigan so‘z va so‘z birikmalariga xos tushuncha sifatida qabul qilingan. Uning mazmuni va o‘xshash terminlar bilan munosabati tilshunoslik taraqqiyoti davomida o‘zgarib keldi. Uzoq vaqt mobaynida frazeologiya tilshunoslikning aniq bir sohasi deb hisoblanmas edi. U nisbatan keyinroq rivojlana boshladi va XX asr boshlariga kelib maydonga chiqdi.

Shveytsariyalik tilshunos olim Charles Bally asarlari turg‘un birikmalarning frazeologik muammo markaziga kirishiga, muhokamalar markazidan o‘rin egallashiga hissa qo‘shdi. Uning fikricha, “har bir muhit shartli frazeologiya va terminologiyasiga ega bo‘lgan, yana ko‘p hollarda murakkab grammatik shakllardan tarkib topgan o‘z tilini yaratadi. Shu ondan boshlab, ushbu o‘ziga xos tillar xususiyati va ularning umumiy tilga ko‘rsatadigan harakat ta’siri ko‘zga tashlanadi”.

Uning izdoshlari, sovet tilshunoslari Vinogradov va Kunin frazeologiyaga katta e‘tibor qaratdilar va uni aniq bir tilning rejasi deb hisobladilar. Ular frazeologik birliklar belgilarini tilshunoslikning boshqa birliklari bilan taqqosladilar. Bu borada qarama-qarshi nazariyani ilgari surgan ayrim tadqiqotchilarning

fikricha, tillar turg'un so'z birikmalarisiz ham mavjud bo'ladi, ya'ni u zaruriy tuzilma emas. Ammo frazeologiya o'zining aniq tadqiqot maqsadi va metodlariga ega, demak uni aniq lingvistik soha deb qarash mumkin. Frazeologiya ko'p hollarda stilistika, sintaksis yoki leksikologiyaning bir tarmog'i sifatida o'rganiladi.

Asosiy qism

Asosiy frazeologik birliklardan biri hisoblangan frazemalar ko'pgina g'arb tilshunos olimlari tomonidan o'rganilishda davom etmoqda. Jumladan, Montreal universiteti professori Igor Aleksandreyevich Melchuk fransuz tilida frazema va uning turlariga mufassal ta'riflar keltirib, misollar bilan asoslab bergan: "Frazemalar – ya'ni, "mutlaq, to'liq tuzilgan iboralar", "turg'un jipslashgan iboralar", "idiomatik birikmalar", "nutq shakllari" – mavzusi yigirma yillardan beri tilshunoslikda eng ommabop mavzulardan biriga aylandi. Buni anglash qiyin emas: frazemalar tilda nihoyatda ko'p, barcha janrdagi matnlar ular bilan to'lib toshganligi hammaga ayon. Demak, bu eng ko'zga tashlanadigan va hech qanday shubhasiz muhim omil hisoblanadi. Bir vaqtning o'zida frazemalar barcha "sof" formal nazariyalar uchun chetlab o'tib bo'lmaydigan da'vat, mo'ljal-nishonni aks ettiradi".

Frazemalar gap tarkibida turli maqsadlarda ishlatiladi. Jumladan, bir qator bunday turg'un birikmalar inson his-tuyg'ularini ifoda etishga xizmat qiladi. Hissiyot deb bizni o'rab turgan borliqdagi barcha mavjudotlar, narsa va hodisalarga bo'lgan munosabatlar natijasida paydo bo'ladigan tuyg'ularga aytiladi. His-tuyg'ularsiz birorta ruhiy jarayon kechmaydi. Hissiy qo'zg'alishlar yurakda ham aks etadi. Hayajonlanganda yurak urib ketishining kuchayishiga qarab qadimda hissiyot markazini yurakda deb hisoblashgan. Odamning turli va ko'p qirrali his-tuyg'ulari ma'lum darajada ijobiy va salbiy xillarga ajratiladi. Hissiyot – bu shaxsning voqelikdagi narsa va hodisalarga, kishilarga hamda o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlardan kelib chiqadigan kechinmalari. Shaxs tirik mavjudot bo'lishi bilan birga jamiyat a'zosi hamdir, shuningdek, yakka inson sifatida tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarga munosabatini xolisona aks ettiradi. Tuyg'ularning tashqi ko'rinishi og'zaki va og'zaki bo'lmagan (verbal va noverbal ifoda) turlarga bo'linadi. Birinchisi, insonning o'zi nimani his qilayotganini yoki ishora qilganini og'zaki ifoda etadi. Umuman olganda, his-tuyg'ularning og'zaki tashqi ifodasi nutqning semantik qismi bilan bevosita bog'liqdir. Tuyg'ularning og'zaki bo'lmagan – noverbal turi ko'plab belgi-ishoralarni o'z ichiga oladi, masalan: tananing holati, imo-ishoralar, yuz ifodalari, nafas olish, yurak urishi, intonatsiya. Og'zaki ifoda sintaktik, leksikologik va boshqa lingvistik tuzilmalarga tegishli barcha holatlarni o'z ichiga oladi.

Hissiy jarayonlar affektlar, ya'ni hissiy portlashlar orqali namoyon bo'ladi. Bunday affektlarni, masalan, tana qaltirashi, g'ayriixtiyoriy hatti-harakatlar, yuzdagi imo-ishora, ovozda o'zgarishlar, qo'qqisdan namoyon etilgan kulgu yoki yig'i, tez-tez yoki qiynalib nafas olish kabi hatti-harakatlarni tasvirlashda frazeologik birliklarning aksariyatini fe'lli birikmalar tashkil etadi. Fransuz tilida eng ko'p ishlatiladigan fe'llardan *être, avoir, mettre* va *faire* kabilar ushbu o'rinda ham eng sermahsul fe'llar bo'lib xizmat qiladi.

Jumladan, "avoir" ishtirokida bir qator frazeologik birliklar mavjud bo'lib, ular nutqda turli vaziyatlarda so'zga qo'shimcha ma'no berib, tilni boyitishga xizmat qiladi. Bunday frazemalar inson his-tuyg'ularini ifodalab, g'azab, nafrat, qo'rquv, quvonch, mehr, baxt, hayajon kabi turli diskurslarda lingvomadaniy xususiyat kasb etadi. Biz quyidagi jadvallarda "avoir" komponentli, inson his-tuyg'ularini ifoda etuvchi frazemalar tarjimasiga e'tibor qaratamiz:

Quvonch, baxt, hayrat, muhabbat – la joie, le bonheur, le contentement, le plaisir, l'enthousiasme, l'étonnement, la surprise, l'amour		
1.	avoir de la chance	omadi kelmoq
2.	avoir la bouche fendue jusqu'aux oreilles	og'zi qulog'iga yetmoq
3.	avoir la main heureuse	omadli bo'lmoq
4.	avoir le fou rire	gotib kulmoq
5.	avoir le plaisir	huzurlanmoq
6.	avoir la joie	quvonmoq
7.	avoir le bonheur	baxtli bo'lmoq
8.	avoir la pêche	sog'lom bo'lmoq, o'zini yaxshi his qilmoq
9.	avoir le coup de foudre	bir ko'rishda sevib qolmoq
10.	avoir du fun	huzurlanmoq, quvonmoq

Yuqorida keltirilgan ijobiy tuyg'ular mazmunidagi frazeologik birliklar tarjimasida ham ko'chma ma'noli birikmalarni ko'rish mumkin (*og'zi qulog'iga yetmoq*).

<i>Istak, qiziqish, jasorat</i> – le désir, l'envie, le courage, l'audace		
1.	avoir envie de	xohlamok
2.	avoir l'intention de	istagi bor bo'lmoq
3.	avoir du courage	jasur bo'lmoq
4.	avoir confiance	ishonmoq
5.	avoir la certitude	ishonchi komil bo'lmoq
6.	avoir du respect pour	hurmat qilmoq
7.	avoir des couilles	jasoratli bo'lmoq
8.	avoir de l'audace	dovyurak bo'lmoq
9.	avoir la passion de	ishtiyoqmand bo'lmoq

Istak, qiziqish, jasorat tuyg'ularini ifoda etuvchi frazemalar tarjimasida so'zlar, asosan, o'z ma'nosida tarjima qilinishi kuzatildi.

<i>Mashaqqat, sabr</i> – la peine, la patience		
1.	avoir de la peine à	mashaqqat chekmoq
2.	avoir un mal fou à	qiynalmoq
3.	avoir un mal de chien à	azob chekmoq
4.	avoir beau	bekorga urinmoq
5.	avoir du mal à	qiynalmoq
6.	avoir la gorge serrée	bo'g'ilmoq
7.	avoir de la patience	sabrli bo'lmoq
8.	avoir le dos large	fe'li keng, sabrli bo'lmoq

<i>G'azab, nafrat, xafalik</i> – la colère, la haine, la tristesse		
1.	avoir de la haine	nafratlanmoq
2.	avoir de la rancune contre	adovatda bo'lmoq
3.	avoir du chagrin	g'am-qayg'u chekmoq
4.	avoir horreur de	nafratlanmoq
5.	avoir le cœur gros	yuragi g'ash bo'lmoq
6.	avoir le moral à zéro	tushkun kayfiyatda bo'lmoq
7.	avoir mauvais moral	yomon kayfiyatda bo'lmoq
8.	avoir qn dans le nez	ko'rgani ko'zi yo'q bo'lmoq
9.	avoir une dent contre qn	birovga tish qayramoq
10.	en avoir assez	joniga tegmoq
11.	en avoir marre	to'yib ketmoq
12.	en avoir ras-le-bol	joniga tegmoq
13.	en avoir par-dessus la tête	sabr kosasi to'lmoq
14.	en avoir plein le dos	bezor bo'lmoq
15.	avoir une colère jaune	g'azabi qaynamoq
16.	avoir une colère bleue	g'azab otiga minmoq

G'azab, nafrat, xafalik tuyg'ularini ifoda etadigan fransuzcha frazeologik birliklarda somatizmlar ishtiroki mavjud, o'zbek tiliga qilingan tarjimalarda ham mosliklarni ko'rish mumkin. (*avoir une dent contre qn* – *birovga tish qayramoq*, *avoir le cœur gros* – *yuragi g'ash bo'lmoq*)

<i>Qo'rquv, uyat</i> – la peur, la honte		
1.	avoir peur	qo'rqmoq
2.	avoir des sueurs froides	sovuq terga botmoq
3.	avoir des doutes	shubhalanmoq
4.	avoir la trouille(verte)	dahshatga tushmoq

5.	avoir la frousse	o'takasi yorilmoq
6.	avoir les jetons	qo'rquvdan qaltiramoq
7.	avoir le trac	hayajonlanmoq, vahima qilmoq
8.	avoir honte	uyalmoq
9.	avoir la chienne	qo'rqmoq
10.	avoir une peur bleue	joni halqumiga kelmoq
11.	avoir le rouge au front	uyatdan qizarmoq

Xulosa

Mazkur jadvallardan ko'rinib turibdiki, "avoir" komponentli ruhiy holatni aks ettiruvchi frazeologik birliklar ifodalayotgan ma'nolar orasida *g'azab*, *nafrat*, *xafalik* dominant ma'no bo'lib hisoblanadi. Biroq quvonch, *baxt*, *istak*, *jasorat*, *qo'rquv* ma'nolari ham bunday frazeologik birliklarning ko'pchiligida o'z aksini topgan. Inson ruhiy kayfiyatining mazkur uch xil holatini tasvirlashda yuqoridagi fransuzcha "avoir" komponentli frazeologik birliklar eng ko'p qo'llanadigan frazeologik iboralar bo'lib hisoblanadi. Yuqoridagi tahlillardan shunday xulosaga kelish mumkinki, "avoir" komponentli frazeologik birliklar fransuz tilida inson his-tuyg'ularini yanada yorqinroq, xilma-xil diskursiv vaziyatlarda ifoda etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday frazeologik birliklarni o'zbek tiliga tarjima qilishda kontekstual vaziyat, matn uslubi va muloqot ishtirokchilarining ruhiy holati tarjimon diqqat-markazida bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR:

1. Davronovna, X. S. (2022). Viktor gyugoning "misérables" romanida qo'llanilgan ayrim frazemalarning leksik-semantik xususiyatlari. ISSN 2181-3191 VOLUME 1, ISSUE 2 MAY 2022, 361. <http://researchedu.org/index.php/rae/article/view/934>
2. Kholova Sh.D., "Some features of certain phraseological units translation used in French literature of the nineteenth century", *European journal of interdisciplinary research and development*, 2022-yil 18-noyabr, volume 9, 70-74-betlar
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=SOME+FEATURES+OF+CERTAIN+PHRASEOLOGICAL+UNITS+TRANSLATION+USED+IN+FRENCH+LITERATURE+OF+THE+NINETEENTH+CENTURY&btnG
3. Xolova Sh.D., "Frazeologik birlik-frazema-frazeologizm : tasnif va tadqiqot tahlili", Buxoro davlat universiteti Ilmiy axboroti, 2022-yil dekabr, 6/2022 son, 92-97 betlar. https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8679
4. Nafisa, K. . (2022). On Anglophone Borrowings in the Contemporary Russian Media. *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*, 2(5), 158–163. Retrieved from <https://literature.academicjournal.io/index.php/literature/article/view/367>
5. Nargiza Savrievna Zokirova. (2022). The function of cognitive dominants in the translator's discourse. *Conferencea*, 96–99. Retrieved from <https://conferencea.org/index.php/conferences/article/view/297>
6. Khaydarova L. (2022). Classroom Activities that Best Facilitate Learning. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 6, 377–380. Retrieved from <https://emjms.academicjournal.io/index.php/emjms/article/view/415>.
7. Xaydarova L. (2022). «Global value of health and its practical implementation in the form of actual daily practices. *центр научных публикаций (buxdu.Uz)*, 8(8). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/5779
8. Radjabov R. (2022). Научные взгляды ученых на употребление термина «будущее». На славянском и персидском. *Центр научных публикаций (buxdu.Uz)*, 16(16). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/7132
9. Fayziyeva Aziza. "Shaxsiy rivojlanishga oid asarlarning lingvistik xususiyatlari." *центр научных публикаций (buxdu.uz)* 8, no. 8 (2021).
10. Туйбоева Ш. (2022). Простая конструкция предложения в узбекской и французской системной лингвистике. *Центр научных публикаций (buxdu.Uz)*, 8(8). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/5813.

11. Zokirovna O. D. (2022). On the Peculiarities of Simultaneous Interpreting. *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*, 2(5), 170–180. Retrieved from <https://literature.academicjournal.io/index.php/literature/article/view/369>
12. Рабиева, М. (2022). Контекстуально-ситуативные и социо-коммуникативные принципы эвфемизма, ортофемизации и дисфемизации. *Центр научных публикаций (buxdu.Uz)*, 8(8). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/5455
13. Baxtiyorovna, I. F. (2022). Sources of Linguocultures and Linguoculturological Field. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(6), 56-60. Retrieved from <https://cajlp.ccentralasianstudies.org/index.php/CAJLPC/article/view/379>
14. Olimovna, Narzullayeva Firuza. "Contrastive Analysis of the "Head" in English and Uzbek Languages." *Spanish Journal of Innovation and Integrity* 5 (2022): 410-413.
15. Nasriddinova, S. Z. (2022, April). Classification of syntactic relations in compound sentences. In *International Conference on Research Identity, Value and Ethics* (pp. 121-123).
16. Shakirov R. *Classification des homonymes dans la langue française*. – Éditions universitaires européennes, 2021.
17. Xafizovna, R. N. . (2022). Linguistic Politeness Theory Review: Yueguo Gu, Sachiko Ide, Shoshena Blum Kulka, Bruce Frasher and William Nolen, Hornst Arndt and Richard Janney. *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*, 2(5), 145–152.
18. Nasillovna, S. S. (2021). The image of a woman in a victorian novel. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 2(12), 610-617.
19. Xaydarova, L. (2022). The importance of the usage of interactive methods while developing reading skills of young learners. *центр научных публикаций (buxdu.Uz)*, 8(8). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/5778
20. Salikhova N. N. Interjections in the Contexts of Uzbek and English Languages // *Indonesian Journal of Innovation Studies*. – 2022. – Т. 18.
21. Salixova N. Отличительные особенности восклицательных слов в разговорном языке // *центр научных публикаций (buxdu. uz)*. – 2021. – Т. 5. – №. 5.

O'ZBEK VA NEMIS TOPISHMOQLARIDA METAFORIK BIRLIKLARNING
ANTROPOTSENTRIK TADQIQI

Xudoyev Samandar Samatovich,
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi
s.s.xudoev@buxdu.uz

Annotatsiya: Maqola o'zbek va nemis topishmoqlarini nosistem tilshunoslik ya'ni antropotsentrik nuqtayi nazaridan tadqiq qilishga bag'ishlangan. Xususan, topishmoqning yuzaga kelishida xalqlarning uzoq tarixiy davrda shakllangan madaniyati, turmush tarzi, urf-odat va an'analari, hayotiy tajribalari shuningdek odamlar o'rtasidagi turli munosabat va boshqalar muhim rol o'ynagan. Topishmoq shakllanishida, asosan, so'zning konnotativ ma'nosi muhim rol o'ynaydi va bunday vositalar orasida metaforaning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada topishmoqda metaforaning qo'llanishida aynan nolisoniy omillarning roli beqiyos ekanligi noqardosh tillardagi topishmoqlarning chog'ishtirma tahlili asosida ham nazariy ham amaliy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: topishmoq, metafora, metaforik nutq, interpretanta, reprezentamen, obyekt, lingvokulturologiya, geshtalt, antropotsentrik paradigma, kognitiv (konseptual) metafora, kognitologiya.

Annotation: The article deals with the study of Uzbek and German riddles from the point of non-systematic linguistics; from the view of anthropocentric linguistics. Mainly, the article touches the factors that played an essential role in the appearance of the riddles: the culture, lifestyle, customs and traditions of the peoples who lived in the long historical periods, including life experiences and different relationships among people. The connotative meaning of the word plays an important role in the formation of a riddle, and among such tools, the place of metaphor is of particularly important. In this article, the role of non-linguistic factors in the use of metaphor in riddles is compared, it is based on the cross-analysis of riddles in unrelated languages, it is justified both theoretically and practically.

Key words: riddle, metaphor, metaphorical speech, interpreter, representative, object, linguo-culture, gestalt, anthropocentric paradigm, cognitive (conceptual) metaphor, cognitology.

Аннотация: Статья посвящена исследованию узбекских и немецких загадок с антропоцентрической точки зрения. В частности, большую роль в появлении загадки сыграли культура, образ жизни, обычаи и традиции народов, сформировавшиеся в длительный исторический период, жизненный опыт, а также разные отношения между людьми и т.д. Важную роль в образовании загадки играет коннотативное значение слова, и среди таких средств особенно важна роль метафоры. В данной статье на основе сопоставительного анализа загадок в неродственных языках обосновывается несравнимая роль неязыковых факторов в использовании метафоры в загадках.

Ключевые слова: загадка, метафора, метафорическая речь, интерпретант, репрезентаме́н, объект, лингвокультурология, гештальт, антропоцентрическая парадигма, когнитивная (концептуальная) метафора, когнитология.

Kirish. Jahon folklorshunosligida topishmoq poetikasi va paradigmaticasiga oid salmoqli ishlar amalga oshirilgan va kerakli yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, antroposentrik nuqtayi nazarida topishmoq matnining shakllanish va idroki bo'yicha tadqiq etilgan ishlar deyarli yo'q. Topishmoqning ma'lum bir xalq folkloridagi o'rni, genezisi, milliy tabiati, poetikasi, unda voqelikni metaforik nutq vositasida ifoda etish tamoyilining yetakchiligi, kognitiv semantik tasnifi kabi jihatlar zarur va dolzarb vazifalardandir.

Asosiy qism. Ma'lumki metofora haqidagi nazariy qarashlar qadimgi davrdanoq mavjud bo'lgan. M.Mirtojiyev o'zining "O'zbek tili semasiologiyasi" nomli monografiyasida matofora tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: "Metafora hosila ma'no yuzaga kelish hodisalarining eng faoli hisoblanadi. U tilshunoslikda qayd etilishicha, hosila ma'no yuzaga kelishini hosil qiluvchi va hosila ma'no referentlari o'zaro o'xshash kelishiga asoslanadi".

XX asrning so'nggi choragida ma'no ko'chishining usullaridan biri hisoblangan bu hodisaning inson kognitiv faoliyatiga ham xos ekanligi haqidagi qarashlar ilgari surila boshladi. D.Xudoyberganovaga ko'ra, bunday qarashlarning shakllanishida xususan o'z tadqiqotlarida metaforaga antropologik nuqtayi nazardan

yondashgan M.Osborn, J.Jejns, E.Kassirer, N.F.Alefirenko, J.Lakoff, M.Jonson kabi olimlarning fikrlari asosiy o'rin egallaydi.

Amerikalik tadqiqotchi J.Jejns mavhum konseptlar muayyan metaforalar yordamida shakllanishini ta'kidlab, noma'lum va notanish predmetni tasavvur qilishda bizga juda yaxshi tanish bo'lgan hamda sensor hissiyotlarimiz bilan bog'liq bo'lgan obrazni tanlay olish o'rinli metaforani yuzaga keltirishini ta'kidlagan edi.

O'tgan asrning so'nggi choragida kognitiv tilshunoslikning taniqli vakili bo'lgan J.Lakoff hamda mashhur faylasuf M.Jonson tomonidan yaratilgan metaforalar to'g'risidagi tadqiqot bu boradagi qarashning tub burilishiga sabab bo'ldi. Mazkur tadqiqotchilar kognitiv (konseptual) metaforalar nazariyasiga asos solib, metaforalar faqat til hodisasi bo'libgina qolmay, inson tafakkurining ham ajralmas qismi ekanligini chuqur yoritib berdilar. J.Lakoff va M.Jonson: "Metaforalar nafaqat kundalik hayot, nafaqat til, balki tafakkur va faoliyatimizga ham kirib boradi. Bizning kundalik tushunchaviy tizimimiz ham o'z mohiyatiga ko'ra metaforikdir", – deb ta'kidlagan edilar.

Topishmoq matnida kengaytirilgan metaforalar tushunchasi keng qo'llaniladi. Kengaytirilgan metafora – obyektни uzoqdan o'xshash bo'lgan boshqa mavjudodlar yordamida bilvosita tasvirlash hodisasi. Biroq topishmoq narsa-buyumning mavhum tushunchasi o'rnida aniq tasvirni ifodalovchi ramziy so'z, ko'pchilikka ma'lum bo'lgan narsalarga xos belgilar bilan ifodalash usuli, ya'ni allegorik tasvirlardan foydalanadi.

*Bir palosim bor,
Hech yig'olmayman*

(Yer)

*Ich bin von meiner Mutter gekommen
Und habe meine Mutter wiedergeboren.*
(Wasser und Eis)

*Og'a-ini ming botir,
Ko'm-ko'k gilamda yotir.*

(Osmon, yukduzlar)

*Es steht ein Großvater in der Ecke,
Wer reinkommt, streichelt ihn.*
(Der Kachelofen)

Topishmoq janrida bitta (javob) obyekt bir nechta topishmoq matni orqali ifodalanish hollari ko'p kuzatiladi. Bu holat topishmoqda ifodalangan narsa va hodisalarning kengligi, voqe'likni o'ziga xos badiiy shaklda tasvirlanishi bilan bog'liq.

Qoziq ustida qor turmas.

(Tuxum)

*Es ist ein kleines Klösterlein,
Geht weder Tür noch Fernster herein,
Und wächst doch Fleisch und Bein darin,
Davon hat mancher guten Gewinn.*
(Das Ei)

*Mening bir o'tovim bor,
Oynasi, eshigi yo'q.*

(Tuxum)

*Eine gelbe Blume, wer sie will pflücken,
Der schlage den weißen Berg in Stücken.*
(Das Ei)

O'tga tushsa muz bo'lar.

(Tuxum)

*Ein Haus voll Essen
Und die Tür vergessen.*
(Das Ei)

*Pishirsa osh bo'lur,
Pishirmasa qush bo'lur.*

(Tuxum)

*Ein kleines Fässchen
Hat weder Spundloch noch züpfchen,
Und doch ist zweierlei Bier darin.*
(Das Ei)

Bir kosada ikki xil ovqat.

(Tuxum)

*Mei Mutter hat a Kastei,
Um und um koa Schlösseiö*


*Bir uyda ikki o'rtoq,
Biri sariq, biri oq.*

(Tuxum)

*Wenn sie's auftut,
Geht's nimmer zu.*
(Das Ei)

Topishmoq matnining shakllanishi va idroki bevosita falsafiy pragmatizm bilan aloqadordir, nazarimizda. Ushbu falsafiy tizimning asosiy g'oyasi semiotik belgining ma'no-mazmuni ushbu belgi vositasida bajarilayotgan harakatning samarasi, natijalari muvaffaqiyati bilan bog'liq holda o'rganilishidir. Bu tamoyil muallifi Ch.Pirs birinchilardan bo'lib, belgi nazariyasi doirasida kommunikativ faoliyat sub'yekti omilini inobatga olish lozimligini uqtirdi. Ch.Pirsning talqinicha, belgining munosabat maydoni uch yo'nalishdan iborat: 1) belgi, aniqrog'i – reprezentamen, biror narsaning o'rnini almashtiruvchi moddiy ko'rinishga ega bo'lgan vosita; 2) idrok etuvchining ongidan o'rin olgan va belgining tavsifinbi beruvchi

hodisa – interpretanta; 3) belgida aks topayotgan obyekt. Professor Sh.Safarov ushbu munosabatlar maydonini o'zining "Pragmalingvistika" nomli monografiyasida quyidagi shaklda tasvirlaydi:



Fikrimizcha topishmoq matnining yaratilishi va idroki ham mazkur uch munosabat maydoni orqali amalga oshadi. Bunda topishmoq matni belgi (representamen) ya'ni obyektning o'rnini almashtiruvchi vosita vazifasini bajarsa, interpretanta idrok etuvchining ongidan o'rin olgan va belgining tavsifini beruvchi, unga ta'sir o'tkazuvchi tuzilmadir. Belgida o'xshatishlar, metaforalar yordamida tasvirlanayotgan obyekt jumboqdagi javob vazifasini o'taydi.

*Oyog'i yo`q, yuradi,
Og`zi yo`q, gapiradi.*

(Soat)

*Ach, ich armer Schmiedeknecht,
Hab keine Hand, zeig immer recht,
Hab keine Fuß, muss immer gehn,
Tag und Nacht auf Schildwach stehn.
Leg ich mich einmal zur Ruh,
Brummt gleich jedermann dazu.*

(Die Uhr)

Zamonaviy tilshunoslikning yetakchi yo'nalishlaridan biri bo'lgan lingvokulturologiya XX asrning so'nggi choragida shakllana boshladi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, "lingvokulturologiya" termini V.N.Teliya rahbarligida Moskva frazeologik maktabi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilan bog'liq ravishda paydo bo'lgan.

XXI asr boshiga kelib lingvokulturologiya jahon tilshunosligidagi yetakchi yo'nalishlardan biriga aylanib ulgurdi. Ko'plab tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, lingvokulturologiya tilni madaniyat fenomeni sifatida o'rganuvchi fan bo'lib, o'zaro aloqadorlikda bo'lgan til va madaniyat uning predmetini tashkil etadi. Jumladan, V.N.Teliya bu haqda shunday yozadi: "Lingvokulturologiya-insoniy, aniqrog'i, shaxs va madaniy omilni uzviylikda tadqiq etuvchi fandir." G.G.Slishkinning fikriga ko'ra, "Lingvokulturologiya inson omiliga, aniqrog'i, insondagi madaniyat omiliga yo'naltirilgan. Lingvokulturologiyaning markazi madaniyat fenomenidan iborat bo'lishi inson haqidagi fanning antropologik paradigmaga tegishli hodisa ekanligidan dalolat beradi." D.Xudoyberganovaga ko'ra, lingvokulturologiyaning o'rganish obyekti haqidagi fikrlar borasida bir to'xtamga kelingan bo'lsa-da, ayrim munozarali qarashlar ham yo'q emas. Masalan, V.N.Teliyaning fikriga ko'ra, lingvokulturologiya til va madaniyatning faqat sinxron aloqasini o'rganadi. V.A.Maslova esa bu soha tilni ham sinxron, ham diaxron jihatdan o'rganadi, deb hisoblaydi. Shuningdek, V.N.Teliya lingvokulturologiya obyekti umuminsoniy xarakterga ega bo'lishini ta'kidlasa, V.A.Maslova muayyan xalq yoki qardosh xalqlar tilining lingvokulturologik xususiyatlari alohida o'rganilishi lozim ekanligini ta'kidlaydi.

Hozirgi vaqtda lingvokulturologiya jahon, xususan, rus tilshunosligida eng rivojlangan yo'nalishlardan biri bo'lib, bu borada bir qancha o'quv qo'llanmalar yaratilgan. Tilshunoslarning e'tirof etishicha, ularning orasida eng mashhuri V.A.Maslova tomonidan yaratilgan o'quv qo'llanma hisoblanadi. Mazkur o'quv qo'llanmada lingvokulturologiya sohasining metodlari, obyekti va predmeti, yo'nalishlari yoritib berilgan, muayyan til birligini lingvokulturologik tahlil qilish namunalari ko'rsatilgan.

Professor N.Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab..." nomli maqolasida lingvokulturologiya, umuman, antroposentrik paradigmanning mohiyati va bu boradagi muammolar chuqur va asosli yoritib berildi. Ushbu maqolani o'zbek tilshunosligida lingvokulturologiya haqida jiddiy mulohazalar bayon qilingan birinchi asar sifatida baholash mumkin.

Maqolada lingvokulturologik nazariyaning shakllanishi uchun xizmat qilgan omillar, undagi asosiy tushunchalar, ularning talqinidagi har xilliklar haqida juda asosli mulohazalar aytilgan. Xususan, N.Mahmudov ayni sohaning eng asosiy tushunchalaridan bo'lgan til va madaniyat haqida quyidagilarni yozadi: "Til va madaniyat deganda, ko'pincha, "nutq madaniyati" deyiladigan muammo assosiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o'rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko'rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o'rganish orqali u yoki bu tilni

tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq aytadigan bo'lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma'nosi "aqliy-ma'naviy yoki xo'jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya" emas, balki "kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmui" demakdir. Shunday bo'lgach, nutq madaniyatining o'rganish muammolari boshqa, lingvokulturologiyaning o'rganish obyekti tamoman boshqadir."

Lingvokulturologiyaning bevosida matn bilan bog'liq jihatiga kelsak, shuni aytish lozimki, matn ham boshqa til birliklari qatorida bu sohaning tadqiq obyektlaridan biri hisoblanadi. Jumladan, V.A.Maslova bu xususida yozar ekan, o'xshatishlarning matn yaratilishidagi o'rniga to'xtalib, ular matnda struktur-kompozitsion vazifani bajarishi va matn kogerentligini ta'minlovchi vosita maqomida bo'lishini aytadi. Shuningdek, olima matnni madaniyat mavjudligining amal qilish shakli sifatida baholaydi. Uning, xususan, o'xshatish – matnlar haqidagi fikri ham e'tiborga molikdir. Kuzatishlar natijasida aytish mumkinki, o'xshatish va uning qisqargan shakli bo'lgan metaforalar matnda muhim kognitiv-semantik ahamiyat kasb etishi bilan birga, til egalarining milliy-madaniy tafakkuriga xos jihatlarni ham namoyon etuvchi hodisa bo'la oladi. O'xshatish va metaforalar asosiga qurilgan matnlar muayyan tilda qoliplashgan matn shakllari (ularni matnning pretsedent shakllari tarzida ham baholash mumkin)ni aniqlash imkoniyatini ham beradi.

Har bir xalq, millatning tafakkur ongida istalgan bir matnning (jumladan topishmoq matnining ham) botiniy shakllanishida ijtimoiy, madaniy, lisoniy kabi nomenal hodisalarning ta'siri salmoqli bo'lib, ular matnning zohiriy ko'rinishida ya'ni nutqdagi ifodasida o'z aksini topadi.

<i>Eski-eski choponim,</i>	<i>Wenn du es jagst, so flieht es dich,</i>	
<i>Esimdan chiqmas choponim,</i>	<i>Wenn du es fliehst, so jagt es dich.</i>	
<i>Janda-janda choponim,</i>		(Der Schatten)
<i>Yonimdan ketmas choponim.</i>	<i>Welches Bild hängt ohne Nagel an der Wand?</i>	(Der Schatten)
(Soya)		
<i>Chopsa, chopilmas,</i>	<i>Ich wandle mit dir Tag und Nacht</i>	
<i>Kessa, kesilmas.</i>	<i>im Sonnen- und im Mondenschein.</i>	
(Soya)	<i>Auf leisen Sohlen schleich ich sacht</i>	
<i>Ko'msa, ko'milmaydi.</i>	<i>bald vor dir her, bald hinterdrein:</i>	
(Soya)	<i>hinab ins Tal, hinan den Berg,</i>	
<i>Chopsa, changi yo'q.</i>	<i>bald wie ein Ries', bald wie ein Zwerg.</i>	
<i>Yo'nsa, qoni yo'q.</i>		(Dein Schatten)
(Soya)	<i>Was fällt ins Wasser und wird nicht naß?</i>	(Dein Schatten)

Topishmoqli mikromatn tahlilida antropotsentrik paradigmaning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lmish lingvokognitologiya asosiy lingvistik omillardan hisoblanadi. Unda konsept va uning lisoniy voqelanishini ta'minlovchi mental tuzilma – lingvistik geshtalt topishmoq matnining yaratilishi va idrokida muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, mikromatn uni tashkil etgan propozitsiyalar yig'indisidan iborat, lekin matn yaratilishi nuqtayi nazaridan bu – zohiriy ko'rinish. Aslida, ko'pincha topishmoq matni muallifi (bir kishi, millat, xalq) ideaklektida dastlab alohida propozitsiyalar emas balki bu propozitsiyalarning umumiy idrokidan kelib chiquvchi yaxlit mazmun yuzaga keladi. Bu yaxlit mazmun esa adresat uchun jumboq vazifasini o'taydi. Geshtalt topishmoq matni yaratilish jarayonida yaxlit butunlik sifatida yuzaga kelsa, uning mazmuniy idrokida esa bo'lakdan-butunga jarayoni amal qiladi.

<i>O'zi katta,</i>	<i>Hat zwei Berge auf dem Rücken,</i>	
<i>dumi kalta</i>	<i>Zwischen denen Lasten drücken.</i>	
(Tuya)		(Das Kamel)

Xulosa. Shuni ta'kidlash joizki, bir maqola doirasida o'zbek va nemis tilidagi topishmoq matnlarining barcha antroposentrik xususiyatlarini batafsil tadqiq etilishining imkoni yo'q, albatta. Shu boisdan, unda o'zbek va nemis tilidagi matnlarga xos bo'lgan eng muhim antroposentrik jihatlardan biri bo'lgan topishmoq matnining yaratilishi va idroki muammoli tahlil doirasiga tortildi. O'ylaymizki, topishmoq matnining antroposentrik tadqiqi tahlili mazkur maqola bilan cheklanib qolmaydi. Bu borada tilshunoslikda yana ko'plab tadqiqotlar yaratilishi shubhasizdir.

1. Brzoska K. (Hg.) *Das kleine Rätselbuch. Deutsche Volksrätsel. Insel-Bücherei Nr. 494.* - Wiesbaden, Insel Verlag, 1951.
2. Лакофф Дж., Джонсон М. *Метафоры, которыми мы живем.* – Москва, 2004.
3. Маслова В.А. *лингвокультурология Учеб. пособие.* –М.: Academia, 2001.
4. Mirtojiev M. *O`zbek tili semasiologiyasi.* – T.: 2010.
5. Xudoyberganova D. *Matnning antroposentrik tadqiqi.* – T.: Fan, 2013.
6. Safarov Sh. *Pragmalingvistika.* – T.: 2008. – 318 b.
7. Слышкин Г.Г. *От текста к символу. Лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании дискурса.* – М.: Academia, 2000.
8. Телия В.Н. *Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты.* – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996.
9. Ўзбек топшимоқлари / Узбекские загадки (тўловчи ва таржимон М.Абдурахимов). – Т.: 1991.
10. Хусаинова З. *Ўзбек халқ топшимоқлари.* – Т.: 1961.
11. Khudoev S. *The Riddle Genre in World Literature and the History of Research on It //International journal of language learning and applied linguistics.* – 2023. – T. 2. – №. 1. – С. 13-15.
12. Худоев С. *Topishmoq matnining sintaktik xususiyatlari (ozbek-nemis topishmoqlari misolida) Annotatsi //Центр научных публикаций (buxdu. uz).* – 2023. – T. 30. – №. 30.
13. Худоев С. *Nemis adabiyotshunosligida topishmoq janrining tadqiq-u tavsifi //центр научных публикаций (buxdu. uz).* – 2023. – T.: 29. – №. 29.
14. Худоев С. *Жаҳон фольклорида топшимоқ жанри ва унинг ўрганилиш тарихи //центр научных публикаций (buxdu. uz).* – 2022. – T. 26. – №. 26.

TABIIY TILNI QAYTA ISHLASH (NLP)DA STEMMING JARAYONI TAVSIFI

Xusainova Zilola Yuldashevna,
 Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
 davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
 tayanch doktoranti.
xusainovazilola@navoiy-uni.uz

Annotatsiya: Stemming – bu tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)da matnga ishlov berishning dastlabki bosqichi, mazkur jarayon NLPning ko'plab vazifalarida amalga oshirilishi talab etiladigan amal. Stemming jarayonining asosiy maqsadi – so'zning flektiv shakllarini o'zak shakliga olib kelish. NLPning ushbu amali axborot qidiruv tizimlari (Information Retrieval systems, IRS)ning aksariyatida juda muhim. Ushbu maqolada stemmingning asosiy vazifalari, ishlash tamoyillari, so'z shaklining stemini topish ketma-ketligining zamonaviy usullari, ulardan foydalanish imkoniyati, mavjud stemmerlarning afzalliklari va cheklovlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: stemming, NLP, information retrieval, IR, stemming jarayoni, stemming algoritmlari, stemmer, statistik usullar.


Аннотация: Стемминг — это первый шаг в обработке текста при обработке естественного языка (NLP), процесс, необходимый для многих задач NLP. Основная цель процесса stemming — привести флексивные формы слова к корневой форме. Это применение NLP очень важно в большинстве информационно-поисковых систем (IRS). В данной статье анализируются основные задачи stemming, принципы его работы, современные методы нахождения основы словоформы, возможности их использования, преимущества и недостатки существующих stemmerов.

Ключевые слова: stemming, NLP, поиск информации, ИО, процесс stemming, алгоритмы stemming, stemming, статистические методы.


Abstract: Stemming is the first step in text processing in natural language processing (NLP), a process required for many NLP tasks. The main goal of the stemming process is to bring the inflected forms of the word to the root form. This application of NLP is very important in most information retrieval systems (IRS). This article analyzes the main tasks of stemming, the principles of its operation, modern methods of finding the stem of a word form, the possibility of their use, the advantages and limitations of existing stemmers.

Key words: stemming, NLP, information retrieval, IR, stemming process, stemming algorithms, stemmer, statistical methods.

Kirish. Odatda, NLP masalasi bir necha kichik qismlarga ajratilib, bosqichma-bosqich hal qilinishi lozim. NLPda matnni bosqichma-bosqich qayta ishlash **pipeline jarayoni** (konveyeri) deb yuritiladi [1]. Har qanday NLP modelini yaratishda pipeline jarayoni amalga oshirilishi lozim bo'lgan qadamlar ketma-ketligidir. Quydagi 1-rasmda zamonaviy NLP tizimini ishlab chiqish uchun umumiy pipeline konveyerining asosiy komponentlari ko'rsatilgan [2]. Matnlarga boshlang'ich ishlov berish bosqichlarida **tokenizatsiya, kichik haflarga o'tkazish, nomuhim so'zlarni olib tashlash, stemming va lemmatizatsiya** kabi jarayonlar amalga oshiriladi (2-rasm).



1-rasm. Pipeline konveyerining asosiy bosqichlari



2-rasm. Boshlang'ich ishlov berish bosqichlari

Hozirgi kunda qidiruv tizimlarida *ma'lumotlarni indekslash* va *izlashda* stemming jarayonidan foydalanilmoqda. Indeksash va izlash jarayoni o'z navbatida **ma'lumotlarni intellektual qayta ishlash** (Text Mining applications), **tabiiy tilni qayta ishlash** (NLP) va **axborot qidirish** (Information Retrieval, IR) tizimlari ilovalarining bir qismi hisoblanadi [3].

Ma'lumotlarni indekslash va izlashdagi asosiy g'oya qidirilayotgan so'z (termin)larni o'zak (asos, ildiz)ka qisqartirish (so'zda mavjud barcha qo'shimchalarni kesib tashlash) orqali qo'shimchalarni avtomatik qayta ishlash samaradorligini oshirishdan iborat. O'zakni aniqlash, odatda, so'zdan old qo'shimcha va o'zakdan keyingi qo'shimcha(lar)ni olib tashlash orqali amalga oshiriladi [3, 4]. So'z o'zagi berilgan termin(so'z shakl)ga qaraganda kengroq tushunchani ifodalaganligi sababli IR tizimida stemming jarayonini qo'llash orqali olingan hujjatlar soni oshadi. So'zlarning morfologik variantlari semantik o'xshash bo'lganligi sababli IR ilovalari uchun ekvivalent deb taxmin qilinadi. Shuningdek, stemming jarayoni matnni **klasterlash (clustering)**, **tasniqlash (categorization)** va **umumlashtirish (summarization)** kabi NLP vazifalarida boshlang'ich ishlov berishning asosiy qadami sifatida talab qilinadi [5,6].

Stemming jarayoni

Matnni qayta ishlashda so'zlarning morfologik variantlari o'xshash semantik talqinlarga ega ekanligi va IR ilovalari uchun ekvivalent deb hisoblanishi mumkin. IR ilovalari ishlab chiqishda ma'nosi bir xil, lekin so'z shakli turlicha bo'lgan so'zlarning o'zagini aniqlash lozim. Shunday qilib, so'rov yoki hujjatning kalit so'z shartlari ma'lumotni qidirishning muayyan bosqichida asl so'zlar bilan emas, balki ularning o'zaklari qayta ishlanadi. Biroq ko'pincha o'zaklarning morfologik o'zgarishlari bir-biriga bog'liq bo'lmagan kontekstga ega bo'lishi mumkin. Ba'zi hollarda o'zak so'zlar turli, ammo semantik jihatdan bog'liq bo'lgan atamalarga ega bo'lishi mumkin. Qidiruv tizimlarida amalga oshirilgan so'rov natijasiga mos aniqlangan hujjatlar ko'pincha asl so'rovning semantik kontekstini bildirmaydi. Shu sabablarga ko'ra, indeks fayllari hajmini kamaytirish maqsadida IRda stemmerlar qo'llaniladi. Atama (stem)lar indekslash vaqtida ham, qidiruv vaqtida ham aniqlanishi mumkin. Indeksash jarayonida stemmingdan foydalanish samaradorlik oshirishini va indeks fayllari hajmining kamayishini ta'minlaydi. Shu nuqtayi nazardan, qidiruv tizimlarining har bir so'z bo'yicha morfologik jihatdan bog'liq atamalarni topish IR samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Google Search kabi qidiruv tizimlari stemmingdan foydalanadi. Google qidiruv tizimida olib borilgan tahlillarga ko'ra, "-s", "-ed" va "-ing" kabi ba'zi qo'shimchalar o'zaklar bilan bevosita, "-able", "-tive", "-ly" va "-ness" qo'shimchalar esa bilvosita bog'liqligi aniqlangan. Hozirgi kunda ushbu amalni bajarish uchun turli xil **stemming algoritmlari** ishlab chiqilgan [3, 7].

Bir-biriga bog'liq bo'lmagan so'zlarni bitta o'zak bilan birlashtirish, qidirish samaradorligi keskin pasayib ketishiga olib keladi. Shu sababli hosil bo'lgan o'zak ularning ildiz morfemalariga juda yaqin bo'lishi talab qilinadi. O'zaklarning lingvistik jihatdan to'g'riligini samarali aniqlash uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini hisobga olish lozim. Stemming algoritmi so'zning morfologik variantlari (maktabimiz, maktabdoshlar, maktabdan)dan "maktab" so'zini aniqlaydi. Shunday qilib, qidiruv tizimida amalga oshirilgan so'rov yoki hujjatning asosiy shartlari kiritilgan so'zlar bilan emas, balki stemming jarayoni natijasida hosil qilingan o'zaklar orqali bajariladi. Hujjat yoki so'rovdagi terminlar umumiy sonini qisqartirish orqali yakuniy natijani qayta ishlash vaqti qisqartiriladi.

Stemming jarayoni so'zlarning qo'shimchalarini shunchaki kesib tashlaydigan "qo'pol" evristik jarayon sifatida qaralishi mumkin. Mualliflarning fikriga ko'ra, lemmatizatsiyadan farqli o'laroq, stemming jarayonida **lug'atdan** yoki **morfologik tahlidan** foydalanilmaydi [1]. Stemming natijasida hosil qilingan o'zak *haqiqiy so'z* yoki uning morfologik ildiziga o'xshash bo'lishi shart emas. Stemming jarayonining maqsadi – o'xshash so'zlarni bir xil o'zakgacha qisqartirish. Quyidagi jadvalda "celebrate" so'zni uchun fe'l shakllarining o'zgarishlari keltirilgan:

To Rank For This Verb Form	Include These Versions, in Descending Order of Frequency
celebrate version	-ed, -tion, -s, -ing
-s version	celebrate, -ed, -ing, -tion
-ed version	celebrate, -s, -tion, -ing
-ing version	celebrate, -s, -tion, -ed
-tion version	celebrate, -s, -tion, -ing
-tions version	-tion
-or version	-ors, -tion, -ed
-ors version	-or, celebrate
-able version	Nothing. Stick with -able itself.
-tive version	-ed
-tively version	-tive
-ness version	-tive

Stemming jarayoni soʻzshakllarda hissiy emotsionallikni ifodalovchi qoʻshimchalarni kesib tashlash orqali soʻzni neytrallashtiradi. Stemming jarayoni natijasi spellchecker (imlo tekshiruvchi) kabi NLP ilovalari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Stemming jarayoni soʻzlarning yasallishi bilan bogʻliq: u oʻzak va yasalmaning oʻzgarishiga asoslanadi. Stemming natijasida soʻzshakllar konflyatsiya¹ga olib kelinadi. Soʻz shakllarida prefiks va suffiks kabi qoʻshimcha (affiks)lar ishtirok etishi mumkin. Qoʻshimchalar soʻz yasovchi (*derivational*) va shakl yasovchi (*inflectional*)ga ajratiladi (2-jadval).

Shakl yasovchi qoʻshimchalar soʻzga birlik/koʻplik, hozirgi/oʻtgan/kelasi zamon kabi grammatik maʼnolarni yuklaydi. Lekin yangi soʻz hosil qilmaydi (leksik maʼno qismini oʻzgartirmaydi). Masalan, ingliz tilidagi "boy" va "boys"; "big", "bigger" va "biggest".

Soʻz yasovchi qoʻshimchalar: oʻzakdagi maʼno bilan bogʻliq, ammo yangi soʻz yasaydi (yangi leksik maʼno hosil boʻladi). Masalan, "creation" va "create" soʻzlari umumiy oʻzakdan yasalgan boʻlib, turli turkumlarga (POS) mansub boʻlishi mumkin. Yasovchi qoʻshimchalardan keyin shakl yasovchilar kelishi mumkin [8]. Ingliz tilidagi "departments" va "rationalizations" soʻzlari tarkibi quyidagicha:

"departments" → "depart+ment+s"

"hospitalizations" → "hospital+iz+ation"

2-jadval. Ingliz tilida soʻz yasovchi va shakl yasovchi morfemalarni solishtirish

	Soʻz yasovchi	Shakl yasovchi
joylashuvi	stemga yaqin	stemdan uzoq
foydalanish mumkinmi?	ha	ingliz tilida yoʻq
oʻzakni oʻzgartiradimi?	ha	yoʻq
unumdorligi	(baʼzan) yoʻq	(doim) ha
maʼnosi	(odatda) predikatlik maʼnosi boʻlmaydi	(odatda) predikatlik maʼnosi yuklaydi

Stemming jarayonidagi baʼzi maxsus holatlar uchun qoidalar bajarilmasligi sababli turli xatolar yuzaga keladi. Ikki xil tushunchadan bir xil oʻzak hosil qilinishi juda katta xatolik hisoblanadi. Bunga, "withings" soʻzidan "with" oʻzagi hosil qilinishini namuna sifatida keltirish mumkin. Porter stemmeri turli maʼnoga ega "meanness" va "meaning" soʻzlaridan "mean" oʻzagini hosil qiladi. Aksincha, "goose" va "geese"

¹ Konflatsiya (conflation) – soʻz shakllarining umumiy oʻzagini aniqlash.

ekvivalent bo'lsa-da, ulardan mos ravishda "goos" va "gees" o'zaklar hosil qilinadi. Stemming jarayonida quyidagi odatiy xatolar yuzaga kelishi mumkin [4, 9]:

Overstemming: juda ko'p qo'shimchalarni olib tashlanganda sodir bo'ladi. Masalan, "wander" → "wand"; "news" → "news"; "universal", "universe", "universities", "university" → "univers"ga qisqartiriladi.

Overstemming – o'zaklari har xil bo'lgan ikki so'zning bir o'zakdan kelib chiqishidir. Ko'p hollarda bu jarayon **noto'g'ri ijobiy (false positive)** deb ham ataladi.

Understemming umumiy o'zakka ega bo'lgan ikkita so'z uchun amalga oshirgan stemming jarayoni **noto'g'ri salbiy** deyiladi. Masalan, "data" va "datum" bir o'zakdan hosil qilingan bo'lsa ham, "dat" va "datu"ga aylanadi.


Misstemming: noto'g'ri konflyatsiyaga olib kelmasa, odatda, muammo emas. Masalan, "relativity" → "relative".

Amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar

Massachusetts texnologiya instituti (MIT, Massachusetts Institute of Technology) olimi J.B.Lovins 1968-yilda birinchilardan bo'lib matnlardan ma'lumot olish uchun qadimgi stemmerlardan biri haqida tafsilotlarni nashr etadi [10]. Bu olim tomonidan taklif etilgan algoritmi asosida materialshunoslik va muhandislik sohasidagi 10000 dan ortiq hujjat qayta ishlangan. Lovins algoritmi ikki bosqichdan iborat: **(a)** o'zakni aniqlash uchun iloji boricha uzunroq qo'shimchani o'chirish; **(b)** imlo qoidasiga ko'ra istisnalarini ko'rib chiqish. Masalan, 1-bosqichda "absorption" → "absorpt"ga va "absorbing" → "absorb"ga aylanadi; 2-bosqichda qayta kodlash orqali "absorpt" → "absorb"ga aylanadi.

1980-yilda M.Porter qo'shimchalarni ajratish qoidalariga asoslangan stemmer algoritmini taklif qildi. Algoritm besh bosqichdan iborat bo'lib, 10000 so'zdan iborat lug'atdan iborat stemmer matn/korpus hajmini 33%ga qisqartirishini aniqladi. 1-boshqichdagi ko'plik va o'tgan zamon shakliga ega so'zlarni qisqartirishi orqali BCPL korpusidagi ko'plab so'zlar qisqartirilgan.

1990-yilda Lankaster universitetida Kris Peys grammatik qoidalar asosida qo'shimchalarni iterativ ravishda olib tashlaydigan yangi stemmerni ishlab chiqdi. Ba'zi qoidalar imlo istisnolari yuzaga kelmasligi uchun qo'shimchalarni almashtirishga qaratilgan. Bu stemmer odatda Paice/Husk stemmer yoki Lancaster stemmer deb ataladi. Yuqorida keltirilgan Lovins, Porter va Lancaster stemmerlar samaradorligi quyidagi grafikda qiyosiy tahlil qilingan:




3-rasm. Lovins, Porter va Lancaster stemmerlari samaradorligining qiyosiy tahlili

Stemmerlar ko'pincha ma'lumot olish samaradorligiga qarab baholanadi. Biroq bu xususiyat stemmerni yaxshilashga yordam bermaydi. Ushbu muammoni hal qilish uchun 1994-yilda Kris Peys shablon so'zlar (sample words) bilan oldindan belgilangan kontsepsiya guruhlaridan foydalanishni taklif qiladi. Taklif qilingan usulga ko'ra, *ortiqcha* va *kamaytirilgan* xatolar hisoblangan. So'ngra **overstemming index (OI)**, **understemming index (UI)** ko'rsatkichlari, **stemming og'irligi (stemming weight)** va kesishga nisbatan xato darajasi (**error rate relative to truncation, ERRT**) hisoblangan. Har bir stemmerga mos OI, UI va ERRT ko'rsatkichlar stemmerlarning ish faoliyatini solishtirishga yordam beradi [11].

2001-yilda M.Porter o'zi ishlab chiqqan stemmerning ko'plab ilovalarida xatolar borligini aniqladi. Shuningdek, u golland tili uchun Kraaij-Pohlmann stemmeri [12] ochiq kodli ANSI C dasturiy ta'minoti sifatida chiqarilganligini, ammo algoritmi tavsifi yo'qligini ta'kidlagan. Ushbu muammolarni hal qilish uchun Porter qoidalarini tabiiy tarzda ifodalash mumkin bo'lgan **Snowball tizimini** taklif qilgan va C tilidagi dasturiy

kodi ishlab chiqilgan. Ingliz tili uchun Snowball ilovasi Porter2 stemmer deb ham ataladi. 2019-yilga kelib, Snowball C, Java, Python, Go, Rust, C# va boshqa tillarda yaratilgan kodlar bilan ko'plab ortiq tabiiy tillarni qo'llab-quvvatlaydi.

2007-yilda J.Fairweather graflar nazariyasiga asoslangan, tabiiy tilga bog'liq bo'lmagan stremmerni ishlab chiqdi. Bu yondashuvga ko'ra so'zning o'zagini aniqlash – grafdagi eng qisqa yo'l muammosi sifatida qaraladi. So'zlar **[Prefix] Root {[Infix] Root} [Suffix]** ko'rinishida modellashtiriladi. Bu yerda **[]** – nol yoki bir nechta moslik, **{}** – bir yoki bir nechta moslikdir. Har bir yo'lning qiymati so'z komponenti va undagi belgilar soni bo'yicha hisoblanadi.




4-rasm. Fayervezerning graflar nazariyasiga asoslangan stremmeri

2009-yildan beri Turkiyaning Mersin universitetidan Ahmet Uyar Google qidiruv tizimida qo'llanilayotgan stremmer mexanizmlarini o'rganmoqda. 18000 xil so'zlardan foydalanib, u Google tizimining hujjatga asoslangan algoritmdan foydalanishini aniqlagan [13]. U hujjatlarning semantik jihatdan kuchli bog'langan (strongly correlated) so'z shakllari asosida indekslanganligini qayd etgan.


Stemming algoritmilarining tasnifi

Hozirgi kunda juda ko'plab NLP tadqiqotchilari tomonidan Stemming algoritmilari ishlab chiqilgan va tasniflangan bo'lib, ushbu maqolada keng miqyosida foydalanilayotgan algortimlarni keltiramiz. <http://devopedia.org> saytida zamonaviy stemmerlar quyidagicha tasniflangan:




5-rasm. <http://devopedia.org> ga ko'ra stemming algoritmilarining tasnifi

A.Jabbar, S.Iqbal va boshqalar stemming algoritmilarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatoliklarga ko'ra *kuchli* sterjenlar va *zaif* toifalarga ajratishgan [14]. Kuchli stemmerlar yuqori tezligda stemmingni amalga oshiradi. Stemming jarayoni samaradorligiga ko'ra **discount stemming** deb nomlanuvchi xatolar chastotasi (miss-stemming rate) qiymati aniqlandi. Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, stemming algoritmilarini ikki asosiy toifaga va kichik toifalarga ajratish mumkin (6-rasm).



6-rasm. Stemming algoritmlar tasnifiga A.Jabbar va S.Iqbal yondashuvi

Hind olimi G.Anjali stemming algoritmlarini **kesish** (truncating), **statistik** (statistical) va **aralash** (mixed) usullar kabi uch guruhga ajratgan: [7]. Ushbu guruhlarning har biriga mos algortimlar o'ziga xos yondashuvlar asosida so'z variantlariga mos o'zaklarni aniqlaydi. Ushbu algortim va usullar tasnifi quyidagi 7-rasmida keltirilgan:



7-rasm. Stemming algoritmlarining tasnifi

Qo'shimchalarni olib tashlash usullari

Ushbu usullar so'zning qo'shimchalari yoki prefix (affiks)larini olib tashlash (**truncating**)ga asoslanadi. Bu turdagi eng oddiy stemmer **Tuncate(n)** stemmeri bo'lib, u so'zni **n**-belgisigacha qisqartadi. Ya'ni so'zning birinchi **n** ta harfni saqlagan holda, qolganlarini olib tashlaydi [15, 16]. Bu usulda uzunligi **n** dan qisqa so'zlar o'z shaklida saqlanadi. So'z uzunligi kichik bo'lgan holda ortiqcha (keraksiz) amallar soni ortadi. Affiksni olib tashlashga asoslangan yana bir yondashuv **S-stemmer** algoritmidagi ingliz tilidagi otlarning birlik va ko'plik shakllarini birlashtiradi. Bu algoritim Donna Xarman tomonidan taklif qilingan [17]. S-stemmer algoritmidagi ko'plikdagi qo'shimchalarni birlik shaklga aylantirish qoidalarini ishlab chiqilgan [15].

Brute force/Table Lookup usulida o'zgartirilgan yoki asos so'zlar o'zaklarga moslashtiriladi. Flektiv shakllarga asoslangan tillar (turk, o'zbek) uchun bu usulda katta hajmdagi jadvallar hosil qilinadi [18]. Hozirgi kunda *so'zdan affikslarni grammatik qoidalar asosida ajratish* yoki so'z morfemasidan, jumladan, *POS teglash orqali o'zakni aniqlash* algortimlaridan foydalanilmoqda. Ushbu yondashuvlarning barchasi tabiiy tilni bilishni talab qiladi.

Xulosa

Ushbu maqolada muhokama qilingan barcha algoritmlar tahlili natijasida stemming algoritmlari o'rtasida juda ko'p o'xshash jihatlar mavjudligi aniqlandi. Agar bir algoritim muayyan turdagi vazifalarni yaxshiroq hal qila olsa, ikkinchisi boshqa turdagi vazifalarni bajaradi, ammo ularning hech biri 100 foiz natija bermaydi. Stemming algoritmlarini matnni intellektual qayta ishlash, NLP yoki IR ilovalarida qo'llash mumkin. Ularning asosiy farqi *qoidaga, lug'at yoki statistik yondashuvga* asoslanganligidadir.

ADABIYOTLAR:

1. Elov B.B., Khamroeva Sh.M., Xusainova Z.Y. NLP (tabiiy tilga ishlov berish)ning pipeline konveyeri (2022).
2. Vajjala S., Majumder B., Gupta A., Surana H. *Practical Natural Language Processing. A Comprehensive Guide to Building Real-World NLP Systems*. 2020. 455 p.
3. Eiman Tamah Al-Shammari, "Towards An ErrorFree Stemming", in *Proceedings of ADIS European Conference Data Mining 2008*, pp. 160-163
4. Paice, C. D. (1990). Another Stemmer. *ACM SIGIR Forum*, 24(3). <https://doi.org/10.1145/101306.101310>.
5. Carneiro, D., Novais, P., & Neves, J. (2014). Information Retrieval. In *Law, Governance and Technology Series* (Vol. 18). https://doi.org/10.1007/978-3-319-06239-6_7.
6. Azad, H. K., & Deepak, A. (2019). Query expansion techniques for information retrieval: A survey. *Information Processing and Management*, 56(5). <https://doi.org/10.1016/j.ipm.2019.05.009>
7. Anjali, M., & Jivani, G. (2011). A Comparative Study of Stemming Algorithms. *Int. J. Comp. Tech. Appl.*, 2(6).
8. Hojiyev A. *O'zbek tilida so'z yasalishi*. – T, 1989.
9. Paice, C. D. (1994). An evaluation method for stemming algorithms. *Proceedings of the 17th Annual International ACM SIGIR Conference on Research and Development in Information Retrieval, SIGIR 1994*. https://doi.org/10.1007/978-1-4471-2099-5_5
10. Lovins, J. B. (1968). Development of a stemming algorithm. *Mechanical Translation and Computational Linguistics*, 11(June).
11. Paice, C. D. (1996). Method for evaluation of stemming algorithms based on error counting. In *Journal of the American Society for Information Science* (Vol. 47, Issue 8). [https://doi.org/10.1002/\(SICI\)1097-4571\(199608\)47:8<632::AID-ASI8>3.0.CO;2-U](https://doi.org/10.1002/(SICI)1097-4571(199608)47:8<632::AID-ASI8>3.0.CO;2-U)
12. Kraaij, W., & Pohlmann, R. (1996). Viewing stemming as recall enhancement. *SIGIR Forum* (ACM Special Interest Group on Information Retrieval). <https://doi.org/10.1145/243199.243209>
13. Erratum: *Journal of Information Science* (*Journal of Information Science* (28)(2009)(10.1177/1363459309336801)). (2009). In *Journal of Information Science* (Vol. 35, Issue 6). <https://doi.org/10.1177/0165551509358499>.
14. Jabbar, A., Iqbal, S., Khan, M. U. G., & Hussain, S. (2018). A survey on Urdu and Urdu like language stemmers and stemming techniques. *Artificial Intelligence Review*, 49(3). <https://doi.org/10.1007/s10462-016-9527-1>.
15. Frakes, W. B., & Fox, C. J. (2003). Strength and similarity of affix removal stemming algorithms. *ACM SIGIR Forum*, 37(1). <https://doi.org/10.1145/945546.945548>.
16. Sirsat, S. R., Chavan, V., & Mahalle, H. S. (2013). Strength and Accuracy Analysis of Affix Removal Stemming Algorithms. *International Journal of Computer Science and Information Technologies*, 4(2).
17. Harman, D. (1991). How effective is suffixing? *Journal of the American Society for Information Science*, 42(1). [https://doi.org/10.1002/\(SICI\)1097-4571\(199101\)42:1<7::AID-ASI2>3.0.CO;2-P](https://doi.org/10.1002/(SICI)1097-4571(199101)42:1<7::AID-ASI2>3.0.CO;2-P)
18. Sharma, A., Kumar, R., & Mansotra, V. (2016). Proposed Stemming Algorithm for Hindi Information Retrieval. *International Journal of Innovative Research in Computer and Communication Engineering* (An ISO Certified Organization), 3297(6). <https://doi.org/10.15680/IJIRCCE.2016>.

EUPHEMISTIC FINDINGS OF THE POET HALIMA KHUDOIBERDIYEVA

Yusupova Dildora Yunus kizi,
PhD, a teacher of Uzbek linguistics
and journalism department,
Bukhara State University
d.y.yusupova@buxdu.uz

Abstract: To achieve spiritual maturity, it is necessary to correctly, rationally and effectively use the language, which is a cultural heritage, to study it deeply and enjoy it. After all, the interaction of any person with people in the environment in which he lives, his beliefs, adherence to traditions, aspirations, national values ensure his formation as a person. Every aspect of this process is associated with language, or language acts as a vehicle in any situation.

It is not enough to define the various descriptions of linguistic systems only theoretically. Considering that the study of speech phenomena of linguistic units in the communication system increases attention to the human factor, below we will consider the features of the euphemisms of Uzbek speech. Because national, cultural identity is reflected in the behavior, culture and communication of these people.

Key words: euphemistic meanings, general euphemisms, medical euphemisms, episodic and medical euphemisms in the poems of Halima Khudoiberdieva

Аннотация: Чтобы достичь духовной зрелости, необходимо правильно, рационально и эффективно использовать язык, являющийся культурным наследием, глубоко изучать его и получать от него удовольствие. Ведь взаимодействие любого человека с людьми в среде, в которой он живёт, его убеждения, традиции, устремления, приверженность национальным ценностям обеспечивают его становление как личности. Каждый аспект этого процесса связан с языком, или язык действует как инструмент в любой ситуации.

Недостаточно просто теоретически определить различные описания языковых систем. Учитывая, что изучение речевых явлений языковых единиц в системе общения повышает внимание к человеческому фактору, ниже рассмотрим особенности эвфемизмов узбекской речи, потому что национальная, культурная самобытность отражается в поведении, культуре и общении этих людей.

Ключевые слова: эвфемистические значения, общие эвфемизмы, медицинские эвфемизмы, эпизодические и медицинские эвфемизмы в стихотворениях Халимы Худойбердиевой.

Annotatsiya: Ma'naviy yetuklikka erishish uchun madaniy meros bo'lgan tildan to'g'ri, oqilona va samarali foydalanish, uni chuqur o'rganish va undan bahramand bo'lish zarur. Zero, har qanday insonning o'zi yashayotgan muhitdagi odamlar bilan o'zaro munosabati, e'tiqodi, urf-odatlar, intilishlari, milliy qadriyatlariga sodiqligi uning shaxs sifatida shakllanishini ta'minlaydi. Ushbu jarayonning har bir jihati til bilan bog'liq yoki til har qanday vaziyatda vosita vazifasini bajaradi.

Lingvistik tizimlarning turli xil tavsiflarini faqat nazariy jihatdan aniqlash yetarli emas. Aloqa tizimidagi lingvistik birliklarning nutq hodisalarini o'rganish inson omiliga e'tiborni oshirishini hisobga olib, quyida o'zbek nutqi evfemizmlarining xususiyatlarini ko'rib chiqamiz. Chunki milliy, madaniy o'ziga xoslik bu odamlarning xulq-atvori, madaniyati va muloqotida aks etadi.

Kalit so'zlar: Halima Xudoiberdieva she'rlaridagi evfemistik ma'nolar, umumiy evfemizmlar, tibbiy evfemizmlar, epizodik va tibbiy evfemizmlar.

Both in world linguistics and in Uzbek linguistics, there is a great interest in the study of euphemisms. The study of euphemisms in world linguistics is mainly based on the works of V.Z. Sannikova, V.P. The researchers are associated with Moskvina, E.P. Senichkina, L.A. Bulakovsky, B.A. Laryn, L.P. Krysin, Yu.S. Niemen, Y. Silver, A.V. Osipov, E.N. Malygina, S.A. Aghajanyan, A.N. Kudryashova, G.A. Abramova, E.V. Pikalov [2].

In Uzbek linguistics N. Ismatullaev studied 7 types of euphemisms. At the level of problem solving, in his dissertation A. Omonturdiev studied the methodological features of euphemistic expressions based on the speech of animals. E. Kilichev recognized the existence of euphemisms as a phenomenon opposite to

dysphemism. Linguist M. Mirtozhiev pays attention to the ways of formation of euphemistic meaning as a derived meaning.

A.E. Mamatov also considers euphemisms as a way of forming expressions. H. Shamsiddinov assesses euphemism as a phenomenon that generates functional-semantic synonyms. Scientist Z. Kholmanova studies the euphemisms used in the work in 2 types: Kh. Kadyrova analyzes euphemisms on the basis of creative speech [5]. In these studies, euphemisms were studied as a unit belonging to a certain level of language.

The textbook "Stylistics of the Uzbek language" provides general information about euphemism and cocofemism (dysphemism) from a team of authors. This guide focuses on euphemisms and their stylistic role. In the manual, a "veiled" word or phrase used in place of a word or phrase that is inconvenient or inappropriate to pronounce is considered a euphemism. The use of euphemisms in fiction as the only stylistic means of getting rid of awkward and awkward situations, as well as euphemisms used in working with images and characters, have a specific stylistic purpose, such as expressing purpose, worldview, etc., the level of each image and the character is underlined [4].

In linguistic literature, dysphemism, cacothemism and strong words are considered the antonyms of euphemism [1]. The first and second terms have an offensive and less humorous connotation, they are used as a pre-planned insult when something is intentional. The latter is mainly used in debates.

In the monograph of the linguist M. Mirtozhiev "Semasiology of the Uzbek language", special attention is paid to euphemisms. In his monograph, the scientist pays special attention to the relationship between the phenomenon of taboo and euphemism, the history of research. The scientist emphasizes that the euphemistic meaning is a derived meaning, that the derived meaning is formed in a metaphorical, metonymic way, from which, in particular, the metaphor plays an important role in the formation of the euphemistic meaning. For example, the lexical meaning of the word *scorpion* is voiced by the word *donkey*. Because the tail of a scorpion is similar to that of a donkey. This similarity leads to the formation of a euphemistic metaphorical meaning of the word *donkey*. In his monograph, the scientist pays special attention to the relationship between the phenomenon of taboo and euphemism, the history of research. The scientist emphasizes that the euphemistic meaning is a derived meaning, that the derived meaning is formed in a metaphorical, metonymic way, from which, in particular, the metaphor plays an important role in the formation of the euphemistic meaning. For example, the lexical meaning of the word *scorpion* is voiced by the word *donkey*. Because the tail of a *scorpion* is similar to that of a *donkey*. This similarity leads to the formation of a euphemistic metaphorical meaning of the word *donkey*. This is due to the similarity between the metaphor-forming and the derived semantic referent. The scientist argues that the euphemistic meaning does not arise on the basis of synecdoche and function [1].

N. Gaibullaeva studied medical euphemisms on the basis of periodicals [5], Sh. Gulomova drew attention to the gender specificity of euphemisms [2]. It should be noted that in these studies, the euphemistic phenomenon is studied in relation to the human factor.

Euphemisms are manifested in the reflection of the national-mental interconnection of being, which shows the manifestation of cultural values in the language, in euphemism, along with clarity and expressiveness, there is also an attractiveness, abstractness of the worldview. It is important to note that verbal euphemisms arise depending on a person's involvement in the linguocultural environment, his way of thinking, his worldview, perception of the subtleties of speech and his ability to use language. Euphemistic expressions consist of the main information content and the connotative meaning and attitude superimposed on it. The information is complicated by the euphemistic connotative meaning, when one of the negative or positive attitudes underlying the metaphorical image is in the lead among the connotative meanings. "An increase in connotative meaning occurs with a weakening of denotative and functional meaning" [1; 3].

It can be said that the need to express concepts that are morally and culturally unacceptable or inconvenient, more gently, sometimes in words, with a lot of connections, creates euphemisms, and each social stratum can always be created as a new discovery in speech. The value of euphemisms in speech can be characterized by their uniqueness, relevance, the ability to metaphorically see the harmony between things and events that need to be expressed in human thought, sensitivity to language, the power of intuition. So, a euphemism is a cognitive find.

Euphemistic units corresponding to popular thinking are rapidly shrinking, gaining popularity, and gaining more and more distribution in public discourse. In fact, euphemism is also distinguished by its incompatibility with traditional semantic-syntactic patterns. Its use in speech is not directly related to an inconvenient reality (object, action, character, features, etc.), but occurs in circular paths. This "workaround" depends on the owner's perception of the euphemistic speech and on the extent to which he can perceive the

corresponding quality of the euphemistic phenomenon. For example, the following euphemisms have already become common euphemisms in Uzbek speech:

inside a verb: *haqiqatdan uzoqlashmoq* (to lie; el on gapirmoq), *olamdan o'tmoq* (to die; o'lmoq), *yengil bo'lmoq* (give birth; tug'moq), *begona bo'lmoq* (divorce; ajrashmoq), *nomusiga tegmoq* (rape; zo'rarmoq), *uyli bo'lmoq*, *boshini ikkita qilmoq*, *turmush qurmoq* (to marry; uylanmoq), etc.;

in the category of the word noun: *umr yuldoshi*, *jufti halol* (husband or wife), *oliy jazo* (death), *beldan past* (sexual organ), *qo'sh kabutar* (chest), etc.;

in the category of adjectives: *yoshi ulug'* (old), *o'ilmay gapiradigan* (stupid), *aqli noqis* (insane), *imkoniyati cheklangan* (disabled), *ko'zi ojiz* (blind), *aybi bor* (blue), *suyuqoyoq* (prostitute) etc.

Verbal (dynamic) euphemism is not stable and socialized, it is associated with the process of its emergence, in which its formation and application are associated only with the individual, and its non-static character is its main defining feature. The most beautiful examples of such euphemisms can often be found in the speech of masters of words, masters of words, writers, poets, orators. For example,

Original:

Yel bo'lib betoat qoqdim-u, lekin

Dil xonangni mudloq oholmadim men. (Khalima Khudoyberdieva)

Transfer:

I knocked restlessly like the wind, but

I couldn't open your heart room at all.

The euphemistic line of the poem "*I could not open your heart room at all*" was used instead of the unit "*I was not loved*". Yes, love is really full of love. Lack of love always brings endless longing, tremendous pain, and sometimes endless hatred to the human heart. The euphemism "*I could not open your heart room at all*", used by the Uzbek poetess Khalima Khudoyberdieva, is very beautiful. Used instead. However, this has not stabilized in the common Uzbek language. It is advisable to refer to eccentric euphemisms as euphemisms inherent in the author's poetic speech, unstable in general, not socialized.

Original:

Nomard g'olib kelsa mard diltang-u zor

Bosh egib turganda qancha kuch sarflar.

... Ayting, yana necha asr solib iz,

Bu do'zaxiy so'zdan kuyar tilimiz ?!

Transfer:

If the enemy wins, the hero will be sad and hard

How much strength does a hero need to be silent ...

... Tell me how many more centuries do we need

*Will our tongues burn again from this **hellish word**?!*

The poetess uses the euphemism "**hellish word**" instead of the word "separation", which means the loss of our loved ones. This euphemism creates originality on the poem.

Or

Original:

Siz, hey, bu dunyoning hisobdonlari,

Taxminan bo'lsa ham qilingiz hisob:

*Qanchalik umri bor **sun'iy shonlarning**;*

Sun'iy ko'rk qanchada bo'lg'usi xarob;

Qancha davolangach past tushib har kas

O'zin alloma-yi zamon sanamas...

Transfer:

You are the accountants of this world

Make an approximate calculation:

*How long does **artificial glory** last;*

*How dirty the **artificial beauty** is;*

Everyone needs to understand that a person needs treatment

Everyone must understand that no one is the master of this world.

In his poems, *artificial fame*, *artificial beauty* means artificial pride, arrogance, and conceit inherent in some people. He uses euphemistic units to hide the names of human defects.

In the work of the poet, there are many examples in which the most common euphemisms are used. Particularly noteworthy are examples from medical euphemisms, sometimes used in the proper sense, sometimes in a figurative sense. (It should be noted that we have included all euphemistic units related to human health in the list of medical euphemisms):

Ming dard chekkan o 'zimiz silliq,

Ming tosh tekkan so 'zimiz silliq,

Qirq qirrali so 'zlarimizni

Shudgor qilib tekisladilar.

(**We are the ones who** suffer a thousand times, Our Word, struck by a thousand stones, but smoothly, Our forty-angled words Plowed and aligned.)

We are the ones who suffer a thousand times the medical euphemism is used instead of the word tortured.

Yo'q, y o'q, behudaga hech k o'kraklarga tushmas dog',

Shig'il mevasin axir k o'tarolmay sinar shox.

Qator o'g'il-qizini o'stirguncha tik qilib

Otaning tik qomati qolgay axir bukilib.

Or

Bizning yurak dog'lidir, kim uchundir kuydik biz,

Kim uchundir **k o'krakda og'riq, dardni tuydik** biz.

Sog'lom, b o'm-b o'sh qalb bilan yashamadik bekorga,

Yaralanib bo'lsa ham **malham bo'ldik** bemorga!

So'nggi yo'lga ketarmiz, shafqatni tishda tishlab,

Dog'li, yarador, lekin toza yurakni ushlab ...

In the selected examples of euphemisms *shig'il mevasin axir k o'tarolmay sinar shox* (He cannot lift a fruit-bearing branch, therefore he breaks it), *so'nggi yo'lga ketmoq* (to go on the last journey) means the words of the last journey – "to die", *otaning tik qomati egilgay axir bukilib* (father's upright body was bent) means the words "aging", *dog'li yurak*, *ko'krakda og'riq*, *ko'krakda dardni tuymoq* such medical euphemisms are called heart diseases (for example, heart attack, etc.).

In the poem "The Purest Fruit" Halima Khudoiberdieva calls the child the purest fruit, and in the commentary to this poem writes: The euphemism "sick baby" in the commentary was used instead of the word "disabled".

The following medical euphemisms are found in this poem:

Gunoh mahsulidir balki jahonda,

Dunyoga keltirmish balki xatolar ...

Ular ko'kragiga bosar qattiqroq

Sovigan go'daklar tanalarini!

Gunoh mahsuli (abandoned child), *sovigan go'daklar* (dead), *dunyoga keltirmish* (a woman who left her child) ...

World linguists have identified a number of factors in the emergence of euphemisms, such as politeness (G. Grace, J. Leach, G.A. Vildanova, S. Levinson, N.I. Formanovskaya, etc.), Politeness (Lakoff, P. Brown, etc.), whims (Y.V. Gorshunov), kindness (Y.V. Gorshunov, E.P. Senichkina and others), the rise of speech culture to a higher level (V.I. Krasik, E.A. Zemskaya, J. Coast and others). List the existence of pragmatic reasons.

Supporting the opinion of famous linguists, we must say that every self-conscious, self-serving person in society usually strives to speak culturally, trying to make a good impression on the interlocutors with his beautiful speech. Consequently, the euphemisms underlying soft, effective speech are also a linguistic tool that serves to enhance a person's status in society.

Since time immemorial, the Uzbek people have inherited the ability to politely express their views. From this point of view, euphemistic units are also widely used to maintain professional etiquette and attract attention in the speech of professionals who regularly communicate orally with most people. Especially in the communication of doctors dealing with the human body, soul, psyche, life, euphemisms are used more often than the speech of other professionals.

It can be said that euphemistic units such as medical euphemisms move from industry to general speech, or from general to industry speech. For example, *gumona*, *qornida bori* (homila), *ikkiaqat*, *og'iroyoq*, *bo'yida bor*, *yukli* (bo'g'oz, homilador), *go'dak yig'isiga mahtal*, *bo'yida bo'lmas*, *bola ko'rmagan ayol*, *tirnoqqa zor* (tug'mas) speeches and others communication of medical personnel, *dunyoga kelajak uchinchi odam* (homila), *bo'lajak ona* (homilador), *bepusht*, *ona bo'lishdan mahrum*, *homilador bo'lish qobiliyati yo'q* (tug'mas) and other medical euphemisms, which have already passed from the speech of doctors into the speech of folk communication.

Such examples are common in Uzbek dialogue.

REFERENCES:

1. Миртожиев М.М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2010. – 288 б. <https://www.twirpx.com/file/3052388/>
2. Гулямова Ш.К. Ўзбек тили эвфемизмларининг гендер хусусиятлари: филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Бухоро, 2020. <http://213.230.96.51:8090/files/ebooks>
3. Дилором Юлдашева (Dilorom Yuldasheva). Профессиональные фразеология (Professional Phraseology). International conference on academic studies in philology (BICOASP) 26-28 September 2019 Bandırma <https://d1wqtxts1xzle7.cloudfront.net/60539392/>
4. Шомаксудов А., Расулов И., Қўнгулов Р., Рустамов А. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – 248 б. <https://www.twirpx.com/file/1070737/>
5. Ғайбуллаева Н.И. Ўзбек тилида тиббий эвфемизмлар (тиббий даврий нашр материаллари асосида): филология фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферати. – Бухоро, 2019. – 50 б. <http://library.ziyonet.uz/uzc/book/108708>
6. Юлдашева Дилором Нигматовна. Особенности некоторых профессиональных фразеологизмов узбекского и английского языков. «Сўз санъати» халқаро журнали (ISSN: 2181-9297 DOI: 10.26739/2181-9297 www.tadqiqot.uz) –2021, 1-сон, 4-жилд. –В.:119-127. <https://tadqiqot.uz/index.php/art/article/view/446>
<https://tadqiqot.uz/index.php/art/issue/view/41>
7. Дилором Юлдашева. Нутқий мулоқотда сукутнинг ўрни. Образование и инновационные исследования. Том 1 № 1 (2020). <http://interscience.uz/index.php/home>
8. Юлдашева Д. Н. Сукут нутқий мулоқотнинг таркибий қисми сифатида //Сўз санъати халқаро журнали. – 2020. – Т. 3. – №. 3. www.tadqiqot.uz
9. Tueva Zulfiya Nozimovna, Yuldasheva Dilorom Nigmatovna. Statement and about its types. International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA issue 01, volume 93 published January 30, 2021. – Pag.72-77. <https://elibrary.ru/item.asp?id=44644256>
10. Yuldasheva Dilorom Nigmatovna. Silence-is a nonverbal unit of speech communication. Impact Factor (SJIF 20 20= 6.156) “American Journal of Research”, 2020, 11-12 issue of the Journal.– Pag.87-95. https://journalofresearch.us/wp-content/uploads/2020/12/2020_11_12-AJR_11.pdf
11. <https://zenodo.org/record/5651590#.Ycaq42lN3qs> Dilorom Nigmatovna Yuldasheva, Guli Toirova Ibragimovna, Dildora Yunus kizi Yusupova Silence is a Pragma linguistic event taking medical Ephemeric significance . Philosophical Readings XIII.4 (2021), pp. 2290-2297. 2290
12. Ashurbayeva Rukhiya Kaxharovna. The concept of integration and its application in education. “International Scientific Journal Theoretical & Applied Science” (ISSN: 2308-4944 (print) e-ISSN: 2409-0085). –Year: 2020 Issue: 02 Volume: 82. –83-86 p. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=42658976>
13. Rukiya Ashurbaeva Kahharovna. Effective methods of teaching the mother tongue in the education system. “International Engineering Journal For Research & Development”. Vol.5 Issue 7E-ISSN NO: -2349-0721. <https://iejrd.com/index.php/%20/article/view/1313>
14. Ashurbaeva R.K. Ways of effective Implementation of Integration. Middle European Scientific Bulletin. Volume 10, March 2021. ISSN 2694-9970. Pag.45-51. <https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/308>
15. Chullieva Gulchekhra Toshpulot qizi. Intonation. Intonema, its structure. Functions of intonema. Middle European Scientific Bulletin. Volume 8, January 2021. ISSN 2694-9970. Pag. 141-148. <https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/179>
16. G.T.Chullieva. Intonema and its Types. Middle European Scientific Bulletin. Volume 10, March 2021. ISSN 2694-9970. Pag. 91-95. <https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/314>

17. DY Yusupova. Poetess Khalim Khudoyberdieva and his skill in use of the word. International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA issue 01, volume 93 published January 30, 2021.–Pag.238-241. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=44644284>
18. Yusupova Dildora Yunus kizi About Polisemantic Words (on the example of the poems of the Uzbek poetess Khalima Khudoyberdiyeva). Middle European Scientific Bulletin. Volume 10, March 2021. ISSN ISSN 2694-9970. Pag.384-389. <https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/367>
19. Худойбердиева Ҳ. Сайланма.–Тошкент: Шарқ, 2000.–398 Б.
20. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/119112>
21. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/119111>
22. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/119110>

БОЛАЛАР АДАБИЁТИДА ГЛЮТТОНИК ДИСКУРС ТАРЖИМАСИДА УСЛУБ ВА МАЪНО АДЕКВАТЛИГИ

Одилова Гулноза Комилжоновна,
Тошкент Кимё халқаро университети
профессори (в.б), филология фанлари доктори
gulnozaodilova@gmail.com

Аннотация: Овқат ва тановул мавзуси инглиз болалар адабиётида алоҳида ўрин тутади. Болалар ширинликка ўч бўладилар. Дунёда ҳеч бир бола йўқки, ёшлик чоғида шоколадли тоғлар, лимонадли дарёлар бўлишини орзу қилмаган бўлса, жажон болалар адабиётида Розлд Далнинг шоколад ва ширинликлар асосий ўринни эгалловчи *Charlie and the Chocolate Factory* («Чарли ва шоколад фабрикаси») асари глуттоник дискурс бой фантазия билан қўлланган оригинал асар ҳисобланади. Чарлидек йилида бир марта – туғилган кунидagina шоколад ея оладиган камбағал болакайда Вилли Вонканинг олтин чипталаридан бирини қўлга киритиш имконияти йўқ эди аслида, бироқ охиригача умидини сўндирмаган Чарлининг мактабдан қайтишида кўчадан топиб олган эллик пенсга сотиб олган шоколадларининг биридан чиққан олтин чипта мурғак боланинг қалбида «лаззатли келажак»ка бўлган иштиёқ оловини ёқиб, ҳаёт кутилмаган мўъжизаларга бой эканлигига ишонтира олади. Бинобарин, сеҳргар қандолатчи Вилли Вонканинг шоколадлар фабрикасига саёҳат ва бутун умрга етадиган шоколад ва конфетларга эга бўлиш имкониятини берувчи бор-йўғи олти чиптанинг бирини олиш учун бой оила фарзандлари «Вонка ҳайрати» сериясидаги шоколаддан қўти-қўти сотиб олишар эди. Лекин омад Чарлига кулиб боқади. Асардаги бош ғоя – инсон ҳеч қачон умидни сўндирмаслиги кераклиги, ҳаётда доимо охиригача ўз орзусининг ушалиши учун курашилиши зарурлиги муаллиф томонидан ёш китобхон онгига лаззатли тасвирлар орқали яхшироқ етказиб берилган.

Калим сўзлар: *Charlie and the Chocolate Factory*, Сўзма-сўз таржимаси, ОМЛМ, «Шеърят – қандолат дўкони», адекватлик.

Abstract: The theme of food and eating occupies a special place in English children's literature. Children are hungry for sweets. There is no child in the world who did not dream of mountains of chocolate and rivers of lemonade when he was young. Roeld Dahl's work *Charlie and the Chocolate Factory* ("*Charlie and the Chocolate Factory*"), where chocolate and sweets occupy the main place in world children's literature, is an original gluttonous discourse with rich fantasy is considered a work. A poor boy like Charlie, who could only eat chocolate once a year - on his birthday - had no chance of winning one of Willy Wonka's golden tickets, but he did not give up hope until the end. It can ignite the fire of passion and convince you that life is full of unexpected miracles. Consequently, children of the rich family would buy box after box of chocolate from the Wonka Wonder series to get one of only six tickets, which would give them a trip to the confectioner Willy Wonka's chocolate factory and a lifetime supply of chocolates and candies. But Charlie could be lucky in this regard. The main idea of the work - that a person should never give up hope, that he should always fight to the end in life for the realization of his dream - is better conveyed by the author to the mind of the young reader through delicious images.

Keywords: *Charlie and the Chocolate Factory*, Verbatim Translation, OMLM, "Poetry - Candy Shop", Adequacy.

Аннотация: Тема еды и приёма пищи занимает особое место в английской детской литературе. Дети соскучились по сладкому. В мире нет ребёнка, которому в детстве не снились горы шоколада и реки лимонада. Произведение Розлда Даля «Чарли и шоколадная фабрика» («*Charlie and the Chocolate Factory*»), где шоколад и сладости занимают главное место в мировой детской литературе, представляет собой оригинальный прожорливый дискурс с богатой фантазией. У такого бедного мальчика, как Чарли, который мог есть шоколад только раз в году — в свой день рождения — не было шансов выиграть один из золотых билетов Вилли Вонки, но он не терял надежды до конца. Это может разжечь огонь страсти и убедить вас в том, что жизнь полна неожиданных чудес. Следовательно, дети из богатой семьи покупали коробку за коробкой шоколада из серии *Wonka Wonder*, чтобы получить один из шести билетов, который давал им поездку на

шоколадную фабрику кондитера Вилли Вонка и пожизненный запас шоколада и конфет. Но удача улыбается Чарли. Основная мысль произведения – о том, что человек никогда не должен терять надежду, что он должен всегда до конца жизни бороться за осуществление своей мечты – автор лучше доносит до сознания юного читателя посредством восхитительных изображений.

Ключевые слова: Чарли и шоколадная фабрика, дословный перевод, OMLM, «Поэзия — кондитерская», адекватность.

Кириш. Овқат ва тановул мавзуси инглиз болалар адабиётида алоҳида ўрин тутди. Болалар ширинликка ўч бўладилар. Дунёда ҳеч бир бола йўқки, ёшлик чоғида шоколадли тоғлар, лимонадди дарёлар бўлишини орзу қилмаган бўлса, жаҳон болалар адабиётида Роэлд Далнинг шоколад ва ширинликлар асосий ўринни эгалловчи *Charlie and the Chocolate Factory* («Чарли ва шоколад фабрикаси») асари глуттоник дискурс бой фантазия билан қўлланган оригинал асар ҳисобланади. Чарлидек йилида бир марта – туғилган кундагина шоколад ея оладиган камбағал болакайда Вилли Вонканинг олтин чипталаридан бирини қўлга киритиш имконияти йўқ эди аслида, бироқ охиригача умидини сўндирмаган Чарлининг мактабдан қайтишда кўчадан топиб олган эллик пенсга сотиб олган шоколадларининг биридан чиққан олтин чипта мурғак боланинг қалбида «лаззатли келажак»ка бўлган иштиёқ оловини ёқиб, ҳаёт кутилмаган мўъжизаларга бой эканлигига ишонттира олади. Бинобарин, сеҳргар қандолатчи Вилли Вонканинг шоколадлар фабрикасига саёҳат ва бутун умрга етадиган шоколад ва конфетларга эга бўлиш имкониятини берувчи бор-йўғи олти чиптанинг бирини олиш учун бой оила фарзандлари «Вонка ҳайрати» сериясидаги шоколаддан кути-кути сотиб олишар эди. Лекин омад Чарлига кулиб боқди. Асардаги бош ғоя – инсон ҳеч қачон умидни сўндирмаслиги кераклиги, ҳаётда доимо охиригача ўз орзусининг ушалиши учун курашиши зарурлиги муаллиф томонидан ёш китобхон онгига лаззатли тасвирлар орқали яхшироқ етказиб берилган.

Тадқиқот объекти ва қўлланилган методлар. Чехиялик тадқиқотчи Сузанна Полишенсканинг таъкидлашича, мазкур асарда ширинликлар оғизнинг сувини қочирадиган қилиб тасвирланган. Жон бобо томонидан Чарлига шоколад фабрикаси ҳақида айтиб берилганида, ширинлик дунёсига оид бирорта сўз назардан четда қолмаган [3;10].

Олинган натижалар ва уларнинг таҳлили. Mr. Willy Wonka can make marshmallows that taste of violets, and rich caramels that change colour every ten seconds as you suck them, and little feathery sweets that melt away deliciously the moment you put them between your lips. He can make chewing-gum that never loses its taste, and sugar balloons that you can blow up to enormous sizes before you pop them with a pin and gobble them up. And, by a most secret method, he can make lovely blue birds' eggs with black spots on them, and when you put one of these in your mouth, it gradually gets smaller and smaller until suddenly there is nothing left except a tiny little sugary baby bird sitting on the tip of your tongue [1;23]. (Мистер Вилли Вонка бинафша таъмли зефирлар, сўрганинда ҳар 10 сонияда ранги ўзгарадиган сертаъм карамеллар, оғзингда эриб кетадиган пардек енгил ширинликлар, ҳеч қачон таъмини йўқотмайдиган сақичлар, игна билан тешсанггина ёриладиган, улкан ҳажмгача пуфлаб шиширсан бўладиган ширин пуфаклар ишлаб чиқарарди. Сирли услубда ҳаворанг кушларнинг устида ола чипор доғлари бор тухумларини тайёрлар эди. Агар биттасини оғзингга солсанг, у борган сайин кичрайиб кетар ва тилинг тепасида турган жажжигина шакарли кушчага айланиб қоларди(таржима бизники). Фантазияга бой бадиий тасвирда ёш китобхоннинг иштаҳасини китиклайдиган ширинликлар – муаллиф бадиий тўқимаси. Кейинчалик эса қандолатчилар болаларнинг мазкур китобга бўлган меҳридан унумли фойдаланиб, асарда келтирилган ширинликларни ишлаб чиқара бошладилар. Вилли Вонканинг ширинликлари инглиз бозорларининг харидоргир маҳсулотига айланди. Европа ўсмирлар адабиётида овқатни ўта лаззатли тасвирлаш анъанаси мавжуд. Ширинликка ўч болаларни китобга михлаб қўювчи бундай асарлар ёш инглиз китобхонлари орасида шуҳрат қозониб, экранлаштириш даражасига ҳам борган. Мазкур асар бола фантазиясини глуттоник фонда ифодалай олган. Ўзбек тилига бу китоб Комила Носирова томонидан таржима қилинган бўлиб, 2015 йилда «Чўлпон» нашриётида чоп этилган. Асар ўзбек болакайлари томонидан ҳам катта қизиқиш билан мутолаа қилинди. Таржимон мазкур асарни ўзбек тилига ўғирар экан, биринчи навбатда ўзбек миллий болалар адабиёти нормаларидан четга чиқмасликка ҳаракат қилади. Яъни асардаги сеҳрли фабрикада болалар жуда истайдиган бироқ, ахлоқ-одоб қоидаларимиз ман этадиган ширинлик ва предмет номлари келтирилган бўлиб, буларни тўғридан-тўғри ўзбек тилига ўғириш болалар тарбиясига салбий таъсир кўрсатиши мумкин эди. Таржимон мазкур ўринларни силлиқлаб ўғирган ёки бутунлай тушириб қолдирган:

LICKABLE WALLPAPER FOR NURSERIES, it said on the next door.

'Lovely stuff, lickable wallpaper!' cried Mr Wonka, rushing past. 'It has pictures of fruits on it — bananas, apples, oranges, grapes, pineapples, strawberries, and snozzberries...'

'Snozzberries?' said Mike Teavee.

'Don't interrupt!' said Mr Wonka. 'The wallpaper has pictures of all these fruits printed on it, and when you lick the picture of a banana, it tastes of banana. When you lick a strawberry, it tastes of strawberry. And when you lick a snozzberry, it tastes just exactly like a snozzberry (Charlie and the chocolate factory, Dahl Roald).

Таржимаси: «БОЛАЛАР ХОНАСИ УЧУН ШИРИН ГУЛҚОҒОЗЛАР», деган ёзув бор эди кейинги эшикда.

–Нихоятда ширин гулқоғозлар! – югураётди хитоб қилди жаноб Вонка.

–Уларда ҳар хил мевалар – банан, олма, апельсин, узум, қулупнай, супернай чизилган...

–Супернай? – сўради Майк Тиви.

–Ғапимни бўлма! – аччиқланди жаноб Вонка. – Гулқоғозларга чизилган банан, қулупнай ёки супернайни яласанг, оғзингда уларнинг таъмини сезасан.(Комила Носирова таржимаси)

Таржимон «lickable» сўзини «яланадиган» деб сўзма-сўз таржима қилмаган. Аслиятда «Болалар хонаси учун яланадиган гулқоғозлар» деб ёзилган. Гарчи бу ёзувчининг фантазияси бўлса-да, таржимон сеҳрли гулқоғознинг номини қоғозга ўраб таржима қилган. Аслиятда йўқ «ширин» сифатини қўшиш орқали унинг таъмили эканлигига ишора қилган. Бироқ кейинги гапда гулқоғознинг нега ширин эканлиги аслият матнига мувофиқ ойдинлашган. Қуйидаги парчада Вилли Вонка фабрикасидаги сеҳрли хоналар номлари келтирилган бўлиб, таржимон миллий менталитетимиз, бола тарбиясига тўғри келмайдиган баъзи хона номларини тушириб қолдирган:

'Choose a button!' said Mr Wonka. 'The two children may press one button each.

So, take your pick! Hurry up! In every room, something delicious and wonderful is being made. Quickly, Charlie started reading some of the labels alongside the buttons.

THE ROCK-CANDY MINE — 10,000 FEET DEEP, it said on one.

COKERNUT-ICE SKATING RINKS, it said on another.

Then . . . STRAWBERRY-JUICE WATER PISTOLS.

TOFFEE-APPLE TREES FOR PLANTING OUT IN YOUR GARDEN — ALL SIZES.

EXPLODING SWEETS FOR YOUR ENEMIES.

LUMINOUS LOLLIES FOR EATING IN BED AT NIGHT.

MINT JUJUBES FOR THE BOY NEXT DOOR — THEY'LL GIVE HIM GREEN TEETH FOR A MONTH.

CAVITY-FILLING CARAMELS — NO MORE DENTISTS.

STICKJAW FOR TALKATIVE PARENTS WRIGGLE-SWEETS THAT WRIGGLE DELIGHTFULLY IN YOUR TUMMY AFTER SWALLOWING.

INVISIBLE CHOCOLATE BARS FOR EATING IN CLASS.

SUGAR-COATED PENCILS FOR SUCKING.

FIZZY LEMONADE SWIMMING POOLS.

MAGIC HAND-FUDGE — WHEN YOU HOLD IT IN YOUR HAND, YOU

TASTE IT IN YOUR MOUTH.

RAINBOW DROPS — SUCK THEM AND YOU CAN SPIT IN SIX DIFFERENT COLOURS (Charlie and the chocolate factory, Dahl Roald).

Таржимаси: Тугмани танланглар! – деб давом этди Жаноб Вонка. Болаларнинг ҳар бири биттадан тугма босиши мумкин. Танланглар, фақат тезроқ. Ҳар қайси цехда бирон ширин ва ғаройиб нарсга тайёрлашади.

Чарли лавҳачаларни ўқий бошлади.

ОБАКИ КОНИ — ЧУҚУРЛИГИ 10000 ФУТ, – деб ёзилганди лавҳачаларнинг бирида.

ҚАЙМОҚЛИ-ШОКОЛАДЛИ ЯХМАЛАК, – деб ўқиди Чарли кейингисини.

Кейин... ҚУЛУПНАЙ ШАРБАТИ БИЛАН ЎҚЛАНГАН СУВЛИ ТЎПОНЧАЛАР.

БОҒИНГИЗ УЧУН ИРИСЛИ ОЛМАЛАР — БАРЧА ЎЛЧАМДА.

ДУШМАНЛАРИНГИЗ УЧУН ПОРТЛАЙДИГАН ОБАКИЛАР.

ҚОРОНҒИДА НУР СОЧАДИГАН ОБАКИЛАР.

ҚЎШНИ УЧУН ЯЛПИЗЛИ ЖЕЛЕ – БИТТА ҲИССАСИ БИР ОЙГА ЕТАДИ. ТИШНИ ЯШИЛ РАНГГА БЎЯЙДИ.

«ЙЎҚОЛСИН ДАНТИСТЛАР»— ПЛОМБАЛАЙДИГАН КАРАМЕЛ.

ОБАКИСЎРАР ҚАЛАМЛАР.

ЛИМОНАДЛИ ҚОВУЗ.

СЕҲРЛИ ҚЎЛ КОНФЕТЛАРИ — ҚЎЛИНГДА УШЛАБ ТУРГАНИНГДА, ТАЪМИНИ ОҒЗИНГДА ҲИС ҚИЛАСАН (Комила Носирова таржимаси).

Ушбу парча таржимасида қуйидаги хоналар номи таржима қилинмасдан тушириб қолдирилган:

- STICKJAW FOR TALKATIVE PARENTS.
- INVISIBLE CHOCOLATE BARS FOR EATING IN CLASS.
- RAINBOW DROPS — SUCK THEM AND YOU CAN SPIT IN SIX DIFFERENT COLOURS.

Сўзма-сўз таржимаси:

- Кўп гапирадиган ота-оналар учун жағ ёпиштиргич;
- Синфхонада ейиш учун мўлжалланган кўринмас шоколад;
- Олти хил рангда тупуртирадиган камалак рангдаги думалок конфетлар.

Бу ерда таржимонни айблаб бўлмайди. Бинобарин, Шарқ ва Ғарб болалар адабиётидаги энг катта фарқлардан бири, Шарқ болалар адабиётида дидактик рух устунлик қилади. Модомики, ғарбона болалар фантазиясига йўғрилган, лаззатли ширинликлар ҳақидаги дунёга машхур асарни ўзбек болажонлари ўқишини истасак, таржимон ўзбекона одоб меъёрларидан четга чиқмасликни назорат қилмоғи лозим. Шу сабабдан «ота-она гапирганда кулоқ тутиш», «дарс вақтида овқат ва ширинлик истеъмол қилмаслик» ва «тупурмаслик»ни болаларимиз онгига одобнома дарсларида сингдириб келар эканмиз, таржимоннинг бу тутган йўлини тўғри, деб ўйлаймиз.

Инглиз фольклори ва эртакларида сеҳр-жоду қуроллари овқатнинг битмас-туганмас манбаларини яратади. Бу ўз-ўзидан ноз-неъматларга тўлиб кетувчи стол, сеҳрли бўтқа қайнаб чиқувчи қозон қабиларда намоён бўлади [2;26]/ Эртакларда учрайдиган сеҳр-жоду қудратига эга глюттотонимлар ўзбек халқ эртакларида («Очил дастурхон», «Ур тўқмоқ», «Олтин тарвуз», «Тилла беҳи» ва ҳ.) ҳам учрайди: *Чол «Очил дастурхон» деб эди, ҳар хил таом муҳайё бўлди. Умрларида кўрмаган таомларни еб, чол билан кампир хурсанд бўлдилар («Ур тўқмоқ» эртаги).* Ўзбек халқ эртагидаги егуликнинг битмас-туганмас манбаси бўлган очил дастурхон чолга қилган эзгу иши учун лайлақлар шоҳи томонидан совға қилинган эди. Эртақнинг асосий дидактик ғояси эса – қилинган яхшиликнинг доимо рағбати бўлиши. Бола дунёсига бу ахлокий ўғитнинг тезроқ етиб бориши учун глюттотоник коммуникация воситаларидан фойдаланилган. Инглиз ёзувчисининг асарида эса китобнинг бош ғояси – ҳаётда инсон доимо умид ва орзу билан яшаса, олға интилса, албатта, ўз олий мақсадига эришади.

Ўзбек болалар адабиётидаги саргузашт асарлар орасида глюттотоник дискурсдан болалар тасаввурининг ўта лаззатли чизгиларини тасвирлаб беришда унумли фойдаланилган асар, шубҳасиз, Худойберди Тўхтабоевнинг «Ширин қовунлар мамлакатини» қиссасидир. Туш ва фантазия йўналишида ёзилган асар қаҳрамонининг ўзи севиб истеъмол қиладиган қовунлар мамлакатига саёҳати «ширин» ва «тил ёрар» қилиб тасвирланади: *Кўргазмага ангишвонадек келадиган хамакчадан тортиб, катталиги росмана уйдек келадиган қовунлар ҳам қўйилган денг... Томоша қилиб юриб, тўсатдан бир қовун олдида тўхтаб қолдим. Ҳай-ҳай тепасига қарасангиз, дўппингиз тушиб кетаман дейди» (Ширин қовунлар мамлакатини, Худойберди Тўхтабоев).* Қовунлар мамлакатига «қовунли автобус», «шишадек силлиқ йўлаклар», «дарсни ўзи бажариб, баҳо қўйиб қўядиган ўқитувчилар» ҳаммаси қовун мавсумида эгат кезиб, болаликнинг бегубор лаҳзаларида зерикарли дарсларни тайёрлашни истамайдиган бола фантазияларидир. Асарда ёзувчи томонидан кашф этилган фантастик персонажлар ҳам ёш китобхоннинг қизиқишини кучайтирибгина қолмай, иштаҳасини ҳам уйғотишга қаратилган. Асар қаҳрамони Ақром сеҳрли мамлакатда Ха Мак исми бола билан танишади. «Хамак» аслида «қовуннинг кичкинаси, ғўр ва пишмагани» деган маънони англатади. Боланинг айтишича, уларнинг мамлакатада ҳамма болаларнинг исмига «мак» қўшилади. Бу эса «бола» деган маънони англатади.

– *Фамилиянг нима?*

– *Қо Қи.*

– *А?!*

– *Кармисан? ҚоҚи деяпман.*

– *Фамилиянг ширингина экан.*

– *Биз ҳаммамиз ширинмиз.*

– *Лекин қишда учраганингда еб қўярдим-да, – дедим лабимни чаппиллатиб (Ширин қовунлар мамлакатини, Худойберди Тўхтабоев).*

Ўзбек болаларининг севимли асарларидан бири атоқли кирғиз адиби Чингиз Айтматовнинг «Соҳил бўйлаб чопаётган олапар» кассаси қаҳрамони Кириск овчиликнинг ҳақиқий гаштини – тюленнинг хом жигарини еб кўргандагина ҳис этади. Мазкур ҳикоядаги овчи бўлишни орзу қилиб катталар билан сафарга чиққан болакайнинг ҳиссиётлари йўл давомида босқичма-босқич тасвирлаб борилган. Бироқ бу тасвирларга «таъм киргач»гина бола чин овчи бўлиш гаштини туяди: *О, кўринг (ниҳларнинг олий тангриси) эгам, етказганингга шукур! Овимизнинг бошланиши чакки эмас! – дея у ўзининг ов пичогини артиб, тайёр қилди. Овдан кейин энг муҳими – тюленнинг хом жигарини шу ернинг ўзидаёқ ейиш эди. Ўрхон нимталанган нерпа тўши олдиди чўнқайиб ўтириб олиб, жигарни бўла бошлади. Овчилар оз-моз туз сепилган майин жигар бурдаларини ҳузур қилиб чалтилатиб ямлаб ютар эдилар. Жигар жуда мазали – мулойим, илиқ, тўйимли эди. У одамнинг тилини ёғли шарбатга ботириб, оғизда эриб кетарди. Кирискнинг орзуси ушалди – ҳақиқий катта кишидай овда хом жигар еди! (Соҳил бўйлаб чопаётган олапар, Чингиз Айтматов).* Бирга истеъмол қилган тюлен жигари – боланинг наздида овдаги тенг ҳуқуқлиликни таъминлайди. Гастрономик коммуникация бола ва катталар ўртасида кўприк бўлади. Энди у ҳам овчи!

Ўзбек ўсмирлар шеъриятида ҳам глоттоник номинантларнинг кенг қўлланиши кузатилади. Масалан, истеъдодли ёш шоир Рустам Мирвоҳиднинг «Шеърият – қандолат дўкони» номли шеърида шеърият ва ширинлик ўзаро қиёсланади. Шоир шеъриятни қандолат дўконига, шеърларни эса ширинликка муқояса қилади. Шеърлар ўз муаллифларининг шеъриятдаги мавқеидан, салмоғидан келиб чиқиб у ёки бу ширинликка ўхшатилади:

*Шеърият қандолат дўкони эса,
Шоирларнинг байти ширинликлардир.
Қай муҳлис бу ажиб дўконга кирса,
Унда бор ҳар нени кузатар бир-бир...*

*Масалан, Навоий шоколадлари,
Дўконнинг ярмини эгаллаб олган.
Ёнроғида Бобур мармеладлари,
Қанча шеърхонларнинг тилида қолган.*

Шоир шеърни ўзбек шеъриятининг энг юксак намояндалари ижодини олқишлаш билан бошлайди. Мазкур шеърда ширинликлар градуономик қаторининг энг юксак чўққиси қилиб «Шоколад» танланган. Табиийки, шеърият мулкининг султони Навоий ижодидан бошлаб қуйига қараб ширинликларга муқояса қилинган. Навоийнинг кичик замондоши Бобур шеърияти мармеладга менгзалади. Шу ўринда Навоий ғазалиётини шоколад, Бобур шеърларини мармеладга қиёслаш бежиз эмаслигини шоирнинг шоколад билан мармелад глоттонимларнинг Европа ширинлик оламида бирга қўлланиши билан изоҳлаш мумкин («қанд-курс», «ёнғоқ-майиз» сингари). Бироқ мармелад доимо шоколаддан таъм ва нархи жиҳатидан кейинги ўринда турувчи ширинлик. Бу тасвирда эътиборга олинган когнитив асосдир. Шоир Навоий ва Бобур шоколадлари дейиши мумкин эди. Бироқ Бобурнинг ўзи эътироф этганидек, туркийда «Навоийчалик ҳеч ким кўп ва хўб ёзмаган». Шу сабабдан шеърда шоколаддан кейинги даражаланиш қаторида мармелад жой олган.

*Ўнг томонда қанддек Машраб ғазали,
Ҳанузам эл уни татиб юрибди.
Чап ёнда Муқимий берган асали,
Фурқат ҳалвоси-ла бирга турибди.*

Машраб ғазали – **қанд**, Муқимий шеърияти – **асал**, Фурқат шеърияти **ҳолва**. Юқори қутбдан қуйига қараб бораётган ширинликларнинг силсилавий занжири негадир бузилган, зеро, асал қанддан олдинги қаторда саналиши керак бўлган ширинлик. Бу шоирнинг назмий диди ва таъби билан боғлиқ, шекилли. Кейинги тўртликда ширинлик номларини санаш эмас, балки улардан истеъмол қилишга ташналик ва глоттоник жараён тасвирини қўллаш орқали шоирлар ижоди васф қилинади:

*Оғаҳийнинг лазиз ижодиёти,
Дўконда ҳар қуни талаш бўлади.
Парвардада кўрса ким Завқий отин,
Иши фақат лабни ялаш бўлади.
«Гўзал»деган Чўлпон ҳўрозқандлари,
Қарасанг, кўзингни оламан, дейди.
Ҳамид Олимжоннинг «Ўрик гуллари»,
Ҳар киши чўнтакка, соламан дейди.*

Ҳабибий ва Чархий рулетларига,
Кун сайин талаблар бормоқда ортиб.
Ғазалхон Чустийнинг конфетларига,
Ҳофизлар тирбанддир саҳардан тортиб.

Кейинги байтларда шоир, ширинлик номинантлари ва глуттоник жараёни ҳамоҳанг тасвирлаш билан бирга, ўзи васф этаётган шоирларга тегишли энг машҳур шеър номларини ҳам санаб боради. Ва энди ўша шеърларни тўғридан-тўғри глуттоник номинант билан чоғиштира бошлайди.

Ойбек домланинг-ку «Бир ўлка...» деган,
Новвотларин ҳамон бозори чаккон.
Устоз Ғафур Ғулом **тортини** еган,
Мухлислар то ҳануз **боқади хайрон.**

Сал нари юрсангиз... Эркин Воҳиднинг,
Мураббоси турар «Камтарлик» билан.
Абдулла Орифнинг бизнесин кўринг,
«Тилла балиқча»ни эслайсиз бирдан.

Рўйхат тугамади, Муҳаммад Юсуф,
«Қизғалдоқ»ни сизга ҳавола этар.
Сирожиддин Саййид **музқаймоғи** хўп,
Оғизга солмасдан **эриблар кетар...**

Шу хилдаги қанча ширинликлар-у,
Қандолатлар сони жуда ҳам бисёр.
Айт-чи, ҳар биридан егинг келмасми,
Ҳеч бўлмаса тотгинг келмасми бир бор?!

Хуллас, ким мен каби харидор эса,
Боладек қандларга ўч бўлса, билсин:
Ҳақиқий лаззатни туяман деса,
Фақат шу дўконга марҳамат қилсин!!!

Шоир ёш китобхонларни **шеърят дўкони**, яъни адабиётга киришга ундайди. Адабиёт қанчалик лаззатли эканлигини тасвирлашга уринади. Бунда глуттоник метафораларни қўллайди.

Хулосалар.Кўриб турганимиздек, болалар адабиёти масаласида инглиз ва ўзбек адабиётида муштарак жиҳатлар ва фарқлар мавжуд. Бу эса болаларга хос ОМЛМ билан боғлиқдир. Бу борада кенгроқ илмий тадқиқотлар олиб борилса, болаларга хос хусусий дискурслар – жумладан, глуттоник дискурсларнинг қайта яратилиши мезонлари ишлаб чиқилиши мумкин, деб ўйлаймиз.

Болаларга йўналган глуттоник дискурс таҳлили шуни кўрсатдики, жаҳон ва ўзбек болалар адабиётида глуттоник дискурсларнинг муштарак жиҳатлари мавжуд ва бу бола шахсида таомга бўлган устувор муносабат билан белгиланади.

АДАБИЁТЛАР:

1. Dahl Roald. *Charlie and the Chocolate Factory*. – London: Puffin, 2007. – P. 23.
2. Eve Jackson. *Food and Transformation*. – Toronto: Inner City Books, 1996. – P. 26.
3. Polišenská Z. *Symbolic Function of Food in Contemporary Women`s Literature/diploma thesis*. – Brno, 2011. – P. 10.

ЎЗБЕК ВА НЕМИС БАДИИЙ МАТНЛАРИДА ОРНИТОПОЭТОНИМЛАРНИНГ
МАЪНО ОТТЕНКАЛАРИ

Жумаев Акмал Ахматович,
Бухоро давлат университети, PhD
a.a.jumayev@buxdu.uz

Аннотация: Ушбу мақолада орнитонимларнинг орнитопоэтоним бўлиб келиши, дунё тилишунослигида орнитонимларни лексик-семантик гуруҳлари, уларнинг ҳосил бўлиш манбалари, мазкур қатламга оид лексема ва сўзларнинг ўзига хос хусусиятлари тўғрисида етакчи тилишуносларнинг фикрлари таҳлилга тортилган. Шу билан бирга қушларнинг рамзий маънолари Фарбу Шарқ халқларининг эътиқодий қарашларига биноан уларнинг адабиётда ўзига хослик касб этиши, қушлар образидан реал ва мажозий тасвир яратишда кенг фойдаланилиши, улар воситасида ижтимоий мазмуннинг рамзий маънода очиб берилиши хусусида мулоҳазалар юритилган.

Калит сўзлар: орнитоним, орнитопоэтоним, эртак, мақол, рамз, афсона, Анқо, Лайлак.

Аннотация: В данной статье анализируются мнения ведущих языковедов о встречаемости орнитонимов как орнитопоэтонимов, лексико-семантических группах орнитонимов в мировой лингвистике, источниках их образования, лексемах и словах, относящихся к этому пласту. При этом символические значения птиц приобрели в их литературе своеобразие согласно религиозным воззрениям народов Запада и Востока, образ птиц широко используется в создании реальных и образных образов, а социальное содержание раскрывается в них в символическом смысле.

Ключевые слова: орнитоним, орнитопоэтоним, сказка, пословица, символ, легенда, Анко, Аист.

Annotation: In this article, the opinions of leading linguists about the occurrence of ornithonyms as ornithopoetonyms, lexical-semantic groups of ornithonyms in world linguistics, sources of their formation, lexemes and words related to this layer are analyzed. At the same time, the symbolic meanings of birds have acquired uniqueness in their literature according to the religious views of the peoples of the West and the East, the image of birds is widely used in creating real and figurative images, and the social content is revealed in a symbolic sense by means of them.

Key words: ornithonym, ornithopoetonym, fairy tale, proverb, symbol, myth, Anko, Stork

Кириш. Ўзбек ва немис тилларида қушларнинг номини ифодаловчи алоҳида сўзлар мавжуд бўлиб, “орнитонимлар” деб юритилади. Улар бадиий матнда қўлланиб келса, “орнитопоэтоним” ҳисобланади.

Ўзбек тилида орнитонимлар ҳақида амалга оширилган тадқиқотда билдириб ўтилганидек: “Дунё тилишунослигида орнитонимларни лексик-семантик гуруҳларга ажратиб тадқиқ этиш, уларнинг ҳосил бўлиш манбаларини, мазкур қатламга оид лексема ва сўзларнинг ўзига хос хусусиятларини белгилаш бўйича анчагина тажриба тўпланган. Мазкур луғавий қатламнинг типологик таснифини амалга ошириш замонавий систем лексикографиянинг долзарб вазифаларидан биридир” [1,5].

Н.А.Курашкина тадқиқотида инглиз, француз ва рус тилларидаги орнитофонлар, Т.С.Пименова ҳамда Н.Д.Пименова изланишларида инглиз ва турк тилларидаги орнитоним компонентли фразеологик бирликларни чет тили дарсларида ўргатишнинг айрим усуллари, М.В.Кутьева диссертациясида рус ва испан тилларидаги орнитонимларнинг миллий-маданий моҳияти ўрганилган [8,25].

Асосий қисм. Ўзбек тилида умумтуркий орнитонимлар катори французча альбатрос (albatros), немисча гагара, арабча андалиб, яъни форсча айтганда булбул (البُلْبُل), эски ўзбек тили бўйича сандулоч орнитонимлари қўлланади. Афсонавий қушлар Самандар ёки Анқо номи ҳам арабчадан ўзлашган.

Маҳмуд Қошғарийнинг “Девону луғотит турк” асарида “бойқуш” сўзи ўрнида эски китобий тилда “чуғз” сўзи ишлатилган. Жумладан, қушларни кўчма маънода, яъни орнитопоэтоним даражасида қўллаш шу қадимги манбада ҳам кузатилади. Унда келтирилган қуйидаги мисраларда кўз атрофида жойлашган киприклар денгиз атрофидан ўрин олган қушларга ўхшатилиб, гўзал мажозий тасвир яратилган:

Агар кўзим уш тенгиз,
Тегра йўра куш учар
Кўз ёшларим чун денгиз,
Теграсида куш учар.[6,51]

Агар “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да келтирилган орнитонимлар кўздан кечирилса, юқорида номи кўрсатилган кушлардан ташқари анғирт, балиқчи-укки, балиққийғир, бананхўр, баҳрин (лочин), бедана (ёки бўдана), беданамашак (беданамошак), безгалдак, бизгалдок, бирқозон, боз, бойўғли, бойкуш, болтаютар, болғабош, булдуруқ, бургут, буздок, бўзтўрғай, бўктарги, бўрон куш, ваҳмакуш, гўнгқарға, деҳқончумчуқ, донхўрак, дудак, жарқалдирғоч, жарқанот, жиблажибон, жийронкуш, жикжик, жиктоқ, жиғолтой, жўрчи, зарғалдок, зағча, зағизғон, зоғ (ёки қарға), илвасин, итолғи, каптар ёки кабутар (оқ каптар, кўк каптар, чинни каптар, ғов каптар), кўкқарға, какку, каклик, калхат (сор), карқур, каркуноқ, куланкир, куркунак, кўкантой, кўкқўтон, кўлбуқа, лайлак, лойхурак, лочин, мешкобкуш (сув куши); миққий, мойкурт (мойқут), мусича, олапопиш (попишак), олатўғанок, олашақшақ, олақанот, олақарға, олаҳаққа, оқчорлоқ, оккув, оккуш, оққўтон, пўнгқарға, сассикпопишак, сапсан, саъва, сақокуш, синчалак, сирчумчуқ, сувбургут, суралай, сухсур (суксур), суксуқ, сўтак, сўфитўрғай, тентаккуш, торғоқ, тоғчумчуқ, тувалоқ, йўрға тувалоқ, турна, турумтой, тустовуқ, туякуш, тўрғай (дала тўрғай, қора тўрғай, бўз тўрғай), тўти, укки, фланминго, фотмачумчуқ, фохта, хўжасавдоғар, чағалай, чил, чил каклик, читтак (жинқарча), чумчуқ, чуррак, чуғз, чуғурчуқ, шақшақ, шаҳбоз, шомруқ, шунқор, япалоккуш, қалдирғоч (туя қалдирғоч, шаҳар қалдирғочи, тоғ қалдирғочи), канжир, қарчиғай, қарқара, қаркуноқ, қарға, қашқалдок, қизилбош, қизилоёқ, қизилкуш, қийғир, қирғий, қиронқарға, қиронқора, қирғовул, қулқул, қумой, қумри, қорабовур, қоравой, қоратомоқ, қорашақшақ, қораялоқ, қорақарға, қоракуш, қув, қузғун, қорақув, қўнғир, ғозкаптар, гуррак, ҳакка, ҳаккув, ҳаккуш, худхуд, Ҳумо каби куш номлари учрайди. Бироқ шу куш номларининг барчаси халқ эртаклари тилида қўлланавермаган. Шулар орасидан фақат булбул, Самандар, Анқо, лочин, бедана, бойўғли, бургут, бўзтўрғай, жийронкуш, зағча, зағизғон, зоғ (ёки қарға), илвасин, итолғи, каптар ёки кабутар, каклик, калхат (сор), лайлак, мусича, оккуш, сассикпопишак, саъва, сухсур, сўфитўрғай, турна, тўрғай, тўти, укки, чумчуқ, қалдирғоч, Қакнус, қумри, қорақарға, қоракуш, қузғун, ҳакка, ҳаккуш, худхуд, Ҳумо номларинигина ўзбек халқ эртакларида учратиш мумкин.

Куш деганда, умуртқалиларнинг танаси пар ва патлар билан қопланган, учишга лаёқатли бир синфи; паррандалар тушунилади [7,394]. Кушлар яшаш жойига қараб сув, чўл, тоғ, ўрмон, дала ва уй кушларига бўлинади. Уларнинг аксарияти сайроқи кушлар тоифасини ташкил қилади. Кушлар ов қилиниб, истеъмол этилиши жиҳатидан ҳам фарқланади. Бунга кўра, уларнинг овланиб, истеъмол қилинадиган ҳамда овланиб, истеъмол қилинмасдан бошқа эҳтиёжлар учун фойдаланадиган турлари мавжуд. Бундан ташқари, овчи кушлар ҳам бор.

Кушлар йил фаслларига қараб яшаш жойини ўзгартириб туриши ёки ўзгартирмаслигига кўра ўтроқ (читтак, мусича, кўк каптар, каклик, сўфитўрғай, қирғовул, чумчуқ, майна сингари); кўчманчи, яъни кузда совуқ тушишидан олдин иссиқ жойларга учиб кетадиган (лайлак, турна, оккуш, қалдирғоч, булбул, зарғалдок, гўнг қарға, ола қарға, зоғча, қораялоқ каби) кушлар гуруҳига ажратилади.

Б.Жўраева тадқиқотида ўлкамиздаги ўтроқ, кўчманчи ҳамда ундан учиб ўтувчи ва учиб кетувчи тўрт гуруҳга мансуб читтак, мусича, чумчуқ, гўнг қарға, ола қарға, турна, оккуш, булбул, лайлак, ўрдак, ғоз ва ҳоказо каби кушлар номининг ўзбек халқ мақолларида қўлланишига эътибор қаратилган. Олима ўзбек халқ мақолларида қўлланган парранда номларини, аввало, икки гуруҳга бўлиш мумкин деб ҳисоблайди. Булар: хонаки парранда номлари: товук, хўроз, ғоз, ўрдак, курка, царка ва бошқалар; ёввойи парранда номлари: бургут, қарға, бедана, чумчуқ, калхат, қирғий ва бошқалар.

Дарҳақиқат, мақолларда кушлар образи алоҳида ўринга эга. Таркибида куш образи, куш номи қўлланган мақоллар жуда кўп учрайди. Масалан, “Ҳар зоғ, ҳар зоғда минг доғ”, “Лайлакнинг кетишига боқма, келишига боқ”, “Ўрдак йўқ кўлда – лойхўрак хон”, “Икки шунқор талашса, бир қарғага ем тушар”, “Булбулга боғ яхши, Какликка – тоғ”, “Қаноти синиқ мусича ҳам баланд уя орзусида”, “Тариқни еган чумчуқ, Балога қолган бедана”, “Бургут қариса, япалоккуш бўлар” каби мақоллар шулар жумласидандир.

Куш номи иштирок этган мақоллар немис халқи орасида ҳам кўп учрайди. Бунга “Eine Schwalbe macht noch keinen Sommer”, [9] “Lieber den Spatz in der Hand als die Taube auf dem Dach”, [11] “Da brat mir doch einer einen Storch!” каби мақолларни мисол қилиш мумкин.

Кўринадики, мақолларда куш номлари оддий орнитоним сифатида ўз маъносида ёки орнитопозтоним даражасида кўчма маънода қўлланиб келади. Орнитопозтоним бўлиб келганда кўпинча одам образига параллел олиниши кўзга ташланади. Айтайлик, “Куш уясида кўрганини қилади” мақолидаги “куш” сўзини бемалол инсон, бола сўзлари билан алмаштириб “Бола ўз оиласида кўрганини қилади” деб тушуниш мумкин. Ёки “Куш тилини куш билади” мақоли кўчма маънода “Одам тилини одам тушунади” деганидир.

Айрим мақолларда куш ва одам параллели тўппадан-тўғри келтирилгани кузатилади. Масалан, “Булбул чаманни севар, Одам – Ватанни”.

Орнитонимлар кўпинча ўз маъносида қўлланиб келади, лекин улар орасида бойўғли, булбул, бургут, каптар, калхат, лайлак, лочин, майна, мусича, сор, тўти, читтак, шунқор, қалдирғоч, қарға, кузгун каби куш номлари ўз (денотатив) ва кўчма (коннотатив) маъноларида ишлатилиши кузатилади. Масалан, кузгун, қарға номлари, одатда, ҳар қандай разиллик ва ифлосликдан қайтмайдиган, ярамас ва жирканч шахсларни тавсифлашда қўлланади. Масалан, қалдирғоч баҳордан дарак берувчи куш номи бўлгани сабабли, одатда, бирор нарсанинг пайдо бўлиши ёки бошланишидан даракчи маъноларида кўчма маъно ифодалаб келади. Лочинсимонлар оиласига мансуб кучли йиртқич куш тури бўлган баҳрин, бургут, лочин, шахбоз, шунқор номлари кўпинча кўчма маънода мард, жасур, ботир, эпчил, қайтмас шахсларга ёки йиртқич, ёвуз одамга нисбатан қўлланади. Бойўғли ёки бойқуш номи кўпинча бехосият, машъум одамни тавсифлаш ёки бирор-бир салбий, ёқимсиз воқеа-ҳодисанинг сабабчисини кўрсатиш мақсадида кўчма маънода ишлатилиши аёнлашади.

Булбул ҳақидаги халқ афсоналарида унинг аслида шоир ва ашулачи йигит бўлгани, қаттиқ ошиқлигидан сайроқи қушга айланиб қолгани баён этилади. Шу каби афсоналар эса булбул образининг фольклорда ва ёзма адабиётда кўчма маъноларда хушовоз хонанда, моҳир нотик, ошиқ ва хуштор, баъзан фарзанд маъноларида образлантирилиши намоён бўлади. Масалан, “Куш йўқ жойда қурбақа – булбул” мақолида булбулни кўчма маънода қурбақага зид қўллаб, шу орқали ўз имкониятини инобатга олмай ҳаракат қиладиган кишилар образига киноя қилингани кузатилади.

Куйидаги мақолларда булбулнинг сўз: “Тоғни булбул, одамни сўз безайди”, бола “Бола оиланинг ҳам гули, ҳам булбули”, ошиқ “Булбул гулга, гул санамларга ошиқ” тимсолларида келтирилгани кузатилади.

Жинқарча ёки шевада читтак деб юритиладиган куш тури кўчма маънода тирранча, тирмизак маъносини ифодалаб келади.

Лайлак узун оёқли қушлар туркумига мансуб, тумшуғи ва оёғи узун, парлари ола (оқ ва қора аралаш) катта куш туридир. Ўзбек тилида баландга юк чиқариш учун қурилган, таянчиғи ўртасида бўлган ричагга ўхшаш мослама ҳам лайлак деб аталади. Шунингдек, олди осмонга, кети ерга бўлиб қолган арава ҳақида “лайлак бўлмоқ” ибораси ишлатилади. Яна ромб шаклида ясалган варрак тури ҳамда йирик, пилта-пилта бўлиб ёғадиган қор тури “лайлак варрак” ва “лайлак қор” номлари билан юритилади.

Бундан ташқари, лойхурак эпчил, чакқон, шижоатли маъноларида шу қушга нисбатли белгини билдиради. Яна кабутар (каптар), калхат (сор), майна каби куш номлари ҳам кўчма маънода қўлланади. Масалан, майна кўчма маънода майна қилмоқ, мазах қилмоқ, қулги қилмоқ, масхара қилмоқ тушунчаларини ифодалаш учун қўлланади. Бунга қуйидаги мақолни мисол қилиш мумкин: “Қарчиғай қариса, чумчукка майна бўлур”.

Каптар, одатда, гўзаллик, тинчлик, осойишталик, хотиржамлик, фаровон ва бахтли ҳаёт белгиси сифатида талқин қилинади. Айниқса, оқ каптар тинчлик рамзини англатиб келади. Шунингдек, кўк каптар ҳам алоҳида эъзозланади. Кўпинча афсона ва эртақларда каптарлар бир думалаб гўзал қизга айланиши тасвирланади. Бу каби тасвирларда халқнинг парилар каптар кўринишида намоён бўла олиши ҳақидаги қарашлари юзага чиқади. “Хипча мерган” деб номланувчи ўзбек халқ эртагида эса Хизрнинг оқ каптар шаклида намоён бўлиши тасвири келтирилади. Шундай тасаввур-тушунчалар асосида кишилар ўртасида каптар, мусича каби қушларга озор етказиш, уясини бузиш, тухуми ёки полопонини олиш тақиқи амал қилади. “Кенжа қиз” эртагида девнинг жони у ухлаб ётганида оғзидан каптар бўлиб чиқиб-кириб туриши акс эттирилган.

Эртақларда париларнинг кўк каптар, Хизрнинг оқ каптар қиёфасида тасвирланишига, албатта, халқнинг қушлар ҳомийлиги ҳақидаги эътиқодий қарашлари асос яратган.

Тўти кўчма маънода жуда гўзал, нозанин аёл, шунингдек, тақлидчи, ўзганинг гапини такрорлайдиган шахсга нисбатан қўлланади. Кичкина, чакқон, сайроқи куш читтак бир жойда муқим туролмайдиган, кўнимсиз, бекарор, енгилтабиат одамларга нисбатан ҳам ишлатилади. Салга кўрқадиган, чўчийдиган, кўрқок, одамлар чумчукка, ёмон, еб тўймас, очкўз ва кора ният кишилар қарга ёки зоғга ўхшатилади.

Барча турдаги бадиий матнларда, жумладан, эртақларда кушлар номи билан боғлиқ тасвирий воситалар ҳам кўп учрайди. Бунда кушлар номидан метафора – ўхшашликка асосланган маъно кўчими кўринишида фойдаланилади [2,65]/

Кушларни номлашда қайта ном бериш ҳолатлари ҳам кўп кузатилади. Масалан, какликнинг модаси “мастак” деб аталади.

Хулоса қилиб айтганда, кушларнинг рамзий поэтикаси Ғарбу Шарқ адабиёти тарихида алоҳида ўринни эгаллайди. Кушларнинг образи реал ва мажозий тасвир учун ишлатилади. Улар иштирокида йирик рамзий асарлар ҳам яратилган. Куш номлари тил ва нутқда гоҳ ўз маъносига, гоҳ эса кўчма маънода қўлланади. Улар кўчма маънода қўлланганда зиммасига чуқур ва катта ижтимоий мазмун юкланади.

АДАБИЁТЛАР:

1. Ёлдошева Д.Б. Ўзбек тилида орнитонимларнинг лисоний тадқиқи: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Самарқанд, 2019.
2. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Тошкент: Фан, 1975.
3. Жумаев Акмал Ахматович, Ҳаётова Дилафруз Зоировна. Эртақ ва дostonларда булбул образи. М75 Молодой исследователь: вызовы и перспективы. сб. ст. по материалам CLXX междунар. науч.-практ. конф. – №3 (170). – М.: Изд. «Интернаука», 2020. – 447 с. ISSN 2415-8771. – С. 422-428.
4. Jumayev Akmal Akmatovich. On the literary interpretation of Pigeons and Doves in Uzbek and German fairy tales. International Consortium on Academic, Trends on Education and Science. Hosted from London, England.) April 3rd -4th 2021. <https://papers.euroasiaconference.com/index.php/eac/article/view/294/303>
5. Jumaev Akmal Akhmatovich. Literary features of mythological birds in Uzbek and German fairy tales. Electronic journal of actual problems of modern science, education and training. december, 2021-12/1. ISSN 2181-9750. P.42-48. (10.00.00; №22)
6. Кошгарий М. Девону луготит турк. – 3 томлик. 2-том. – Т: Фан, 1961.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик. 5-том. – Т.: Ўзбекистон, 2020.
8. Курашкина Н.А. Звукообозначения как репрезентация звукофферы в языке (на материале английских, французских и русских антропо- и орнитофонов). Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Уфа, 2007. – 24 с; Пименова Т.С., Пименова Н.Д. Фразеологические единицы с компонентом орнитономов в английском и турецком языках и некоторые методы работы с ними на уроках иностранного языка // <http://lib.udsu.tu/a>. Дата индексации: 12.04.2008 г.; Кутьева М.В. Национально-культурная специфика переносных значений орнитонимов в русском и испанском языках: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – М., 2009. – 25 с.
9. <https://www.geo.de/geolino/redewendungen/1430-rtkl-redewendung-eine-schwalbe-macht-noch-keinen-sommer>
10. https://www.redensarten-index.de/suche.php?suchbegriff=Eine%2BSchwalbe%2Bmacht%2Bnoch%2Bkeinen%2BSommer&bool=relevanz&gawoe=an&sp0=rart_ou&sp1=rart_variarten_ou
11. <https://www.geo.de/geolino/redewendungen/5113-rtkl-redewendung-ein-spatz-der-hand-ist-besser-als-eine-taube-auf-dem>

INTERTEKSTUALLIKNING TILSHUNOSLIKDA QO'LLANILISHI

Murtazoyev Otabek Nusrat o'g'li,

Buxoro davlat universiteti

magistranti

o.n.murtazoyev@buxdu.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada intertekstuallik - bu matn ma'nosini boshqa matn bilan shakllantirish va o'xshash adabiyot asarlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, matnni auditoriya talqin qilishini aks ettirishi va ta'sir qilishi tahlil qilinadi. Intertekstuallik - bu kinoya yordamida berilgan matnlar orasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganadi. Intertekstual birliklarga quyidagilar kiradi: kinoya, plagiat, tarjima va parodiya. Intertekstuallik - bu "matnlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni" yaratadigan va alohida asarlarda tegishli tushunchalarni yaratadigan adabiy vositadir. Intertekstuallikning tuzilishi o'z navbatida ta'sir tuzilishiga bog'liq tafovutlar tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: intertekstuallik, tarjima, tilshunoslik, matn, presuppozitsiya, allyuziya, pretsedent, mediatsiya, referensial, tipologik.

Annotation: This article analyzes intertextuality - the relationship between the formation of the meaning of a text by another text and similar literary works, reflecting and influencing the interpretation of the text by the audience. Intertextuality is the study of the interrelationships between texts presented with the help of irony. Intertextual units include: irony, plagiarism, translation and parody. Intertextuality is a literary technique that creates "interrelations between texts" and creates corresponding concepts in individual works. The structure of intertextuality, in turn, analyzes the differences associated with the structure of influence.

Keywords: intertextuality, translation, Linguistics, text, presupposition, allusion, precedent, mediation, referential, typological.

Аннотация: В этой статье анализируется интертекстуальность - это взаимосвязь между формированием смысла текста другим текстом и аналогичными литературными произведениями, отражающая и влияющая на интерпретацию текста аудиторией. Интертекстуальность - это изучение взаимосвязей между текстами, представленными с помощью иронии. К интертекстуальным единицам относятся: ирония, плагиат, перевод и пародия. Интертекстуальность - это литературный прием, который создаёт «взаимосвязи между текстами» и создаёт соответствующие концепции в отдельных произведениях. Структура интертекстуальности, в свою очередь, анализирует различия, связанные со структурой влияния.

Ключевые слова: интертекстуальность, перевод, лингвистика, текст, пресуппозиция, аллюзия, прецедент, медиация, референциал, типологический.

Kirish. Intertekstuallik - yozuvchilar tomonidan romanlar, she'rlar va hatto og'zaki matnlarda (masalan, spektakllar va raqamli ommaviy axborot vositalarida) foydalanadigan adabiy nutq strategiyasi hisoblanadi. Intertekstuallikning misollari muallifning oldingi matnga murojaat qilishi va o'zgartirishi va o'quvchining bitta matnni boshqasini o'qishda havola qilishi bilan bog'liqdir. Intertekstuallik tinish belgilariga (qo'shtirnoq belgilari kabi) havola qilishni talab qiladi. Intertekstualizm matnlarda turli xil funksiyalar, shu jumladan kinoya, iqtibos va havola kabi funksiyalar yordamida ifodalanishi mumkin.

Intertekstuallik ikki turga bo'linadi: referensial va tipologik intertekstuallik. Referensial intertekstuallik matnlarda fragmentlardan foydalanishni anglatadi va tipologik intertekstuallik tipik matnlarda naqsh va tuzilishdan foydalanishni anglatadi. Safarovning fikricha, intertekstuallik beixtiyor ishlatilishi mumkin. Intertekstuallikning ikki turi mavjud: takrorlanuvchanlik va oldindan taxmin qilish. O'zgaruvchanlik "izlar" dan tarkib topgan ba'zi matnlarning "takrorlanuvchanligi" ga, uning ma'nosini shakllantirishga yordam beradigan boshqa matnlarning parchalariga ishora qiladi. Presuppozitsiya matnning o'z o'quvchilari va uning konteksti haqidagi taxminlariga ishora qiladi. Julia Kristeva birinchi bo'lib "intertekstualizm" atamasini kiritdi (intertextualité). Ko'rsatilgandek, adabiyotning bu intertekstual ko'rinishi Roland Barthes, matnning ma'nosi matnda mavjud emas, balki o'quvchi tomonidan nafaqat ko'rib

chiqilayotgan matnga, balki o'qish jarayonida chaqirilgan matnlarning murakkab tarmog'iga nisbatan ishlab chiqarilgan degan tushunchani qo'llab-quvvatlaydi.

X.M.Ergashev o'z maqolasida intertekstuallik va matnlararo munosabatlari haqida aytib o'tganlar. Maqolada intertekstuallikni uch turga ajratish mumkinligini ta'kidlangan. Ular majburiy, ixtiyoriy va tasodifiydir. Ushbu o'zgarishlar ikkita asosiy omilga bog'liq: yozuvchining niyati va ma'lumotnomaning ahamiyati. Ushbu turlarning farqlari va toifalar o'rtasidagi farqlar mutlaq va eksklyuziv emas, aksincha, ularni bitta matn ichida birgalikda yashashga imkon beradigan tarzda boshqariladi.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. Majburiy intertekstuallik - bu yozuvchi ataylab ikki (yoki undan ortiq) matnni taqqoslash yoki birlashtirishga chaqirishi nazarda tutiladi. Bundan tushunish mumkinki, oldindan tushunmasdan yoki "havolani tushunish" uchun, o'quvchining matnni tushunishi yetarli emas. Majburiy intertekstuallik gipermatnni to'liq anglab olishdan oldin oldingi gipotekstni o'qish yoki tushunishga asoslanadi.

Ixtiyoriy intertekstuallik gipermatnni ahamiyatiga unchalik muhim ta'sir qilmaydi. Bu mumkin bo'lgan, ammo muhim bo'lmagan intertextual munosabatlar, agar tan olinsa, ulanish matnni tushunishni biroz o'zgartiradi. "Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot" nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya Ixtiyoriy intertekstuallik - bu bitta iboraning bir nechta matnlari bilan aloqani topish yoki umuman aloqasi yo'qligini anglatadi. Ixtiyoriy intertekstuallikdan foydalanishda yozuvchining maqsadi - "asl" yozuvchilarga hurmat ko'rsatish yoki gipotekstni o'qiganlarni mukofotlash. Biroq, ushbu gipotekstni o'qish gipermatnni tushunish uchun zarur emas.

Ixtiyoriy intertekstuallikdan foydalanish parallel belgilar yoki chizmalar kabi oddiy bo'lishi mumkin. Emili Kellerning so'zlariga ko'ra, J.K. Roulingning "Garri Potter" serialida J.R.Tolkiennning "Uzuklar hukmdori" trilogiyasi bilan ko'p o'xshashliklar mavjud. Kellerning aytishicha, ular ikkalasi ham keksa sehrgarning ustozlari (professor Dambldor va Gandalf) dan foydalanadilar va qahramonga (begunoh yosh bolaga) kuchli sehrgarni mag'lub etish va qudratli odamni yo'q qilish uchun mashg'ulotlarida yordam berish uchun asosiy do'stlik guruhi tashkil etiladi.

Tasodifiy intertekstuallik - o'quvchilar matnni boshqa matn, madaniy amaliyot yoki shaxsiy tajriba bilan tez-tez bog'lab turishlari, asl matnda aniq bog'lanish nuqtasi bo'lmagan yozuvchi intermetual ma'lumotnoma berishni niyat qilmagan va bu aloqalar o'quvchining oldindan bilishi asosida amalga oshiriladi. Ko'pincha kitob o'qiyotganda yoki filmni tomosha qilganda tomoshabinlar ongida xotira paydo bo'ladi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Intertekstuallik yaqinda turli kommunikativ sohalar matnlarida, xususan, rus, ingliz, nemis, ispan matnlari kabi turli tillarda akademik muloqotdagi intertekstuallik o'rganildi. Tadqiqot uchun material ispan olimlarining 2005-yildan 2019-yilgacha bo'lgan davrda umumiy hajmi 1000 bet bo'lgan akademik maqolalari edi.

Ushbu tadqiqotdagi akademik matn ilmiy bilimlarni saqlash, rivojlantirish va uzatish maqsadida ilmiy faoliyatni amalga oshirish jarayonida maxsus yaratilgan matnning maxsus turi sifatida qaraladi. Bu funksional-mazmunli, kommunikativ-pragmatik va lingvistik-stilistik darajalarda namoyon bo'ladigan ma'lumotlilik, yaxlitlik, izchillik, materialni taqdim etishda aniqlik, bog'liqlik, to'liqlik, artikulyatsiya va tartiblilik kabi xususiyatlar bilan tavsiflanadi.

Intertekstuallik bu birinchi navbatda adabiyotda ushbu yo'nalishning rivojlanishi bilan tilda paydo bo'lgan postmodernizm birliklari sifatida tan olinadi. Shuni ta'kidlash kerakki, tilning taqdim etilgan hodisalari keng qamrovli o'rganilishni talab etadi, bu esa ko'plab tilshunoslar uchun ushbu hodisalarni tahlil qilish va bir qator lingvistik farazlarni hal qilish imkonini beradi. Intertekstuallik nazariyasining keyingi rivojlanishi matnlarni ko'rib chiqish va ularning mohiyatini turli nuqtai nazardan o'rganishga imkon berdi. Intertekstuallik hodisasi umuman olganda, o'zaro aloqador matnlarda bog'lovchi bo'g'in vazifasini bajaradi. Taqdim etilgan lingvistik hodisalar o'quvchining keng dunyoqarashi va uning yetarli ma'lumoti haqida gapiradigan ma'lum bir bilimga ega bo'lishini taxmin qilish bilan qiziqdir. Ushbu birliklar fon birliklaridan farq qiladi, chunki u batafsilroq va umumiy insoniy xabardorlik doirasidan tashqariga chiqadi. Ko'pincha yozuvchilar o'zlarining asarlarida aniq ijtimoiy, tarixiy yoki kundalik haqiqatga murojaat qilishadi, shu bilan birga intertekstuallikni yaratadilar.

Tadqiqotimizning metodologik asoslari quyidagilardan iborat: diskursiv va kommunikativ yondashuvlar; falsafiy kategoriyalar: 1) olimning nutq faoliyati tushunchasi ajralib turadigan faoliyat; 2) izchillik, unga ko'ra dunyoning ilmiy manzarasi akademik matnda aks etadi; 3) nutq nazariyasi.

Intertekstuallik konsepsiyasini ishlab chiqish uchun uning turli nuqtayi nazardan tahlil qilinishiga alohida e'tibor qaratish lozim. Intertekstuallikning juda xilma-xil tushunchalari mavjud bo'lib, ularni umumiy ma'noda ikki guruhga bo'lish mumkin: keng yondashuv, bu yerda intertekstuallik matnning universal

xususiyati va tor yondashuv, bu turli xil nutq turlari bilan funksional ravishda shartlangan o'ziga xos xususiyat ekanligini ta'kidlaydi. Intertekstuallik hodisasi matnlarning o'zaro "aloqasini" va ularning aniq tematik birligini taxmin qiladi. Muallifning intertekstualligini o'zlashtirish yoki plagiat, deb atash mumkin emas, chunki bu atama aslida ko'ringanidan ancha kengroq. Intertekstualizm deganda kommunikativ, semiotik madaniy muhitda ikki yoki undan ortiq matnlarning o'zaro ta'siri tushuniladi, uning yakuniy maqsadi asl matnga iqtiboslar, ma'lumotnomalar kiritishdir.

Shunday qilib, intertekstuallik taqdim etilgan hodisalarning muxtor, mustaqil asosda nutqda mavjudligini va ularning bitta matn doirasida birgalikda ishlashini isbotlaydi. Ishora va matnni bir-biridan ajratib turadigan xususiyati ularni tushunish usulidir.

Intertekstuallik o'quvchi zarur bilim va keng dunyoqarashga ega bo'lgan taqdirdagina tan olinadigan, yashirin ishora sifatida qabul qilinadi va tushuniladi. Shuningdek, u aniq va juda tushunarli bo'lishi mumkin, masalan:

1. "Qush inida ko'rganini qiladi"
2. "Bitta to'y o'tadi ketadi"
3. "Zevsning sovg'alari"
4. Never, never, never give up!" (Churchil. W),
5. "Veni, vedi, vitsi" (keldim ko'rdim, zabt etdim) (J. Caesar).

Aniq intertekst - bu osonlikcha tushunilishi mumkin bo'lgan haqiqat, maqol yoki ibora. Bunday talmeh, majoziy ta'rifning funksiyalarini saqlab, matndagi asosiy narsani ta'kidlashga moyil bo'lgan allyuziv epitetlarga o'xshaydi. Epitet tasvirlangan tushunchani idrok etish funksiyalarini saqlab qoladi. Boshqa tomondan, intertekst u yoki bu tasvirlangan hodisani idrok etishda muhim rol o'ynaydigan kichik atribut elementlari (so'zlar yoki iboralar) haqida qayg'urmaydi.

O. Xakslining "Sariq xrom" romanida muallif intertekstuallik foydalanadi. "Bobil devori", aslida "Bobil devori" iborasida allyuziv epitet orqali ifodalangan tasvirning assotsiativligi, ya'ni Qadimgi Dunyoning buyuk madaniy markazi bo'lgan afsonaviy Bobilning mavjudligiga ishora. "Rang uchun gulzor bor edi; u hovuzning bir tomonida yotar, undan ulkan Bobil devorlari bilan ajralib turar edi". Muallif barcha tabiiy boyliklarni bir paytlar boy bo'lgan qadimiy shahar bilan qiyoslaydi, uning buyukligini inkor etib bo'lmaydi. Shu bilan birga, so'zlarning taqdim etilgan kombinatsiyasida, qadimgi metropol tuzilishi va bog' o'rtasida parallellik mavjud bo'lib, shaharni o'rab turgan baland g'isht devorlari va gullab-yashnayotgan devorni tashkil etuvchi bog'ning o'ziga xosligi qayd etilgan. Bunday kinoya nafaqat biron bir faktga havola qiladi, balki borliqning axloqiy xususiyatiga ham ta'sir qiladi.

Bibliyadagi allyuziya: Muqaddas kitobdan misollar keltiradi va adabiyotda u Muqaddas yozuvlarda keltirilgan unutilmas obrazlarga murojaat qiladi, masalan, Bulgakovning "Usta va Margarita" (1966) asaridagi Iso Masihning (Yeshua Xa-Notsri) bashoratli tasviri. O'quvchi kim muhokama qilinayotganini tushunadi. Matnli allyuziya - bu bir xil intertekst, chunki u o'quvchiga allaqachon ma'lum bo'lgan asarga og'zaki, to'g'ridan-to'g'ri kinoyani o'z ichiga oladi, ya'ni matnning ma'lum bir pretsedenti mavjud (lot. praecedens dan - "ilgari sodir bo'lgan voqea va keyingi holatlar uchun misol yoki asos bo'lib xizmat qiladi).

Matnli pretsedent birinchi bo'lib XX asrning 80-yillarida tilshunoslikka tadqiqotchi N.Yu tomonidan olib kirilgan. Eng umumiy ma'noda shuni ta'kidlash mumkinki, pretsedent matnlar jahon klassiklari asarlari asosida shakllangan va ko'plab millatlarning adabiy merosining poydevori hisoblanadi. Matnning ustunligi intertekst bilan bevosita bog'liqdir, chunki hech bir asar mualliflar tomonidan ilgari muhokama qilinmagan mutlaqo yangi mavzu yoki g'oyani aks ettiradigan izolyatsiya qilingan va avtonom ijod emas. Oldingi matnlar ma'lum bir vaqtning, ma'lum bir jamiyatning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettirib, tilning umumiy madaniy fondini tashkil etishda xizmat qiladi. Matn ustunligi maqolga, eposga qarab hajmiga qarab o'zgarishi mumkin. V.V.Krasnyxning ta'kidlashicha, "intertext" va "text pretsedent" tushunchalari turli xil o'rganish obyektlariga ega, bu ularning asosiy farqidir: intertekst nazariyasi badiiy matnni tahlil qiladi va ustuvorlik yangi paydo bo'lgan matnlar to'g'ridan-to'g'ri muloqot birliklariga qiziqish bildiradi.

Madaniy tilshunoslik nuqtayi nazaridan shuni aytishimiz mumkinki, intertekst matnning ustuvorligi va allyuziyasini birgalikda taqqoslash va tahlil qilishi mumkin. Madaniy tilshunoslik tilning dinamik, dolzarb va rivojlanayotgan, ko'rib chiqilayotgan tushunchalar uchun xos bo'lgan hodisalarini o'rganadi: "allyuziya", "intertext", "matnning ustunligi". Bu yerda bilishning asosiy tarkibiy qismi "bilish", ya'ni atrofdagi haqiqatni bilish va aks ettirish usuli va uni o'quvchining ongida yanada o'zgartirishi nazarda tutiladi.

Lingvokulturologik tahlil jarayonida "mediatsiya" tushunchasi, ya'ni allyuziya va u bilan bog'liq bo'lgan matnni tushunishda keskinlik darajasi kiritildi. O'quvchiga yaxshi ma'lum bo'lgan matn haqida so'z yuritilsa, vositachilik unchalik muhim rol o'ynamaydi. Imo-ishora, bu holda, aniq, ravshan va

predmetli matnga (bahona) asoslanadi, masalan, A.S.Pushkinning "Boris Godunov" dramasi-dagi Marina Mnishek obraziga kinoya. (qarang: "Bog'chasaroy Favvorasi"). Pretsedentli matn, shuningdek, ma'lum bir matnni tushunish uchun asos yaratishga qodir. Bunday matn vertikal matn deb ataladi, unda uchta element asosiy rol o'ynaydi: yozma matnning syujeti, adresat (kimga yozilgan) va tashqi matnlar - lingvistik dialog-diskurs elementlari. Shunday qilib, semantik yuk va janrning o'ziga xosligiga qarab, matn va so'z vertikal kontekst bilan belgilanadi (so'zning kontsepsiyasi va tasvirning ramzi haqiqiy, asl matn yoki oldingi matnlar tomonidan boshqariladi) va gorizontaal kontekst (so'z va rasm-belgi syujet va manzilga tegishli).

Shunday qilib, intertekst tushunchasi hozirgi paytda tadqiqot uchun juda muhimdir. Aynan intertekst asosida matnli "ustunlik" paydo bo'ldi, uning asosini presedent matn toifalari va Supermatn nazariyasi tashkil etadi. Masalan, F.M. Dostoyevskiyning "Jinoyat va jazo" nomli buyuk asari zamonaviy xabarlar-da boshqacha talqin qilinadi: "Ko'paytirish va jazolash"; "Jinoyatchilik va qamchilash" va boshqalar. Bunday publisistik allyuziya jurnalistlar tomonidan o'z o'quvchilari e'tiborini jalb qilish uchun ishlatiladi. Dunyoga mashhur asarga ishora qiziqishni uyg'otadi va yoritilayotgan muammo atrofida muallif uchun zarur bo'lgan jalb etuvchi muhitni yaratadi.

Xulosa. Demak, ushbu obyektlar nafaqat bir-biri bilan aloqa qiladi, balki o'quvchida ham matndagi o'zaro bog'liq voqealar tabiati haqida tasavvur uyg'otadi. Bunday aloqaning tuzilishi tarixiy, ijtimoiy, ilmiy yoki falsafiy bo'lishi mumkin. intertekst, xuddi allyuziya singari, asl matn bilan va ishora qilingan yoki havola qilingan matnlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, qahramonning ismi metafora shaklini oladi. shunday qilib, intertekstuallik stilistik va lingvistik nutqning muhim tushunchasidir. "Ishora" tushunchasidan "intertekst" tushunchasi tug'iladi va allyuziya asl matnda olib boradigan ma'noga muvofiq rivojlanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Akhmedova, S. K. (2021). *Comparative analysis of epic helpers in english and uzbek folklore. Scientific reports of Bukhara State University*, 5(3), 91-99. <https://uzjournals.edu.uz/buxdu/vol5/iss3/9/>
2. Akramov, I.I. (2022). *The special the special characteristics of the aphorisms of the aphorisms. Центр научных публикаций (buxdu.Uz)*, 12(12). http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/6448
3. Akramov, I.I. (2022). *Linguistic Simplicity of Aphorisms in English and Uzbek. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(12) <https://www.cajlpc.centralasianstudies.org/index.php/CAJLPC/article/view/633>
4. Gadoeva M.I. *The Expression of Somatizms in English and Uzbek Proverbs // European Conference on Natural Research.-Sweden, 2021. – B. 36-41. http://papers.online-conferences.com/index.php/titfl/issue/view/Stockholm*
5. Rasulov, Z. (2021). *Reduction as the way of the language economy manifestation. Центр научных публикаций (buxdu.Uz)*, 1(1) http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/2943
6. Daniyeva M.M. *Otli so'z birikmalarining lingvistik maqomi. –T.: Mehridaryo, 2018. –B.29.;*
7. Rasulov, Z.I., Saidov, K.S. *Linguistic Economy as an Inseparable Law of Language. 2022.;* (buxdu.Uz), 1(1) http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/2943
8. Krasnykh V.V. *Интертекстуальность и прецедентность в современной коммуникации: психолингвокультурологический подход. – 2015.;*
9. Gadoeva M.I. *The Expression of Somatizms in English and Uzbek Proverbs // European Conference on Natural Research.-Sweden, 2021. – B. 36-41. http://papers.online-conferences.com/index.php/titfl/issue/view/Stockholm*
10. Oxford English Dictionary. Vol. 1. Oxford, 1996.
11. Rasulov, Z.I. (2021). *Reduction as the way of the language economy manifestation. Центр научных публикаций (buxdu.Uz)*, 1(1) http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/2943
12. Qobilova. N. S. (2022). *Frazeologik birliklarning leksik-semantik xususiyatlari. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 10(12), 354-361. <http://farspublishers.org/index.php/ijessh/article/view/137>

FOLKLORE IN THE CONTEXT OF MODERN CULTURE

O'rayeva Darmonoy Saidaxmedovna,
Professor of Bukhara State University,
Doctor of Philological Sciences
d.s.orayeva@buxdu.uz

Adizova Obodon Istamovna,
Associate Professor of Bukhara State University,
Doctor of Philosophy
on Philological Sciences,
o.i.adizova@buxdu.uz

E.N.Starikova so'zlarning nazarda tutilgan ma'nolarini, shuningdek, mantiqiy bog'lanishlar tushirib qoldirilgan mazmun yoki matnni tashkil qilishni nazarda tutadigan "yashirin predikatsiya" ni ko'rib chiqadi, ularning asosida ma'lum bir qo'shimcha ifodalanmagan xususiyatlarni tavsiflovchi bir nechta qo'shimcha fikrlarni ham kiritish mumkin. K.A.Dolinin til birliklarining ma'nolari bilan ifodalanmaydigan, lekin nutqiy asardan olingan ma'lumotlarga nisbatan "submatn" deb ham ataladi. Bu subtekst ham bitta gapdan, ham butun matndan olingan [1].

Metodologiya

K.Allanning ta'kidlashicha, implikaturaning ehtimollik asosiga qurilgan tabiatini ko'rsatish uni izohlashdan osonroq. Telefon go'shagining ikkinchi tomonida baland ovozni eshitsangiz, "ayol kishi gapiryapti" degan xulosaga kelishingiz mumkin. Ba'zan xulosamiz noto'g'ri bo'lishi mumkin. Implikatura stereotiplashgan taxminga o'xshaydi [2].

Husband: How much longer will you be?

Wife: Mix yourself a drink.

Ikkinchi jumladagi gapni to'liq tushunish uchun er suhbatdoshi foydalangan prinsiplarga asoslangan holda bir qator xulosalar chiqarishi kerak. Erning savoliga an'anaviy javob to'g'ridan-to'g'ri javob bo'ladi, bunda xotin ma'lum vaqt maksimasi vositasida qachon tayyor bo'lishini aytishi kutilgan edi. Shundagina er-xotin orasidagi suhbat pragmatik jihatdan to'g'ri bo'lgan bo'lar edi. Erning fikricha, ayol savolni eshitdi va qanchada tayyor bo'lishini aytishi kerakligini anglab yetdi. Buning o'rniga, ayol mantiqiy javobdan qochgan holda, eriga aniq vaqtni aytolmasligi yoki qancha vaqtda tayyor bo'lishini bilmasligiga shama qilmoqda. Ammo shuni aniqki, ayol hadeganda tayyor bo'lmasligi mumkin va u shuning uchun ham eriga "biror nima ichib turing" deya ma'noni implisittarзда ifodalayapdi. Ehtimol. Ayol eriga "Relax, I'll be ready in plenty of time" demoqchi bo'lgandir...

Nutqda ifodalanadigan implisitlikning murakkab semantik tarkibi, turli vositalar orqali ifodalanishi bugungi kunda ko'pchilikni qiziqtirib kelayotgan va tilshunoslik sohasida o'rganilishi muhim bo'lgan masalalardan hisoblanadi. O'zbek tilshunosligida badiiy asarning zohiriy va botiniy ma'nolari xususidagi qarashlar mumtoz adabiyot doirasida qadimdan mavjud bo'lsa-da, zamonaviy badiiy matnlardagi implisitlik borasidagi izlanishlar endigina shakllanib bormoqda. Shu bilan birga, yashirin ifodalanadigan implisit ma'nolar yozuvchining badiiy mahorati, til boyliklarini qay darajada o'zlashtirganligi va til birliklarining uslubiy imkoniyatlaridan mohirona foydalana olish qobiliyatiga ham uzviy bog'liqdir. Bu esa o'z navbatida badiiy matnlar implisitni ifodalash vositalarini aniqlash uchun keng maydon bo'la oladi, degan xulosaga olib keladi. Yozuvchining o'z asari orqali nechog'li implisit axborot taqdim etish maqsadi, ifodalangan mazmunining yashirin bayonini anglash adresatning fikrlash qobiliyati hamda olam haqidagi tasavvurlari darajasiga bog'liqdir.

Implikatura - pragmatikaning bo'limi bo'lib, u Pol Grays tomonidan yaratilgan fanga kiritilgan. Bunda aytilgan jumla yoki so'z muhim emas, balki anglashiluvchi ma'no muhimdir. Graysga ko'ra, implikatsiya - bu ataylab, maqsadli tarzda aytilgan jumladir. Bunda so'zlovchining asl kommunikativ madsadi yashirin tarzda beriladi va ataylab aniq aytilmaydi. Boshqacha qilib aytganda, implikatsiyalar bu - to'g'ridan-to'g'ri oshkor etilmagan niyatlar, istaklar yoki iboralardir. Implikatura hodisasi so'zlovchi suhbat davomida biror bir narsani yashirin yoki bilvosita ifodalashni xohlagandagina amalga oshadi.

Y.V.Ermakova sintaktik semantika doirasida dastlab implisitlikning asosiy xarakterli xususiyatlari (G.G.Pochepsov, I.P.Susov, L.V.Lisochenko, Y.S.Martem'yanov, N.D.Arutyunova, V.V.Bogdanov) tomonidan tadqiq qilingan bo'lsa, ular bevosita badiiy matndagi implisitlik masalasini nisbatan kamroq o'rganilganligini ta'kidlaydilar (Dolinin 1983, Bogdasaryan 1983, Nikitin 1988, Sitdikova 1985, Molchanova 1988, Bezugla 2007, Yermakova 2007, 2008, 2009, Bertuccelli-Papi 2000).

Ta'kidlash lozimki, badiiy matnning o'ziga xos xususiyatlari uning yashirin ma'nolarini o'rganishda samara berishi tabiiy holdir. Ularni idrok etish va tushunish uchun lisoniy qobiliyat bilan birga ongdagi umumiy bilimlar zahirasi ham harakatga keladi. Masalan, tadqiqotchi M.Hakimov implikasiya tushunchasini

ifodalash uchun “umumyashirin” atamasini qo‘llaydi va yashirin ma’nolarning barchasini qamrab olishini, lekin o‘zbek tilida bu borada umuman tadqiqodlar olib borilmagan bo‘lsa-da, mumtoz adabiyotga oid nazariy manbalar bu yo‘nalishga oid faktik materiallarga nihoyatda boy ekanligini ta’kidlaydi.

Yashirin ma’lumotlar turiga tegishli bo‘lgan va fikr tug‘ilishidan oldin paydo bo‘ladigan, uning dolzarbligi shartlarini belgilaydigan yana bir tushuncha - bu presuppozitsiyadir. Presuppozitsiya tushunchasi falsafiy mantiqqa P.Strouson tomonidan kiritilgan bo‘lib, so‘zlovchining fikrni ifodalash jarayonigacha bo‘lgan taklifiy munosabatlari yig‘indisi sifatida ta’riflanadi. Agar so‘zlovchi o‘z haqiqatini tabiiy deb qabul qilsa va kontekstning boshqa ishtirokchilari bir xil nuqtayi nazarga amal qilishiga asoslansa, bu holda taklif oldindan taxmin hisoblanadi.

Taxminlar majmui ishlab chiqaruvchi tuzgan iboralar orqali obektivlashtiriladi. Presuppozitsiyalar va implikaturalar nutqiy harakatga nisbatan presuppozitsiyalarning ustuvorligi bilan farqlanadi, implikaturalar nutqiy akt davomida tug‘iladi, ular so‘zlovchining tafakkurida mavjud bo‘lgan taklif foni emas.

Presuppozitsiya munosabati ongda avtomatik ravishda paydo bo‘lishi va ko‘pincha qabul qiluvchi tomonidan amalga oshirilmaligi sababli, taxminni shubha ostiga qo‘yish yoki rad etish juda qiyin bo‘lishi mumkin. Taxminan ongsiz ravishda qabul qilingan shubhali ma’lumotni “qadoqlash” uchun ishlatiladi. Matnni idrok etuvchining ongida ergashish va presuppozitsiya paydo bo‘lishi uchun fikrning aniq ma’nosi bog‘lanishi mumkin bo‘lgan ma’lum miqdordagi ekstralingvistik bilimga ega bo‘lish kerak.

Ko‘p jihatdan lingvistik va ekstralingvistik tabiat omillari tufayli subtekst ma’lumotlari noaniq hodisadir. Subtekst ma’nosini amalga oshirishning asosiy shartlari - bu o‘quvchiga xatti-harakatlar dasturini belgilaydigan ma’lum bir semantik gipotezani (pastki matnni) tashkil etuvchi og‘zaki rag‘batlantiruvchi sifatida muallif tomonidan o‘rnatilgan maxsus tashkil etilgan lingvistik shartlar to‘plami sifatida lingvistik kontekst, shuningdek, qabul qiluvchining kontseptual tizimi, uning bilish va voqelikni tushunishning turli sohalarida va turli darajalarda, jumladan, og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan kognitiv tajribasini aks ettiruvchi bog‘langan ma’lumot sifatida qabul qilinadi.

Implisitlik tushunchasi «til vositalarida bevosita ifoda topmagan, tinglovchi tomonidan nutqiy tuzilmaning voqelanish sharoitlari va eksplisit ifodalangan ma’no hamkorligidan kelib chiqib fahmlanadigan element» sifatida keyingi yillarda o‘zbek nasrida paydo bo‘lgan ko‘plab ramziy-majoziy bayon asosidagi nasriy asarlarni tahlil qilishda qo‘l keladi [3]. Masalan, Nazar Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam” hikoyasi, Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar”, Murod Muhammaddo‘stning “Lolazor”, Xurshid Do‘stmuhammadning “Bozor” romanlari va boshqa ko‘plab asarlarni ko‘rsatish mumkin.

Tahlil va munozaralar.

Ma’lumki, hozirda gapning ma’nosi asosan uning tarkibiy qismi bo‘lgan lingvistik shakllar tomonidan anglashilishi keng tarqalgan. To‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’noni anglash ma’lum bir ifoda yoki so‘z birikmasining tagma’nosida aslida nima kodlanganligini yoki qanday mazmun yashiringanini aniqlash uchun mantiqiy taxminlar va xulosalar chiqarishni talab qiladi. Masalan:

Butter is too hard when you take it out of the fridge

Yuqoridagi jumlaning to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjimai (Sariyog‘ni muzlatgichdan chiqarganingizda, u juda qattiq bo‘ladi). Ammo jumlada yashringan implisit ma’no aslida tinglovchiga (Mutlatgichdan endigina chiqarilgan sariyog‘ nonga surtib yeyish uchun qattiqlik qiladi) degan xabarni yetkazish ko‘zlangan. Shunga ko‘ra, tinglovchi keyingi safar uni oldindan olib qo‘yishi kerakligini anglatishi mumkin; kinoyali istehzo so‘zma-so‘z ma’noning aksini bildiradi).

Antroposentrik tamoyilga ko‘ra badiiy matnda nutqiy vaziyat polifonik mohiyat kasb etadi: «muallif-badiiy asarning yaratuvchisi; harakatlanuvchi shaxs; o‘quvchi-badiiy asarning qayta “yaratuvchisi”» [4]. Ana shu nuqtayi nazardan yondashilganda, oddiy diskursiv matnda adresant-adresat muloqoti amalga oshsa, badiiy matnning ma’no-mazmuni ikki tomonlama murakkablashadi. «Harakatlanuvchi shaxs»lar, ya’ni personajlarning o‘zaro diskursiv muloqoti jarayonidagi bazisda muallifning subektiv munosabati ham anglashiladi. Masalan, -Menga qara, Qurbonoy. Qurbonoy xola qaddini rosladi. Komissar sut bidonini qor ustiga qo‘yib, allanechuk qunishib turar, zahil yuzi o‘ychan edi.

- Rostingni ayt! - dedi kinoyali iljayib. - Joynamoz ustida har kuni qarg‘asang kerak meni? Ota-onang uchun, o‘zing uchun... Faqat to‘g‘risini ayt!

- O‘zing nima qipti? - dedi Qurbonoy xola dili og‘rib. - Xex! - Komissar kaltakesakdek chirqillab kuldi. - O‘zing bo‘lmasa ota-onang uchun... - Men hech kimni qarg‘amiyman, - dedi Qurbonoy xola ishonch bilan. - Qur‘onda bitilgan: Alloh har narsani ko‘rguvchidir. Tangrim hammasini ko‘rib turibdi.

Komissar birpas gezarib turdi-da, bidon bandidan ko‘tardi. Indamay nari ketdi [5].

Ushbu parchada matnning implisit ma’nosi allyuziya vositasida yuzaga chiqadi. Allyuziya (lot. allusio - ishora, hazil) - barchaga tanish deb hisoblangan real siyosiy, maishiy, tarixiy yoki adabiy faktga ishora

qilishga asoslangan stilistik usuldir. Mohiyatan, Sharq mumtoz she'riyatida keng qo'llangan talmeh san'atiga yaqin keladi. Farqli jihati shundaki, talmeh ko'proq mashhur tarixiy va badiiy faktlarga ishora qilinsa, allyuziyada ijodkor o'z zamonasidagi siyosiy, maishiy yoki badiiy faktlarga ishora qilishi ham mumkin. Ya'ni allyuziyada ishora obektining doirasi kengroq. Qurbonoy xola tomonidan aytilgan «Tangrim hammasini ko'rib turibdi» jumlasida «Xudo jazoini o'zi beradi» pressuppozitsiyasi ifodalangan.

Dekodlash jarayoni - bu resepiyentning shaxsiyatiga ko'proq ekstrapolyatsiya qilingan jarayon bo'lib, uni qabul qilish odatda resepiyentning sharhlash qobiliyati va niyatlari bilan bog'liq bo'ladi. Biroq har bir resepiyentni ensiklopedik bilimlardagi farqlar tufayli o'z xulosalariga keladi. Ushbu tezis dekodlash uslubi bilan qo'llab-quvvatlanadi, bu fikr-mulohazalar prinsipiga e'tibor qaratish bilan tavsiflanadi, qabul qiluvchining e'tiborini jo'natuvchi uchun nutq zanjirining eng muhim elementlariga jalb qilish uchun jo'natuvchining dekodlash ustidan nazoratiga qaratilgan.

Muhokama. An'anaga ko'ra, lingvistik kodlangan ma'no an'anaviy bo'lib, tilda istifoda etilishi orqali lisonda mustahkamlanadi va uni so'zlar, morfemalar, iboralar, idiomalar va konstruktsiyalar orqali yetkazish mumkinligi e'tirof etiladi. Uning ikkita tavsifi, ehtimol, to'liq ekvivalent emas va an'anaviy ma'noning tabiati ham ko'proq o'ylashga loyiqdir. Yashirin ma'no (implisit ma'no) va an'anaviy ma'no va unga tegishli tushunchalar o'rtasidagi qarama-qarshilikni aniqlash bu sohada sezilarli yutuqlarga olib kelishi mumkin, ammo uning ilmiy izlanishlari ancha kengroqdir.

N.A.Panina esa implikasiya masalasiga birinchilardan bo'lib e'tibor qaratadi. U bu masalaga quyidagicha baho beradi: «implisitlik gapning ma'nosini bilvosita anglash va undan qo'shimcha axborotlarni olish imkoniyatidan iborat». I.V.Arno'd implikasiyada «mikrokontekstda paydo bo'lgan va til birliklari bilan bevosita ko'rsatilmagan qo'shimcha ma'no»lar yuzaga chiqishini e'tirof etadi. Oddiy qilib aytganda, shama qilish yoki til vositalari yordamida ma'noni "yashirib" yetkazishdir.

Masalan;

We get our directions from the sun — from the position of the sun in the sky.

Aslida yuqoridagi gapda "Biz yo'nalishni quyoshga qarab olamiz" emas, balki "Biz yo'nalishimizni quyoshning joylashgan nuqtasiga qarab belgilaymiz" nazarda tutilgan.

Majburiy ma'no til va nutqning mazmun tomonining tarkibiy qismi ekanligini yana bir bor ta'kidlaymiz. Tildan foydalanganda har doim miyaning kognitiv faoliyati mavjud, buning natijasida biz gapda lisoniy birliklarning ma'nolarida ifodalanganidan tashqari qanday konkret ma'no nazarda tutilganligini aniqlaymiz.

Odatda implikatura yoki tagma'no so'zlovchi tomonidan shakllantiriladi, tinglovchi esa bu holatda asl maqsadni tushunishi yoki tushunmasligi mumkin. Ma'lumki, biror bir voqelikni anglash, idrok etish va nihoyat, uning yuzasidan ma'lum bir xulosalarga kelish lingvistik, paralingvistik, metalingvistik yoki lingvistik tabiatga ega bo'lmagan belgilar yordamida yuzaga keladi.

Implikaturani ma'noning harakati deya qabul qilish mumkin, chunki birinchi harakatni so'zlovchi tomonidan aytilgan jumla deb oladigan bo'lsak, tinglovchi tomonidan mazkur jumlada nazarda tutilgan asl maqsadni anglab yetishi ikkinchi harakat bo'ladi. Paul: Are you going to George's birthday? Alan: I have to study.

Alanning yuqoridagi javobi u Jorjning tug'ilgan kuniga bormasligiga ishora qiladi. Alanning javobi bu erda implikasiya hisoblanadi. Aytish va nazarda tutish o'rtasidagi farq dialog davomida yanada oydinlashadi.

Quyidagi dialogga e'tiboringizni qaratamiz:

Mother: How was your exam?

Daughter: Do you want some ice cream?

Yuqoridagi misolda qiz onasining savoliga mantiqdan qochgan holda javob berdi. Ehtimol, bu bilan qiz onasiga imtihon haqida gapirishni istamasligini va u imtihonda yaxshi baho olmaganini aytmochi bo'lgandir. Kundalik so'zlashuv diskursida bu kabi holatni "gapni boshqa yoqqa burish" deb baholaymiz.

Xulosa. Ijodkor badiiy matnda o'z nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda, atrof-muhit to'g'risidagi tasavvurlari va o'ylarini asarida bayon qilinyotgan voqelikka singdirib ifodalaydi. Shuning uchun ham badiiy matnni adresat (o'quvchi) borliqning real in'ikosi tarzida qabul qiladi va ta'sirlanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Старикова Е.Н. Имплицитная предикативность в современном английском языке. Киев, «Высшая школа», 1974, -142 с.
2. Keith Allan, "Natural Language Semantics." Wiley-Blackwell, 2001

LITERARY CRITICISM

3. Yusupov O. *Badiiy matnning lingvokognitiv xususiyatlari // TDPU Ilmiy axborotlari. Ilmiy-nazariy jurnal.*-Toshkent, -№2 (11), 2017.
4. Quronov D., Mamajonov Z., Sheralieva M. *Adabiyotshunoslik lug'ati // f.f.d., prof. D.Quronovning umumiy tahriri ostida.* -Toshkent: Akademnashr, 2010.
5. Hoshimov O'. *Tushda kechgan umrlar.* -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.

“ЎТКАН КУНЛАР” РОМАНИДА ОҚИЛ ОТАЛАР ОБРАЗИ ТАЛҚИНИ

Курбанов Санжар Салиевич,

Бухоро давлат университети ўқитувчиси

sanjarkurbanov0077@gmail.com

Аннотация: Машхур ўзбек ёзувчиси, янги давр ўзбек насрининг асосчиси Абдулла Қодирий халқимизнинг энг суюкли ижодкорларидан биридир. Унинг катта эҳтирос ва санъаткорлик билан ёзилган “Ўтган кунлар”, “Меҳробдан чаён” романлари миллионлаб китобхонларнинг маънавий мулкига айланган. Ушбу романларнинг энг марказида ота образи туриши сир эмас. Оталарнинг оқиллиги ёки жоҳиллиги туфайли бахтга эришган ёки аксинча таназзулга учрагани ёзувчи маҳорати орқали ёритиб берилган.

Калит сўзлар: образ, тарбия, оилавий муносабатлар, образ хухусиятлари.

Аннотация: Известный узбекский писатель, основоположник узбекской прозы нового времени Абдулла Кадыри – один из самых любимых писателей нашего народа. Его романы «Минувшие дни», «Скорпион из алтаря», написанные с большой страстью и вхождением, стали духовным достоянием миллионов читателей. Не секрет, что фигура отца находится в центре этих романов. Успех или упадок отцов из-за их ума или невежества раскрывается благодаря мастерству писателя.

Ключевые слова: образ, воспитание, семейные отношения, характеристики образа.

Annotation: The famous Uzbek writer, the founder of the Uzbek prose of modern times, Abdulla Kadyri, is one of the most beloved creators of our people. His novels "Bygone Days", "Scorpion from the Altar", written with great passion and artistry, have become the spiritual heritage of millions of readers. No secret that the figure of the father is at the center of these novels. The success or decline of the fathers, through their intelligence or ignorance, is revealed through the skill of the writer.

Key words: image, education, family relations, image characteristics.

Кириш. Машхур ўзбек ёзувчиси, янги давр ўзбек насрининг асосчиси Абдулла Қодирий халқимизнинг энг суюкли ижодкорларидан биридир. Унинг катта эҳтирос ва санъаткорлик билан ёзилган “Ўтган кунлар”, “Меҳробдан чаён” романлари миллионлаб китобхонларнинг маънавий мулкига айланган. “Ўтган кунлар” ва “Меҳробдан чаён” романларида катта меҳр билан тасвирланган Отабек ва Кумуш, Юсуфбек хожи, Ўзбек ойим, Анвар, Раъно ва бошқа қахрамонларнинг ёрқин сиймоси ўқувчида ёрқин таассурот қолдиради. Асар қахрамонларининг орзу-умидлари; соф, беғубор севгиси қолоқ удумлар, ёвуз кимсаларнинг тажовузлири туфайли топталади. Китобхон Отабек ва Кумушнинг бахтсиз қисматига кўз ёши тўқади. Анвар билан Раънонинг бахтиёр кунларини кўриб қувонади.

Асосий қисм. Абдулла Қодирийнинг бу ўлмас асарлари ёш китобхонларнинг маънавий мулки бўлиб қолди. Ёзувчи ўтмишдаги қора доғларни кўрсатиш орқали бугунги кун ўқувчисига жиддий сабоқ беради. Мамлакат парчаланиб кетган, ўзаро “қора чопон” ва “қипчоқ” қирғинлари авжида, золим ҳукмдорлар фақат вақтни ўтказиш, халқни шилиш билан овора. Ташқи ёв эса шундоққина эшик қокмоқда эди. У билан курашишга ҳеч қандай тайёргарлик кўрилган эмас. Юрт жаҳолат, разолат ботқоғига бутунлай ботиб кетган. Бунинг устига қолоқ удумлар, урф-одатлар халқ қалбини ўргимчак тўри каби ўраб олган. Илғор маърифатли одамларга кун йўқ. Замонасининг етук сиймоси, илғор фикрли Отабек ота – онасининг иродасига қарши бора олмайди. Оқибатда жонидан қаттиқ севгани – бахт қушидан маҳрум бўлади. Қолоқ тушунчалар, расм-русумлар унинг бахтини, келажагини вайрон қилади. Таназзулдан қутулишнинг ҳеч қандай чораси йўқ. Бундай шароитда Отабек, Юсуфбек хожи, уста Олим каби юрт тақдирини ўйлаган кишилар нима қилмоғи керак?!

Оталарни жаннатнинг калити дейишади. Дарҳақиқат, бу ёруғ оламда ота бор эканки, биз ҳам мавжудмиз. Инсон ота наслининг давомчиси сифатида дунёга келади. Жаҳон адабиёти тарихи ёнги ўз адабиётимиз тарихида ҳам бу буюк зотларга бағишланган асарлар талайгина. Қолаверса, бадиий адабиётимиз тарихидан ўрин олган қайси бир асар бўлмасин, уларнинг деярли барчасида ота образи муҳим ўрин тутди. Жумладан, XX асрнинг ноёб дурдоналаридан бўлмиш Абдулла Қодирийнинг

“Ўткан кунлар” ҳамда Ойбекнинг “Қутлуг қон” асарларида ҳам ўзбек оталарига хос бўлган хусусиятлар ўз ифодасини топган.

Абдулла Қодирий ўз тасвирида тарихий фактларга, ҳатто айрим шахслар: Худоёрхон, Мусулмонкул, Азизбек ва бошқаларни тасвирлашда суянган ҳолда, давр тавсифи, “жамият ҳаётининг поэтик таҳлили”ни романнинг марказий қаҳрамонлари Отабек ва Кумуш тақдирларини тасвирлаш орқали беради. Отабек ва унга хайрихоҳ кишиларнинг тақдири жуда мураккаб, баъзан фожеали эканлигини асарни ўқиб билиб олиш мумкин. Асарда таҳлил қилиниши керак бўлган шундай образлар борки улар ўқувчига жуда катта ҳажмда маънавий озуқа беради ва ўқувчини тарбиялайди. А.Қодирийнинг “Ўткан кунлар” асарида Отабекнинг отаси Юсуфбек ҳожи, Кумушнинг отаси Мирзакарим қутидор ҳамда Отабекнинг маънавий отаси Ҳасанали каби ота образларини кўриш мумкин. Инсоннинг исми ҳар доим отасининг исми билан ёнма-ён тилга олинади. Бу эса инсон ҳаётида отанинг ўрни нечоғлик катта ва муҳим аҳамиятга эга эканлигини билдиради. А.Қодирий ҳам Отабек номини ҳар тилга олганида унга Юсуфбек ҳожининг ўғли эканлигини таъкидлаб ўтади. Хусусан, асарнинг биринчи бўлим биринчи фасли “Отабек Юсуфбек ҳожи ўғли” деб номланган. Шунингдек, Отабек портетини чизишда ҳам унинг отаси тилга олинади: “Оғир табиатлик, улуғ гавдалик, кўркам ва оқ юзлик, келишкан, қора кўзлик, мутаносиб қора қошлик, ва эндигина мурти сабз урган, қандайдир ҳаёл ичида ўлтурғучи бу йигит Тошканднинг машҳур аъёнларидан бўлган Юсуфбек ҳожининг ўғли – Отабек” [1, 4 б.]. Фарзанд ҳар доим елкасида ота номини кўтариб юради. Ўзбек халқи фарзандига қараб унинг отасига баҳо беради. Ёзувчи Отабекни оғир табиатлик ва ҳаёл ичида ўлтурғучи деб тасвирлаганидан ҳам билиш мумкинки, Отабекнинг отаси ҳам оғир, вазмин, мулоҳаза билан иш тутадиган – етти ўлчаб, бир кесадиган инсон. Отабекнинг ўз дардини дoston қилмаслиги, обрў ва эътиборидан қатъи назар, кишиларга тавозе билан муомала қилиши, ҳар бир сўзини ўйлаб гапиришида ҳам ўқувчи Отабекни шундай тарбиялаган отасини кўз олдида келтиради. Қуйидаги парча ҳам Отабекнинг инсоний хислатларини яққол намоён этган: “Ҳасанали чикди. Раҳмат Отабек билан яна қайтиб соғлиқ сўрашгандан кейин ундан сўради: –Бу киши кимингиз бўладир, бек ака?

–Отабек Раҳматнинг саволига жавоб бермай, эшикка қаради. Ҳасаналини хужрадан узоқлатиб жавоб берди:

–Қулимиз”(6-бет).

Оиланинг қули бўлишига қарамай унга шунчалар меҳр ва ҳурмат кўрсатиш фазилати ҳам аслида Отабекнинг эмас, отаси Юсуфбек ҳожининг фазилати, чунки халқимиз айтганидек: “Қуш уясида кўрганини қилади”. Отабек орқали тасаввур этаётган отани энди ёзувчининг тили билан кўрайлик. Қодирий Юсуфбек ҳожининг табиатини шундай тасвирлайди: “Хотин билангина эмас, умуман, уй ичиси билан ҳар қандай масала устида бўлса бўлсин узоқ сўзлашиб ўлтурмайдур. Отабекми, онаси, Ҳасаналими ишқилиб уй ичидан бирартасининг сўзлари ё кенгашлари бўлса, келиб ҳожининг юзига қарамасдан сўзлаб берадилар; мақсад айтиб биткандан сўнг секингина кўтарилиб унинг юзига қарайдилар. Ҳожи бир неча вақт сўзлағучини ўз оғзига тикилтириб ўлтургандан сўнг, агар маъқул бўлса “хўб” дейдир, гапка тушунмаган бўлса, “хўш” дейдир, номаъқул бўлса дуруст эмас дейдир ва жуда ҳам ўзига номаъқул гап бўлса, бир илжайиб қўйиш билан кифояланиб, мундин бошқа сўз айтмайдир, айтса ҳам уч-тўрт калимадан нарига ошмайдир”(124-бет). Бу таърифдан билинадики, Юсуфбек ҳожи ўзбек оталари каби оғир табиатли, камгап, бир масалани ҳар томонлама ўйлаб муносабат билдирувчи, ҳамсухбати қандай киши бўлмасин муомала одобини сақловчи идеал ота образидир. Фарзанди Марғилондан уйланганини эшитиб ҳам ҳеч ранжимади, чунки қуда бўлмиш Мирзакарим қутидорнинг ўзига ҳар жиҳатдан муносиб инсон эканлигини, ўғлининг қилажак ҳар иши мулоҳаза билан ўйлаб қилинганини ич-ичдан сезиб, ундан рози бўлади. Масаланинг яна бир томони борки, у ўғлини ҳар жиҳатдан ишонган, яқин кишиси Ҳасаналидай софдил инсоннинг қўлига топширган. Ёзувчи уни ҳар ўринда “Юсуфбек ҳожи” деб тилга олади. Бундан маълум бўладики, ота Ҳаж зиёратини адо этган шахс. Аммо бунинг таъмаъносида унинг оккўнгиллиги, диёнатли, инсофли, ҳақгўй инсон эканлиги ётибди. У асарнинг бир ўрнидагина ягона ўғли борлигини тилга олади. Аслида эса у бутун халқнинг падари бузруквори, ҳимоячиси, мададкори, соябони тарзида тасвирланган. Ёзувчи уни худбин ва риёкор беклар зульмидан халқни омон сақловчи “маънавий ота”си сифатида тасвирлайди. Чунки унинг Азизбекнинг халққа 32 танга солиқ солиш ҳақидаги фармонини етказишдаги чуқур нафрат билан айтган сўзлари унинг фарзандлари учун дили оғриган ота ҳолатини кўрсатади. Юсуфбек ҳожи ҳамма вақт ўғлидан рози бўлса-да, Отабекнинг одам ўлдирганини эшитиб ранжийди. Шунда ҳам оталарга хос ҳам сиёсат, ҳам меҳрибонлик билан масалани бошқа йўл билан ҳал қилиш лозимлигини таъкидлайди. Доимгидек вазиятни ҳақиқат

мезонларига мувофиқ баҳолайди. Чунки Отабекнинг сўзлари билан айтганда, “Юсуфбек ҳожидай бир инсонинг ўғли бўлиб, одам ўлдириш уят ва номусдир”.

Кудалари Кумушни Тошкандга олиб келишлари хабарини билгач, ўғлига уларнинг ҳурматларини жойига қўйиш, “катта шаҳардан ўзини кичик олиб келувчилардан ўтган гиналарни унутишни, уйига келажак меҳмоннинг иззат-ҳурматини тўлиқ адо этишга ундайди. Худди шундай огоҳлантириш Ўзбек ойим ва Зайнабга ҳам тегади. Ўзбек ойимга: “Сен билан муддаоларимиз бир деб ўйлаганимдан Отабекни қўйиб тўхтатқанимдан сўнг сенга кенгаш солмасданок кудаларингга бир хат ёзган ва келин болани Тошкандга олиб келишларини сўраган эдим. Ҳайтовур сўзимни ерга қолдирмаган ўхшайлар, бу кун қудадан битта жавоб хати олдим. Ақллик кишиларнинг садағаси кетсанг ҳам арзийдир: шу чоққача сизларга айтдирмасданок зиёратларингизга боришимиз керак эди. Хатингизни ўқуб ниҳоятда хижолат чекдик, айниқса, келин болангиз бек ойимга қайси юз билан қарайман деб юзини юлди. Бу адабсизлигини борғандан сўнг албатта юзига солмаслар, деб ишонамиз, дейдир(294-бет). Зайнабга: “Биз Марғилондаги опанг кўчини олиб келмакчи бўлдик...сен шунга нима дейсан?

–Мен нима дердим...

–Ул келганда эгачи-сингилдек бўлиб кета оласанми?

–Бўлиб кетармиз... Тагин билмадим, қарс икки қўлдан чиқар...

–Жуда тўғри гапирдинг, болам, сендан олган ваъдани ундан ҳам оламиз”(296-бет).

Бу вазиятда Юсуфбек ҳожи оиланинг тинчлиги, аҳиллиги ва жипслигини ўйлаган ота сифатида намоён бўлади. Ҳожи бош бўлган уйда бирор ортиқча гап, ноўрин хатти-ҳаракат бўлмаслиги назарда тутилади. Бу эса ўзбек оилаларида отанинг ўрни қанчалик муҳим аҳамиятга эга эканлигини кўрсатади. Бу ваъдалар қор қилмай, икки кундош орасида ола мушук ўтган кезларда ҳам уларни яраштириб қўйган ҳам шу ота эди.

Асардаги Кумушнинг отаси сифатида тасвирланган Мирзакарим қутидор ҳам ана шундай оилапарвар оталардан. Асарда Мирзакаримбой деб ҳам, Мирзакарим қутидор деб ҳам тилга олинади ва асарда Раҳмат тилидан бундай дейишларига изоҳ ҳам берилади: “Ўзи давлатманд бир киши, савдогар, бир неча вақт Тошкандда қутидорлик қилиб турган экан” (9-бет). “45-50 ёшлар чамасида, қора қош, қора кўз яхшигина кийинган бу киши”(11-бет) –Мирзакарим қутидор ҳам, ўз оиласи, аҳли аёлига меҳрибон кишигина бўлиб қолмасдан, эл-у юрт аҳволига ҳам бефарқ эмас. Ўзига тўқ оила бошлиғи бўлса-да, ночор халқ ҳоли уни ҳамма вақт ўйлантиради. Азизбекни назарда тутиб, “Амири Умархондек одил пошшо бўлса, биз ҳам ўрисдан ошиб кетар эдик” – деганида ҳам Азизбекнинг зулмидан тўйган халқ қайғусига шериклик ҳиссини кўрамиз. Отабекни ўз фарзандидек кўрган қутидор Юсуфбек ҳожидан Отабекни Тошканддан уйлантириш хатини олгач, қизиққонлик қилмай, мулоҳаза билан масалага ойдинлик киритади: “Агар бу ишда қуявингнинг ҳам изи сезилганда эди, сан эмас ман ҳам бу гапка чидамас ва кизим устига тушкан бу оғир масалани тинчлик билан қарши олмас эдим. Аммо бунда қуявингнинг иштироки кўрилмай, шунинг ила маним дадим кесилиб қолди. Хатнинг мазмунидан онглашиладурким, бу иккинчи уйланишқа Отабек бутунлай қарши бўлиб, фақат бу гап кудаларингнинггина ишларидир. Шунинг учун қуявингнинг уйланишини қизинг устига чин маъноси ила кундаш деб бўлмайди”(138-бет). Ўз кизи устига ўзи ризолик бериб кундаш олиб бериш осон деб ўйлайсизми? Қутидор ота бўлиб Отабекнинг ота-она орзусини тушунган ана шундай бардошли, иродали жасорат соҳибидир.

Асарда оталар образига алоҳида таъкид ва юк тушган. Чунки аёллар, хусусан, оналар ҳиссиётга берилувчан, қизиққон хусусиятларда тасвирланган бўлса, оталар Юсуфбек ҳожи ва Мирзакарим қутидор асарда ҳосил бўлган муаммо тугунларини ечувчи, ўйловли, мулоҳазали, кенг фикрли, энг тўғри қарорни қабул қила оладиган, уй ичи аёлларни ҳам тўғри йўлга сола биладиган оқил инсонлар сифатида асар воқеаларини бошқаради. Талоқ хатининг сохта эканлигини билган қутидор кизини ўзи Тошканга олиб бориши кераклигини тушунади ва Кумушнинг Тошкандда эри билан қолишига ҳам розилик беради. Фарзанд бахти учун ўз ёлғизлигини ҳам унутади.

Асарни Отабекнинг маънавий отаси бўлган Ҳасаналисиз тасаввур этиб бўлмайди. У асар бош қаҳрамони бўлмаса-да, асарнинг ҳар бир воқеасида ҳар бир образ учун ёрдамчи вазифасини бажаради. Аслида бу ёрдамчилик ёзувчининг мақсадларини амалга ошириш воситаси. Ҳасаналини ёзувчи бизга шундай таништиради: “Ҳасаналини болалик вақтида Эрондан киши ўғурлаб келгучи бир туркман қўлидан Отабекнинг бобоси ўн беш олтин баробарига сотиб олган эди. Ҳасаналининг Отабеклар оиласида қулликда бўлганига элли йиллар чамаси замон ўтиб, энди Отабеклар оиласининг чин бир аъзоси бўлиб кеткан. Хўжаси Юсуфбек ҳожига, айниқса, хўъжазодаси Отабекка итоат ва ихлоси том бўлиб, бунинг эвазига улардан ишонч ва ҳурмат кўрар эди. Ҳасанали ўттуз ёшлиқ вақтида

сотиб олган бир чўрига уйлантирилган бўлса ҳам, аммо ўғул-қизлари бўлмаган, бўлсалар ҳам ёшликда ўтиб кетканлар. Шунинг учун бўлса керак Отабекка ихлос қўйиб, унга ўз боласи каби қарар: “Ўлганимдан кейин руҳимга бир калима қуръон ўқуса, бир вақтлар Ҳасанали отам ҳам бор эди деб ёдласа, менга шуниси кифоя” деб қарор берган ва ҳозирдан бошлаб Отабекка бу тўғрида сипоришлар бериб, ундан самимий ваъдалар олиб юрғучи оқ кўнгиллик бир “қул” эди” (6-бет). Отабекнинг Ҳасаналига бўлган меҳр ва ҳурмати ниҳоятда улуғ. Шу боисдан ҳам уни ҳамиша ота деб атайти:

–Ўғлим, Отабек.

–Сўзлангиз.

–Айтинг-чи, мен сизнинг кимингиз?

–Сизми? Отам бўлмасангизда мени оталиқ муҳаббати ила суйган содиқ ва меҳрибон кишимсиз – яъни маънавий отам” (22-бет).

Шунинг учун ҳам Ҳасанали Отабекни Юсуфбек ҳожидан кам севмайди. Ҳасанали унинг бахти учун ҳеч нарсадан қўрқмасдан таваккал қилиб, тўй бошлайди. Кумуш Тошкандга келганда ҳам уларни овлоқда учраштирган Ҳасаналидир. Ўғли Отабекнинг мулоҳазали, тортинчоқ эканлиги ҳамда дилида нелар борлигини дарров фаҳмлайдиган ҳам Ҳасаналидир. Отабек Марғилондан келган қайин онаси билан сўрашишга кечиккани узрини кимиз билан қабул қилдирган ҳам Ҳасанали ота эди.

Хулоса. Оила бошлиғи бўлган оталар ҳамма оғирлик, масъулиятни ўз зиммаларига оладилар. Отабекнинг қамалганидан сўнг ана шундай оғирлик Ҳасаналининг елкасига тушади. Уни қандай қутқариш, нима учун қамалганини билиш учун чора тополмай қийналади. Юсуфбек ҳожи билан кенгашиганида ҳожи унга бу хабарни Ўзбек ойим эшитмаслиги кераклигини тайинлайди. Шунда оталар барча ўйловни ўз дилларига олиб, аёлларни бундай ёмон хабардан асрашади. Шунинг учун ҳам асарни ўзбекнинг оқил оталари жам бўлган дурдона асар деб ҳисоблаш мумкин.

АДАБИЁТЛАР:

1. Абдулла Қодирий. *Ўткан кунлар*. –Тошкент: Янги нашр, 2019 йил. –Б. 4
2. *O'zbek adabiyoti tarixi. Besh jildlik. 2-jild.-T. Fan. 1977*
3. Askarovich, H. A., & zulfizar Khudoyberdiyevna, S. (2021). *Emotional Concepts In English and russian Phraseology*. Conferencious Online, 33-37. <https://conferencious.com/index.php/conferences/article/view/55>.
4. Haydarov, A. A., & Navruzova, N. H. (2021). *Stylistic Features Of Intonation*. Scientific reports of Bukhara State University, 5(1), 18-29. https://buxdu.uz/media/jurnallar/ilmiy_axborot/ilmiy_axborot_1_son_2021.pdf#page=20.
5. Sapparbayev I. *Men sevgan asar. Abdulla Qodiriyning “O'tgan Kunlar” romani. Badiiy tasvir vositalari* <https://staff.tiiame.uz/storage/users/85/presentations/zk7UuGGCFdNwoDqsae8Kuih2x8Xw4qY6CBTfbXb6.pdf>
6. S. Kurbanov, Imom G`azzoliy asarlarida farzand tarbiyasi muammolari. *Tilning leksik-semantik tizimi, qiyosiy tipologik izlanishlar va adabiyotshunoslik muammolari Materiallar to'plami* 13 56-60 betlar. 2022 Toshkent Durdona nashriyoti.
7. Zarifovna, R. N. (2023). *Euphemisms in political discourse*. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(2), 626-631.
8. Sapparova, M. R. (2019). *Principles of foreign language teaching*. In *Язык и культура* (pp. 60-67). <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=42528624>
9. Kurbanov, S. S., & Sapparova, M. R. (2021). *Badiiy asar jozibadorligini oshirishda qarg'ish anglatuvchi disfemizmlarning personajlar nutqida berilishi*. Academic research in educational sciences, 2(4), 1246-1251. <https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy-asar-jozibadorligini-oshirishda-qarg-ish-anglatuvchi-disfemizmlarning-personajlar-nutqida-berilishi>
10. Sapparova, M. R. (2016). *The problem of stylistic classification of colloquial vocabulary*. Міжнародний науковий журнал, (5 (1)), 80-82. <https://www.inter-nauka.com/uploads/public/1505892674749.pdf#page=81>
11. Turdiyeva N.B. *Ulug'bek hamdamning “ota” romanidagi ota obrazi* <https://zenodo.org/record/6835191#.ZCJvv3ZBzIU>

"KO'HKAN" TAXALLUSI BILAN SHE'RLAR YOZGAN SHAYBONIY HUKMDOR
TALQINI

Muxammadova Maxbuba Mo'minovna,
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi
mahbuba93muhammadova@mail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Hasanxoja Nisoriyning "Muzakkir ahhob" tazkirasi ma'lumotlari asosida mazkur asar yozilgan vaqtda davlat taxtida o'tirgan shayboniy ijodkorlar Sulton Sa'id Mirzo va Javonmardali Sulton she'riyati va shaxsiyatiga xos xususiyatlar aniqlashtirilgan.

Sulton Sa'id Mirzo va Javonmardali Sultonlarning tasavvufga, xususan, naqshbandiya tariqatiga ixlosi, irfon ahlining irshodi sharofatiga yuksak e'tiqodu ishonchi tahlillar asosida ko'rsatilgan. Davlat boshqaruvida suxandonlik, she'r va shoirlik, fasohat bilan so'zlashning o'rni va ahamiyatiga baho berilgan. Shoh va shoir, podshoh va sarkarda, inson va ijodkor sifatidagi fazilatlar uyg'unligi shayboniylar orqali kuzatilgan.

Kalit so'zlar: Muzakkiri ahhob, Sulton Sa'id, Javonmardali Sulton, tasavvuf, pir, murid, naqshbandiya, muammo, Ko'hkan.

Аннотация. В данной статье на основе информации из книги Хасанходжи Нисари «Музаккир Ахбоб» уточняются своеобразные особенности поэзии и личности султана Саъида Мирзо и Джавонмардали Султана, шейбанидских художников, восседавших на троне государства на момент написания этого произведения.

На основе анализа показана преданность султанов Саъид Мирзы и султанов Джаванмардали суфизму, особенно секте Накибанди, и их высокая вера в добродетель руководства народом Ирфана. Оценены роль и значение красноречия, поэзии и красноречия в государственном управлении. Посредством шейбанидов наблюдалась гармония качеств царя и поэта, царя и полководца, человека и творца.

Ключевые слова: Музаккири ахбоб, Султан Саъид, Джаванмардали Султан, Суфизм, Пир, Мюрид, Накибандия, проблема Кухкан.

Abstract. In this article, based on the information of Hasankhoja Nisari's "Muzakkir Ahbob" book, the characteristics of the poetry and personality of Sultan Said Mirzo and Javonmardali Sultan, who were sitting on the state throne at the time this work was written, are clarified.

The devotion of Sultan Said Mirza and Javanmardali Sultans to Sufism, particularly to the Naqshbandi sect, and their high faith in the virtue of the guidance of the people of Irfan is shown on the basis of analysis. The role and importance of eloquence, poetry, and eloquence in public administration were evaluated. The combination of the qualities of a king and a poet, a king and a general, a person and a creator was observed through Shaybani.

Key words: Muzakkiri ahhob, Sultan Said, Javanmardali Sultan, Sufism, Pir, Murid, Naqshbandiya.

Sulton Sa'id. "Muzakkiri ahhob" ning foni davlatdan manguilik mulkiga safar qilgan chingiziy sultonlar jamoasi zikrida" gi birinchi faslida shoh va uning adolatiga qanchalik urg'u berilgan bo'lsa, "Davlat taxtida o'tirgan sultonlar zikrida" deb nomlangan ikkinchi faslida ham muallif podshohning adolatiga asosiy e'tiborni qaratadi. Hasanxoja Nisoriy shayboniy amaldorlarning adolatiga yo'naltirilgan mulohazalarini har bir maqolada yangi tahrir va yangicha sayqalda beradi. Maqola birinchi ruknining ikkinchi fasli Ko'hkan taxallusi bilan she'rlar yozgan shayboniy hukmdor Sulton Sa'id sulton bin Abusaidxon bin Ko'chkunchixon bin Abulxayrxonga bag'ishlangan fiqra bilan boshlanadi.

Sarlavha ostidagi dastlabki ikki jumladayoq muallif Sulton Sa'id tabiatida kuzatilgan adolatga moyillikka o'quvchi e'tiborini qaratadi: "Yaxshi shaklu shamoil va latif tab'i adolatga moyil podshohdir. Samarqand ahli aning iltifot daraxti mevasidan lazzat topgan va turli toifa xalq aning himoyasi qanoti ostida tinch-omon umr kechirmoqda" [2;48].

Hasanxoja Nisoriy e'tiqodiga ko'ra, shoh qanchalik dunyoning mayda tashvishlari-yu ikir-chikirlaridan qo'l yuvgan, nafsini o'ldirib Alloh irodasiga bo'ysungan darveshlarga yaqin bo'lsa, mamlakat ravnaqi shunchalik baland bo'ladi. Tazkiranavis uchinchi jumlada shayboniyyodaning darveshdo'st

ekanligini ta'kidlaydi: "Sulton zotli sulton bo'lishlariga qaramay, darvishlarga muxlis va ular e'tiqodida xolisdir" [2;48].

"Muzakkiri ahhob" muallifi har bir amaldorning tariqat sulukiga kirib, tariqatga suyangan holda davlatni boshqarishi hamda xalqni hidoyatga boshlashini istagan. Shuning uchun ham ta'bi nazmi bor shayboniy ijodkorlar haqida mulohaza yuritganida ilmiy mushohada asosida turgan shoh-shoirning qaysi shayxga irodati borligi ustida maxsus to'xtaladi. O'sha shayxning fazilati solih amallari, silsilasi, kashfu karomatlariga haqida birma-bir so'zlaydi. Badiiy ijodga aloqasi bo'lsa, she'rlaridan namuna keltiradi. Tazkiranavis ilmiy uslubiga xos xuddi shunday manzara Sulton Sa'idga bag'ishlangan maqolada ham kuzatiladi: "Irodatu muridlik nisbati hazrat shayx Husayn Xorazmiygadir" [2;48].

Hasanxoja Nisoriy Sulton Sa'id irodatda bo'lgan murshidi komil Shayx Husayn Xorazmiyning shayx Hoji Muhammad Xomushoniydan xojagon silsilatiga qo'shilishigacha bo'lgan 17 shayxning nomini alohida-alohida raqam qilishdan erinmagan.

Tasavvufda Alloh nomini ko'ngilda yod etish g'oyasi muhim o'rin tutadi. Zikr talqini Qur'oni Karimning 2(152), 4(104), 7(205), 13 (28), 17, /111, 18 (23), 33 (41), 75 (25), 87 (1,15) suralari zaminida shakllangan. "A'rof" surasining 205-oyati karimasida zikrning ikki xil (jahriya, xufiya) tarzda ado etilishiga ishora qilingan: "Robbingizni ichingizda tazarru va qo'rqinch bilan hamda gapirganda ovozi ko'tarmasdan ertayu kech zikr (yod) eting! G'ofillardan bo'lmang" [1,176]. Naqshbandiya tariqatida oyati karimada amr qilinganidek, qalbiy zikrga rag'bat ko'rsatiladi. Buni Sa'id Sultonning piri Shayx Xorazmiy timsolida ham ko'rish mumkin: "Va janob shayx Husayn Xorazmiy yoshlik ayyomida o'zining nafasini xilvatda jahdu jadal qolipiga solib, dil zikri sayqali bilan po'rfutuh ruhi oynasini shunday tip-tiniq qilgan va yarqiratgan edilarki, yashirin sirlar va ko'rinmas nurlar oshiq-talabgorlarning ko'rish ko'zgusiga aylangan ekan" [2;48]. Dildan chiqqan, bardavom zikr natijasida shayxning qalbi shunday tiniq, musaffo holga kelganki, unda pinhon sirlar oshkor bo'lib, botiniy nurlar jilolangan. "Baland maqomot va dulpisand karomatlar sohibi" (Nisoriy) murshidi komil ishq va ishtiyoq g'alabasidan ko'nglida paydo bo'lgan zavqu sururni nazm shaklida qog'ozga ko'chirgan. "Muzakkiri ahhob" muallifi Shayx Husayn Xorazmiy ijodidan bir g'azal matla'i va bir ruboiyni namuna sifatida tazkirada keltirgan. Matla':

Meravam so'i adam ishq tu hamrohi man ast,

Zor jon medihamu hamnafasam ohi man ast. [2;48].

G'azal baytida o'z asli Mutlaq ruh sari intilayotgan orif insonning Haq sari tavajjuhi badiiy inkishof etilgan. "Asliy vatanga azm etmak" (Navoiy) yo'lida oshiq-musofirga faqat ishqgina hamroh bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham orif-shoir Allohga xitob qilib: "ishqu tu hamrohi man ast,"-deydi. Oshiqlarga o'lim yo'q. Haq oshiqlari hech qachon o'lmaydi. Odam sifatida yo'q bo'ladi, xolos. "Zor jon bermoqdaman" (Zor jon medihamu) deyilganda shunday o'lim nazarda tutilgan. Bunday o'lim safarida oshiq aslo tanho emas. Rabbiga zorlanish, ohu nola, yalinish va yolvorish unga hamnafas: "Zor jon medihamu hamnafasam ohi man ast". Matla' boshida "Yo'qlik sari ketmoqdaman" ("Meravam sui adam") deganda, ruhning Allohga qaytishi nazarda tutilgan. Faylasuf shoir matla'sini Qur'oni majidning "Hamma narsa o'zimga qaytadi" oyati karimasi ichidan nurlantirib turadi.

"Muzakkiri ahhob" dan o'qiymiz: "Yurakka g'avg'o soluvchi va shakar qorishiqli bu ruboiy ham alarning totli so'zlaridandir. Ruboiy:

Mo doiravash zi po'stpo'shoni tuyem,

Dar doirayi xalqa ba go'shoni tuyem.

Gar binovozy chu nay xuro'shoni tuyem,

Gar nanavozi ham az Xamo'shoni tuyem [2;48].

Ruboiy Shayx Husayn Xorazmiyning piri Hoji Muhammad Xomushoniyga bag'ishlab yozilgan.

Allohnin marhamati va fayzu barokoti bilan yuksak maqomga erishgan tasavvuf shayxlarning ko'plab muridlari bo'lgan. Ma'rifiy majlislarda shayxning atrofni o'rab, doira yasab, to'garaksim o'tirish taomil bo'lgan. Shayx Husayn Xorazmiy ruboiysining dastlabki ikki misrasida muridlarning pir atrofida xuddi shunday doirasimon halqa yasab o'tirishlariga o'quvchi e'tibori tortilgan. Darveshlar ko'pincha jundan tayyorlangan to'n yoki qo'y terisidan tikilgan po'stin kiyib yurganlar. Ruboiyning birinchi misrasini yakunlovchi kalimalar orqali darveshu so'fiylarning shu kabi xos kiyimlariga diqqat qaratiladi: "Zi po'stpo'shoni tuyem". Murid necha yil shayx xizmatida tursa ham, shayx nazari iltifot qilmasa, muridning murodi hosil bo'lmagan. Shuning uchun ham ayrim muridlar qancha riyozat cheksa ham, o'z botinida hidoyatni ko'rmagan. Yillab shayx eshigida qolib ketishga majbur bo'lgan. Muridning zohiru botinidagi hamma narsa pirga kunday ravshan bo'lib turgan. Uning pir iltifotiga musharraf bo'lishiga tabiatidagi zarracha noqislik ham mone'lik qilgan. Xususan, kibr alomatlaridan mutlaqo poklanish murid uchun

g'oyatda og'ir kechgan. Muridning bu yo'lda chekkan riyozatlari xususida Abu Hoshim So'fiyning quyidagi so'zlari tiniq tasavvur hosil qiladi:

“Yurakdan kibr razolatini yuvishdan ko'ra, tog'ni igna bila qo'porish oson” [3;5]. Muridning sinqiligi xoksorligiga to'la ishonch hosil qilmagan murshid unga nazari iltifot qilmagan. Shayx Husayn Xorazmiy qalamiga mansub ruboiyning 3-4 misralari irshodning ayni o'zak masalasi ustida bahs qiladi. Ruboiy matnidagi “binavozi” (“siylasang”) va “nanavozi” (“siylamasang”) so'zlari yetakchi muddao ifodasi uchun xizmat qilgan. Ruboiyni yakunlovchi “Xamo'shoni tuyem” shoir mahorati bilan 3 xil ma'no ifodasi uchun xizmat qilgan.

1. Muridlaringmiz. Siylasang ham siylamasang ham sening (Hoji Muhammad Xamo'shoni) muridlaringmiz.

2. Ruboiy yaratilgan joy ma'nosini anglatadi.

3. Sukut saqlash. Muridlik odoblaridan biri. Futuvvatning 71 shartidan bittasi [5;11] badiiy ifoda mag'ziga singdirilgan.

Baholi qudrat tahlil qilingan ruboiyning yaratilish tarixi haqida “Muzakkiri ahbob” da berilgan qaydlar ham bizning yuqoridagi mulohazalarimiz foydasiga xizmat qiladi: “Shayx Husayn bu ruboiyni egnilariga po'stteri yopinib, ustoz Hoji Muhammad Xamushoniy huzurida alar xonaqohi oshpazlari orasida Xamushon qishlog'ida o'tinkashlik qilib yurgan bir vaqtlarida aytganlar” [2, 49].

Shayx Husayn Xorazmiy ulug' yoshga kirganida, jismiga qarilik madorsizligi yuzlangan bir paytda Makkayu Madina tavofiga yuzlanib, Haj sharafiga muyassar bo'ladi. Hasanxoja Nisoriy talqinicha, butun ruhi shuuri bilan Ka'ba jamolini ko'rishga mushtaq bo'lgan insonning oyoqlariga Makatulloh yo'lidagi Mug'ilon cho'lining tikanlari sanchilsa, bu xuddi yumshoq va nafis mato harirdek rohat bag'ishlaydi.

Jamoli ka'ba chunon medavondaam ba nishot,

Ki xorhoi Mug'ilon harir meoyad [2, 49]

Murshidi komil Makatullohdan qayta turib, Shom o'lkasida vafot etadi. “Muzakkiri ahbob” muallifi buni tongning tunga aylanishiga, quyoshning sharqdan g'arbg'a o'tib botishiga tashbih qiladi:

Sabohi ayshi ahli dil ba shomi g'am badal z-on shud,

Ki xurshed az so'yi mashriq ba mag'rib raftu pinhon shud [2, 49].

Shoh-shoir Sa'id Sulton Ko'hkan taxallusi bilan ijod qilgan. Mazkur taxallusning tanlanish tarixi haqida “Muzakkiri ahbob” da nozik qaydlar mavjud. Muhim ilmiy ahamiyatga ega bo'lganligi uchun o'sha lavhani to'liq keltiramiz:

“Naql qilishlaricha, Shayx Husayn Xorazmiy Shatriy qishlog'ida ariq qazib yurgan ekanlar. Va saltanatpanoh Sa'id Sulton ham yonlarida og'ir-og'ir toshlarni yengilgina qo'porib, ularga yordamlashar ekan. Alar hazratlari sultonga qarab “Bu kishi bizning Ko'hkanimiz” debdilar. Shunga ko'ra Sulton Sa'id Ko'hkan iborasini o'zining totli she'r va shirin guftorida taxallus qilib keladi” [2, 49].

Piri komil o'z muridining himmati va g'ayratini Sharq xalqlarining afsonaviy qahramoni Farhod shijoatiga tashbih qilgan.

“Muzakkiri ahbob”da Sulton Sa'id ijodidan bir g'azal namuna sifatida keltirilgan:

Az ko'yi tu har subh nasime ba man oyad,

Shodam, ki az o'nakhati on pirahan oyad.

Bo xoki sari kui tu nisbat natavon kard,

Har nofayi mushke ki zi dashti Xutan oyad

Mumtoz adabiyotda yoqimli va nafis shamol- “nasim” ifoda va tasviridan foydalanish keng o'rin tutadi. Ezgulikka mushtaq inson qalbi tongda yorishib, borliq uning ko'zi oldida romantik ranglarda jilolanadi. Hayot nafasati butun go'zalligi bilan namoyon bo'ladi. Shunday zavqli damlarda mumtoz she'riyatda tong yeli oshiq bilan ma'shuqa o'rtasida vosita vazifasini bajaradi. Oshiq ma'shuqaga o'z rozi dilini tong yeli orqali yo'llaydi. Toza, beg'ubor tuyg'ularini tong yeli vositasida ma'shuqaga tuhfa etadi. Sa'id Sulton satrlarida o'ziga xos, o'zgacha manzara kuzatiladi. Unda ma'shuqa ko'chasidan esgan subh nasimi oshiq dargohiga yetib kelib oshiqqa farah bag'ishlaydi. Oshiq ko'nglini shodlikka to'ldiradi. Ko'hkan shoir talqinicha, suyuqlining ko'chasidan esib, har tong oshiq dimog'iga uriladigan yoqimli shamol odatdagi subh nasimi emas, u yor yurganida egnidagi ko'ylakning nafis chayqalishidan hosil bo'lgan yeldir. Sa'id Sulton mumtoz adabiyotdagi an'anaviy timsol- “subh nasimi” dan foydalanishda mohirlik ko'rsatgan. Tabiiy hodisaning tong nasimi va oshqlik mohiyatiga uyg'un qirralariga mos tashbihni hayotdan izlagan. Va shunday nozik majoziy tashbihni topib uni she'rga olib kirgan.

Xo'tan-xushbo'y mushklari va nafis ipak matolari bilan savdo ahlining e'tiborini o'ziga tortib kelgan maskan. Sharq mumtoz she'riyatida ishq va oshqlik talqinida Xo'tan mushki ko'pgina shoirlar ijodida mushabbihun bih vazifasini bajarib keladi. Tahlil qilinayotgan g'azalning navbatdagi baytida shoir yor

ko'chasining tuprog'ini qiyoslash uchun mushabbih izlaydi. Uni Xo'tan dashtidan keltirilgan mushk bilan qiyoslaydi. Ammo Xo'tandan keltirilgan har qanday toza va eng xushbo'y mushk ham yor ko'chasining tuprog'iga teng kela olmaydi, degan xulosaga keladi. Sirdan qaraganda mumtoz shoirlarimizning bunday talqinlari ancha mubolag'ali, hayot mezonlariga unchalik rost kelmaganday taassurot qoldiradi. Ammo badiiy adabiyotning xos xususiyatlari, oshiq nigohi va ishq konsepsiyasi mezonlariga to'la muvofiq keladi. Ko'hkan shoirning buyuk salafi Yusuf shoirning quyidagi satrlari yana masalaga oydinlik kiritadi:

Seviklining yuzi ko'ngil to'qligi.

Ko'ngil kimni sevsa, ko'rar ko'zda ul,

Ko'ngul qayga boqsa, uchar yuzda ul [7;94].

Sirdan qaraganda bahsimiz asosida turgan g'azal an'anaviy oshiqona g'azallar kabi ma'shuqaga atalganday ko'rinadi. Hasanxoja Nisoriy shoir va olim sifatida buni chuqur idrok qilgan. G'azal matnini tazkiraga ko'chirishni to'xtatib qo'yib, uning yaratilish tarixi haqida ixcham izoh bergan. Bu shunchaki izoh bo'lmay, ijodiy jarayonni bevosita o'z ko'zi bilan kuzatgan olimning fikri ekanligi bilan muhim ilmiy qimmat kasb etadi.

"O'sha kezlari hazrat shayx sultonga "Bizning oldimizga ko'p kelib ketasiz, saltanat ishlariga xalali yetmasin tag'in", degan ekanlar. O'sha g'azal maqta'sida sulton shayxning mazkur e'tiroziga ham o'z munosabatini bildirib o'tgan. Maqta':

Shirindahano, xotiri xud raja mafarmo,

Har lahza ba ko'i tu agar Ko'hkan oyad". [2, 49]

G'azal ma'shuqaga emas, muallifning piri Shayx Husayn Xorazmiyga bag'ishlab yozilganligi aniq bo'ladi. G'azal maqta'si "Shirindahano" ("Shirin kalom") so'zi bilan boshlangan va so'zlovchining nutqi o'z piriga qaratilgan. Pir muridni ohanraboday o'ziga tortmasa va murid ham butun ruhi shuuri, husni tavajjuh bilan piriga intilmasa maqsad hosil bo'lmaydi. Irshod murshidi komilga yakdil, yakro'y, yakjihatlik bilan yuzlanish, cheksiz sidqi ixlos g'oyatsiz shavq, hadsiz sadoqat va muhabbat hosilasidir.

Sa'id Sulton saltanat ishlari bilan qanchalik band bo'lmagan ham pir xizmatiga intilgan. Bundan murshidi komil Shayx Husayn Xorazmiy qattiq xijolat tortgan. Mulk va mamlakat ishlariga xalaqit beryapman, deb o'ylagan. G'azal maqta'si piri komil qalbidan o'sha xijolatni olib tashlashga yo'naltirilgan.

Sa'id Sulton, Shayx Husayn Xorazmiy va Hasanxoja Nisoriy zamonasining bastakorlari shoh-shoirning bu g'azaliga kuy bastalab, hofizlar uni tarannum qilganlar. Shoh-shoir g'azali odamlarning ko'ngil mulkiga ezgu xayollar, go'zal tuyg'ularni olib kirgan: "Zamon musanniflari kuy basatalab, bu abyotni tarannum qiladilar va muloyim nag'malar bilan dilni o'g'iraydilar" [2, 50].

"Muzakkiri ahbob" yozib tugallagan vaqtda (1566-yil, avgust-noyabr) Said Sulton hayot bo'lgan va tazkira muallifining ta'kidlashicha, olimu fozillarga yangi-yangi marhamatlar ko'rsatib, cheksiz ehsonlari bilan ularni sarafroz etib turgan. Hasanxoja Nisoriy shohning shunday inoyatlari yanada ko'payishini Allohdan so'rash bilan "Sa'id Sulton bin Abusaidxon" ga bag'ishlangan maqolaga nuqta qo'yadi.

Javonmardali Sulton. "Muzakkiri ahbob" shoirlarga bag'ishlangan tazkira bo'lganligi uchun Hasanxoja Nisoriy shayboniylar sulolasiga mansub ta'bi nazm bor, she'riyatning muayyan janrdagi ijod namunalari bilan ma'rifat ahlining e'tiborini tortgan shayboniyyodalar haqida mulohaza yuritadi.

"Muzakkiri ahbob" maqola birinchi ruknining birinchi va ikkinchi fasllari shayboniy ijodkorlarga bag'ishlangan. 1530-1533-yillarda Samarqand taxtini boshqargan Ko'chkinchixonning o'g'li Abusaidxonning nomi tazkira sarlavhalarida va ba'zi o'rinlarda ijodkor o'g'illari munosabati bilan tilga olinadi. Chunki Abusaidxon badiiy ijod bilan shug'ullanmagan. "Muzakkiri ahbob" da Abusaid bin Ko'chkinchixonning badiiy ijod bilan shug'ullangan ikkita farzandiga alohida sarlavha bilan maqola bag'ishlangan. "Muzakkiri ahbob" dan o'rin ajratilmagan bo'lsa-da, Abusaidxonning Bahodir Sulton ismli uchinchi farzandi ham she'riyat bilan shug'ullangan. Ammo u toju taxt uchun bo'lgan janglarda barvaqt halok bo'lgan.

Abusaidxonning ikkinchi o'g'li, Sa'id Sultonning inisi Javonmardali sulton ham ta'bi nazmi bor shayboniylardan bo'lgan. "Muzakkiri ahbob" muallifi o'z tazkirasining birinchi rukni ikkinchi faslida "Mu'iniddin Javonmardali Sulton bin Abusaidxonning muqaddas yodi" sarlavhasi ostida unga maqola bag'ishlaydi. Javonmardalixonning Abulxayrxon va Muzaffar nomli o'g'illari ham she'r yozgan [2,303]. "Muzakkiri ahbob" muallifi Javonmardalixonni ismi jismiga mos, vujudga futuvvat nuri bilan ravshan, shijoatli hukmdor sifatida talqin qiladi. "Futuvvatnomayi sultoniy yoxud javonmardlik tariqati" kitobining muallifi Husayn Voiz Koshifiy futuvvat ahlining o'n xislatidan to'rtinchisi "ulug'larga hurmat" ekanligini qayd qilgan [5;12]. Mu'iniddin Javonmardali Sulton olimu fozillarga, avliyoullohg'a ko'p ixlosli bo'lib, ularning izzat-ikromini o'rni qo'ygan.

“Muzakkiri ahbob” dan o‘qiymiz: “Oliy maqom otalarining hazrat shayx Xudoydodga muhabbat va do‘stlik ehtiromi bo‘lgani sababli uning ham yaxshi andishali Shayx Darvesh shayx tomon niyozu ehtiyoj yo‘li bor” [2;50]. Javonmardali Sultonning otasi, Samarqand hukmdori Abusaidxon muhabbat va do‘stlik ehtiromi bilan bog‘langan shayx Xudoydod Valiy Shayx Jamoliddin Azizonning muridlaridan bo‘lib, shayboniylar davrida juda katta nufuzga ega bo‘lgan. XVI asrning ikkinchi yarmi va XVII asrning boshlarida yashagan mutafakkir va tariqat arbobi Olim Shayx ibn Mo‘min Shayx ibn Darvesh Shayx Azizon o‘zining “Lamahot min nafahot ul-quds” kitobini Shayx Xudoydodning maqomoti sifatida yozgan [4;41-43]. Javonmardalixon otasi Abusaidxon izidan borib, o‘z zamonasining mashoyixlaridan Darvesh Shayx tomon “niyozu ehtiyoj yo‘lini ochib, lutf eshiklarini alarning do‘stlari uchun ochgan” [2;50]. Hasanxoja Nisoriyning ilmiy uslubida ko‘p ishlatiladigan istiora san‘ati Javonmardalixonning tariqat arboblari bo‘lgan ixlosu e‘tiqodini yorqin ifodalashda xizmat qilgan. “Muzakkiri ahbob” da Mu‘iniddin Javonmardali Sultonning rangin muammolar yozganligi haqida qimmatli ma‘lumotlar mavjud. Fors- tojik adabiyotida XI asrda paydo bo‘lgan muammo janri o‘zbek adabiyotida XV asrda shakllangan. Mutaxassislar fikricha, o‘zbek tilida yozilgan dastlabki muammolar Alisher Navoiy qalamiga mansubdir. Muammo shoirlar badiiy mahoratini baholashda mezon vazifasini o‘tagan. Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” tazkirasida Mavlono Abdulvahhob, Mavlono Ulon Shoshiy, Mavlono Siymiy, Mavlono Hoji Abulhasan, Xoja Fazlulloh Abullaysiy, Mavlono Muhammad Muammoiy kabi ellikdan ortiq ijodkorning muammolaridan namuna keltirgan. Turkiyda yaratilgan birinchi nazariy qo‘llanma muallifi Shayx Ahmad Xudoydod Taroziy 5 qismdan iborat “Funun ul-balog‘a” (1436-1437) asarining yaxlit bir qismini muammo va uning qoidalariga bag‘ishlagan. Alisher Navoiy muammo nazariyasiga oid “Mufradot” asarini yaratgan. Muammo yozish va uni yechish uchun mumtoz she‘rshunoslikdagi ilmi bade‘ qoidalari (talmeh, kinoyat, tashif, aks, qalb, istiora tashbih va h.k), arab alifbosidagi harflarning xususiyatlari, ularning raqamdagi qiymati, abjad hisobi, yil va oy hisoblari, ilmi nujumga oid so‘z va atamalar, samoviy holat-hodisalar, arab, fors-tojik , turkiy so‘z va jumalarning grammatik qoidalari, so‘zlarning ma‘no oqimlari, botiniy va zohiriy ma‘nolari, umuman, hayot, jamiyat, hayvonot va nabotot olamining siru asroridan xabardor bo‘lish talab etiladi. Bularning hammasi muammo adabiy janrlar ichida eng murakkab janr ekanligini ko‘rsatadi. Ixcham hajmga muhim bir axloqiy-ta‘limiy, ijtimoiy-falsafiy g‘oyani singdirish, misralar mag‘ziga muhim bir ismni yashirish, shular bilan birga vazn, qofiya, badiiylar mezonlariga amal qilish uchun shoirda katta iste‘dod bo‘lishi zarur. Mazkur mulohazamiz ushbu janr nazariyasi va amaliyotining nozik did bilimdoni Alisher Navoiyning quyidagi fikrlari bilan asoslanadi: “Jami‘ki muammo ayturlar, **base zahmat bila** bir baytdin yo bir ruboiydin bir ism hosil qilurlar” [6;108].

“Latif ta‘bi fozillar suhbatiga moyil” (Nisoriy) Javonmardalixon muammo va unga yaqin turgan murakkab janrlaridan biri ta‘rix janrida yaxshi she‘rlar yaratib, ilm ahlining e‘tiborini o‘ziga tortgan.

“Muzakkiri ahbob” dan o‘qiymiz: “Muammo fanida bilimi yetuk bir alpozda bo‘lib, mushkul tarkibotlar tahlilini osonlikcha chiqara oladilar. Ta‘rix aytishda shoirlardan so‘zamollik to‘pini notiqlik chovgoni bilan olib qochadilar” [2;50]. “Muzakkiri ahbob” da Javonmardalixon ijodidan bir ta‘rix va bir muammo ham namuna sifatida keltirilgan.

ADABIYOTLAR:

1. *Qur‘oni karim. Tarjima va tafsir muallifi Shayx Abdulaziz Mansur. Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot matbaa birlashmasi, 2009. – 624 b.*
2. *Хасанхожа Нисорий. Музакири аҳбоб. Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. Тошкент, 1993.*
3. *Жомий А. Баҳористон. – Тошкент: Ўзғувчи, 1997. – 112 б.*
4. *Қаттаев К. Тасаввуф алломалари. – Тошкент: Фафур Фулом, 2017. – 320 б.*
5. *Қошифий, Ҳусайн Воиз. Футувватномаи султоний ёҳуд жавонмардлик тариқати. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994. – 112 б.*
6. *Навоий А. Асарлар. 15 томлик, 15-том. – Тошкент: Ф.Фулом номидаги Бадий адабиёт нашриёти, 1968. – 248 б.*
7. *Юсуф хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Тошкент: Фан, 1971. – 964 б.*

THE CONCEPT OF THE MOTIF OF LONELINESS IN 20TH CENTURY AMERICAN LITERATURE

Ganieva Orzigul Khayriddinovna,

Associate professor of the
English Literary Criticism department, BSU

ganieva_orzigul@mail.ru

Rajabova Zebiniso Tolibovna,

Master Student of Bukhara State University

zebirajabova29@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada motiv tushunchasi va adabiy asarlarda yolg'izlik mavzusidan motiv sifatida foydalanish muhokama qilinadi. Shuningdek, XX asr Amerika realistik adabiyotida yolg'izlik mavzusida ajoyib asarlar yaratgan namoyondalarning asarlari haqida ham qisqacha to'xtalib o'tiladi. Qolaversa, yolg'izlik motivini qo'llash sabablari, bu haqda yozuvchining ichki kechinmalari adabiy asar qahramonlarining kechinmalari misolida tasvirlangan.

Kalit so'zlar: motiv, yolg'izlik, "Amerika orzusi", "Yo'qolgan avlod", ekzistensial, izolyatsiya, sanoatlashtirish.

Аннотация: В данной статье рассматриваются понятие мотива и использование темы одиночества как мотива в литературных произведениях. Автор также обращается к некоторым представителям, создавшим замечательные произведения на тему одиночества в американской реалистической литературе XX века. Более того, описываются причины использования мотива одиночества, внутренние переживания писателя по этому поводу на примере чувств и ситуаций героев их литературных произведений.

Ключевые слова: мотив, одиночество, «Американская мечта», «Потерянное поколение», экзистенциал, изоляция, индустриализация.

Abstract: This article discusses the concept of motif and using the theme of loneliness as a motif in the literary works. It also addresses some representatives who create wonderful pieces with the theme of loneliness in the American realistic literature of the 20th century. Moreover, the reasons for using the motif of loneliness, the writer's inner experiences about it are described on the example of the feelings and situations of the heroes of their literary works.

Keywords: motif, loneliness, "American Dream", "Lost generation", existential, isolation, industrialization.

Introduction. A motif can emphasize a character's personality in order to better understand them, or it might set the tone for the narrative. Motifs frequently serve to reaffirm the story's themes. A motif's primary function is to highlight a theme. Readers who are paying close attention to the story's motifs can reach a theme or underlying message. Motifs can appeal to readers' senses in this way. The presence of motifs at key moments in the story is necessary for readers to connect the signal of a motif with an underlying theme or message. Loneliness is a tricky idea that is challenging to define. Although there is no universally accepted definition of loneliness, most academics base their classifications on elements like: lack of social connections can result in the subjective, unpleasant, and upsetting feeling of loneliness. Stories about people who are unable to form relationships with others frequently use loneliness as a motif. They always have a depressed and poor self-esteem attitude.

Research methodology. Researchers identify loneliness using a variety of methods. Direct self-rating questions and indirect scales stand out among them. The single question with a rated response scale is the most typical. Researchers claim that this scale has significant drawbacks. These restrictions led to study and the development of a multiple rating system that is now widely used. This measurement scale is said to be clear, trustworthy, and simple to use. The best examples to learn and analyze loneliness motif are E. Hemingway's "A Farewell to Arms", "Whom the Bell Tolls", John Steinbeck's "Of Mice and Men", "Cannery Row" and "Tortilla Flat". The depiction of loneliness as a literary issue has gained popularity in these great representatives.

Results and discussion. American dream which was distinctive to their literature, was drastically altered by the political, social, and economic circumstances in America in the 20th century. Due to the national events, people started to lose hope in a bright future. Literature changed at the same time as the environment did. This occurred with the rise of modernism, and writers attempted to portray the setting that would probably occur in the future in their works. A new stream of writers came to the conclusion that human characteristics had a more complex structure than they previously thought, and are focusing on developing a new aspect of writing for a deeper reformation of the human psyche. One such aspect was to propose a study of the relationship between consciousness and the unconscious and in turn its influence on the inner world of man. Consequently, changes in the style of modern literature affected its readers as well. The students' task was to read the author's work and understand for what purpose he chose a certain structure of the development of events. Writers focused on describing their lonely state in order to clearly reveal the human psyche

American literature frequently used the concept of loneliness in society at large. Despite the fact that other authors dealt with this subject as well, American authors emphasized the idea of loneliness so frequently and forcefully in their writing that it became a recurrent theme in American literature. Of course, even while the picture of a lonely individual was depicted in many classic European works, such as Cervantes' **"Don Quixote"** and Flaubert's **"Madame Bovary"**, this issue was explored in more depth in American literature. Loneliness as a motif was often associated with modernism. Capitalism and industrial revolution could not help but destroy the quality of human interaction and negative relationships, given that the 20th century witnessed major changes in how people live.

The writer's fascination with solitude and its impact on his literary life became more obvious in the 20th century. The writers were inspired by the events of the time to depict loneliness, which was at the time thought to be the worst emotion a person could experience. After the First World War, a group of authors known as **"The Lost Generation"** emerged, including Ernest Hemingway and Sherwood Anderson. The majority of their works highlighted the protagonists' alienation from society and disillusionment with their surroundings. For instance, Lieutenant **Henry** and **Catherine** in Ernest Hemingway's **"A Farewell to Arms"** were shown as insecure, reclusive people. Catherine and Henry valued solitude since they both felt lonely in huge crowds. When they were by their own, they were happier and less lonely than other people. In the months leading up to the baby's birth, Katherine and Henry attempted to spend as much time together as they could because they valued their alone time so highly. They worried that the baby would ruin their time apart. Henry and Catherine felt that no one could understand to them or the challenging circumstances they were going through.

The rise of capitalism, according to the New Yorker, contributed to the spread of loneliness during the 20th century. Numerous writers had been influenced by the existential loneliness research done by philosophers Albert Camus and Jean-Paul Sartre. In the 1930s, books by J.D. Passos, E. Hemingway, and John Steinbeck, including **"Whom the Bell Tolls"** and **"The Grapes of Wrath"**, featured individuals and groups cut apart from civilization. In the **"The Scarlet Letter"**, Hester Prynne demonstrated loneliness as well. He felt alone and wanted to live peacefully when society criticized his behavior. This was caused by the severe judgments of societies. He thought that there was a significant gap between society's moral standards and his religious beliefs.

Numerous characters who all expressed the same feelings of loneliness in American literature illustrated the individual and his place in society. The main character in **"Huckleberry Finn"**, Huckleberry Finn, chose to feel lonely for himself. Huckleberry sought to distance himself from society's values and beliefs during his rebellion against his father in an effort to discover his true self. In **"The Great Gatsby"**, one of the exceptional works of American literature by Scott Fitzgerald, Jay Gatsby experienced social exclusion and isolation. We discovered that isolation was not a positive state but rather a state of imprisonment imposed by society in many works of American literature. In John Steinbeck's novel **"Of Mice and Men"**, "Lenny felt isolated from society because he was afraid of his own differences"[5]. The thoughts and perspectives of each character in society were the basis for the theme of loneliness, which was repeated in several images explained by American literature.

In the past 50 years, writers of Southern Gothic literature, like William Faulkner, Eudora Welty, Flannery O'Connor, Truman Capote, and C. McCullers, had increasingly explored the theme of solitude as a creative challenge. In their writings, isolation was not the same as mere alienation or being physically alone from civilization. They also looked at the situation of persons who were alienated from society for moral reasons as well as the effects of cutting the ties that bound civilization together. C. McCullers had conducted a thorough investigation into the fundamental state of spiritual loneliness. His obsession with

solitude emerged as one of the key elements of his art. In a sense, Mack Cullers compared his characters to John Singer, "the Jew, of the oppressed race," in his first novel, who was physically frail, lonely, and subject to persecution. From his own philosophy and personal experience, Mack Culler had chosen to focus on the subject of spiritual loneliness. He added that his desire to convey to the reader what he saw to be the universal meanings of his experience motivated his attempts in fiction.

In the 20th century, tremendous industrialization and urban growth led to remarkable social advancement but also to despair among the American people. Because of the society they lived in, Americans experienced a greater sense of separation from their loved ones and the people around them. Hemingway illustrated the characters' emotional distance and isolation from one another in the short story "**Cat in the Rain**," which centered on an American woman's estrangement from the other characters. Each thing he encountered on his daily excursion outside of his room and back inside only served to worsen his loneliness. The first part was the room where the woman and her husband resided, and the second was a second-floor room that was now vacant because of the rain. There were two other indications of isolation in this scene: the window from which the woman was viewing the outside world and the table under which the cat was hiding. Additionally, his efforts to find a cat in an effort to end his loneliness did not have the desired impact because it did not give him a new sense of freedom.

The idea of loneliness appeared frequently in American literature throughout its history. A young man named Harold Krebs, for instance, was described in the short story "**Soldier's Home**" as having served in the First World War and coming home a different person; everything else had remained the same. Even his parents could not make him seem to comprehend.

The idea of loneliness was included throughout Hemingway's most well-known book, "**The Old Man and the Sea**" in 1952. In the book, Santiago made the decision to sail farther than usual and entered the Gulf Stream after 84 days of futile efforts. There, a large sea fish bit down on the bait that Santiago dropped into the water, but Santiago was unable to get the fish out due to its size. Instead, the fish spent two days and two nights circling the boat. Despite being worn out and hurt, Santiago managed to catch the fish by himself on the third day. Sharks attacked the boat as it traveled toward the town, devouring the fish, leaving only the head and skeleton. The following morning, Santiago arrived at the beach and leaves, much to the astonishment of the fishermen and visitors, the dead fish behind. Santiago was portrayed in the book as living alone, fishing by himself, and being completely unbothered by the town's residents. (even the young apprentice Manolin, who was forbidden by his parents to sail with him). Particularly when he was fighting the large fish and later the sharks three days ago, Santiago was all by himself in the open sea and had no alternative but to rely on himself. However, there was another component of loneliness that felt more intriguing, despite how obvious this one was. Santiago was a retired fisherman from Spain who resided in Cuba. The fisherman was an outsider in Cuban culture due to his nationality, as J. Herlihy noted, and this was evident in his behavior. Hemingway stated that Cuba was still "a difficult place for Spaniards to live" around the time he wrote this article. Santiago felt like an outsider living in a small Cuban seaside community. He wouldn't benefit by trying to fit into Cuba's cultural or social life, either. While the villagers were aware of his skills after he returned from a hunt with a big sea fish's bones, Santiago continued to be "an exile, isolated, and without a social community."

The sensation of loneliness and alienation brought on by widespread urbanization was evident in the 20th century, particularly after World War II, and was particularly visible in the works of artists associated with the "**Beat Generation**" movement that emerged in the United States in the 1950s. Members of the "Beat Generation" at that time were fierce critics. Despite the fact that they mostly developed their works in urban settings, they did not depict city life. Jack Kerouac's account of his travels throughout the United States and the world in "**Lonesome Traveler**" included the "Beat Generation" and the artistic endeavors and loneliness of its members. Kerouac claims in the book's introduction that he was inspired by great authors like Ernest Hemingway and Jack London and that he also made the decision to follow in their footsteps by becoming an "**adventurer and a solitary traveler**."

"**Big Sur**" was a book by Jack Kerouac that also addressed the subject of loneliness. This novel, like "On the Road", related the story of Kerouac and his buddies despite the characters' names being changed. After experiencing recurrent achievements in New York City, the play's protagonist, a well-known author, made three trips from New York to California for a lyrical retreat. Every time he visited, the loneliness and alcoholism there astounded him. The protagonist of this story juggled his need for company with his fear of company, his yearning for cozy alone with his need to live with others. "Big Sur" is heavily influenced by nature, especially amid the life of a huge metropolis, and the therapeutic effect of loneliness it might

provide. Going back to the opening of "Lonesome Traveler", Kerouac was by himself in the wilderness. We could sense that he achieved his dream by spending time, being creative, and going to heaven.

One of the main themes in Richard Wright's writing was loneliness. This Afro-American author was well-known for his memoir "Black Boy" and "Native Son". His published collections were "a record of his momentary joys, his exhilarating pains, his sad jokes, his exiled life, and his solitude"[12]. Additionally, he penned his haiku² when he was ill and alone. He employed this poetry in the Japanese manner as "disease fighters." His daughter Julia describes how her father's ability to write haiku helped him cope with numerous losses and the passing of longtime friends in the preface to the preface to "**The Introduction to the Haiku: The Other World**".

Conclusion. These mentioned writers are only a few of the American literary figures who have dealt with the themes of loneliness and solitude in their works. Many other important authors have addressed these topics by their literary works. They have studied the concept of the motif of loneliness that is one of the most relevant issues in American literature and analyzed its social and psychological foundations and factors. As a result, the importance of the motif of loneliness was described by representatives of American literature in a unique way and became important in the history of world literature.

REFERENCES:

1. Abdul Saleem. *Theme of alienation in modern literature*. Al Jouf University, Saudi Arabia *European Journal of English Language and Literature Studies* Vol.2, No.3, 2014. p.67-76.
2. Carson McCullers. *The Heart Is a Lonely Hunter*. Boston: Houghton Mifflin Company, 1943. p.114.
3. Felty D. "Spatial Confinement in Hemingway's 'Cat in the Rain'". *Studies in Short Fiction*. 1997. p.363-369.
4. Herlihy J. "'Eyes the Same Color as the Sea': Santiago's Expatriation from Spain and Ethnic Otherness in Hemingway's *The Old Man and the Sea*". *The Hemingway Review*. 2009. p. 25-44.
5. Meyer M.J. *The Essential Criticism of John Steinbeck's Of Mice and Men*. Plymouth: Scarecrow press, Inc. 2009. p. 290-306.
6. Millstein G. *Books of the Times*. *The New York Times*. 1957. p.32-34.
7. Nettler G.A. *A Measure of Alienation*. *American Sociological Review*. 1957.
8. Peplau L.A.; Perlman D. *Perspectives on Loneliness*. Peplau L.A. Perlman D. *Loneliness: A sourcebook of current theory, research and therapy*. New York: John Wiley and Sons. 1982. p. 1-18.
9. Robert S. Phillips. *The Gothic Architecture of The Member of the Wedding*. *Renascence*, XVI. 1964. p. 61.
10. Robert S. Weiss. *Loneliness: The Experience of Emotional and Social Isolation*. The MIT Press. 1973. p.34.
11. Stella Mills (6 September 2017). *Loneliness: Do Interventions Help?* (<http://www.brightlifecheshire.org.uk/wpcontent/uploads/14704994.2017.pdf>) (PDF). University of Chester. Retrieved 16 May 2020.
12. Zheng. "Richard Wright's Haiku". *Southern Quarterly*, 2009. pp. 61-70.
13. <https://custom-writing.org/blog/theme-of-loneliness>

INGLIZ ADABIYOTIDA KRIMINAL MAVZUDAGI PROZAIK ASARLAR TARAQQIYOTI

Sultonova Dilnoza Sohibjonovna,
Namangan davlat universiteti,
Jahon tillari fakulteti katta o‘qituvchisi
dilnozasultonova654@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz adabiyotida kriminal mavzudagi asarlarning rivojlanishi bir qator tarixiy manbalar hamda ingliz olimlaridan John Scaggs, B.Philips, J.Webb kabilarning tadqiqotlarida ilgari surilgan dalillar va qarashlar asosida tadqiq qilindi. Ingliz kriminalist adiblaridan A.Kristining ijod borasida qarashlari tahlil qilindi. Shular asosida ingliz adabiyotida kriminal adabiyotning toki folklor va diniy adabiyotlardan bugunga qadar bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘lini ko‘rsatishga harakat qilindi.

Kalit so‘zlar: kriminal asar, janr taraqqiyoti, makabre, The Newgate Calendar, kriminal proza, ingliz adabiyoti.

Аннотация: В данной статье развитие произведений на криминальную тематику в англоязычной литературе изучено на основе ряда исторических источников и аргументов и взглядов, выдвинутых в исследованиях таких английских учёных, как Джон Скаггс, Б.Филипс, Дж.Уэбб. Проанализированы взгляды одного из английских криминальных писателей А. Кристи. На их основе сделана попытка показать путь развития криминальной литературы от фольклорной и религиозной литературы до наших дней в англоязычной литературе.

Ключевые слова: «криминал», жанровое развитие, макабре, Ньюгейтский календарь, криминальная литература, английская литература.

Abstract: In this article, the development of works on the criminal theme in English literature was studied based on a number of historical sources and the arguments and views put forward in the researches of English scholars such as John Scaggs, B.Philips, J.Webb. The views of A. Christie, one of the English crime writers, were analyzed. On the basis of these, an attempt was made to show the development path of criminal literature from folklore and religious literature to the present day in English literature.

Keywords: "crime fiction", genre development, macabre, The Newgate Calendar, crime fiction, English literature.

Kirish. Jinoyat va jinoyatchining jazolanishiga oid asarlar tarixi juda qadimiydir. Insoniyat yaralgandan buyon kishilar o‘rtasidagi munosabatlarda, jamiyatda adolat, tinchlik va osoyishtalikni saqlash uchun muayyan qonunlar, qoidalar yaratilgan. Ularni buzgan kishilar aniqlanib jazoga tortilgan va shu orqali jamiyatda tartib saqlangan. Har qanday davrdagi adabiy asarlarda jinoyat elementlari va jinoyatchini topib jazolashga oid lavhalarni uchratish mumkin. Xalq og‘zaki ijodida ham, turli diniy kitoblardagi afsona va rivojotlar orasida ham ana shunday mavzudagi asarlar talaygina.

Ushbu maqolada ingliz adabiyotida kriminal mavzudagi asarlarning rivojlanishi bir qator tarixiy manbalar hamda ingliz olimlaridan John Scaggs, B.Philips, J.Webb kabilarning tadqiqotlarida ilgari surilgan dalillar va qarashlar asosida tadqiq qilindi. Jinoyat mavzusidagi asarlarning badiiy-uslubiy xususiyatlari, ko‘tarilgan mavzu, problematika va janriga oid taraqqiyotni tekshirishda aynan shu janr yo‘nalishidagi asarlar mazmuni tadqiq etildi, ingliz kriminalist adiblaridan A.Kristining ijod borasida qarashlari tahlil qilindi. Shular asosida ingliz adabiyotida kriminal adabiyotning toki folklor va diniy adabiyotlardan bugunga qadar bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘lini ko‘rsatishga harakat qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ma‘lumki, adabiyot tarixi sohasi xususiy xarakterdagi adabiy- tarixiy, biroq muhim ijodiy hodisalarni tadqiq qiladi. U adabiy jarayonlarni o‘rganadi va muayyan adabiy hodisalarning yuzaga kelishi, rivojlanishi yozuvchilar faoliyatining shu davrdagi ahamiyatini belgilaydi. Adabiyotshunoslardan E.Xudoyberdiyev yozadi: "Adabiyot tarixchisining diqqat markazida aniq badiiy asarlar, ayrim yozuvchilar ijodi, ularning milliy va jahon adabiyoti tarixida tutgan o‘rni, ijodiy metod va uslublari, janr va adabiy turlarning shakllanishi, xususiyatlari hamda taqdiri singari masalalar turadi" [7; b.7]. Shu asosda ushbu tadqiqotni olib borishda tarixiylik qoidalariga asoslanildi, o‘rganilayotgan adabiy hodisaga muayyan ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, tarixiy vaziyat nuqtai nazaridan yondashildi.

Ushbu maqolani yozishda kontent-tahlil, tarixiy qiyoslash, nazariy tadqiqotning asosiy metodlari – analiz, sintez, induksiya, deduksiya keng foydalanilgan. Asar va unda ko‘tarilgan muammolar bo‘yicha yozilgan tadqiqotlar o‘rganildi.

Natijalar va muhokama. Ingliz olimi John Scaggs o‘zining “Crime fiction” (“Kriminal badiiy asar”) asarining “Chronology of crime” deb nomlangan 1-bobida “Early crime narratives” (“Ilk jinoyat rivoyatlari”) bo‘limida ana shunday dastlabki mif va rivoyatlardagi jinoyat va uning taftishiga oid badiiy asarlar haqida mulohaza yuritgan [1]. Jumladan, muallif fikriga ko‘ra, bugungi kriminal asarlarning ildizlari qadimiy yodnomalar va folklorga borib taqaladi.

„Gerkules va o‘g‘ri Kakus“ mifologik hikoyasida Kakus o‘z ta‘qibchisini yo‘ldan ozdirish uchun oyoq izlarini yo‘qotish orqali dalillarni soxtalashtirishga uringan ilk jinoyatchilardan biridir [1; p.3].

Gerodot tomonidan naql qilingan „Qirol Rampsinit va qadimgi yunon adabiyotidagi usta o‘g‘ri haqidagi hikoya“ ko‘pincha kriminal mavzudagi asarlar turkumidagi "qulflangan xona siri" (“locked-room mystery”) janrining ilk namunasi sifatida tilga olinadi. Gerodot keltirgan hikoyada ham, Gerkules va Kakusda bo‘lgani kabi, o‘g‘ri qo‘lga tushmaslik uchun jinoyatga oid dalillarini soxtalashtiradi [1; p.3].

Muqaddas „Injil“ kitobi (Doniyor kitobi, 13-bob) da uchraydigan "Suzanna va oqsoqollar" hikoyasida, ikki nohalol kimsa Suzanna ismli ayolni zinakorlikda ayblab tuhmat uyushtirishadi. Biroq Doniyor bu ikki kimsani so‘roq qilishi jarayonida ularning yolg‘on guvohliklarini fosh qiladi va Suzannaning begunoh ekanligi isbotlanadi. Hikoyaning bir qator versiyalari (bayonlari)ga ko‘ra, bu ikki tuhmatchiga qilmishiga yarasha jazo tayinlanadi: ularning o‘zlari, Muso payg‘ambarning qonunlariga muvofiq, Suzannaga qo‘llashni rejalashtirgan jazolari, ya‘ni o‘limga hukm qilinadi [2; p.5].

Doniyor kitobi, 14-bobida keltirilgan "Bel va Ajdaho" hikoyasi ham "qulflangan xona siri"ning ilk namunalaridan biri sifatida baholanishi mumkin. Unda ruhoniylar: „Bel ajdahosi haykali o‘ziga qilingan nazrlarni yeb-ichadi“, deb odamlarni ishontirmoqchi bo‘lishadi. Aslida esa ruhoniylar oila a‘zolari bilan ma‘badga yashirin yo‘l orqali kirib, qurbonliklarni o‘zlari iste‘mol qilishardi. Doniyor ma‘badni qulflash va muhrlashdan oldin hech kimga sezdirmay polga kul sochadi va ruhoniylar qoldirgan izlari orqali ularning aybini fosh etadi [1; p.4].

John Scaggs asarini mutolaa qilar ekanmiz, jinoyat haqidagi yana ko‘plab hikoyalarning qisqacha bayoniga va ularning tahliliga duch kelamiz.

“Doniyor kitobi“da naql qilingan rivoyatlarda har bir jinoyat uchun qattiq jazolar qo‘llash orqali kishilarni to‘g‘ri xulq-atvoriga targ‘ib qilishga keng urg‘u berilgan. Ayni shu holat XIX asr o‘rtalarigacha bo‘lgan jinoyat haqidagi ko‘plab asarlar, jumladan, Edgar Allan Poning hikoyalari uchun ham xarakterlidir.

Albatta, folklor va diniy kitoblardagi jinoyat va jinoyatchilik fosh qilingan afsona va rivoyatlar, o‘rta asrlar mumtoz adiblar asarlaridagi jinoyat sahnalari tasvirlangan hikoyatlar badiiylik darajasi, obraz yaratish mahorati, sujet murakkabligi jihatdan zamonaviy davrdagi kriminal asarlarga to‘liq teng kelolmasligi, bugungi kitobxon nazarida ancha oddiy tugun va yechimni ko‘rsatgandek tuyulishi mumkin. Lekin ulardagi jinoyatni tasvirlashda sirlik, tarbiyaviy, ma‘rifiy xususiyat, jinoyat har qancha ustamonlik bilan yashirilmasin, albatta, bir kuni fosh bo‘lishi va jinoyatchi mos jazoni olishi kabi g‘oyalar bugungi zamonaviy va ko‘p qirrali asarlar uchun mustahkam asos va yaxshi tajriba namunasi bo‘la oladi.

Badiiy kriminalistika yozma adabiyotda yillar davomida sayqallandi. O‘ta sirli va shafqatsiz jinoyatlar, kutilmagan yechim ko‘rsatish orqali o‘ta uddaburonlik bilan yashirilgan jinoyatni yechish, detektivning kutilmagan aqliy topqirlik qobiliyati kabilar orqali bunday asarlar Yevropa adabiyotida misli ko‘rilmagan darajada muvaffaqiyatga erishdi. Bunday badiiy asarlar qanchalik ko‘p o‘quvchilar auditoriyasini topgan va “bestseller”ga aylangan bo‘lsa, ular sujeti asosida ishlangan filmlar ham shunchalik ommalashdi.

Angliyada badiiy kriminal asarlarning alohida janr sifatida shakllanishi Viktoriya davrida – XIX asr boshlarida sanoat inqilobining kuchaygan urbanizatsiya davriga to‘g‘ri keldi [3]. Shaharlar kattalashib, ishsizlik kengayib borar ekan, jinoyatchilik sezilarli darajada oshdi.

“Viktoriya davri“ Angliyada qirolicha Viktoriya I hukmronligi ostidagi madaniy davrni anglatadi. U 1832-yildan 1901-yilgacha davom etdi. Bu davrda Angliyada innovatsiyalar va texnika taraqqiyoti, ayniqsa, tovarlarni ommaviy ishlab chiqarish tufayli sanoat inqilobi avj oldi“ [4].

O‘z navbatida, birinchi politsiya instituti yaratildi. Ushbu sanoatlashtirish va ma‘rifat davrining ilm-fan va ratsionallikka bo‘lgan e‘tibori bugungi kunda biz bilgan detektiv va kriminal mavzudagi romanlarning jadal rivojlanishiga olib keldi. O‘lim, makabre¹ va inson aqliy imkoniyatlariga bo‘lgan qiziqish badiiy kriminalistikaning juda mashhur bo‘lishiga yordam berdi. Bu mashhurlik jinoyatlarni ochish uchun politsiya kuchlari va huquq-tartibot organlarining ko‘payishi bilan yanada oshdi.

XIX asrda Viktoriya davrida kriminal adabiyot jadal rivojlandi. Ushbu mavzudagi asarlar bu davrdagi hayotiy muhit, jamiyat falsafasi, madaniyati, topqir va uddaburon noshirlari tufayli gullab-yashnadi. Viktoriya davri ma'rifatchilik va romantik davrni boshidan muvaffaqiyatli o'tkazdi [4].

Ushbu davr yozuvchi Charlz Dikens tomonidan sanoat inqilobi natijasida yuzaga kelgan texnologik va ijtimoiy o'zgarishlar tasvirining yoritilgani; seriyali qotil Jek Ripper va muhandis Isambard Kingdom Brunel obrazlari orqali mashhurlik qozongan.

Bu davrda, Ch.Dikensning "Oliver Tvistning boshidan kechirganlari" asaridagi Fejin qo'lidagi bolalar tomonidan qo'llanilgani kabi, cho'ntakkesarlik va birovning uyiga o'grilikka tushishdan tortib, bezorilik, zo'ravonlik va qotillikkacha bo'lgan jinoyat turlari odatiy hol edi. Bolalarni og'ir mehnatga jalb etish, fohishaxonalar, afyun (giyohvandlik) uylari kabi ishratxonalarni topish qiyin bo'lmay qolgan, mastlik keng tarqalgandi.

Ayni shu davrda chop etilishi yo'lga qo'yilgan "The Newgate Calendar" („Nyugate taqvimi“) jinoyatga qarshi kurashishda katta ta'sirga ega bo'ldi.

"The Newgate Calendar" ("Nyugate taqvimi") 1700-yillarda oylik byulleten sifatida chop etila boshlangan bo'lib, unda qatl qilinmoqchi bo'lganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar haqida batafsil ma'lumot berilgan, qonun doirasida hukm qilingan bo'lajak qatllar aynan shu nashr orqali jamoatchilikka e'lon qilib borilgan. Xususan, Kaleb Uilyams yoki Uilyam Godvin tomonidan yozilgan asarlar (1794) - "The Newgate Calendar" ("Nyugate taqvimi") faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatgan o'sha paytda yozilgan badiiy kriminal ijod mahsullari bo'la oladi.

"The Newgate Calendar" ("Nyugate taqvimi")ning 1830-yillargacha qayta nashr etilishi bilan davom etgan jinoyatchilikning bu o'sishi sanoat inqilobi natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarga to'g'ri keldi.

Umumiy tanqidiy qarashlar shundan iboratki, yozma adabiyotda detektiv hikoya detektiv janrining "otasi" Edgar Allan Po bilan boshlanadi. Adib Poning mashhur qahramoni - C.Ogyust Dyupindir. Bu obraz ilk marta G'arb adabiyotida birinchi detektiv asari sifatida qabul qilingan "Morg ko'chasi qotilliklar" ("The Murders in the Rue Morgue") (1841) romanida paydo bo'lgan. Keyinchalik Dupin "Marie Rogetning siri" ("The Mystery of Marie Rogêt") (1842) va "Purloined Letter" (1844) hikoyalarida ham ishtirok etdi. Poning kriminal detektiv asarlarida qorong'u muhit, erta dafn etish, o'lim va makabre kabi ba'zi gotik elementlar quyuq ranglarda bo'y ko'rsatadi.

Ta'kidlash kerakki, Poning xayoliy detekivi, C. August Dupin ismli odam, keyingi yozuvchilar uchun Artur Konan Doyl tomonidan yaratilgan mashhur Sherlok Xolmsni o'z ichiga olgan detektivlarini yaratishda ham o'ziga xos asos bo'lib xizmat qilgan.

Yana bir kriminal mavzudagi proza ustasi Patrisiya Xaysmitdir. Ushbu ingliz adibi "Poyezddagi begonalar" ("Strangers on a Train") (1950) va "Iqtidorli janob Ripli" ("The Talented Mr. Ripley") (1955) kitoblarining muallifi. Mazkur ikki asarda shafqatsiz qotilliklar misolida ham jamiyatda shuhratparastlik, xudbinlik va axloqiy fazilatlarining yetishmasligi tasvirlangan.

Yevropada kriminal asarlar taraqqiyotida ingliz adibi Charlz Dikensning roli nihoyatda muhim bo'lgan. 1800-yillarda politsiya kuchlarining faoliyatini yoritib, o'z romanlarida aholining jinoyatlarni fosh qilish mavzusiga ommaviy (va shaxsiy) qiziqishni qondira olgan adib aynan Charlz Dikens edi [5].

Ingliz adabiyotida XX asrda yaratilgan jinoyat haqidagi asarlarga kelsak, qotillik jinoyati ortidan shubha va ishonchsizlik tufayli insoniy munosabatlarning tez buzilishi Jeyms Keynning ikkita eng mashhur romanida markaziy o'rinni egallaydi; "Pochtachi har doim ikki marta qo'ng'iroq chaladi" ("The Postman Always Rings Twice") (1934) va "Qo'shaloq tovon" ("Double Indemnity") (1936). Ikkala roman ham, qahramonlarning muqarrar halokatli tasviri bilan ajralib turadi.

Ushbu asarlar oltmish yil o'tib yozilgan Donna Tarttning "Maxfiy tarix" ("The Secret History") (1992) romaniga ta'sir ko'rsatadi va unda depressiyaning qashshoqlik va umidsizlikdan uzoqda bo'lgan dunyosi tasvir etiladi.

Klassik detektiv adabiyot Ikkinchi Jahon urushi oxirigacha mashhur bo'lib qoldi, urush davrida xalqaro miqyoslarga chiqqan zo'ravonliklar va fojialar ingliz adabiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Detektiv har doim yaxshilik timsoli bo'lgan va jinoyatchi har doim o'z jinoyati uchun jazolanadigan klassik asarlardan ko'ra, janr jinoyatchilarning zo'ravonlik sahnalarini ko'proq tasvirlashga yoki jinoyatchining hayot yo'lini yoritishga qaratilgan detektiv va yo'lto'sarlik (qaroqchilik) haqidagi asarlar paydo bo'lishi bilan rivojlana boshladi.

Urush, shuningdek, ayg'oqchilar hayotidan hikoya qiluvchi asarlarning ham yuzaga kelishiga olib keldi. Bunday asarlar markazida murakkab ayg'oqchilik texnologiyalardan foydalanish va ikki qiyofalilik "mahorati"ni badiiy gavdalanitirish ham tobora keng o'rinni egallay bordi.

Texnologiya va inson xulq-atvori haqidagi tushunchalar rivojlanib borgan sari, badiiy kriminalistika janri ham kengayib bordi. Kriminalistik mavzudagi asar haqidagi hikoyalar, shuningdek, sud-tibbiy dalillar, sud-tibbiy tahlil, profilash (shaxslar biografiyasi) va xulq-atvorni tekshirishni o'rganib chiqdi. Keyinchalik janr bir nechta kichik janrlarni o'z ichiga olgan holda kengaytirildi.

Jinoyat haqidagi adabiyot namunalari bugungi kunda ham ko'p o'qilmoqda. Janr kriminal mavzudagi asar muxlislarining xohish-istaklarini qondirish uchun yillar davomida izchil rivojlanib bordi.

Kriminal asarlar asosida teleseriallar va badiiy filmlar ishlanishi esa soha ixlosmandlari va o'quvchilari doirasini kengaytirdi.

XX – XXI asr kitobxonlari orasida bugun Artur Konan Doylning to'rt roman va ellik olti kichik hikoyadan tashkil topgan "Sherlok Holmes" (1887-1927) asarini o'qimagan yoki hech bo'lmaganda uning ekran variantini ko'rmagan kishini topish mushkul.

Eng yaxshi kriminalist yozuvchilar qatorida sanaladigan yana bir ijodkor britaniyalik yozuvchi Agata Kristidir. Kristi eng yaxshi asarlarida ("Puaru tergov qiladi" (1924), "Kaminlar siri" (1925), "Rojer Ekroydning qatl etilishi" (1926), "N yoki M?" (1941), "Qopqon" (1954), "Ayblov guvohi" (1954) va boshqalar) jinoyat nafaqat dalillar asosida, balki qahramonlarning, chunonchi, belgiyalik izquvar Erkyul Puaroning ichki sezgirligi orqali ochiladi.

A.Kristi asarlarining katta muvaffaqiyati sujetning qiziqarliligi, yechimning kutilmaganligi, personajlarning yorqinligi bilan izohlanadi. Uning kitoblari butun dunyoda sevib o'qiladi va 103 tilga tarjima qilingan [6]. Ular orasida 66 ta kriminal mavzudagi romanlari juda mashhur.

Bundan tashqari, ingliz zamonaviy kriminal adabiyoti haqida gapirganda, Raymond Chandler "Ko'ldagi ayol" ("The Lady in the Lake"), Ross Macdonald "Qora tunnel" ("The Dark Tunnel") kabilarni alohida tilga olish lozim.

Xulosa. Ta'kidlash o'rinliki, ingliz kriminal adabiyoti o'ziga xos tarixiy taraqqiyot yo'lini boshidan kechirdi. Dastlab turli o'g'zaki ijod va diniy kitoblardagi jinoyat mavzusi yoritilgan rivoyat va afsonalardan keyin, yakka izquvarning kitobxonni hayratda qoldiradigan aqliy va topqirlik faoliyatiga ko'proq urg'u berib yozilgan detektiv romanlar bilan boshlangan ingliz kriminal adabiyoti bugungi kunda jamiyatda uchraydigan jinoyat turlari va ularga qarshi kurashishni targ'ib qiluvchi ta'sirchan sohaga aylandi. Shuningdek, ingliz kriminal adabiyoti shu darajada taraqqiy etdiki, bugun u eng ko'p o'qiladigan hamda aksariyat asarlari badiiy filmlar uchun asos bo'layotgan asarlari bilan shuhrat qozondi.

ADABIYOTLAR:

1. Scaggs, J. *Crime Fiction*. 1st edn. Taylor and Francis. 2005. – P. 184. // Available at: <https://www.perlego.com/book/1612305/crime-fiction-pdf> (Accessed: 14 October 2022).
2. Philips Bill, *Crime Fiction: A Global Phenomenon*. IAFOR Journal of Literature & Librarianship Volume 5 – Issue 1 – Autumn 2016. P. 5-15.
3. Crime fiction genre: overview, meaning and history // <https://www.studysmarter.us/explanations/english-literature/literary-devices/crime-fiction>
4. Webb J. What is Victorian crime fiction? // <https://ruggedthuglife.com/victoria/what-is-victorian-crime-fiction> December 13, 2021.
5. <https://www.theguardian.com/books/2014/jan/27/100-best-novels-moonstone-wilkie-collins>
6. The world of Agatha Christie. // https://www.bbc.co.uk/learningenglish/english/features/6-minute-english_2022/ep-220324, 24 March, 2022.
7. Xudoyberdiyev E. *Adabiyotshunoslikka kirish. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik*. – T.: "Sharq", 2008.-368 b.

CHARACTERISTIC FEATURES OF HERO ARCHETYPE IN THE EXAMPLE OF HARRY POTTER

Umarov Umidjon Akram o'g'li,

Independent researcher (PhD) of Bukhara State University

English teacher of Alat Specialized school

u.a.umarov@buxdu.uz

Abstract: This article examines the characteristics of the hero archetype and how the hero archetype helps humanity choose between good and evil, action and inaction, powerlessness and free will. In this case, Harry Potter is embodied as a shining example of the hero archetype. Literary aspects of the hero archetype are revealed through extensive analysis and vivid examples through the discourse of the work.

Key words: Hero archetype, Harry Potter, fantasy fiction, courage, archetypal interpretation, heroism, Mark and Pearson's theories, Campbell's theories, Berndt and Steveker's theories

Аннотация: В этой статье исследуются уникальные характеристики архетипа героя и то, как архетип героя помогает человечеству выбирать между добром и злом, действием и бездействием, бессилием и свободой воли. В данном случае Гарри Поттер воплощен как яркий пример архетипа героя. Литературные аспекты архетипа героя раскрываются путем обширного анализа и ярких примеров через дискурс произведения.

Ключевые слова: архетип героя, Гарри Поттер, фэнтези, мужество, архетипическая интерпретация, героизм, теории Марка и Пирсона, теории Кэмпбелла, теории Берндта и Стивекера.

Annotatsiya: Ushbu maqola qahramon arxetipining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganiladi va qahramon arxetipi insoniyatga ezigulik va yovuzlik, faollik va harakatsizlik, kuchsizlik va iroda erkinligi orasida tanlov qilishda qanday yordam berishini ifodalaydi. Bunday holda, Garri Potter qahramon arxetipining yorqin na'munasi sifatida gavdalaniriladi. Qahramon arxetipining adabiy jihatlari asar diskursi orqali qilingan keng tahlillar va yorqin misollar vositasida ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Qahramon arxetipi, Garri Potter, fantastika, jasorat, arxetipik talqin, qahramonlik, Mark va Pirson nazariyalari, Kempbell nazariyalari, Berndt va Stivker nazariyalari

Introduction

According to Campbell, a hero is explained as a person who devotes or sacrifices his or her life to a great thing which is greater than themselves. If that's true, it's no wonder so much fantasy fiction revolves around heroes and heroines. A true hero strives to improve the world in which he lives. These ideas are also proven by Mark and Pearson. They explained that the protagonist wants to make the world a better place. His or her underlying fears lack the power to persevere and assert themselves. The general interest of their world is one of their central concerns. They never turn their backs on wrongdoing and have what it takes to put things right. They do what they are supposed to do, even if it is a difficult task. In addition, heroes will be electrocuted by the opportunity to correct mistakes. According to Mark and Pearson, heroes recognize an injustice or problem and simply accept the opportunity to do what is necessary to correct it. In either case, the hero is strengthened by trials, resentful of injustice, and responds swiftly and decisively to difficulties and opportunities. Heroes are obligated to help those in need. They are the instinctive guardians of those whom they regard as innocent, fragile, or legally unable to help themselves. As well as being an extraordinary hero, he is also humble and unpretentious. Mark and Pearson describe this phenomenon as paradoxical. They usually think of themselves as just doing their job, not as heroes.

Literature review

Berndt and Steveker argue that heroes throw in sympathy and compassion, and do not arise solely from physical strength, dominance, or superior power of any kind. Sympathy and compassion are what Harry lacked during his time at the Dursleys, and are the reason why it only begins to flourish when he makes his first true friends at Hogwarts. He says he wants to be sorted into Gryffindor and is afraid of being sorted into Slytherin. Hermione tells him that Headmaster Dumbledore is in Gryffindor and Ron tells him that his brother is also in Gryffindor, and no wonder, Harry wants to be classified in the same house as her. For this reason, during the rounds at the Sorting Ceremony, Harry grabbed the end of the stool and thought not to be in Slytherin. He was so overjoyed that he scarcely noticed the loudest cheer of any other first year.

Harry always tries to do well in school, but he never cares about being number one in his class. He is resembled as a talented young wizard, and he is not like Hermione, the clever cookie who always knows everything. But Harry is never jealous of her skill and knowledge. His morale is only boosted by being surrounded by friends and away from the Dursley family.

Т.Маликнинг қаҳрамони Қамариддин эса отаси кимлигини ҳалигача билмайди. Онасини учинчи синфга бораётганида илк бор кўрган. Қамариддин туғруқхонада кўз очиб, болалар уйида тетапоя бўлди, ақлини таниди. Ота-она меҳри, киндик қони тўкилган уй деган тушунчалар унга бегона бўлди... Қамариддин нотаниш одамлар келиб болаларни олиб кетишларини билгач, қандайдир умид билан кимнингдир келишини, бошидан силашини, маҳкам қучоқлаб ўпишини интиқ кутарди. Одамлар келишарди, аммо уни олиб кетишмас эди. Ёйлай бўлгани сабабими ё айиқполвондай хунук юришини ёқтирмайми, уни ҳеч ким чақирмас, маҳкам қучоқламас, ўпмас эди...

2. *Ўсмирларнинг қотилликка қўл уриш сабабига эътибор қаратилса,* Ҳасан жуда узоқ вақт руҳий изтироб исканжасида яшагандан сўнг, шуни тушуниб ета бошлайдики, ё онаси, ё ўзини ўлдириши керак. Ҳасаннинг отаси онасини олиб қочиб келгани учун биринчи ошиғи томонидан отиб ўлдирилган. Аммо бутун қариндошлари болани тинимсиз тавқу лаънат қилишади (“Ҳоҳишанинг киндигида пайдо бўлган, ҳоҳишанинг. Отасининг қотилининг қорнида ётган нокас ўғил...”, “Отасини ўлдирган хотин билан юзма-юз, ёнма-ён яшаб юрибди. Бу одам эмас, тўнғиз қавми, чўчка қавмидандир” каби); Қамариддиннинг нафрати уни гўдаклигида ташлаб кетган ота-онасига, сўнгра барча одамларга қаратилган бўлиб, нафсониятини топтаган одамни маст ҳолда пичоқлайди.

3. *Жиноятчи ўсмирларнинг оилавий аҳволи ҳам турлича бўлган:* Ҳасан ўз оиласида, онаси ва амакилари, бувиси “тарбиясидаги” ўсмир; Қамариддин туғилибоқ, детдомга келтириб ташланган, онаси ундан воз кечган, отасини эса мутлақо танимайди.

4. *Асарда бош қаҳрамон – жиноят содир қилган ўсмирларнинг тақдири ифодасида ҳам муаллифлар турлича ёндашган:* Ҳасан кутулиб келиб, отасининг меросига эга бўлади, оилали, фарзандли бой-бадавлат яшайди. Қамариддиннинг қисмати эса мавҳум, онасини ўлдириш режасини тузиб келаётганида, милиция ходимлари ҳалақит берадилар, уларнинг қўлидан қочиб кетади...

Академик М.Храпченко психологик таҳлилнинг динамик, типологик ва аналитик принциплари мавжудлигини қайд этиб, булар сўз санъаткорларининг ижодий маҳсули эканини таъкидлайди [7,229].

Дарҳақиқат, айрим асарларда бу принципларнинг учови ҳам “гармониялашган” (Ҳ.Умуров) бўлиши мумкин. Я.Қамол ўз қаҳрамони ички оламини типологик характерлар ички ҳаётининг ижтимоий-маиший томонлари билан боғлиқ ҳолда кўрсатиб беришга эришган. Яъни Ҳасанни жиноятга, жоғиба бошловчи сабаблардан бири ижтимоий ҳаёт, жамият ва муҳит экани ойдинлашиб боради. Шу маънода, асар қаҳрамони айнан ўсмир бола эканлиги назарда тутилса, бундаги ҳар бир деталь, ҳатто бадиий этикага ҳилоф уятли сўз ва ҳақоратларнинг очик-ошкора ишлатилишини

жиноят фош этилишидаги рухий таранглик, психологизмнинг кўриниши тарзида тушуниш мумкин. Бинобарин, “Илонни ўлдирсалар” романидаги Ҳасан аввал оиласининг, сўнг ўзи яшовчи қишлоқнинг босими натижасида онасини ўлдиради. Гўё шундай қилиш унинг мажбурий бурчи эди. Ана шу ижтимоий асабийлик муҳити, қанчалик қаршилиқ кўрсатмасин, алал-оқибат Ҳасанни жиноятга ундади.

Қахрамоннинг кечинмаларини муаллиф жуда катта маҳорат билан ёритган. Асар сўнгида ўқувчи, гарчи Ҳасан ўз онасини ваҳшийларча ўлдирган бўлса-да, ундан нафратланмаслиги, уни айбламаслиги ҳам мумкин. Чунки ҳақиқий қотил аслида Чуқурова қишлоғининг жоҳил одамларидир. Мурғак, беғубор болакай эса уларнинг бу мақсадларига етишишлари учун восита, холос. Я.Камол бир қотиллик фонида нафақат бу жиноятга бевосита дахли бўлмаган янги қурбонлар, балки бутун жамият, муҳит, болалик ҳақ-ҳуқуқлари, келажак маънавиятига болта урган жоҳиллик фожиасини очиб берган. Ҳақиқий жиноят ана ўша қишлоқ ва унинг одамларидаги маънавиятсизлик, илмсизлик экани аён бўлади.

Қамариддин ҳам ўзбек болалар кинесачилигида учрамайдиган мураккаб образ. Қолаверса, унинг психологияси айнан жиноят кўчасига кириб, суяги ҳам, кўзи ҳам, эти ҳам қотиб улгурган ўсмирлар оламини яхлит акс эттира олгани билан эътиборли. У билан боғлиқ лавҳалар кинесанинг деярли барча фаслларида учрайди. Қамариддиннинг жиноятчи гуруҳ бошлиғига айланиб бориши, кўчада болаларнинг йўлини тўсиб, кинесавурлик қилиши, пул сўраб, кўрқитиши... ҳатто пулдорроқ болалар унга “ҳисоб” бериб туриши, аста-секин қотилликка қўл урса-да, виждони қийналмай қўйгани ўқувчида нафрат уйғотиши табиий. Аммо “Аламзада одам ёхуд онаси ташлаб кетган боланинг аянчли ҳаёти ҳақида ҳикоя” фаслида китобхон Қамариддин билан юзма-юз келади, унинг ҳаёт тарзи ва жамият ҳақидаги фалсафасидан огоҳ бўлади. Асардан англаган ҳақиқатга кўра, “уни билиш, тушуниш учун Қамариддин бўлиб туғилиш, Қамариддин бўлиб яшаш, у тотган заҳар-заққумлардан тотиш керак”лигини ҳис этади.

Т.Малик воқеаларни чинакам детективнавис адиб сифатида талқин этади. Жиноятни фош қилишда милиция ходимлари, ички ишлар фаолияти, майор ва капитан каби образларни фаол ҳаракатга келтиради. Бироқ жиноятга қўл урган ўсмир қахрамонларининг қалбини тинглашга ҳаракат қилгани, барча воқеани уларнинг нигоҳи билан таҳлил қилгани англашилади. Қамариддин: “Сенинг ҳимоячинг йўқ, ҳеч ким сенга қайишмайди, ноҳақликка қарши ўзинг курашишинг керак. Ўзингни ўзинг ҳимоя қил, кураш, енгиб чиқ. Кимлигингни кўрсат уларга! Агар енгиб чиқолмасанг, ўзингни кўрсатиб қўя олмасанг, ўлиб кетганинг минг марта яхши!...” деган қасос алангаси билан олишади. Асрор ҳам, Қамариддин ҳам фарзандига меҳрсиз ота-оналарнинг “меваси” тарзида акс этиши мантиқан “Илонни ўлдирсалар” романига ҳамоҳанглигини асослайди.

Ҳар иккала детектив асарнинг асосида содир этилган жиноят турса ҳам, уларда инсон психологияси кўпроқ болалар ва ўсмирлар руҳиятининг теран ва оғрикли манзаралари орқали очиб берилган. Шу орқали содир бўлган жиноятнинг илдизи ҳам аниқлангани эътиборга лойиқ. Бунда жиноятчи уни содир қилган кимса – ўсмир эмас, балки уларни айнан воситага айлантирган жамиятнинг ўзи эканининг таъкидланиши мазкур асарларнинг муваффақиятини таъминлаган.

Бунда турк адиби эски ошиқ томонидан ўлдирилган ота учун онадан қасос олиш мотивидан фойдаланган бўлса, ўзбек адиби айнан детдом болаларининг қалбидаги кемтиклик, улардан воз кечган ота-оналардан қасд олиш алангаси билан боғлиқ мотивни келтирган.

Қамариддиннинг нафратига, энг аввало, бевафо онаси, сўнг беимон отаси, кейинчалик боласини ташлаб кетган жамийки аблаҳ ота-оналар сабаб ва у барчасини отиб ташлашга тайёр бўлса-да, ўз ота-онасига қўл кўтармайди. Асарнинг бош ғояси ҳам шу, назаримизда.

Хулоса қилиш мумкинки, Тоҳир Малик детектив наср устаси сифатида адабий алоқаларнинг ижодий таъсири воситасида ўз асарини ёзган бўлса ҳам, маънавий, диний ахлоқ меъёрларини унутмайди, аксинча, ўзбек болалар адабиётида қўл урилмаган мавзунини ёритишда жамият дунёқарашидаги кемтикликларни бадиий тадқиқ этади. “Биз ҳам кўп қатори ҳаётни, – деб ёзади Т.Малик, – хусусан, ўсмирлар ҳаётини, янада аниқроқ айтсак, жиноят оламига кириб қолганлар ҳаётини кузатиб, таҳлил қилиб, маълум бир фикрларга келганмиз”[6]. Шу маънода, умуммаданий ҳодисани умуммиллий ифодалаб, поэтик тафаккур янгиланишига эришилган.

Таъкидланганидек, эндиликда болалар адабиёти намуналарини жаҳон адабиёти контексти доирасида ўрганишга эндиликда кенг имкониятлар очилмоқда. Таржима қилинаётган асарлар келажакда бу йўналиш тараққиётига, албатта, хизмат қилади. Жумладан, жаҳон болалар адабиёти сериясида нашр қилинаётган жуда кўп асарлар бунга далилдир.

Ўзбек болалар адабиётининг таракқиётида жаҳон болалар адабиётининг ижодий таъсири, алоҳида ўрни бор. Хусусан, истиқлол йилларида куплаб мамлакатларнинг болалар адабиёти намуналарини ўзбек тилида таржима қилиниши ва нашр этилиши бу жараённинг янада фаоллашувига сабаб бўлмоқда. Жумладан, Туркия болалар адабиёти намуналарининг кенгқамровли таржимаси ва нашри фикримизга далил бўла олади. Етук ўзбек болалар шоири ва таржимони Миразиз Аъзамнинг бу борадаги хизматлари ҳам таҳсинга сазовор. Шоир таржималари асосида бунёдга келган қатор турк ижодкорлари, масалан, Тавфиқ Фикрат, Нозим Ҳикмат, Гултан Дойи ўғли, Али Оқбош, Мустафо Кутлу, Мустафо руҳи Ширин кабиларнинг болалар учун ёзган асарлари орқали икки халқ ижодидаги муштарак хусусиятларни яққол англаш мумкин. Яъни, турк болалар адабиётидаги мавзулар олами, бола руҳияти ифодаси, жониворлар ва ҳайвонларга муносабат талқини, ифода усулларида ўзбек болалар адабиётига ҳамоҳанглик кўзга ташланади.

Али Оқбош Туркиянинг ҳозирги замон болалар адабиётида муҳим ўрин эгаллаб турган шоирларидан. Унинг шеърларида болалар олами, руҳияти устувор. Айни пайтда катталар оламининг армонлари лирик қаҳрамон туйғуларида теран акс этган шеърлари ўзбек болалар шоири Сафар Барноев шеърлятига ҳамоҳанг. Ҳар иккала шоир ўтган асрнинг 40-йилларида туғилиб, ўз юрти маорифи ва болалар адабиёти равнақида катта ҳисса қўшган. Бинобарин, Али Оқбошнинг “Бувимга алла” шеърини С.Барноевнинг “Қўшни кампир илтижолари” шеъри билан қиёслаб ўрганишга лойиқ. Турк болалар шеърлятининг лирик қаҳрамони ўз бувиси қисмати, ўксик қалби армонларини баён қилади:

Ойни ўраб олган булут,
Бошида рўмол бувимнинг...
Бувим гузал, айб ойнада,
Бувим каби йўқ дунёда[1, 64].

Шеърдаги булут сўзи бувининг бошида қайғу борлигидан далолат беради. Лирик қаҳрамоннинг ойнани айблаши ҳам бежиз эмас. Бувининг ранги рўйи сўлғин, эрта кексайган жисмида ёшликнинг, гўзалликнинг аломати сезилмаслиги англашилади. Кейинги мисраларда эса бу фикр ўз исботини топади:

Сафарбарликнинг сўнаси,
Сўнган сочининг хинаси,
Бувим уч шаҳид онаси,
Боши қордан оқ бувимнинг.

Кичик китобхон бувининг ған-андухи сабабини энди ҳис қила бошлайди. Уч ўғлининг шаҳид кетганидан “боши қордан оқ”. Шоир ифодасида маъно янада таранглашади. Хина кетиши билан сочининг оқаришидан ташқари қош, киприклар оппоқ тусга кириши юқоридаги иборанинг мазмунини кучайтиради. Бу ёзикликнинг бувини эзиши, кўзлари ҳамиша “сувлок” бувининг кейинги мисраларда телба шамол дастидан “тўкилган япроқ”қа ўхшатилиши ҳам бу дарднинг нечоғли оғирлигини аёнлаштиради. Шу сабабли бувисининг бу аҳволдан оғир изтиробга тушган ёш лирик қаҳрамон бувисининг макони учмоқ эканлигига ишонади. Яъни, сабр билан, оғир бир тошни бағрига босиб ясааш азобини лирик қаҳрамон идрок эта олган.

Сафар Барноевнинг “Қўшни кампир илтижолари” шеърида ҳам фарзанд доғини обдон туйган она сиймосини гавдалантирилади. Фақат бунда лирик қаҳрамон ёш бола эмас, айнан кампирнинг ўзи:

Қари тутнинг шохларидек суяқларим мўрт бўлди,

Йўлингизга қарайвериб, бу кўзларим тўрт бўлди, – деб бошланувчи сатрларда онанинг ҳасратлари лирик қаҳрамон ҳикояси тарзида баён қилинган. Унинг қўшниси бўлмиш ўша кампирнинг уч ўғли кетма-кет урушга кетади ва уччаласидан ҳам қора хат келади. Уларнинг йўлига кўз тутавериб, ғамдан мунғайиб қолган кампирнинг нолалари чинакам йиғи-йўқловни эслатади:

Омон ўғлим!
Даврон ўғлим!
Султон ўғлим!
Жон ўғлим!
Ой-юлдузим, бошимдаги осмонларим эдингиз,
Алпомишдай, Алпомишдай посбонларим эдингиз,
Элу юртга кўз-кўз қилган посбонларим эдингиз...
Мен чиройда ой эдим,
Бағрим бутун, бой эдим.
Уч ўғлим бор, уч шунқорим,-

Дея хотамтой эдим [2, 56].

Кампир уч ўғил тукқанида севинчларга сиғмагани, ҳар бир ўғлининг номи ўз мазмунига эга экани, уларни умумлаштириб “Жон ўғлим” деб аташи бежиз эмаслигини айтиб бўзлайди. Афсус надоматлар бўлсинки, бир куни она қалби букилади, кўздан ёши тўкилади. Шу сабабли унинг изтироблари янада аянчли тус олади:

Авайлаган, асраган юракдан дармон кетди,
Қора бўлди кундузим, бошимдан осмон кетди.
Сизни кетма-кет туғдим,
Дейишганди катта бахт,
Кетма-кет учингиздан,
Келиб қолди қора хат.
Қонга тўлган юрагим мазорларга айланди,
Ҳасратларим тугамас бозорларга айланди.

Шу тарика, лирик қаҳрамон қўшни кампирнинг фарёд тўла дардини, ўз ўғилларини сўрай-сўрай куёшдаин уфқ сари ботиб боришини, демакки умри поёнига етаётганини афсус билан тилга олади.

Кўринадики, икки халқ болалар шеъриятида бир хил мавзу, бир хил оҳангда, ўзаро уйғун композицион шаклда ифода этилган. Шаҳид кетган фарзандлар доғида жисмонан ва руҳан мажруҳ бўлган оналар сиймоси, армон ва ўкинчлари макон ва замондан қатъий назар ўхшаш туйғуларда инъикос этиши англанади. Умуман, адабиёт ҳақиқатан шундай мўъжизаки, чинакам санъат асарлари миллат, ирқ, замон танламайди. Инсоният кечинмалари баайни реалистик ифодага бойлиги билан бир хил таъсирчанлик қудратига эга. Қолаверса, катталарми, болаларми уларнинг ботини, руҳияти очиб берилган асарда инсон қалби яшайди. Уни ҳис қилиш, тафаккурлаш орқали англаш бахтига муяссар бўламиз. Шу маънода, турк ва ўзбек болалар адабиётидаги муштарак хусусиятлар насрда ҳам яққол кузатилади.

Мустафо Қутлунинг “Юлдуз чанги” ҳикоясидаги айнан ўсмир бола руҳияти, туйғулари ифодаси А.Қодирийнинг “Улоқда” ҳикоясидаги ўсмир кечинмалари билан муштараклик касб этади.

“Улоқда” ҳикояси қаҳрамони ўн икки яшар Турғун чавандоз эканлиги, унда ёш Турғун таърифи, болалик завқи, янги кийим кийгандаги қувонч ва ғурурининг табиий тасвири болалар образи поэтик талқинининг бадий юксак намунаси сифатида эътиборни тортади. Қолаверса, улоқ ўйинининг барча таассуротлари ўсмир Турғун ҳис-туйғулари, руҳий олами, севинчу шодлиги орқали ифодаланиши воқеа тасвири жиҳатидан руҳият ва характер ҳолати тасвири устуворлигига кўра XX аср бошларидаги ўзбек ҳикоячилигидагина эмас, болалар насрида ҳам жиддий ютуқ, дейишга асос бўлади.

“Юлдуз чанги” ҳикоясининг қаҳрамони ўсмир бола. Унга тоғаси совға қилган велосипед қувончи Турғундан кам эмас: “Бизнинг Қасаба жуда кичкина, жуда оз велосипед бор, улар ҳам мансабдор кишиларнинг болаларида. Энди менинг ҳам мана бир велосипедим бор. Ҳаммасининг ҳавасини келтираман, ҳеч кимсага миндирмайман. Ҳар куни артиб яркиратиб қўяман. Зотан, яп-янги, ҳеч ким қўл теккизмаган. Қасабанинг энг чиройли велосипеди бу. Ўзим ҳам минишга кўзим қиймай турибди. Ё йиқилсам, ё велосипедга бир нарсас бўлса!...” [3, 74]

Ҳикоя қаҳрамони укаси Канонни велосипедга ҳаваси келса ҳам миндирмагани учун бир куни тонг сахарлаб, уни миниб қочгани ва зовурга йиқилиб ҳушидан кетиши ва бундан акаси укасини ўлиб қолди деб қўрқиб кетишидаги руҳий изтироблари, укаси танлаган юлдузнинг учганини кўриб, дашту қамишзорлар оша “қўлига қўндириб”, яна учириб юборганлиги қизиқарли ҳикоя сюжетини ташкил қилган.

Ҳар икки ҳикоядаги ўхшашлик асар қаҳрамонларининг янги бир воқеликдан қаттиқ ҳаяжонга тушиб, чексиз орзу-хаёлларга берилиши, аммо алал-оқибат бу қувончли ҳодиса қайғуга уланиб кетгани ёш қаҳрамонлар қалбини яралаб қўйгани теран акс этганидир. Турғун чавандоз кўпкарида одамлар оёғи тагига қолиб кетиб, ўлишига сал қолган бўлса, Канон акасининг велосипедига учаман деб ўлишига оз қолади ва бундан акаси қаттиқ пушаймон бўлиб, шунчалик яхши кўрган велосипедини ўртоғи, оиласи ночор, ўзи етим Абдурахмонга бериб юборади.

Хулоса. Бундан англашиладики, болалик олами қувончлари ва кўркувлари ифодаланган қаҳрамонлар туйғуси ҳам макон ва замон танламайди. Барча халқлар адабиётига хос муштаракликлар шу тарика мамлакатлар маданияти тараққиётига хизмат қилаверади.

Дарҳақиқат, кичкинтойларнинг кўнглини топиб, диққати ва завқини оширадиган истеъдоднинг ўзигина етмайди. Шу билан бирга мохир муаллим каби бола қалбининг муҳандиси ҳам бўлиш талаб қилинади.

Турк ва ўзбек болалар адабиётидаги бадиий жозиба улардаги муштаракликни таъминлаган асосий омилдир. Ёш қаҳрамонлар руҳияти ва туйғуларини теран бадиий акс эттириш маҳоратини асарлар таҳлилида қўллаб топиш мумкин.

АДАБИЁТЛАР :

1. Али Оқбош. Бувимга алла. Китобда: Жаҳон болалар адабиёти: Туркия, Эрон. – Тошкент, 2016. – Б.64.
2. Барноев Сафар Тинчликни улуглаймиз. Тошкент: “Ёш гвардия”, 1988.
3. Мустафо Қутлу . Юлдуз чанги. Китобда: Жаҳон болалар адабиёти: Туркия, Эрон. – Тошкент, 2016. – Б.74.
4. Камол Я. Илонни ўлдирсалар. Турк тилидан Л.Аминова тарж. – Тошкент.: Янги аср авлоди, 2001. – Б.187.
5. Malik Tohir. Alvado bolalik. – Toshkent: Sharq, 2009. – 188 b.
6. Malik Tohir . Jinoyatning uzun yo 'li. <https://www.ziyouz.com/kutubxonasi>
7. Умуров Ҳ. Ўзбек романида психологизм принциплари, шакллари ва воситалари: Ўзбек адабий танқиди. Антология. – Т.:Турон иқбол, 2011. – Б.239.

**HAMZA IMONBERDIYEV SHE'RIYATIDA RAMZIYLIK
VA ERK MOTIVI IFODASI**

Nuritdinova Shahnoz Sadridinovna,
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi
nuritdinovashahnoz@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada o'zbek bolalar she'riyatida yangicha an'ana va uslubni boshlab bergan ijodkorlardan biri H.Imonberdiyev she'rlaridagi ramziylik, obrazlar olami hamda erk va ozodlik motivi ifodasi tahlil qilingan. Hamza Imonberdiyev she'rlarida asosan falsafiy mushohada yetakchilik qiladi. Shoir jamiyatdagi ijtimoiy dolzarb masalalarni obrazli ifoda etishga harakat qiladi.

Kalit so'zlar: motiv, uslub, poetic, yumor, erk, hazil, obraz, taassurot, bolalar, shoir, tuyg'u, she'r, lirika, pedagog, qahramon, taqlitchilik, jasorat, mehnatsevarlik

Аннотация: В статье анализируется символика, мир образов и выражение мотива свободы и вольности в стихах Х. Имонбердиева, одного из творцов, положивших начало новой традиции и стилю в узбекской детской поэзии. В стихах Хамзы Имонбердиева он занимает ведущее место в философском наблюдении. Поэт пытается образно выразить актуальные социальные проблемы в обществе.

Ключевые слова: мотив, стиль, поэтический, юмор, мужество, образ, впечатление, дети, поэт, чувство, стихотворение, лирика, педагог, герой, подражание, мужество, трудолюбие.

Annotation: The article analyzes the symbolism, the world of images and the expression of the motive of freedom and freedom in the poems of H. Imonberdiev, one of the creators who started a new tradition and style in Uzbek children's poetry. In Hamza Imonberdiyev's poems, he takes the lead in philosophical observation. The poet tries to figuratively express the current social issues in the society.

Key words: motive, style, poetic, humor, courage, humor, image, impression, children, poet, feeling, poem, lyric, pedagogue, hero, imitation, courage, hard work.

Kirish. Mustaqillik davri o'zbek bolalar adabiyoti yangi an'ana va uslubiy o'ziga xosliklari bilan ajralib turadi. Ayniqsa, poetik falsafiy mushohadaning teranligi, obrazlilik, mushohadakorlik davr bolalar she'riyatida keng o'rin egallaydi. Oddiylikda yashiringan murakkablik, xususiylik orqali aytilgan umumiylik ko'pgina she'rlarida o'z aksini topayotganligi ayni haqiqat. Jumladan, Hamza Imonberdiyev she'rlarida, asosan, falsafiy mushohada yetakchilik qiladi. Shoir jamiyatdagi ijtimoiy dolzarb masalalarni obrazli ifoda etishga harakat qiladi. H.Imonberdiyev ehtirosli, teran tafakkurli bolalar shoiri. Kattalar nazaridagi g'alatilik kichik kitobxon nazaridagi sehg'arlikka mos keladi. Kattalar uchun g'aroyib bo'lgan narsa kichiklar uchun "tushunish" so'zini anglatadi. Atrof-muhit, tabiatni, jamiyatni tushunish ma'naviyatimizning asosi deb qaralsa, kichik kitobxonalarning murg'ak qalbida sof tuyg'u va samimiy munosabatlarni tarbiyalash nihoyatda muhimdir. Bolalar ma'naviyatini qayta kashf etish, hayot muammolarini keng ko'lamda teranlik bilan idrok etish jarayonida o'quvchini mustaqil mushohada yuritishga undash bolalar she'riyatining bosh vazifasidir. Shu boisdan har bir shoirning she'ri rang-barang tafakkurga ega bo'lgan o'quvchilarda turli xil taassurot qoldirishi, o'y-fikrlar uyg'otishi tabiiy. Binobarin, Hamza Imonberdiyev she'rlarida bolalar olami o'ziga xos uslubda talqin etiladi. Shoir istiqbolning dastlabki yillarini ko'rdi, xolos. Shunday bo'lsa-da, H.Imonberdiyev umrining so'nggi kunlarigacha yosh avlod tafakkuridagi yangilanishni his qilib, o'z ijodi orqali bu jarayonga hissa qo'shdi.

Shunisi diqqatga sazovorki, shoirning ko'pgina she'rlari yarim hazil, yumor tarzida yozilgan. Qolaversa, bunday she'rlarning bosh qahramonlari bolalar. Zero, voqea-hodisalar ular nuqtai nazaridan tahlil etiladi. Ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar, siyosiy voqealarga yosh avlod munosabati ifodasi, ularni idrok qilish darajasi ham shu ma'noda o'ziga xos.

Asosiy qism. Shoir yosh lirik qahramonlarni real hayotda erkin, aralashtirib yuboradi. Kichikintoylar mustaqil ravishda tarixiy voqealar, ijtimoiy hayot hodisalariga "qorishib" ketadilar, sarguzashtlarni boshdan kechiradilar. Aytaylik, shoirning "Sog'inchli salom xat" she'ri shu jihatdan e'tiborli. Kichikintoy lirik qahramon harbiy xizmatdagi akasiga ko'plab xatlar yozadi. Ularning ko'pchiligi alohida sanalar bilan bog'liq. Masalan, 30-apreldagi maktubida akasiga sog'lik-omonlik tilash bilan birga, komandirlarga "bosh

egib”, “sipo” bo‘lib yurishni tayinlaydi. Go‘yo bu usul akasining “otpuska”-ta‘til olishi uchun imtiyoz emish. 27-iyuldagi xatida milliy futbol komandamiz “Paxtakor”ning o‘z darvozasiga birato‘la 3 ta to‘p kiritgani, buning alamiga chiday olmagan tog‘asi “nega mening yolg‘iz oyimni hurmat qilmaysan”,– deb xotinini savalagani aytiladi. Kichkintoy maktublari orasida 21-oktabrda bitilgani ham e‘tiborli. Uning akasiga uqtirishicha, dadasi mast bo‘lib g‘ijjakni “varang” qo‘yadi. Chunki, dadasining:

Aytishicha, ko‘p yillik

Yechilgan emish tugun.

O‘zbek xalqi qaytadan

Tug‘ilibdi shu bugun.[1,88]

Shu tariqa shoir ijtimoiy hayotda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarga bolalarning ham befarq emasligi oydinlashadi.

Ikkinchidan, bolalar hayotda sog‘lom, tetik, qo‘rqmas, jasoratli bo‘lib o‘sishi bilan birga o‘z yurti, Vatani tinchligini, osoyishtaligini ham qadrlay bilishi uchun shunga doir mulohazalar ular ongiga singdirila borishi lozim. Zotan, H.Imonberdiyev she‘rlarida tinchliksevarlik g‘oyasi alohida ahamiyatga ega. Shoirning “Urushqoqlar” she‘rida bu g‘oya bolalarning o‘zi tomonidan to‘g‘ri payqalgan. Umuman, har bir o‘g‘il bolada harbiy kishi bo‘lishi orzusi, qo‘lda avtomat-u, to‘ponchalar olib yurishi, va shu bilan o‘zini mard, jasur his qilish kechadigan tabiiy tuyg‘u. Shu sababli aksariyat o‘g‘il bolalar “urush maydonlari”da “jang qiladi”lar, “dushman”larini “ayovsiz qirib tashlaydilar”. Har bir bola “jang”da mutlaq g‘olib, qahramon bo‘lishini istaydi. She‘r qahramonlari ham ana shu tuyg‘ulardan begona emas.

Qo‘lda yog‘och-avtomat,

“urush-urush” o‘ynaymiz.

Yoki kalish-granat,

Bir-birimiz poylaymiz.

Goh yurakka uramiz,

–Dushmanga yer yo‘q, - deb.

Goh yuz tuban qulaymiz,

Naq yurakdan “o‘q yeb”... [2,16]

Bolalar o‘rtasidagi “jang” shu tariqa avj oladi. Ular bir-birini “paqa-puq” otib o‘ldirishadi. Ba‘zilari esa “o‘q”qa chap berib, qutulib qolishadi. Shunda Nodir ismli bola bu “jang”ga qo‘shilmay, raketa yasash bilan ovora bo‘ladi. Chunki uning “urushqoq”lar orasida yashagisi kelmaydi, to‘g‘rirog‘i, u olis sayyoralarga uchib ketmoqchi. Bu istakni eshitgan do‘stlari Nodir bilan birga ketishini xohlaydilar. Hammalari endi xursand, ular jo‘r ovozda:

Biz kashf etgan sayyora,

Urush nima bilmaydi.

Raketa oynasidan,

Uchar “miltiq”, “rvoller”

Raketamiz “o‘t” olar

Xayr, ey urushqoq yer.[2,16]

Uchinchidan, ha, bolalar taqliqchilik orqali, yangi kashfiyotlar o‘ylab topadilar. Avvalo, ular hayotdan, tevarak atrofdan olgan taassurotlarini o‘z o‘yinlarida aks ettiradilar. O‘yin bolalar hayotining mazmuni. Haqiqiy hayotda bola o‘z orzusiga osongina erisholmaydi. O‘yinda esa bola nihoyatda “ulg‘ayib” ketadi. U o‘z kuchini, qiziqishlarini aynan o‘zaro o‘yinlarda sinovdan o‘tkazadi. Hatto, qo‘li bilan yaratgan, tashkil etgan narsalar ustidan mustaqil hukm chiqarishi, farmon berishi huquqiga ega. Shundan bo‘lsa kerak, bolalar she‘riyatida biror voqelik, hayotiy hodisalar kichkintoylar o‘yini shaklida berilishi ko‘proq kuzatiladi. Yuqoridagi she‘r ana shu holatning bir namunasi. Umuman, bolalar ta‘kidlaganimizdek, taqlidchilikni yoqtiradi, ammo undan ma‘lum xulosalar chiqara olishi hodisaning ahamiyatli tomonidir. Yosh avlod yerdagi urushlardan, har xil terroristik harakatlar, millatlararo nizolardan ozmi-ko‘pmi xabardor. Shu sababli ular “urushqoq” yerdan arazlab, “tinch sayyora” tomon “uchishadi”. Binobarin, bolalarga eng avvalo tinchlik, faravonlik zarurligi shoir she‘rining yetakchi g‘oyasidir. Bu g‘oya aynan kichkintoylar o‘zi tomonidan anglangani yanada e‘tirofli.

To‘rtinchidan, Yetuk pedagog V. Suxomlinskiy “Bolalalik – bu kelakak katta hayotga tayyorgarlik emas, balki u inson umrining o‘ziga xos yorqin va aslo takrorlanmas nozik davridir”,– deb ko‘rsatgan edi.[2,56] Shu boisdan, kichkintoylarning beg‘ubor qalbiga faqat yaxshilik urug‘ini sochish, ularni to‘g‘ri, halol va pok, mehnatsevar odobli qilib tarbiyalash faqat ularning taqdirini emas, balki kelajak taqdirini tayin etishda ham muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Beshinchidan, H.Imonberdiyevning “G’alati Omon” she’rida bi jihat o’ziga xos yo’sinda ifoda etilgan. Lirik qahramon ta’tilda shaharlik xolasining uyiga keladi. U asli qishloq bolasi. Shu sababli u tez zerikib qoladi. Uning kayfiyati yomonligini so’ragan xolasiga esa “zerikypman ketaman”, deb javob beradi. Shunda xolasi, “–Kinoga bor, sirkka bor,.. balkonga chiq.. shaharni tomosha qil, deya ko’nglini ko’tarmoqchi bo’ladi. Ammo kichkina Omon bunga ham darrov ko’na qolmaydi.

Rost, bolalar uchun yozilgan ko’pgina she’rlarda shahar va qishloq mavzusi takrorlanib turadi. Ularda bolalarcha tasavvur keng yoritilgan. Ya’ni qishloqda o’sgan bolalar hamisha katta shaharda yashash, har kuni hayvonot bog’i, sirk, kinolarga tushish mazza qilib muzqaymoq yeb top-topza kiyinib yurishni orzu qilishadi. Shaharda ulg’aygan bolalar esa qishloq tomon talpinishadi: keng dalalar, yoz bo’yi cho’milishlarni xayolidan ketkazolmaydi. Xullas, bu katta-yu kichik uchun tabiiy hol. Ammo H.Imonberdiyev o’zining yosh qahramonlarini “ulg’aytirib”, aniqrog’i tafakkurini kattalarga xos tasvirlaydi, ba’zan. Mana, Omon ham bor-yo’g’i uch kunda shahardan zerikdi, uylar unga torlik qildi. Bu haqiqatga yaqin, albatta. Har qanday bola qanday sharoitda bo’lmasin, o’z uyi, ota-onasidan uzoqlashsa, zerikadi, yaqinlarini qo’msab qoladi. Omon esa tag’in ham boshqacha. U shahar tomosha qilay desa, tutun-zaharni ko’rib “ko’ngli ozadi”. Xolavachchasi tengdoshi Nor bilan o’ynamoqchi bo’lib oxiri “–Gaplari biram mayda, og’rib ketdi-ey boshim” deb bahona qiladi.

O’smir boladagi bu betoqatlik sirini payqagach, uni xolasi rostakamiga koyiydi:

Erta-yu kech ish, ish, ish,

Intiq bo’lgan uyingda.

Shu yoshdan buncha tashvish,

O’smay qoldi bo’ying-da.

Ta’til bitguncha yasha,

Ranging kirsin, hoy bola

Omon shunda gapning ochig’ini aytadi:

– ochig’in aytsam o’sha

Ishni sog’indim xola.

Demak, lirik qahramon ruhiy holati orqali bolalarni mehnatsevarlikka da’vat etish o’ziga xos tarzda namoyon bo’lgan. Albatta, davr talabi, hayot taqozosiga ko’ra ayrim global-ekalogik muammolar bolalar adabiyoti, jumladan, she’riyatiga ham kirib kelmoqda. Binobarin shahardagi tutun-zahardan odam ko’ngli ozishi yosh qahramonlarni-da, bezovta qilishi realistik manzara kasb etgan.

H.Imonberdiyev ijodida bolalik olami rang-barang talqin etilgan. Qo’rqoqlik – bolalarning aksariyatiga xos. Bundan qutulish yo’llari bolalar adabiyotida turlicha ifodalangan. Shoir she’rlarida bu jihat yumoristik tasvir etilgan. Chunonchi, “Yolg’izlikda” she’rining qahramoni Botir tabiatan qo’rqoq. “Qo’rqqanga qo’sh ko’rinar” deganlaridek, u ayniqsa, kechqurunlari har qanday sharpadan, tiq etgan ovozdin qo’rqib yuradi. Shu sababli, kechqurunlari ko’chaga chiqdimi, tamom, u go’yo qo’shiq aytgandek baqirib-chaqirib, to’polon soladi, itlarni vovullatadi, mushuklar miyovlaydi. Chunki:

...Botir bu palla

Qo’shiq aytib baralla,

Madad berib o’ziga,

Bot-bot qarab iziga,

Qo’rqinchdan qochib borar.[11,26]

Bolalar tabiatiga xos shu kabi mayda qusurlardan qutulishi yumoristik ifodada o’z aksini topgan. Yoxud “xo’p-xo’p” yumoristik she’rida ham bolalarga xos “kasallik”ka e’tibor qaratilgan. She’rda lirik qahramonning yumoristik obrazi o’z tilidan ifodalandi. Avvaliga u kattalar nima ish buyursa, shu so’zni aytib qutulishidan mamnun bo’ladi, hatto dadasi kamchiliklarini aytganda ham “Xo’p, dada, tuzataman”, deya o’z bilganidan qolmaydi. Nihoyat, buning oxiri “voy” bo’ladi. Chunki:

Tunov kuni muallima,

Dedilar menga qarab:

– Seni o’sha “xo’p”laring,

Butunlay xarob etdi.

Sinfda qolar bo’lding,

“Ikki”laring to’p-to’p.

Chiqib ketdi og’zimdan:

Beixtiyor “xo’p-xo’p”...

Shoir bolalarning o’zlariga ham ko’p sezilavermaydigan juz’iy kamchiliklari, to’plana borib, yirikroq muammoga aylanishini shu kabi oddiy detal orqali ifodalaydi.

H.Imonberdiyevning “Turdi, o‘g‘ri va ketmon” she‘rida ham bolalar o‘rtasida uchrab turadigan dangasalik, tanballik obrazli tasvir etiladi. Ishtahasizligidan “oh-voh” qilgan Turdiga ukol-dorining ham nafi bo‘lmaydi. Uning ishtahasini o‘g‘irlagan o‘g‘ri qidirilavergach, “Hovlida jim yotgan ketmon (ishtilmay zanglab ketgan) toqati-toq bo‘lib o‘rnidan turib, Turdi yoniga keladi va “menga ayon o‘g‘ri”, deydi. Turdi yerni ketmon bilan chopgach, daraxt tagini ham tekislaydi. Shundan so‘ng uning bosh og‘rig‘i qolib, ishtahasi ham ochiladi. Bundan xursand bo‘lib, kayfiyati chog‘langan lirik qahramon endi g‘ururlanib:

Do‘stlar, ayting ochiq, to‘g‘ri
Sezdingizmi, kim u o‘g‘ri?” - deya
bolalarga murojaat qiladi.

O‘zbek bolalar adabiyotida, jumladan, she‘riyatda dangasalikni tanqid qilishidagi an‘anaviy tasvir, obrazlar anchagina. H.Imonberdiyev shu ruhdagi she‘r orqali kichkintoylarning o‘zini mushohadalashga o‘rgatgani bilan ajralib turadi. Qolaversa, ketmon jonlanib, Turdi bilan muloqotga kirishuvchi she‘rning qiziqarliligini ta‘minlagan.

H.Imonberdiyev bolalar hayotidan olib yozgan “Alixo‘ja, Xo‘jaali”, “Imtihonda” sarlavhali she‘rlarida ham ikki yo‘nalishli g‘oya ko‘zga tashlanadi. Ya‘ni ular g‘oyaviy-mavzuviy jihatdan bolalar va kattalarga birdek daxldor. Masalan, “Alixo‘ja, Xo‘jaali” she‘rida bolalarning ko‘r-ko‘rona fikr yuritishi hajv qilinadi. Akrom, Bahrom va Ikrom yomg‘irdan so‘ng chiqqan kamalakni kattakon ko‘prikka tarang tortilgan yoyga, so‘riga o‘xshatadi. Bu borada ularning ikkovi hatto bahslashib, o‘z fikrini ma‘qullatish uchun mushtlashadi; bo‘shab turgan tishlardan ayrilishadi. Xalq orasida keng qo‘llanadigan “Alixo‘ja Xo‘jaali” – mantiqan bir narsa. Shu sababli o‘zga qiyos izlamay, har biri o‘zicha o‘zinikini ma‘qullashi, aslida har uchchalasining fikri-da noto‘g‘ri ekanligi hajv qilingan. Baxtga qarshi bunday mantiqsizlik kattalar o‘rtasida ham ko‘p uchraydiki, shoir bunga ham alohida urg‘u beradi.

Xullas, H. Imonberdiyev bolalar olamiga xos yaxshi va yomon jihatlarni goh hajviy, goh yumoristik, ba‘zan didaktik uslubda ifodalaydi. Ularning o‘z xatolarini anglashlariga yordam beradi. Xalqda shunday naql bor. Bir donishmanddan: “Odobni qayerdan o‘rganding”, – deb so‘rashsa, odobsizdan, deb javob bergan ekan. Ya‘ni, o‘sha odobsiz aytgan yomon so‘zni aytmaslik, qilgan yomon ishlarini takrorlamaslik oqibatida odob namunasini o‘rganadi. Xulosa chiqarish mumkinki, H. Imonberdiyev she‘rlarining mavzusi hisoblangan turli xarakterdagi, yaxshi-yomon, sho‘x-nodon, aldoqchi-yu lofchi, dangasa va qo‘rqoq bolalar obrazlari hamda ular olami ifodasi yosh kitobxonlarni ana shu qusurlardan qochishga undashi shubhasiz. Binobarin, bolalarni yaxshilikka da‘vat etuvchi pand-nasihat, o‘gitlardan hodisaning obrazli ifodasi ta‘sirliroq bo‘lishiga shubha yo‘q.

H.Imonberdiyevning yana bir turkum she‘rlarida esa ramziy obrazlilik ustuvor. Shoirning “Sinov” she‘rida ona Burgutning o‘z polaponini uchirma qilishdagi sabot matonati, e‘tiqodi va qat‘iyati ramziy ma‘noda tilga olingan bo‘lsa, “Alla” she‘rida Ona burgut ibrat timsoli sifatida ko‘zda tashlanadi. She‘rda qushlar, hayvonlar jur‘ati, ahdidagi mardlik inson shijoatidagi ojizlik bilan muqoyasalanishi bolalar she‘riyatidagi yangi hodisa, albatta. H.Imonberdiyevning she‘riyatidagi noan‘anaviy tasvir shu jihatdan realistik manzara kasb eta olgan: Shoir uqtirishicha, qo‘y o‘z qo‘zichog‘ini uxlatishda “bo‘ri kelyapti”, chumchuq esa ilonni xavfli dushmani bilib, bolasini u bilan qo‘rqitadi. Hatto,

Uxlata Olabo‘jiyov,
Ko‘rsatgan qorasini.
Odam shunday qo‘rqitib,
Uxlata bolasini.

Demak, qo‘y, chumchuq, odam bolasini ham go‘dakligidayoq qo‘rqib yashashga majbur etayotir. Qo‘y va chumchuq o‘zlarining eng yovuz dushmanlaridan farzandini ogoh etayotgan bo‘lsa, odamlar olabo‘ji bilan qo‘rqitadi.

H.Imonberdiyevning “Alla” she‘rida Olabo‘jidan odamning qo‘rqishi mantiqsizlik edi. Shoir shu ma‘noda ya‘niy ona burgut obrazini muqoyasaviy keltirib o‘tadi. Faqatgina ona burgut o‘z bolasini shunday uxlatadi:

Uxla kuchga to‘lib o‘s,
Ushbu tog‘- Tosh, osmonning
Hukmdori bo‘lib o‘s!
Pisand etmay xatarni
Shundanmi polaponi
To‘ldirib keng samoni! [1,95]

Bu misralardan anglshilgan haqiqat shuki o‘tmishi zamirida inson ko‘p jihatdan johillashib borgan shoir ginasida asos bor. Shu sababli endigina mustaqillik shabadalari esayotgan istiqlolning dastlabki

yillaridayoq H.Imonberdiyev xalqimizning uzoq yillar birovga mute, qaram va erksiz yashaganligining ildizlarini izlashga harakat qilgan. Ona burgutning allasi aslida o'zbek onalarining allasi bo'lishi joizligiga ishora qiladi. O'sha ko'kni quchib osmon bag'rida yashovchi burgutlar – mard o'g'lonlar timsoli. Binobarin, ularga beshikdayoq qullik, qo'rqqoqlik emas, hukmdorlik hissini singdirish zarurligi uqtirilmoqda.

Xulosa, H.Imonberdiyevning “Sinov” va “Alla” she'rlarida Burgut obrazi shu ma'noda yuksak poyetik obraz darajasiga ko'tarila olgan. Binobarin, uning qushlar orasidagi humkronligi, qo'rqqmasligi avvalo tarbiyadan boshlanganini ta'kidlamochi, shoir. Zotan yosh kitobxonlar bu kabi tarbiyaviy o'gitlar ta'sirida burgut singari balandparvoz bo'lishiga intilishlari, yuksak cho'qqini zabt etishi, o'z elining hukmdori – chinakam egasi bo'lib ulg'ayishiga, albatta, harakat qiladilar.

Ta'bir joiz bo'lsa, mustaqillik shoirning ana shu xolis niyatini ijobat qildi, deyish mumkin. H.Imonberdiyevning kelajak avlodlardan kutgan umidi ham millat farzandlari orasidan yetishib chiqayotgan jahon chempionlari, fan cho'qqilarini zabt etib, turli mamlakatlarda o'z elining g'ururi sifatida bilim olayotgan, faoliyat ko'rsatayotganligi bilan mustajob bo'layotir.

O'zbek bolalar she'riyatining yangilanayotgan tamoyillarida bu kabi she'rlarning o'rni va ahamiyati shu ma'noda muhim.

Darhaqiqat, istiqlool davrida yaratilayotgan badiiy asarlarda xalqimizning mental tafakkuri, zamondoshlarimizni bezovta qilgan fikr-o'ylar o'zining jozibali talqinlari bilan e'tiborni tortadi. Eng muhimi, bu xususiyat millat ma'naviyatiga xos azaliy qadriyatlarni quruq didaktik pand-nasihat negizida targ'ib etish, ulug'lash va yoki shunchaki eslatish yo'sinida emas, balki jonli hayot voqealari, zamondosh kishilar ruhiyati orqali obrazli tasvirlash tarzida namoyon bo'ladi. Shu bois, o'zbek bolalar adabiyotining istiqlool davriga xos poetik izlanishlarda ma'naviy-madaniy qadriyatlar, urf-odatlar, udumlar, an'analar bola dunyosini badiiy-estetik idrok etishda o'ziga xos milliy kolorit yaratish vositasiga aylandi.

ADABIYOTLAR:

1. *Imonberdiyev H. G'aroyibkent hangomalari.* – T.: “Yosh gvardiya”, 1992.
2. *Imonberdiyev H. Adolat kaliti.* Gulxan, 1992, 2-son, 16-bet.
3. *Imonberdiyev H. Adolat kaliti.* Gulxan, 1992, 2-son, 16-bet.
4. *Suxomminskiy V. Tarbiya haqida.* – T.: “Yosh gvardiya”; 1977.
5. *Imonberdiyev H. Shirin aldov Gulxa.* 1997, 11-son, 26-bet.
6. *Imonberdiyev H. G'aroyibkent hangomalari.* – T.: “Yosh gvardiya”, 1992.
7. *N.To'xtayeva. Istiqlool davri o'zbek bolalar she'riyatining yetakchi xususiyatlari.* PhD diss. - Toshkent, 2019. -B.55-bet

ЭРТАК ЖАНРИ СТИЛИЗАЦИЯСИНИНГ АСОСЛАРИ ВА ТАРАҚҚИЁТ ХУСУСИЯТЛАРИ

Ражабова Раъно Зариповна,

БухДУ Филология факультети

Ўзбек тили ва адабиёти кафедраси ўқитувчиси (PhD)

r.z.rajabova@buxdu.uz

Ражабова Гўзал Зарифовна,

Бухоро психология ва хорижий тиллар институти

магистранти

g.z.rajabova@buxdu.uz

Аннотация: Мақолада адабий эртаклар халқ эртаклари билан генетик алоқадорликда шакллانганлиги, ёзма адабиётга тегишли мустақил бадиий шакл ҳисобланиши у ўзига хос поэтик тараққиётни кечириб, болалар адабиётининг асосий ва сермахсул жанрларидан бирига айланганлиги тўғрисида фикрлар билдирилган.

Калим сўзлар: халқ оғзаки ижоди, эртақ, адреслилик, мифологик образлар, табиат.

Аннотация: В статье высказано мнение о том, что литературные сказки сформировались в генетической связи с народными сказками, считаются самостоятельной художественной формой, относящейся к письменной литературе, претерпели собственное поэтическое развитие и стали одним из основных и плодотворных жанров детской литературы.

Ключевые слова: фольклор, сказка, обращение, мифологические образы, природа.

Annotation: The article expresses the opinion that literary fairy tales were formed in a genetic connection with folk tales, are considered an independent art form related to written literature, have undergone their own poetic development and have become one of the main and fruitful genres of children's literature.

Key words: folklore, fairy tale, conversion, mythological images, nature.

Кириш. Болалар адабиётида кўпроқ халқ оғзаки бадиий ижодининг энг қадимий, кенг тарқалган, оммавий ва анъанавий, ҳажман йирик, каттаю кичикка барабар қизикарли бўлган эртақ жанри намуналари стилизация қилинган кузатилади. Бунга эртакларнинг тасвирий воситаларга бойлиги, тилининг содда ва рағбатли, эртақ қаҳрамонларининг ниҳоятда жонли, реал ва типик равишда акс эттирилиши асос яратди.

Кўпчилик қадимий эртаклар табиат кучларини жонлантириб ифодалаш натижасида келиб чиққан. Бундай эртакларда ҳаёлий уйдирма, мўъжизали ва ғайритабиий воқеалар тасвири муҳим ўрин тутди. Уларда ҳайвон ва паррандалар, қушлар ва турли ҳашаротлар одамларга ўхшаб гапиради, ҳаракатланади. Айнан шундай эртаклар болаларни жуда-жуда мафтун этади. Шуни инобатга олиб, ёзма ижодда ҳам болалар учун эртаклар яратиш ўзига хос анъана тусини олган.

Асосий қисм. Эртаклар кўпинча узун ҳажмли бўлса-да, уларнинг қизикарли сюжети болаларни асло зериктирмайди. Уларни болалар зўр ҳавас билан тинглайдилар, ўқийдилар, маҳорат билан айтиш кўникмасини ўзлаштириб борадилар. Баъзида ҳатто мазмунини инсценировка қилишга интиладилар. Чунки эртакларни инсценировка қилиш унинг мазмуни ва ғоясини чуқур англашга, ҳар бир персонажга хос услубда сўзлашни ўрганишга ёрдам беради, болалар нутқини ўстиради, луғат бойлигини оширади.

Шу ўринда таъкидлаш жоизки, болалар китобхонлигида адреслилик деган тушунча бор. Яъни 2 ёшдан 16-17 ёшгача бўлган болалар олами мактабгача тарбия ёшидаги, кичик мактаб ёшидаги болалар ҳамда ўсмирлар китобхонлиги тарзида тафовутланиб, уларга бағишланган асарлар ҳам фарқли хусусиятларга эга бўлади. Шу жиҳатдан қаралса, эртаклар стилизацияси ва интерпретациясида ёзувчининг маҳорати айтиш мумкин.

Биобарин, ўзбек адабиётида адабий эртақчилик шаклланиши учун иккита омил катта таъсир кўрсатди:

Биринчи омил – ҳар қандай турдаги адабий эртақчилик шаклланишига халқ эртақлари ғоявий-композицион жиҳатдан асосий манба вазифасини ўтади. Шоир-ёзувчилар халқ эртақларининг композицион қурилиши, ғоявий мазмуни, яъни сюжети, образлар ва мотивлар тизими, бадиий ифода услуби, тасвир ва талқин тамойилларидан фойдаланиб, шеърӣ, насрий ва драматик эртақлар яратдилар.

Иккинчи омил – жаҳон халқлари ёзма адабиётида эртақ яратиш бўйича орттирилган бой тажрибалар ҳам ўзбек шоир ва ёзувчиларининг бу борадаги ижодий фаолиятига катта таъсир кўрсатди. Халқ эртақларини болаларга мослаштириб қайта айтиш анъанаси жаҳон халқлари, хусусан, рус болалар адабиётида анчагина тажрибага эга эди. Ўзбек адиблари ва шоирлари рус ва жаҳон эртақчиларининг илғор тажрибаларини ўрганиш асосида нафақат ўзбек, балки бошқа халқлар эртақларини болаларга мослаштириб табдил қилишда, ўзлари ҳам янги замон руҳига мослаб эртақлар яратишда маълум натижаларга эришдилар.

Шу омиллар адабий таъсирида шаклланган Ҳамид Олимжон, Зафар Диёр, Адҳам Раҳмат, Қуддус Муҳаммадий, Пўлат Мўмин, Шукур Саъдулла, Турсунбой Ғойипов, Ёқубжон Шукуров, Сафо Очил, Азиз Абдураззоқ, Маҳкам Маҳмуд, Мурод Хидир, Рустам Обид, Турсунбой Адашбоев, Миразиз Аъзам, Маҳмуд Муродов, Ҳабиб Пўлатов, Худойберди Тўхтабоев, Анвар Обиджон, Қамбар Ўтаев, Сафар Барноев, Шойим Бўтаев, Ҳамза Имомбердиев, Дилшод Ражаб, Абдусайд Кўчимов, Қодиржон Носиров, Баҳром Акбаров каби ва бошқа ижодкорлар ўзларининг шеърӣ, насрий, драматик турдаги қатор адабий эртақлари билан ўзбек адабиёти хазинасини бойита олдилар. Улар фақат халқимиз бой фольклор материалларидан ижодий фойдаланиш билангина чекланиб қолмай, жаҳон, айниқса, қардош халқлар оғзаки ижодини ҳам кунт билан ижодий ўргандилар ва ундан илҳомландилар. Айниқса, бунда эртақ жанри имкониятларининг кенглиги яна кўл келди. Натижада ўзбек болалар поэзиясида, прозасида ва драматургиясида бевосита ва билвосита фольклор материаллари ва уларнинг ижобий таъсири негизида бир қанча эртақлар майдонга келди.

Бадиий адабиётда ёзма эртақлар уч хил турда яратилган. Улар бир-биридан ўзига хос белгилари билан фарқланиб туради. Жумладан:

1. Шеърӣ эртақлар. Ёзма адабиётда назм (шеър, лирика)да яратилган эртақлар поэма (достон) жанрининг тақомилига катта таъсир кўрсатди. Поэманинг бир кўринишини шеърӣ эртақлар ташкил этади. Уларда воқелик шеърӣ кўринишда, бармоқ вазнида, лирик қаҳрамон (ижодкор)нинг ҳис-ҳаяжони, руҳий кечинмалари орқали ифодаланиши, ранг-баранг қофияланиш тизими, баъзан радиф, турли банд қурилиши, кўплаб шеърӣ санъатлардан фойдаланиш асосида асар ғоявий мазмунининг очиб берилиши кузатилади. Бу жиҳатдан Ҳ.Олимжоннинг «Ойгул билан Бахтиёр», «Семург ёки Паризод ва Бунёд», З.Диёрнинг «Юксак тоғ, кенг ўтлоқ ва мард ўртоқ ҳақида қисса», «Бургут», «Янги эртақ», С.Жўранинг «Қалдирғоч», Қ.Муҳаммадийнинг «Қўнғизой ва сичқонбой», «Сандал ва печка», «Чивин ва уришқоқ шамол полвон ҳақида», «Доно бобо ва унинг 101 неварачеваралари», П.Мўминнинг «Кеча, бугун ва эрта ҳақида эртақ», «Тиш чўтка, парошок ва атирсовун эртаги», «Газ полвон эртаги», «Чўлнинг чўлга хати», С.Барноевнинг «Виждон», «Кўғирчоқлар подшоси», Т.Адашбоевнинг «Нур дарё», «Уч бўталоқ ва сирли қовоқ», М.Аъзамнинг «Чумолиой билан Ариойнинг саёҳати», «Эрк куши», С.С.Бухорийнинг «Оққуш», А.Обиджоннинг «Одил Бургутшоҳ» ва «Замбуруғ лақабли жосус ҳақида эртақ», Т.Қаҳҳорнинг «Кўзга кўринмас махлук», Ҳ.Имомбердиевнинг «Аждаҳо комида», Муҳаммаджон Раҳмоннинг «Момоқаймоқ», Нурали Қобулнинг «Одам, ойқортоғ ва дайди шамол ҳақида эртақ», Дилшод Ражабнинг «Т тўғрисида эртақ», «Ўғрининг қисмати», А.Кўчимовнинг «Сабоқ» каби достон (поэма) шаклидаги эртақлари эътиборлидир.

2. Насрий эртақлар. Хаёлий (фантастика) ёхуд ҳаётӣ уйдирма (муболаға)га асосланган бирор-бир воқеликни ҳикоя усулида баён этишга, ижодкор қарашлари доирасида тасвирлашга мўлжалланган. Унда воқеликни батафсил баён этиш, ижодкор муносабатини чуқурроқ ёритиш имконияти кенг. Т.Ғойипов эртақлари аксаран насрда яратилган. Адиб кўпинча ўз замони муаммоларини эртақ либосида ифодалашда алоҳида рағбат ва ғайрат кўрсатди. У бутун ижодий имкониятларини шу жанрда асарлар яратишга бағишлагани сабабли болаларнинг сеvimли эртақчи адиби сифатида танилди. Кўп йиллар ўқитувчи бўлиб ишлаган адиб болалар билан мулоқотлар жараёнида уларнинг қизиқишлари ва дунёқарашини атрофлича биларди. У дарс давомида болалар қизиқишларини фаоллаштириш йўллари изларкан, ўз кузатиш ва тажрибалари асносида воқеликнинг эртақнамо баёни болаларда катта қизиқиш уйғотишига, энг муҳими, бу самарали натижалар келтираётганига амин бўла борди. Бу ҳол уни бутун ижодий имкониятларини халқ эртақларини ўрганиш ва замон воқелигини эртақларга хос фабула қурилмаси ва ифодавий воситалари

орқали ифода этувчи насрий адабий эртақлар ёзишга чоғлади. Шу тариқа у эртақнавис адиб сифатида танилиб, бирин-кетин «Сехрли сўз», «Танбур» (1963) «Нотаниш бола», «Тўлинбой қиссаси» (1965), «Сехрли дарвоза» (1968), «Кўлсиз рассом» (1970), «Замон эртақлари» (1969), «Уч сехрли сўз», «Гулдаста» (1972) «Сирли қопқа» (1979), «Марсдан келган одам» (1984), «Олтин шохли кийик» (1988), «Ажойиб хазина» (1989) ва «Сехргарнинг хатоси» (1992) каби қатор эртақ тўпламларини эълон қилди. Айниқса, «Замон эртақлари» тўплами адибга катта шуҳрат келтирди, тўплам тожик, қозоқ ва рус тилларига ўғирилган ҳолда Душанбе, Олма-ота ва Москвада чоп этилди. 1989 йилда «В стране волшебников» номи остида унинг яна бир эртақлар тўплами рус тилида Тошкентда нашрдан чиқарилди. Ана шу далилларнинг ўзиёқ адибнинг эртақнавислик фаолияти ғоят самарали бўлганлигини кўрсатади.

Ўзбек болалар насрий эртақларининг бойиши ва таракқиётига муносиб ҳисса қўшган таниқли адиблардан яна бири Маҳмуд Муҳаммадовдир. У ўттизга яқин насрий эртақлар муаллифидир. Аслида ижодкор ҳам шеърӣ, ҳам насрий адабий эртақлар яратган. Адиб эртақлари мавзу йўналишига кўра бой бўлиб, кўпроқ замонавий руҳдаги воқеликлар талқинига бағишлаб яратилган. Ёзувчи эртақларида инсонпарварлик, ватанпарварлик, садоқатлилик, она Табиатга муҳаббат, касб-хунар эгаллашга интилиш ғояларини ёритишга интилади ва ўз эртақларини кўпинча халқ эртақларига хос образлар, ҳаёлий уйдирмага асосланган тасвир ифодаси, анъанавий эпик услубий бирликлар асосида шакллантиришга уринганлиги кузатилади.

3. Драматик эртақлар. Саҳнага мўлжаллаб яратилиши ва саҳнада ижро этилиши билан ажралиб туради. Уларда ҳар бир образ ўз характериға хос хислатларини нутқи, хатти-ҳаракати орқали очади. Эртақ-драмаларда воқелик диалог кўринишида, драматик тарзда баён этилади. Шукур Саъдулланнинг мактабгача тарбия ёшидаги болаларға бағишланган «Ёрилтош», «Чол билан бўри», «Зубайда» каби эртақ-драмалари бунга мисол бўла олади. Шунингдек, Т. Ғойибов ҳам эртақларға драматург сифатида ижодий муносабат кўрсатиб, «Эртақлар оламида», «Ботир Вали», «Кичкина ўғри боланинг катта иши», «Сехрли олма», «Эгри ва тўғри» сингари эртақ-пьесалар яратди. Бу асарлар республика ёш томошабинлар ва қўғирчоқ театрлари репертуаридан мустаҳкам ўрин олди.

Баҳром Акбаров ҳам ўз эртақлари билан болалар эртақчилигини ривожлантириб келаётган ижодкорлардан биридир. Унинг «Жонзотлар қўшиғи», «Митти ботир», «Ғалати синов», «Куч бирликда» сингари эртақлари болалар орасида кенг тарқалган. Ижодкор уларни эртақ-достон деб кўрсатган. Дарҳақиқат, у ўз эртақлари мазмунини достонларнинг бадиий қурилишиға ўхшатиб, ҳам шеърӣ, ҳам насрий қисмларда ифода этган.

Умуман айтганда, ёзма эртақчиликда юзаға келган бундай қизғин ижодий фаолият ижодкорлар орасида адабий эртақ яратиш соҳасида маълум тажрибалар тўпланишиға олиб келди. Адиблар халқ эртақчилиғиға хос ижодий лаборатория сирларини пухта ўрганиб, эртақона сўзлаш ва тасвирлаш, ифодалаш, талқин қилиш услубини ўзлаштира бордилар. Айниқса, ўз эртақларини халқ тилиға яқинлаштиришға, содда ва бурро, самимий ва қочиримдор сўзлашға, доно фикр юритишға ҳаракат қучайди. Шунингдек, фольклорға хос тасвирий восита ва усуллардан унумли ва ўринли фойдаланишға интилиб, маълум натижаларға эришилди.

Эртақ жанрининг композицион қулайликлари – оммавийлиғи болаларға атаб ёзиладиган асарлар учун ғоят мувофиқдир. Болалар адиблари бу ҳақиқатни чуқурроқ англай борганлари сари кўпроқ ижодий камолотға эришаётирлар. Улар халқ сюжетларига монанд сюжетлар ўйлаб топа бошладилар. Бундай тўқима адабий сюжетлар кўпинча ҳаёт воқелигини доимий кузатиш ва ундан озиқланишнинг, шунингдек, бирор мақол ва матал, нақл, афсона ё ривоятнинг мазмунини воқеабанд тафсилот воситасида кичкинтойларға етказиш ниятининг натижаси бўлиб туғилади. Бу эса уларнинг халқ сюжетлари негизида ёзилган асарлардан фарқ қилувчи хослик белгиси саналади. Шу сабабли бундай асарлар жанр эътибориға кўра адабий эртақ, эртақ-достон (эртақ-поэма), адабий масал, адабий латифа, эртақ-топишмоқ ёки топишмоқ-эртақ, эртақ-нақл, эртақ-ривоят, эртақ-қисса, эртақ-роман тарзида аталди. Унутмаслик керакки, бундай адабий асарларда ҳам халқ эртақларига хос тасвирий восита ва усуллар: аллегория, фантазия, гипербола, антропоморфизм, шунингдек, тилдаги қатор анъанавий белгилар санъаткорнинг иктидор ва малакалари даражасида сақланади. Бу жиҳатдан, айниқса, адабий эртақларнинг болалар поэзияси ва прозасини таракқий эттиришдаги роли катта бўлди. Уларда, асосан, эртаққа хослик бўртиб туради. Шунинг учун улар гарчи «эртақ-қисса», «эртақ-роман» кўринишида қўшалок ном билан номланган эса-да, барибир эртақ сифатидаги хусусияти кўпроқ тан олиниб, қисса ёки романлар қаториға эмас, балки эртақ жанри қаториға киритилади. Уларнинг «эртақ-қисса», «эртақ-роман» кўринишида қўшалок номланиши эса икки мустақил, алоҳида-алоҳида жанрларға хос хусусиятларни ўзига сингдириб келганини ва оралик

ходиса сифатида шаклланганини англатади, холос. Бунга Қодиржон Носировнинг «Лайлакларим менинг» ҳамда Шойим Бўтаевнинг «Уста ва чархпалак» эртақ-қиссаларини мисол қилиш мумкин. Агар шундан «Лайлакларим менинг» эртақ-қиссасига эътибор қаратилса, унинг эртақлар каби анъанавий зачин билан бошлангани кузатилади. Фақат бу зачин муаллиф ва эртақ тингловчи болаларнинг тилидан диалог кўринишида келтирилган:

– Бор эканда йўқ экан, оч эканда тўқ экан. Бўри бакавул экан...

Азизбек: Тулки ясавул экан.

Умида: Ғоз карнайчи экан, ўрдак сурнайчи экан.

Ризқивой: Қарға қақимчи экан, чумчуқ чақимчи экан.

Шукрулло: Тошбақа тарозибон экан, курбақа ундан қарздор экан...

– Ўтган яқин замонда бир...

Шу тариқа муаллиф Оқилжон исмли туғилишдан ногирон бўлган бечора боланинг рухий изтиробларини, айниқса, соғлом болалар атрофида чопиб қувлашмачоқ ўйнаганда ичи эзилишини сўзлашга киришади. Оқилжонни маҳалладоши, ёши каттароқ бўлса-да, ақлсиз ва гердайган Ботир исмли бола «Оқил-шол», «Оқил-чўлоқ» дея нуқул мазах қилар экан. Бир куни шу бола лайлакларнинг инини бузаётганини кўриб, Оқилжон одамларни ўзи яхши кўрадиган лайлакларни қутқариш учун ёрдамга чақиради. У ногирон бўлса-да, лайлакларга ёрдам беришга уринади. Буни кўрган лайлак сардори инсон тилига кириб, Оқилжонга миннатдорчилик билдириб, унга тарвуз уруғидай бир қора нарсаси ташлаб кетади. Қирқ кундан сўнг бу воқеа яна қайта такрорланади. Аммо Ботир ёмонлигини қўймай, рогатка отиб, она лайлакнинг ўлимига сабабчи бўлади. Она лайлак дафн этилган тунда Оқилжон уни тушида кўради. Оқ доқа рўмол ўраб олган, бўйчан аёл унга: «Мен лайлак она руҳи бўламан. Ботир исмли бола аслида ботир эмас, ҳақиқий ботир сен экансан» деб, унга ваъда қилинган шифобахш тарвуз уруғини бериб кетади. Уни ютган Оқилжон соғаяди ва мактабга бориб, «Президент совғаси»ни олишга муяссар бўлади. Хуллас, асар эртақлар каби мўъжиза талқинига эғалиги, ёвузлик устидан эзгуликнинг ғалабасини мадҳ этишга қаратилгани, яхшилик билан тугаши туфайли эртаққа яқин турса, унда Оқилжон ҳаётининг ногиронликдан то соғайгунича бўлган маълум бир даврига оид бир неча эпизод танлаб олингани ва изчил баён этилгани, ҳаётининг воқеа-ҳодисалар қамрови жиҳатидан сюжет ва композицияси романга нисбатан кичик ва содда, ҳикояга нисбатан каттароқ ва мураккаброқ баён шаклига эғалиги эса уни қиссага яқинлаштирган. Шу асосда муаллиф ўз асарининг эртақ ва қисса жанрлари оралиғида ёзилганини инобатга олиб, эртақ-қисса деб кўрсатган. Лекин барибир унда қиссадан кўра эртақлик хусусиятлари кўпроқ. Қолаверса, унда бевосита инсон ёрдамидан миннатдор бўлган лайлакнинг сирли тарвуз уруғини ҳадя қилиши ва бундан қаҳрамон ҳолатининг ўзгаришга учраши беихтиёр ўзбек халқининг машҳур эртақларидан бири «Олтин тарвуз» сюжетини ёдга солади.

Шойим Бўтаевнинг «Уста ва чархпалак» эртақ-қиссаси «Уста» ҳикоясидан бошланиб, «Чархпалак» ҳикоясигача давом эттирилиб, «Ва ниҳоят...» ҳикояси билан хулосаланади. Орада «Нарвон», «Айиқ одам», «Сухбат», «Фалокат», «Эрталаб», «Устага шаккоклик», «Бекорчилик», «Тўнғич Ҳасаннинг орзулари», «Савдогар», «Уста топди», «Муқаддас чашма ариғи», «Нарвонга иш чиқди», «Осмон узоқ, ер каттик», «Миш-миш», «Савдогарникида», «Сир», «Сир очилди», «Хайрлашув» ҳикоялари келтирилган. Умуман айтганда, ушбу асарда инсон ва нарсаларнинг тақдири ҳақида сўз юритилгани уни эртаққа ўхшатган бўлса, бир неча тақдирлар билан боғлиқ воқеа-ҳодисаларнинг яхлит ҳолда берилиши натижасида сюжетнинг мураккаблаштирилгани, ҳажмнинг катталашгани уни қисса сифатида ҳам тавсия этишга олиб келган.

Ўзбек болалар адабиётида эртақ жанри стилизацияси даврий жиҳатдан уч босқичда кечгани аёнлашади. Булар:

1. XX асрнинг 20-30-йилларида эртақчилик.
2. XX асрнинг 50-80 йилларида эртақчилик.
3. XX асрнинг 90-йиллари охири ва Мустақиллик даврида эртақчилик.

XX асрнинг 20-30-йилларида адабий эртақ яратиш бир неча ижтимоий омиллар асосида мақсадли, ҳаёт тақозоси билан амалга оширилди. Аниқроғи, ўша даврда миллат болаларини саводли қилиш ниятида жон куйдириб, мактаблар очган ва улар учун дарсликларни ҳам ўзи яратган айрим шоирлар халқ ижодиёти жанрларининг услуби ва тили соддалигини, тарбиявий моҳияти кучлилигини инобатга олиб, улардан ижодий фойдаланишга, айрим намуналарини стилизация қилишга алоҳида эътибор қаратганлар.

XX асрнинг 50-80 йилларида ўзбек болалар шоир ва ёзувчиларининг эртак жанрига, унинг шакл ва ифода усулларини ижодий ўзлаштиришга муносабати ва рағбати янада чуқурлашди. Шунинг учун давр ижодкорларининг эртак соҳасидаги изланишлари анча самарали бўлди. Улар халқ эртакларининг бадиий қурилишига хос соддалик, табиатидаги халқчиллик ва миллийлик, ғоявий йўналишидаги ахлоқий-тарбиявий мазмундорликка путур етказмаган ҳолда замоний муносабатлар, талаблар доирасида турли ёшдаги болаларга мўлжаллаб ибратли эртаклар яратдилар.

XX асрнинг 90-йиллари охири ва Мустақиллик даврида эртакчилик. Бу даврда миллий мустақиллик шабадасининг эсиши фольклорнинг миллий қадрият сифатида улуғланишига олиб келди ва унга бўлган муносабатни яхшилади. Натижада фольклор сюжетларидан ижодий фойдаланиб адабий эртаклар ёзиш анъанаси янада кенгроқ давом эттирилди. Ҳатто бу жанрда болалар адабиётининг кўзга кўринган йирик вакиллари ҳам қалам тебратишга киришди. Масалан, таниқли болалар ёзувчиси Х.Тўхтабоевнинг «Донишманд бобо эртаклари» тўпламида тарихий ривоятлар, қисса ва ҳикоялар бугунги замон тилига мослаб, эртак шаклида талкин қилинган. 23 та шундай эртаклар орасида адибнинг бевосита ўзи тўқиган янги эртаклар ҳам мавжуд. Уларнинг мазмуни жуда қисқа, ихчам шаклда, рағбат тилда баён этилган. Адибнинг «Қайдасан, болалигим» номли қиссалар, ҳикоялар, эртаклардан тузилган тўпламида «Ўзим ва ўқувчилар йиккан эртаклар» туркуми бўлиб, ундан 33 номдаги эртак ўрин олган.

Ўзбек болалар адабиётидаги адабий эртакларни материал манбаларига кўра икки гуруҳга ажратиш мумкин:

1. *Ўзбек халқ эртаклари сюжети*ни ижодий ўзлаштириш асосида ёзилган адабий эртаклар. Бунга Дилфузахон Абдурахимованинг «Бургут –пат» эртаги мисол бўла олади. Ўзбек адабиётида яратилган адабий эртаклар орасидан стилизация характеридаги фольклоризм сифатида намоён бўлувчи бундай эртак намуналарни кўплаб мисол келтириш мумкин.

2. *Жаҳон эртаклари сюжети*дан ижодий фойдаланиш асосида ёзилган адабий эртаклар. Бунга Султон Жўранинг тожик халқ эртаги асосида ёзган «Зангори гилам», Э. Раҳимнинг турк халқ эртагидан фойдаланиб ижод қилган «Энг катта бойлик» ва ҳоказо каби эртакларини мисол қилиш мумкин.

Баъзи адиблар ўз асарларини эртак жанри стилизацияси асосида эмас, балки эртак образ ё мотивлари стилизацияси орқали яратганлар. Масалан, Собир Абдулланинг «Тоҳир ва Зухра» пьесаси, Чўлпоннинг «Ёрқиной» драмаси халқнинг шу номдаги эртаклари образ ва мотивлари доирасида ёзилган. Шу сабабли бу драматик асарлар гарчи эртак асосида яратилган бўлса-да, адабий эртак саналмайди. Демак, эртак шакли ва услубида яратилмаган асарлар адабий эртак бўлолмайди. Балки шоир ва ёзувчилар томонидан халқ эртаклари сюжетида фойдаланиб, қайта ижод қилинган, халқ эртаклари анъанаси асосида шеърӣ, насрий ё драматик кўринишда янгидан яратилган ёзма бадиий асар типи адабий эртак сифатида қаралади. Шу жиҳатдан қаралса, «Ўзбек адабий эртаклари» тўпламидан ўрин олган барча эртакларни адабий эртак деб бўлмаслиги аёнлашади.

Адабий эртакларнинг яратилишига, одатда, қуйидагилар сабаб бўлади:

1. Эртакка хос баён услуби ёзувчига ўз фикрини ўқувчиларга тез ва осон, қулай етказишга имкон беради.

2. Эртак халқ учун яқин жанр бўлганлиги сабабли ўқувчилар ҳам адабий эртак жанрида яратилган асарнинг ғоясини тез илғайдилар.

3. Давр воқелигини ташқаридан туриб таҳлил этишга, унга танқидий муносабат билдиришга имкон яратади. Чунки эртакларда, асосан, ўтмиш давр воқеалари, яъни эртанги кун – бурунги, илгариги вақт воқеа-ҳодисалари ҳамда келажакда кутилиши мумкин бўлган воқеликлар баёни фантастик, ҳаёлий уйдирма асосида баён қилиниши имконияти мавжуд.

4. Маълум бир ижтимоий вазиятда яшаётган ижодкор ўз даврида юз бераётган ижтимоий-сиёсий воқеа-ҳодисаларни очиқ-ошкора айтолмаганда, давр тақозосига кўра эртак сюжетида мурожаат қилишга мажбур бўлади.

5. Эртак воқеалари баёни берилаётган синтактик қурилмаларнинг кесими, асосан, ўтган замон эшитилганлик феълида бўлади. Шунинг учун адабий эртак муаллифи ёзаётган гаплар гарчи шу замонга тегишли бўлса-да, бир қарашда гўё ўтмишга дахлдордек тасаввур уйғотади.

Хулоса. Адабий эртакларнинг халқ эртакларидан асосий фарқи кўпинча уларнинг шеърӣ шаклда яратилишидир. Бироқ уларнинг насрий ва драматик кўринишда яратилган намуналари ҳам мавжуд. Адабий эртаклар фольклордан ўрганишнинг ўзига хос шаклидир. Унда мавжуд халқ эртагига кўр-кўрона эмас, балки янги ғоявий-эстетик идеал нуқтаи назаридан ёндашилади. Хуллас, болалар ижодкорларининг кўпчилиги эртак жанри стилизациясига аҳамият қаратишининг асосий сабаби

шундаки, образлар танлаш учун эртак анча эркинроқдир. Бундай қилиш асарга ҳаёт кўринишларини кенгроқ қамраб олишга ва ҳатто мавҳум нарсаларни ҳам символлар воситасида кўрсата олиш имкониятини беради.

АДАБИЁТЛАР:

1. Сафаров О., Баракаев Р., Жамилова Б. Болалар адабиёти. Бухоро, Дурдона нашриёти, 2019. – Б.173.
2. Бекназаров Қ. Ўзбек халқ маънавий эртаклари (ўрганилиши, таснифи, поэтикаси): Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1993. – 24б.
3. Akbarov Bahrom. G`alati sinov. – Toshkent: «O`zbekiston» NMIU, 2018. – 120 b.
4. To`xtaboyev X. Qaydasan, bolaligim: qissalar, hikoyalar, ertaklar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – B. 178-220.
5. Жаҳон халқлари эртаклари. Ўн жилдлик. Ўзбек адабий-фантастик эртаклари. 2-жилд. Семурғ. – Тошкент: Мерос, 1993. – 288 б.

**REY BREDBERINING “MARSGA HUJUM” (“МАРСИАНСКИЕ ХРОНИКИ”) ASARIDA
TARJIMA XUSUSIYATLARI VA TARJIMON USLUBI****Usmonova Zarina Habibovna,**

Buxoro davlat universiteti

Ingliz tilshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi

zarin_1908@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarjima turlari va ularning tarjimon tomonidan asar tarjimasida turlicha foydalanilishi, shuningdek, bu jarayonda asar tarjimasining asliyat mazmun mohiyatini buzmaslik uchun tarjimonning o'ziga xos uslubi haqida so'z boradi.

Tarjimon uslubi nafaqat til imkoniyatlarini qamrab oladi, balki asliyat, bilvosita va bevosita tarjima xususiyatlarda lingvomadaniy xususiyatlarni ham qamrab olishi, asliyatdagi ruhiyatni to'laonli buzmasdan kitobxon tiliga tarjima qilishda bilvosita tarjimaning ahamiyati yaqqol ko'zga tashlanadi. Jumladan, fantastik asarlar tarjimasida nafaqat adabiy, lingvistik, madaniy xususiyatlarni qamrab oladi, balki ular tarjima jarayonida sohaviy terminologik muhitni yaratadi. Rey Bredberining “Marsga hujum” asari bilvosita tarjimasida shunday asarlar sarasiga kiradi.

Kalit so'zlar: tarjimon, tarjima, leksik birlik, grammatik transformatsiya, uslub, tasviriy ifoda, transliteratsiya, transformatsiya, muqobil, kalkalash, obrazli tarjima.

Аннотация. В данной статье раскрывается представление о видах перевода и их различном использовании переводчиком при переводе произведения, а также о специфическом стиле переводчика, чтобы в этом процессе не нарушалось оригинальное содержание перевода произведения.

Стиль переводчика охватывает не только языковые возможности, но и языковые и культурологические особенности оригинала, непрямого и прямого перевода, причём ясно видна важность косвенного перевода в переводе оригинала на язык читателя без полного разрушения духа. В частности, перевод фантастических произведений охватывает не только литературоведческие, языковые, культурологические особенности, но и создаёт полевою терминологическую среду в процессе их перевода. Одной из таких работ является не прямой перевод «Атаки на Марс» Рэя Бредбери.

Ключевые слова: переводчик, перевод, лексическая единица, грамматическая трансформация, стиль, образное выражение, транслитерация, трансформация, альтернатива, калькирование, образный перевод.

Abstract: This article reveals the types of translation and their different uses by the translator when translating a work, as well as the specific style of the translator, so as not to affect the original content of the translation of the work in this process.

The style of the translator covers not only linguistic possibilities, but also the linguistic and cultural features of the original, indirect and direct translation, and the importance of indirect translation in translating the original into the language of the reader without completely destroying the spirit is clearly visible. In particular, the translation of fantastic works covers not only literary, linguistic, cultural features, but also creates a field terminological environment in the process of their translation. One such work is an indirect translation of Ray Bradbury's Attack on Mars.

Key words: translator, translation, lexical unit, grammatical transformation, style, imaginary expression, transliteration, transformation, alternative, tracing, figurative translation.

Kirish. Til rivoji bilan bog'liq jarayonlar, ayniqsa, tarjima sohasi jadal rivojlanmoqda. Adabiyotimizga kirib kelayotgan inglizxabon yozuvchilar ijodidan o'zbekchaga o'girilgan asarlar katta miqdorni tashkil etadi. Hozirgi globallashuv jarayonida tarjima qardosh xalqlar tillari hamda xorijiy tillarni o'rganishning muhim shartlaridan biri sifatida o'quv jarayonining barcha bosqichlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u o'quvchi va talabalarning o'rganilayotgan tillarni emas, ona tili hodisalarini ham ongli ravishda o'zlashtirishlariga ko'maklashadi. Biz yashab turgan jamiyatdagi hayot jabhalarini qamrab olgan taraqqiyot va ilmiy-texnik taraqqiyot va u bilan bog'liq bo'lgan xalqaro hamkorlik va kutilayotgan

demografik rivojlanishlar va boshqa mavjud bo'lgan muhim tammadunlar davlatlararo aloqani va har xil tilda gaplashuvchi elat va millatlar jamiyatning rivojlanishiga olib keladi. Bu jarayon bevosita adabiyotni ham chetlab o'tmaydi. Jumladan, texnika va kompyuter jadallashuvi asrida olamshumul kashfiyotlarning paydo bo'lishi turli adabiyotida ham aql bovar qilmaydigan xayolotlar olamiga mansub fantastik asarlar yaratilishi [11,1], ularning boshqa tillarga tarjima qilinishi ham tarjima sohasida, ham adabiyot sohasida ulkan burilishlarni yaratdi. Xususan, o'zbek tilida ham boshqa xalqlar tillaridan o'girilgan bilvosita tarjima namulari adabiyot ixlosmandlari qalbilaridan birdek joy olgan.

Ulardan ayrimlarining nomlarini tilga oladigan bo'lsak, yuqorida eslatilgan asarlar tarjimalaridan tashqari ingliz adabiyotidan yana Jeyms Grinvudning «Juldur kiyimli bola» (1961, N. Turmuxammedov tarjimasi), A.Konan Doylning «Chipor lenta» (1963, V. Ruzimatov tarjimasi), «Sherlok Xolms haqida hikoyalar» (1963. M. Mirzoidov), «Baskervillar iti» (1971, N.Xabibullayev), R. Kiplingning «Maugli», U. Xerbertning «Ko'rinmas odam» asarlari (1961, R.Komilov), Garriet Bicher Stouning «Tom tog'aning kulbasi», R.Stivenzonning «Xazinalar oroli», G.Xeggardning «Blosxolm sohibasi» (1975 N.Shomirzayev), Jeyms Oldrijning «Dengiz shunqori» romani (1977, E. Mirobidov), Amerika adabiyotidan Jek Londonning «Martin Iden» (1968, K.Mirmuxammedov), «Uch qalb» romanlari va hikoyalar to'plami (1958, F. Abdullayev), Mark Tvenning «Tom Soyernning boshidan kechirganlari va Gekl'berri Finning boshidan kechirganlari», «Shaxzoda va gado» hamda «Janna d'Ark» (1965, R.Komilov), Oliver Tvist romanlari, Teodor Drayzerning «Baxtiqaro Kerri», «Amerika fojiasi» romanlari (1976, U. Uemonov), F.Kuperning «So'nggi Mogikan» (1973, E. M irobidov), «Chingachuk ulkan ilon» (1971, E. Mirobidov) romanlari, Ernest Xemingueyning «Alvido, qurol!» kabi romanlar shoh tarjima asarlar hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, ingliz tilidan o'zbekchaga bevosita tarjima qila oladigan haqiqiy mutaxassis san'atkorlarning yuqligi sababli ingliz tilida ijod qilgan mualliflar asarlari o'zbek tiliga hamon rus tili orqali o'girilmoqda. Bu tarjima jarayonida muqarrar yo'l qo'yiladigan nuqsonlar miqdorining ikki baravar oshib ketishiga olib kelmoqda. Biroq ko'pchilik mohir tarjimonlarimiz asarlar ruhiga chuqurroq kirib borish va bu ruhiyatni o'zbek tiliga yuqori mahorat bilan talqin etish vositasida tarjimaviy qusurlar oldiga ma'lum darajada parda tutib kelmoqdalar.

Zero, mustaqillikdan keyingi yillar mamlakatimizda bilvosita tarjimadan bevosita tarjimaga o'tish jarayoni boshlab yuborildi. Bu sa'y-harakat o'zbek kitobxonlarining jahon adabiyoti durdonalari namunalari bilan batafsilroq tanishishlari uchun imkoniyat yaratib berish baravarida yaqin kelajakda tahlil va tadqiq uchun ham shubhasiz zaruriy material hozirlay oladi, degan umiddamiz.

Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan metodlar. Mamlakatimizda ko'p asrlik tarixiy davr mobaynida juda katta badiiy-adabiy, tarixiy, axloqiy, falsafiy, ilmiy, diniy asarlar o'zbek tiliga o'girildi. Bu ilmiy izlanishlar mahsuli o'laroq, tarjima adabiyoti rivojlanib, xalqimizning g'oyaviy-estetik ehtiyojini qondirishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Yurtimizda adabiyotimiz tarixining katta ulushini tashkil etadigan bunday boylukni ilmiy-tanqidiy o'rganib, natijasini tarjima amaliyotiga joriy etish tarjimachilik ishining yuqori saviyasini belgilaydi.

Xususan, tarjimonimiz Amir Fayzulla tarjimasiga mansub Rey Bredberining «Marsga hujum» romani ham bilvosita tarjima na'munasi bo'lib, ruschadan o'zbek tiliga o'girilgan. Tarjima jarayonida, odatda muqobillar ma'nosi ko'p hollarda kontekstga bog'liq bo'ladi, ammo lug'atga murojaat qilish ham muhimdir. Tarjima xususiyati tarjimada so'z ma'nolarini taxminiy tarjima qilishga yo'l qo'yilmaydi. So'z va uning ma'nolarini tarjimon yaxshi bilishi yoki ularni lug'atdan topishi shart. Aks holda tarjimon «tarjimonning soxta do'stlari» tuzog'iga tushishi muqarrar.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, asliyatdagi so'zga qisman to'g'ri keladigan ekvivalentni topish ko'pincha tarjima qilishda muammo yaratadi. Bunday so'zlar odatda polisemantik, ya'ni ko'p ma'noli so'zlarning ishlatishi va tillararo leksik xususiyatlar, madaniy xususiyatlar hisobga olinadi.

Asar tarjimasini o'qir ekanmiz, tarjimon fantastika ixlosmandlarini aynan yozuvchi zehni va xayoloti bilan kosmik parvozga undashi, undagi mo'jizaviy taassurotlarni, tasvirlarni musavvir chizgisiday asliyatdan emas, balki tarjimadan o'girgani bir qadar o'quvchini olis samo sari sayohat qilishga boshlashi, ajib fantastik ruhni kashf qilishda stilistik unsurlardan oqilona foydalanishi, o'quvchiga asliyatni ruhini saqlab qolishdagi harakatlari murakkab jarayonni kasb etadi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Asar tarjimasini xususiyatlari haqida so'z borganda, birgina asar boshidagi «Yanvar 1999 Raketa yozi» deb nomlanuvchi qismida Ogayoda qish tasvirining yozga aylantirishidagi yozuvchi tasvirlari ruscha tarjimada qanday o'girilgani yoki bo'lmasa bilvosita o'zbekcha tarjimasida qanday farqlar namoyon bo'lganini tahlilga tortganimizda ko'ramiz.

Masalan, “One minute it was Ohio winter, with doors closed, windows locked, the panes blind with frost, icicles fringing every roof, children skiing on slopes, housewives lumbering like great black bears in their furs along the icy streets.” [2,4]

“Только что была огайская зима: двери заперты, окна закрыты, стекла незрячие от изморози, все крыши оторочены сосульками, дети мчатся с горок на лыжах, женщины в шубах черными медведицами бредут по гололедным улицам.” [5,6]

“Hozirgina Ogayo qishi hukmron edi: eshik va derazalar taqa-taq yopilgan, oynalarni qalin qirov bosgan; tomlarning qirralaridan nayzasimon sumalaklar osilib turar, bolalar tepaliklardan chang'ilarda o'qdek uchar, qora ayiq mo'ynasidan tikilgan po'stinli ayollar sirpanchiq ko'chalarda kezinar edilar.” [6,3]

Ushbu misolda “One minute” ruschada “Только что...” bilvosita o'zbekcha tarjimasida esa “Hozirgina” ma'nolarida qo'llanyapti. Har uch tilda turli ma'no kasb etishi va asliyat kontekstida “aynan o'sha lahza”ni ifoda etishi, o'zbekchasida asl na'munasiga emas, balki ruscha bilvosita tarjimasiga murojaat qilinganini ko'ramiz.

Shuningdek, tahlil jarayonida o'zbekcha tarjima xususiyatlarini o'rganar ekanmiz, shu o'rinda tarjimaning grammatik transformatsiyalarini – grammatik va leksik ko'rinishlarini kasb etishini ko'rishimiz mumkin. Ba'zi vaziyatlarda ular bir-biriga mazmunan bog'lanib, leksik-grammatik xarakterga ega bo'ladi.

Masalan, “And then a long wave of warmth crossed the small town. A flooding sea of hot air; it seemed as if someone had left a bakery door open. The heat pulsed among the cottages and bushes and children. The icicles dropped, shattering, to melt. The doors flew open. The windows flew up. The children worked off their wool clothes. The housewives shed their bear disguises. The snow dissolved and showed last summer's ancient green lawns” [2,4].

“И вдруг могучая волна тепла прокатилась по городку, вал горячего воздуха захлестнул его, будто нечаянно оставили открытой дверь пекарни. Зной омывал дома, кусты, детей. Сосульки срывались с крыши, разбивались и таяли. Двери распахнулись. Окна раскрылись. Дети скинули свитера. Мамаши сбросили медвежье обличье. Снег испарился, и на газонах показалась прошлогодняя жухлая трава” [5,6].

“To'satdan issiq havo to'lqini shahar bo'ylab yoyildi, xuddi tasodifan ochiq qolgan novvoyxona eshigidan chiqqan hovur singari hammayoqni issiq havo qopladi. Uylardan shovullab suvlar oqdi. Butalar va bolalarning egnilari ho'l bo'ldi. Tomlardan sumalaklar uzilib tushar, yerga tushib mayda-mayda bo'lar va erib ketar edi. Eshiklar lang ochildi. Osmonda bulutning choki so'kildi. Bolalar egnilaridan sviterlarini yechib otdilar. Onajonlar ham ayiq mo'yna po'stinlarini yelkalaridan tashladilar. Qor erib, o'tloqzorda bulturgi maysalar mung'ayib ko'rindi” [6,3].

Tarjima xususiyatlarini tahlil ostiga olar ekanmiz, asl matnning leksik-grammatik xususiyati tarjimadan farq qilishini, bunda tarjima transformatsiyadan foydalanilganligining sababi shundaki, rus yoki o'zbek tilidagi gap ingliz tilining grammatik tuzilishi bilan mos kelmasligida deb izohlanadi hamda gapda so'z tartibi gaplarning joylashuv tartibidagi farq bosh gap va ergash gap tarkibidagi farqdir. Asliyatda qishning izg'irin tasviridan iliq tabiat tasviriga o'tishning berilishi “And then a long wave of warmth crossed the small town. A flooding sea of hot air; it seemed as if someone had left a bakery door open. The heat pulsed among the cottages and bushes and children” sodda yoyiq gaplar bilan berilgan bo'lsa, ruscha tarjimadan o'zbekchada o'girilganda “И вдруг могучая волна тепла прокатилась по городку, вал горячего воздуха захлестнул его, будто нечаянно оставили открытой дверь пекарни. Зной омывал дома, кусты, детей” – “To'satdan issiq havo to'lqini shahar bo'ylab yoyildi, xuddi tasodifan ochiq qolgan novvoyxona eshigidan chiqqan hovur singari hammayoqni issiq havo qopladi. Uylardan shovullab suvlar oqdi. Butalar va bolalarning egnilari ho'l bo'ldi” teng bog'lanishli sodda gaplar “vergul” bilan ajratilgan. “A flooding sea of hot air;” – ushbu qism gapning ikkinchi qismiga tegishli emasdek, nuqtali vergul bilan ajratilib go'yo davomi ma'no jihatdan unga bog'lanmagandek, ammo aslida “issiq havo oqimining” natijasida qanday holat taxmin qilinishi aks etgan, “a long way of warmth crossed the town” bilvosita o'zbekcha tarjimasida esa “И вдруг могучая волна тепла прокатилась по городку” – “To'satdan issiq havo to'lqini shahar bo'ylab yoyildi” kabi tarjima qilinishi, “the town” ingliz tili matnida to'ldiruvchi, o'zbekcha tarjimada ruschadan o'girilganda “shahar bo'ylab” hol vazifasida kelgan.

Bilamizki, tarjimada biror bir so'z turkumi boshqa bir so'z turkumi bilan o'zgartirilishi mumkin. Bu to'liq yoki qisman transformatsiyalarga bog'liqdir. Tarjima qilishda sifat, ot, fe'l va ravish bilan almashinishi mumkin.

Bundan tashqari, ushbu parchada bilvosita o'zbekcha tarjimaning “Uylardan shovullab suvlar oqdi. Butalar va bolalarning egnilari ho'l bo'ldi. Tomlardan sumalaklar uzilib tushar, yerga tushib mayda-mayda bo'lar va erib ketar edi. Eshiklar lang ochildi.” – “Зной омывал дома, кусты, детей. Сосульки срывались

с крыш, разбивались и таяли. Двери распахнулись. Окна раскрылись” – “*The heat pulsed among the cottages and bushes and children. The icicles dropped, shattering, to melt. The doors flew open. The windows flew up.*” quyidagi parchada o'zbekcha tarjima bilvosita ruschadan o'girilganda ruscha bevosita tarjimadagi bitta sodda yoyiq gap o'zbekchada ikkita yoyiq gaplarga aylangan.

Masalan, “*Uylardan shovullab suvlar oqdi. Butalar va bolalarning egnilari ho'l bo'ldi*” – “*Зной омывал дома, кусты, детей.*” – bunda ruscha tarjima asliyatga yaqin deb hisoblaymiz, bilvosita o'zbekcha tarjima esa leksik-grammatik xususiyat kasb etgandek, go'yo o'zbek tarjimoni tasvirni to'laqonli berish uchun gapni bittaga ko'payrib bergan. Bunda “grammatik nomuvofiqlik” ni ifodalashiga qaramay bevosita tarjimadan faqarli o'laroq keng mazmun anglatgan. Bevosita ruschada esa so'zma so'z tarjima ma'noni toraytirgandek xususiyat kasb etayapti.

Asliyatdagi “*The doors flew open. The windows flew up.*” – ruscha bevosita tarjimada *Двери распахнулись.*” deb berilgan bo'lsa, o'zbekcha bilvosita tarjimada “*Eshiklar lang ochildi*” deb ikkita gapni tejankorlik xususiyati ko'rinyapti, asliyatda ham “*eshik*”, ham “*dereza*” lang ochilib ketganligi tasviri berilyapti. Shu o'rinda ikkita “uslub muammosi” [1,359] yuzaga kelyapti.

Biz bilamizki, uslub muammosining ikki tomoni mavjud. Bu: yozuvchi uslubining tarjimon uslubiga ta'siri va tarjimon uslubining yozuvchi uslubiga ta'siri. “Uslubiy moslashtirish asarni ko'proq iqlimlashtirish, yozuvchini “o'zimzniki qilish”[1,359] maqsadiga xizmat qiladi.” deyilgan manbalarda. Aynan har bir shoirning, yozuvchi, tarjimonning o'z san'at asarini yaratishda o'ziga xos uslubi, tematikasi bor.

Shu o'rinda tarjimon-olim G'aybulla Salomov tarjimada uslub haqida shunday ta'kidlagan edi: “Tarjimon asarni boshqa tilda, ya'ni ona tilida qayta yaratish uchun muallif fikrini ancha pishitadi, o'ziga singdirib oladi, keyin matn xarakteriga qarab muqobil so'z tanlaydi, bu so'zlar ma'nosi, jarangdorligi, shakli, uslubiy muqobilligi, asl nusxadagi fikrini iloji boricha to'laroq ifodalash tashvishida yonadi” [4,57].

Yuqorida berilgan o'zbekcha bilvosita tarjimada ham tarjimon Amir Fayzulla harorat o'zgarishi bilan “*Eshiklar lang ochildi*” gapi nafaqat derezalar ham ochiqqligini, balki qish fasli tark etayotganligini, issiqdan betoqat odamlarning yelkalaridan qalin kiyimlari tushishi tasviri “*lang*” ravishini berishi bilan aloqadorlik mazmun kasb etayotganligini, asliyatdagi “*The doors flew open. The windows flew up.*” gaplari tejankorlik bilan birgina “*Eshiklar lang ochildi*” bilan ifoda etilyapti, leksik- grammatik xususiyat kasb etyapti.

Tarjima amaliyoti paydo bo'libdiki, asliyatni ona tiliga qanday o'girish lozim – so'zma-so'zmi yoki erkin tarzdamida degan masala tarjimonlar oldida kundalang turgan muammo sanaladi. Ayrim shaxslar, masalan, XX asrning boshlarida ijod qilgan san'atkorlar, so'zma-so'z tarjimoni yoqlab chiqqanlari holda, amaliy faoliyatlarida shu usuldan ko'prok foydalanib kelgan bo'lsalar, ko'pchilik ijodkorlar erkin tarjimoni afzal ko'rib, san'atkor asliyatning harfini emas, ruhi, so'zini emas, mazmunini, shaklini emas, unda mujassamlashgan axborotni bera bilishi kerak degan nuqtai nazarni olg'a surganlar. Ammo masalani nazariy hal qilish lozimligi hech kimning xayoliga kelmagan.

Tarjimaning maqsadi, kitobxonning saviyasi va didi, matn turi kabi qator masalalar muhokama kun tartibiga qo'yilmagan. Nazariy asosning ishlanmaganligi tarjima jarayoniga turlicha yondashishni keltirib chiqargan. Bu, o'z navbatida, qator tarjima turlarining vujudga kelishiga sabab bo'lganki, ularning ayrimlari ijodiy-ilmiy, ba'zilar illatli deb tan olinadi. Quyida ularning ayrimlari haqida fikr yuritiladi. Bu tarjima turida asliyat lisoniy vositalari matniy ma'nolari va uslubiy vazifalari umumxalq tili grammatik qoidalari bilan hamohanglikda qayta yaratiladi. Lisoniy vositalarning milliy-tarixiy, ijtimoiy va obrazli hissiy xususiyatlari asliyatga xos va mos tarzda talqin etiladi. Asar sahifalarida muayyan uslubiy maqsadlar uchun qo'llanilgan fonetik-orfoepik hamda leksik-grammatik nutqiy chekinishlar o'z vazifalariga muvofiq muqobil lisoniy vositalar yordamida tiklanadi. Bularning barchasi muallif maqsadining kitobxonga yetib borishi uchun imkon yaratadi. Keyingi tur so'zma-so'z tarjima haqida fikr yuritar ekanmiz, muallif matnini hijjalab o'girish orqali uning mazmuniy-vazifaviy uyg'unligini soxtalashtiradigan, hissiy-ta'sirchanlik xususiyatini, badiiy-obrazli asosini xiralashtiradigan, tarjima tili me'yori va madaniyatini barbod etadigan, binobarin, asliyatning tugal-adekvat tarjimasi sifatida qabul qilib bo'lmaydigan ikkilamchi matnga aytiladi. Bu tarjima turida asliyat tarkibidagi so'z birikmalari, barqaror iboralar grammatik qurilish, so'z tartibi aksariyat hollarda tarjima tili qonuniyatlariga moslashtirilmaydi. Ko'pchilik lisoniy vositalar matniy holatlariga, vazifaviy jihatlariga, davriy va milliy xususiyatlariga qarab emas, balki lug'aviy ma'nolari asosida o'giriladi. Bu hol milliy-tarixiy va hissiy-ta'sirchan lisoniy vositalarning qo'shimcha xususiyatlardan holi uslubiy betaraf, nursiz so'z va so'z birikmalari yordamida talqin etilishiga olib keladi. Binobarin, so'zma-so'z tarjima noshud tarjimonlar nazarda tutgan maqsadni - asarning mazmuniy-g'oyaviy xususiyatini kitobxonga to'la-to'kis yetkazib berish kabi vazifani o'tay olmaydi, chunki tarjimon oldida badiiy asarning boshqa bir shaxs tomonidan to'g'ri ma'nodagi, nursiz lisoniy vositalar yordamida amalga oshirilgan bayoni turadi. Suning uchun bunday amaliyot turi soxta tarjima usuli deyiladi.

Tarjima va tarjimashunoslik rivojlanishi va muammolariga bag'ishlangan turli mamlakatlarda badiiy tarjima, muammolariga bag'ishlab o'tkazilgan mintaqaviy kengash va simpoziumlardagi so'zma-so'z tarjima amaliyoti qattiq qoralanib kelindi, bu haqida ko'pgina tanqidiy fikrlar bayon etildi. A. Sharif o'z ma'ruzasida so'zma-so'z tarjima amaliyotini illatli usul deb hisoblagan bo'lsa, T. Gnedich uning ijodiy ish emas, balki «sirk tomoshasiga o'xshash masxarabozlik» ekanligini qayd etdi. X. Xantemirovaning fikricha, «eng yaxshi so'zma-so'z tarjima» ham asliyat boyligi va o'ziga xosligini to'la-to'kis talqin etishga o'zlashtirish qiladi. tarjimon va tarjimashunoslarning Moris Torez nomidagi Moskva chet tillar institutida «Tarjima nazariyasi va tarjimonlar tayyorlashning ilmiy asoslari» nomi bilan o'tkazilgan konferensiyasida M.L. Gasparov o'zining «So'zma-so'z tarjima va to'laqonlilik darajasi» deb atalgan ma'ruzasida amaliy faoliyatning ayni turini puch va samarasiz deb baholab, uning badiiy yodgorlik shakl va mazmunining dialektik birligi va butunligini qayta yaratib berishga o'zlashtirish ekanligini amaliy dalillar zaminida ilmiy asoslab berdi.

Haqiqat shundaki, tarjima xususiyati va tabiati so'zma-so'z amalga oshirilgan tarjima adabiy asar milliyligi va badiiyligini tashkil etadigan barcha unsurlarni juda xira talqin etadi: asar yaratilgan davr buyog'i, uning musiqiyligi va ritmi, hissiy-obrazli vositalari, personajlari nutqi tasviri, muvaffaqiyatli qo'llanilganligi tufayli ifodaning joziba kuchini oshiradigan yangi til birliklari, yozuvchining individual-ijodiy uslubi – bularning hammasi deyarli yo'qqa chiqariladi [7,15]. Biz tarjima bilan bog'liq sifatlarni ko'rib chiqar ekanmiz, tarjimon yaratgan bo'yoqsiz vositalarda muallif uslubidan ko'ra tarjimon qalami ko'proq ko'zga tashlanib turadi. Demak, so'zma-so'z tarjimaga mamlakagimizda ilgari xorijiy tillarni puxta egallagan ijodiy ziyolilarning yetishmaganligi tufayli noiloj murojaat qilingan, hozir esa o'zga tillarni mukammal egallagan ijodkorlarning borgan sari ko'plab yetishib chiqayotganligi tufayli unga amaliy faoliyatdan bemalol siqib chiqarilishi lozim bo'lgan illatli usul sifatida qaraladi. So'zma-so'z tarjima kitobxonni asar mazmuni bilan umumiy tarzda tanishtirgani holda, mukammal badiiy tarjima yaratish uchun xomaki matn sifatida xizmat qilishigina mumkin. Shu maqsadda ataylab tayyorlanadigan so'zma-so'z tarjimani ilmiy adabiyotda «taglama» [3,28] deb atashadi. Bu tarjima usuli yordamida o'tgan davrlarda ko'pgina ittifoqdosh respublikalar mualliflari ijod namunalari, shu qatorda o'zbek qalamkashlari asarlari ham rus tiliga tarjima qilinar edi. Taglamadan goho tarjimadan tarjima qilishda ham foydalaniladi.

Yurtimizda olib borilgan tadqiqotlar, xususan, tarjima faoliyati bilan bog'liq jarayonni ko'rib chiqar ekanmiz, Erkin Vohidov Gyotening «Faust» fojiasini o'zbek tiliga Boris Pasternakning ruscha tarjimasidan tarjima qilinganida shu asarning N. Xolodkovskiy rus tiliga asliyatdan o'girilgani, ruscha tarjimasidan taglama o'rnida foydalangani va bu matnning unga so'zsiz yordami tekkani haqida gapirgan. Shuni ham qayd qilish lozimki, taglama badiiy nutqqa xos xususiyatlardan birortasini ham o'zida mujassam etmasligi tufayli hech qachon nazariy umumlashtirish materiali sifatida xizmat qila olmaydi.

Keyingi tarjima turi tarjima amaliyotining muammoli usullardan bo'lmish bu turiga o'tgan asrning o'rtalarigacha tez-tez murojaat qilib turilgan, bunda tarjimon asliyatning shaklini to'la e'tibordan soqit etgani holda, mazmunini o'z so'zlari bilan sodda va qisqa hikoya qilib bergan. Onda-sonda dialogik nutq namunalari tarjimada berilgan bo'lsa-da, personajlar nutqi tasvirini tiklashga e'tibor qilinmagan.

Tarjimon va tarjima munosabati haqida so'z borar ekan, erkin tarjimada uslubiy pryomlar va badiiy-tasviriy vositalar vazifalarini qayta yaratishga deyarli harakat qilinmagan. Oqibatda, muallif yaratgan obrazli, hissiy-ta'sirchan ifodalar nursiz bayon darajasiga tushib qolgan. Gohida masala shu darajaga borib yetganki, tarjimonlar parchalar mazmunini, personajlar xususiyatlarini o'zlaricha o'zgartirganlar, butun boshli tasvirlarni o'zlaridan qo'shganlar, asardagi ayrim tasvirlarni tarjimadan tushirib qoldirganlar. Hatto asar personajlari nomlarini ba'zan o'z vatandoshlari nomlari bilan almashtirishgacha borib yetganlar. Bu jarayonda muallif asari tarjimada tanib bo'lmas darajada o'zgarib ketgan. Natijada asarni muallif yaratgan zaruriy shaklda emas, balki soddalashtirilgan, qisqartirilgan tarzda o'qigan o'zga millat kitobxonni muallif ijodi haqida no'to'g'ri tasavvurga ega bo'lgan.

Xususan, asliyat tilidagi bevosita tarjima qila oladigan usta san'atkorlari deyarli bo'lmagan xalqlarga erkin tarjima yo'li bilan bo'lsa-da, asarni yetkazib berish vazifasini o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan tarjimonni qaysidir ma'noda tushunish mumkin.

Bugungi kunda tarjimonlar «ortiqcha tashvishlar» bilan o'zlarini «band qilib» yurmasdan, asarlar qanday yaratilgan bo'lsa, ularni o'z tillariga shundayligicha talqin qilishlari, shu yo'l bilan kitobxonlarda asl nusxalar haqida xolisona tasavvur hosil bo'lishiga erishishlari lozim edi.

Zero, tarjimonning ijodkorligi uning hammuallifligida emas, balki asliyatning barcha tarkibiy unsurlarini aynan uziday qayta yaratishida namoyon bo'lishi darkor. Muqobillikka erishish borasida fikrimizni davom ettirar ekanmiz, davom etib kelayotgan uzluksiz ijodiy jarayon so'nggi yillarda erkin tarjima amaliyotiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdiki, keyingi 60-70-yil mobaynida amalga oshirib kelingan tarjimalar asliyat ruhini imkon qadar durust aks ettira boshladi, ya'ni tarjimalarda hozirgi kitobxon nuqtai

nazaridan nima qayta yaratilishi lozim bo'lsa, hammasini tiklash borasida sa'y-harakatlar olib borilmoqda, amalga oshirilayotgan tarjimalar muqobillik sari intilmoqda.

Tarjima turlari qatorida obrazlashtirilgan (idiomalashtirilgan) tarjima turi alohida ahamiyatga ega bo'lib, bu tarjima turida muallifning individual ijodiga xos tarzidagi tasvirni yuzaga keltirgan lisoniy vositalar asossiz obrazli iboralar, his-tuyg'uni ifoda etadigan so'zlar,

Xulosa qiladigan bo'lsak, tarjima xususiyati va tarjimon uslubi bir-biri bilan bevosita hamohangdek, ammo bu jarayonning nechog'lik ahamiyat kasb etishi tarjimon tanlovi bilan bog'liqdir. Zero, tarjimon ham yozuvchi singari asarga yangi hayot bag'ishlaydigan, adabiyotga hissa qo'shadigan a'zo sifatida vazifasi mavjud. Badiiy adabiyotda aynan fantastik asar bilvosita tarjimasida tarjimon uslubi va tarjima xususiyatlari bu sohaning turlari va me'zonlariga muvofiq amalga oshishda aynan lingvomadaniy xususiyatlar, terminologik tamoyillar, ingliz va rus tillar grammatik xususiyatining o'zbek tilidan farq qilishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu tanish holatlar Amir Fayzulla tarjimasidagi Rey Bredberi qalamiga mansub "Marsga hujum" asari bilvosita tarjimasida o'z aksini topgan.

ADABIYOTLAR:

1. Abdunabiyev Sunnat Botirovich. Tarjimashunoslikda uslub muammosining o'rganilganligi// *Ta'lim fidoyilari*. (Vol.1 ISSUE 1, (2022)). – P.359
2. Ray Brudbury. *The Martian Chronicles*. Voyager, An imprint of HarperCollins Publishers, London Bridge Street, London SE1 9GF Cover layout design © HarperCollins, Publishers 2014, P.302
3. М.И.Гаспаров. *Под строчники меры точности. «Теория перевода и научные основы подготовки переводчиков»*, - Москва, 1995.
4. Саломов Ф. *Таржима санъати. Мақолалар тўплами*. – Т.: "Фан", 1993. – Б.325.
5. Р. Д. Брэдбери. *Марсианские хроники*. © Издание на русском языке, оформление. ООО «Издательство «Эксмо», 2013, Ст.306.
6. Рэй Брэдбери. *Марсга хужум. "Янги аср авлоди"*, 2016. Б.3.
7. Файбулла Саломов. *Таржима таълими*. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат наشريёти, 1983. – 189 б.
8. Catford I.C. *Linguistic theory of translation*. – London, New York, 1982. – P. 228.
9. Muminov O., Sunnatov O. *Translation history*. – Tashkent, 1999. – P. 163.
10. Newmark P. *Approaches to translation*. – London, 1995. – P. 304.
11. Usmonova Zarina Habibovna. *The Implementing Author's Vivid Speculation of the Technologically Advanced Era in the "I Robot" By Isacc Asimov*. *Eurasian esearch Bulletin*, 7, 63–65. <https://geniusjournals.org/index.php/erb/article/view/1019>.
12. Erkinovna, Y. F. *Negative Politeness*. *Journal of Critical Reviews*, 7(6), 1249-1255. <https://media.neliti.com/media/publications/344146-negative-politeness-c55f7abc.pdf>.
13. Yuldasheva Feruza Erkinovna. *Politeness markers in spoken language*. *Euro-Asia Conferences*, 37–40. Retrieved from <http://papers.euroasiaconference.com/index.php/eac/article/view/528>.
14. Rasulov, Z. *Reduction as the way of the language economy manifestation*. *Центр научных публикаций (buxdu.Uz)*, 1(1). http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/2943
15. Musinovna, R. M. *Academic Integrity: Teaching and Learning Challenges*. *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*, 30–33. Retrieved from <http://conferenceseries.info/index.php/online/article/view/35>
16. Yunusova, A. *Evaluating co-production as a guiding philosophy for EASP teachet training course development*. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 25(25). https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/download/8314/5315

ROMANTICISM OF BYRON AND HIS WORK "CAIN"

Sadigova Nazila Elmar gizi,
Nakhchivan State University

Abstract

Introduction. One of the most valuable examples of English Romanticism is "Cain" by George Gordon Byron. In this work, the author's romanticism takes the reader to a time when there were still only 6 people on earth. Byron's work has been described as opposed to the aesthetics of realism. As it turned out, the European enlighteners of the XVIII century turned into a cult and opposed intelligence to God. And in the aesthetics of romanticism, which appeared in the form of a protest against enlightened realism, the hegemony of mind was not accepted, it was shown that reason raises doubts in a person about the existence of God.

Research methods: During the study, comparative analysis was mainly used as a research method. Through comparison and contrast research, the most problematic issues that bothered the author were identified. Byron's famous work "Cain" was studied in detail through an analytical and synthesis approach.

Results and discussions. The main issue in "Cain" that makes Byron think, is human, his first sin in life and the mission of Eternity, the coexistence of goodness and evilness and the dialectic of the world. From the very beginning of the work, Byron tries to instill in the reader the idea that the first sin of Adam and Eve, the expulsion of the human race from Paradise by that sin, does not justify the commission of other sins. According to the author of "Cain", a person should pray to God as long as he lives, be satisfied with the blessings given to him, stay away from evilness, work as long as he lives, and believe that his efforts will be rewarded.

Conclusion. In "Cain", Byron, like all other romantics, was made to think about the end of the world, and the great poet came to the conclusion that the salvation of the world lies in the union of souls and human.

The work instills in the reader the idea that the son of man must fight for a happy life for the duration of his existence, and although he has achieved great development by the power of cognition, he must always seek refuge in the mercy of God.

Keywords: Byron, romance, Cain, Demon, death, Kingdom, first, man, snake, killer, spirit

Introduction. One of the most complete examples of the romanticism of George Gordon Byron (1788-1824), who represented the English literature of the nineteenth century, is his work "Cain". The author's dedication to the Romantic aesthetic ideas is evident in this work in all of its forms. As a result, it is known that members of the Romantic literary movement could not tolerate the injustices of their daily lives, and frequently, in quest of a topic, they either looked to the past or sung about a future they had imagined. The author of "Cain" makes reference to the past, even the past in which there is still a society on earth made up of Adam, Abel, Cain, Eve, Ada, and Sella. Interesting enough, Byron was able to speak about humanity's past, present, and future thanks to six imagies. The painting also included two other copies: spirits named Angel and Demon. Apparently, Byron allowed romanticism to be revived even at a time when 6 people still lived on Earth. Also at the beginning of the work "Cain" the reader is faced with a suggestive epigraph. We read from the same epigraph that was taken from religious books: "the snake is the most intelligent animal on earth, and it was created by God [2, p. 179].

Of course, Byron did not select such an epigraph for his book by accident. It is well known that the European enlighteners of the eighteenth century promoted the mind and pitted it against the God. However, in the aesthetics of Romanticism, which arose in the form of a protest against enlightened realism, the hegemony of mind is not accepted, and it is demonstrated that mind makes people question if God exists. Thus, Byron's choice of an epigraph from a religious text is not accidental; in this epigraph, it is underlined that God has filled the intellect itself with living entities. The fact that "Cain" continuously brings up the issue throughout the evolution of all phenomena is of great artistic value.

Research methods: During the study, comparative analysis was mainly used as a research method. Through comparison and contrast research, the most problematic issues that bothered the author were identified. Byron's famous work "Cain" was studied in detail through an analytical and synthesis approach.

Results and discussions. We believe that Byron's use of the name "Cain" for his work is a further indication of union with the literary current that the author represents. Because a copy that rejects God, representing the mind in the work, trying to logically approach each stage of human history, is also an ability. For this reason, Cain does not understand the logic of living for die and accuses his parents of making a mistake by eating the fruit of the knowledge tree rather than the life tree while he is still in heaven. In the first scene of the first act of his play, Adam, Eve, Abel, Ada, and Sella, that is, five of the first six people on earth, express their gratitude by praying to God.

So it appears that Byron borrowed the topic of his writing from the Torah. Because the expulsion of the first people from heaven because of the sin of Eve is associated with the snake in the oldest book of heaven, and is also introduced as the most intelligent of animals, as shown in the epigraph to "Cain": "1. The snake was the most cunning of all wild animals created by the Lord God. The snake said to the woman (Eve - N.S.): "Did God really tell you not to eat from any tree in the garden?" 2. The woman said to the snake: "We can eat the fruits of the trees in the garden. 3. But God said about the fruit of the tree in the middle of the garden: "Do not eat from it and do not touch it, otherwise you will die!" 4. The snake said to the woman: "No, you will never die." 5. On the contrary, God knows that on the day you eat of these fruits, your eyes will be opened and you will be like God, knowing good and evil [6, p. 3].

Yes, the main question that makes Byron think in "Cain" is man, his first sin in life and his mission for eternity, the coexistence of good and evil, the dialectic of the world. From the very beginning of the work, Byron tries to inspire the reader with the idea that the first sin of Adam and Eve, the expulsion of the human race from paradise by this sin, does not justify the commission of other sins. According to the author of Cain, a person should pray to God while he is alive, be content with the blessings bestowed upon him, keep away from evil, work while he is alive, and believe that his efforts will be rewarded. So, in the work "Cain", other copies besides Cain, as well as Adam, Eve and their other children, continue to live with the same worldview. Cain alone approaches the issue from a different position, does not see sin in the snake, and accuses Adam and Eve of not making the right choice.

We think that in the XX century, Azerbaijani literary criticism approached the analysis of the image of Cain with a certain expectation of the principles of the dominant ideology, so it focused not on the author's goal, but on the appearance of the image. The same approach we also follow in A. Kurchayli's comments. The poet-translator presents the image of Cain in the most concise form: "The poem "Cain", written in 1821, is among the mysterious and mythical works of Byron; the poet as if tired of his realities was inclined to such topics more often at that time. The work is based on Biblical motives. The images of Adam, Eve, Cain, Abel in it are also religious-mythical images known to every reader. In this work, George Gordon Byron appears before the reader as a poet who completely gave wings to his dreams. Based on the fact that the essence of being consists of suffering, the romantic hero (that is, Cain – N.S) his heart is full of sadness, he tries to understand the mystery of the Earth and the sky, indulging his lonely existence." [7, p. 12-13].

Of course, some clarifications are needed regarding these considerations. Because the poem "Cain" besides not implying the author's turn away from real life, but, on the contrary, the work is designed for a more logical perception of contradictions in human society as well. On the other hand, although representatives of the literary trend of European romanticism in nineteenth-century were distinguished by various creative qualities, the vast majority of them opposed the ideal to real life. The thesis entitled "At present, the human heart needs an ideal life more than real life" [5, p. 15] belonging to Victor Hugo (1802-1885) actually expressed the common principle in European romanticism. That is, in Byron's "Cain" we see that both the ideal and real life are contrasted, the advantage is given to the first, and the idea of the need to approach life phenomena with the laws of logic is put forward. In fact, Byron's work "Cain" allows us to say that it is impossible to isolate any literary trend from other literary trends, and such an approach can result in a distorted analysis of artistic works. Here, let's consider that the image of Cain written by Byron also dreams of an ideal life - paradise as an individual. It is for the same reason that he does not want to agree with the harsh face of the life he lives and work all his life. According to Cain, it is not fair for his father Adam to live in anguish and eventually die because of his sin. Interestingly, from the very beginning of the work, Byron focuses on the point that, despite the fact that there are still 6 people on earth, each of them prays to God from a different point of view. For example, Adam and Eve are grateful to God, the creator of wisdom, for having broken through the darkness by one command and made the world exist. According to Abel, the creator of water, fire, earth, air, Moon and Sun is the Great God, and God not only created man, but also directed his love to man. In the prayer of Ada, Adam's daughter, it is emphasized that God not only created man, but also distinguished him from other beings by many qualities, endowed the human race with such higher qualities as virtue, honor, love, affection, respect. In his work "Cain" Byron takes the position that a

person who wants to find spiritual peace must come to terms with life, express gratitude to God, who, due to his existence, has an overwhelming force, stay away from grief, and be attached to hard work. Here, according to Byron, while Adam was still in paradise, he believed in the snake and the woman, he ate not the fruit of the tree of life, but the fruit of the tree of knowledge, and the fruit of the tree of knowledge condemned human generations to suffering on earth. Thus, Byron encourages readers of "Cain" to avoid loneliness, be grateful for God's mercies, and abstain from sin. In general, whether philosophical, religious or scientific-aesthetic thought lies in accepting the death of man as an individual. Cain, on the other hand, disagrees with the tendency to live to die. In general, doubts and hesitations do not give rest to Cain, Adam's first child. Even Cain tries to justify his position. "CAIN (alone): Is this also life? Work, work! How many should I work? Is it because my father Lost Heaven? So what is my fault? I was not born yet, I did not want to be born, and now I am not satisfied with the fact that I was born like that. Why did he compromise so much with the snake and his woman, and why does he suffer so much for this compromise? What was that tree? In the garden, grown, so beautiful... But who should have used it, who? If it wasn't for my father, so why was it grown next to him? To all these questions, they give only one answer: "He is a holy and blessed power." Is the blessing in power? But why is this blessing punishing me for the guilt of my parents?" [2, p. 181].

In theory, the picture of Cain represents a figure who, in the 18th century, advocated reality and cultured reason. According to romantic Byron, the mind has made a person think about Immortal Life since ancient times. However, it should be noted that happiness does not lie in immortality. That is why, during his dialogue with Cain, Devil tries to avoid answering the question about whether he is happy or not. It is interesting that in his work "Cain" The Devil also raises the problem of the creation of the world and man by God, and somewhat deepens Cain's doubts and hesitations. According to Byron, it is necessary to mark equality between Devil and Cain-man.

In the "Torah" it is indicated that because of the sin of Adam and Eve, God blames not only the first people, but also the serpent, identifying the earth as food for him, condemning him to crawl as long as he lives, but also stating that the death of the serpent was at the hands of the human race. According to Cain's thinking, it is not right to blame the snake, because the snake only showed Eve the trees of knowledge and life, and instead of eating the fruit of the tree of life and gaining immortality, Eve coveted the fruit of the tree of knowledge, thus she was expelled from paradise together with Adam. In Byron's presenting, Cain is also the first rebel on earth, and his estrangement from God makes him the first murderer at the same time.

Additionally, the complexity of the problems raised in the work "Cain" sometimes resulted in the appearance of one-sided judgments about this example of art. For example, in the textbook "History of XIX Century Foreign Literature" written by M. Y. Yelizarova, S. P. Gidjev, B. I. Kolechnikov and N. P. Mikhalskaya and translated into Azerbaijani by Ismail Shikhli, or in the textbook "World Literature" by A. Khalilov, the attention of scientific opinion is directed to the image of God supposedly written by the author, and the image is analyzed so: "God in Byron's work is ambitious, suspicious, cynical, miserly, fond of praise, in short, he has all the characteristics of the righteous on earth. Possessing deep intelligence and sensitive observational abilities, Cain doubts God's authority. With great passion, Cain strives to comprehend the universe and its laws, and this is achieved with the help of the proud rebellious angel Lucifer, who was expelled from God for being freedom-loving, like Milton's demon, but did not yield to the tyrannical ruler of heaven.

Lucifer opens Cain's eyes, makes him understand that all the disasters of people have been revealed by God, God has expelled them from hell, and God has condemned people to death [5, p. 133-134; 4, p. 270-271].

Undoubtedly, the reasoning in both textbooks appeared as a result of a subjective approach to the problem. Because in Byron's work "Cain", there is no image of God in general, only the attitude of all the images to God is written. Also, the idea that "Cain tries with great passion to understand the universe and its laws and succeeds with the help of Lucifer" also shows that the authors stand in a position of non-objectivity. It should not be forgotten that Cain is just trying to learn the essence of death, but even the Devil cannot teach him the secret of death.

In terms of the expression of the author's position in the poem "Cain", the perfection of Cain and the Devil is of particular importance, and that perfection begins on Earth and continues in the kingdom of spirits. The devil convinces Cain, who lives in the light of hesitations and hates himself and death because he will die, that even if the flesh of Man dies, his deeds will live. The angel, who later rebelled against God, states that he and Cain are different from the rest of the Angels and members of Adam's family. At this point in the work, the image of the devil was needed by Byron precisely to express the thoughts of a romantic writer. On

words, Devil's remarks were addressed to God. However, with the same remarks, bourgeois society, the rulers, who saw themselves at the top, relying on the power of wealth and power, indulged in all kinds of oppression, are being accused. In principle, Devil's monologue speech consists of the author's thoughts about society: "DEVIL: We are a creature that can realize our immortality and say looking into the eyes of that cruel person: "tyranny is not goodness". He says that he created you and me, I do not know this and I do not believe that it is so. If he created us, he will not destroy us. We are eternal, but with this greatness he is unhappy. We are happier than he is in all this struggle. They say that he is just, but Justice does not cause oppression, but He only creates oppression. Let him, with someone on his great throne, create worlds to lighten his indivisible eternity. Let him shine as many stars as he wants, and at the same time, he is still the only one, the immortal being. If he could destroy himself, it would be the most valuable contribution among his contributions. But let him rule his kingdom, let him torment as much as he wants. We souls are at least in harmony with you mortals, we share each other's troubles, this compromise can unite the whole world, but he! He is a wretch who cannot find solace in his own greatness, in his misfortune, he creates only to create without ceasing!" [2, p. 183].

Apparently, according to the Devil, the happiness of a person lies in his struggle, in the victory of his soul. Like all other romantics, Byron thought about the end of the world, and the great poet came to the conclusion that the salvation of the world lies in the Union of souls and man. In fact, at this point in the work, both Davil's and Cain's images were necessary for Byron to express his mental upheavals. Here, for Cain of Byron, there is no logic in the meaning of human life, it is impossible to reveal the secrets of life with knowledge. The reason for Cain's protest is that a man with the power of God is driven to destruction in the darkness and doubts.

Of course, Byron's "Cain" is primarily an author's protest against public oppression, a call to fight for a happy life. However, according to the author, a person's struggle against oppression should be carried out in unity with God. It is true that the Devil of "Cain" is sure that in the future, people like Cain will increase and those who serve the Devil will multiply. The devil connects his conviction with the fact that Adam and Eve ate the fruit of the tree of knowledge, and not the tree of life. Thus, Byron curses the knowledge that leads a person to godlessness and makes it clear that moving away from God essentially means taking refuge with the Devil.

Unconditionally, George Gordon Byron is known as one of the great pen holders, representing the literary trend of romanticism. However, the fact that Byron romanticism has its own unique qualities is a concept adopted in literary science. The great representative of world literary criticism V.G.Belinsky wrote in his article "the works of Alexander Pushkin", giving significant importance to the author's uniqueness in the literary trend of romanticism: "One "scholarly" critic of the thirties compared Pushkin with Byron in this way and concluded that the heroes of Pushkin's poems are as similar to the heroes of Byron's poems as little devil cubs are like demons, and therefore Pushkin is good for nothing. This scholar critic did not get into his mind at all, that just as Byron was not forced to be Homer, and Pushkin should not be considered Byron, he should be considered as Pushkin. This scientist critic, who was deceived by the outward similarity of forms in Byron's poems, less realized the fact that there was nothing in common between Pushkin and Byron in the direction and spirit of talent, and therefore any comparison itself is absolutely inappropriate here" [1, p. 136-137].

It is definitely possible to say that the place described as the kingdom of spirits in the work "Cain" is a direct product of Byron's pen, it captures the romantic poet's ideas about the universe, existence, and humanity. It's noteworthy that Byron brings up the problem that the romantics try to solve in this space, he claims that in a human being, the soul comes before the mind and aspires to learn new things. The conversation between Cain and the Devil in the hereafter leads to the conclusion that immortality belongs to the soul rather than the mind. At this moment, the Byronic romancitism tries to reveal the essence of the soul. According to the poet, the soul, which throughout history has raised a person to progress, receiving more and more new knowledge, sometimes turns out to be helpless even in the hands of the basest inclinations and desires, satisfying its spiritual hunger with lies. When Cain enters the world of spirits, the devil who serves as his guide teaches him that the Earth is an endless place and that if anything can transport a human into the past, it is a ghost. In general, the question of imagination or reality became seriously discussed by representatives of the literary movement of Romanticism. M. Alioglu's book "Romanticism of Huseyn Javid" clarifies the essence of the same problem as follows: One of the most significant issues that progressive Romanticism continually strives to address and which is a feature of its aesthetic and artistic principles is "imagination and reality." "The clearest division between the ideal and being was a distinctive feature of romantic art. Romantics perceived and described objective reality as an alien, realm without a

humanistic origin. Additionally, their ideal takes on an unreachable fictitious nature that is opposed to reality [3, p. 10].

Conclusion. Thus, it is made evident in “Cain” that the kingdom of death, as it is described by Byron, consists only of the author's imagination, which are dominated by a sadness with no apparent resolution. In the dream world, too, Cain is occupied by matters of death and life. At this point, it is as if Byron is looking for answers to questions raised in his mighty predecessor Shakespeare's “Hamlet”, but which still remain open. Byron's ghost recreates the appearance of the inhabitants of the kingdom of death. It is clear that before Adam, man lived on planet earth, and that man possessed a higher mind and intelligence. But already that person is in a state of shadow sculpted in the realm of death, and it is impossible for him to return to Planet Earth again. Because the planet Earth has completely changed, has become unrecognizable. The conversation between Devil and Cain at this point draws intriguing conclusions for the reader and serves to highlight some of the problems that cause humans to think romantically. Again, Cain claims that eating the fruit of the knowledge tree resulted in a person experiencing death, pain, sorrow, disease, and struggle:

“DEVIL: God says that he created animals as food for people, and people as food for himself. You would not tolerate animals being happier in life than you.

CAIN. Poor unfortunate people! Like the Sons of Adam, you were a victim of a sin you were unaware of. Even if you haven't tasted the fruits of knowledge, which only bring death, you have entered our era. Even those fruits turned out to be lying against us. He sold his false promise to us for knowledge for a price as terrible as death. But what do we now know instead of it, what?

DEVIL: Death itself will provide you with the ultimate knowledge. For Mortals today, death is a necessary and ultimate. Therefore, that fruit has brought you to something quite clear. Indeed, you are wrong, and while the forbidden fruit is perishable, it is not a liar.

CAIN: Incomprehensible, distraught world!

DEVIL: Your hour has not yet come: matter cannot understand the soul in all its perfection. But you discovered that the other Worlds also exist” [2, p. 202].

It is surprising that even through Cain traveled to the kingdom of death with the devil to seek answers to his questions, but did not agree with him on some issues, in particular, on Love. It is true that The Devil believes that people are doomed to experience misfortunes, it is natural that disasters on earth increase day by day, and human happiness has nothing to do with knowledge. Cain also feels sorry for the devil because of his lack of love. In this part of the work, Byron draws attention to another issue that worries his contemporaries, that is the place where God locates. According to Cain, man has the right to see the place of God, because man was created by God, and the attitude of the Devil to the same issue is different. The Devil claims that a person's actions will inevitably elevate his soul to the status of God or give it to the Devil. Yes, devil calls Cain to leave dreams, to look at real events through the eyes of cognition. In other words, the Devil glorifies understanding, and Byron wants to tell his reader that opposing spiritual understanding is nothing but human obedience to the Devil. The Devil emphasizes once more in these final remarks to the Son of Man that the coexistence of light and darkness in life, cruelty and charity, is the greatest truth: “return, return to your place, taste all the heavenly alms that he has bestowed! Do not be afraid of them, the God of goodness and badness did not create them that way. Cruelty and Mercy, both are a fact in themselves. Say to him, “he is just,” for what he has given you. If you see evil in it, don't blame me unjustly saying “this is the devil's work” without looking for the original source. The tree of knowledge has given you the only thing that is your cognition. Let this cognition of yours not tremble in the face of the angry orders of that authority, which forces you to believe contrary to thought and feeling. Think and be patient! Develop a strong sense of spirituality inside yourself to avoid seeing the emptiness and nothingness around you! Find spiritual eternity and break of earthly emotions!” [2, p. 209].

In “Cain”, after leaving the spirit world, Cain becomes a little more defiant while also becoming a little more depressed. Cain, Byron's romantic hero, comes to the conclusion that paradise is only a dream. Cain cannot agree with the suffering that his descendants will suffer because of the fault of his father Adam, and the thought that he will eventually return to a handful of land. The reason for Cain's grief and rebellion is suffering, sorrow and death, inscribed in the fate of the human race. Such sentiments drive Byron's hero to criminal activity. Ada, in contrast to her, believes that love is the way out.

Byron's “Cain” is completed with an instructive ending. Cain finally turns into a murderer, killing his brother Abel, bringing the first death to Earth, as a form of protest against God's choice to choose Adam. In this way, Byron's romanticism takes the reader to the early times of the birth of the human race, and also brings to mind the fact that man will be an enemy to man for centuries due to hatred, anger, and protest. The work instills in the reader the idea that the human must fight for a happy life for the duration of his existence,

and although he has achieved great development by the power of cognition, he must always seek refuge in the mercy of God.

REFERENCES:

1. Belinsky, V. / *Selected articles*. Baku: Ganjlik, 1979, p. 136-137
 2. George Gordon Byron / *Selected Works* / Baku: Sharg- Garb, 2006, p. 179
 3. Alioghlu, M. / *Romanticism of Huseyn Javid* / Baku: Azernashr, 1975, p. 10
 4. Khalilov, A. / *World literature* / Baku: Bilik, 2014, p. 270-271
 5. Yelizarova, M. Y., Gidjey, S. P., Kolechnikov, B. I., Mikhalskaya, N. P./ *XIX century foreign literature* / Baku: Azerbaijan State Teaching and Pedagogical Literature Publishing House, 1964
 6. https://turuz.com/storage/her_konu-2019-6/6166-Tovrat-Tevrat-azerbaycan_turkcesi-831s.pdf
 7. <https://www.clb.az/dosyalar/1387.pdf>
-

ZIYOVUDDIN HAZINIY SHE'RLARINING MANBALARI

Maqsudova Nigina Umar qizi,

Buxoro davlat universiteti

Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik

(o'zbek tili) yo'nalishi 2-bosqich magistranti

n.u.maqsudova@buxdu.uz

Annotatsiya: Maqolada Ziyovuddin Haziniy she'rlarining bosh manbalari bo'lmish Qur'oni Karim va Hadisi sharif va ularning g'azallardagi badiiy talqini bilan bog'liq masalalar yoritilgan. Shoirning o'z satrlarida Qur'oni Karim oyatlari hamda hadislardan foydalanish, ya'ni iqtibos va talmeh san'atini o'rinli qo'llay olish mahoratiga baho beriladi.

Kalit so'zlar: Qur'oni Karim, oyat, Hadisi sharif, tasavvuf, sabr, Ziyovuddin Haziniy, iqtibos, talmeh, badiiy mahorat.

Аннотация: В статье рассматриваются основные источники поэм Зиёвуддина Хазини, Священного Корана и хадисов, а также вопросы, связанные с их художественной интерпретацией в газелях. Оценивается умение поэта использовать аяты Священного Корана и хадисы в своих строках, то есть правильно использовать искусство цитирования и талме.

Ключевые слова: Священный Коран, аят, хадис Шариф, мистицизм, терпение, Зиёвуддин Хазини, цитата, талме, художественное мастерство.

Abstract: The article covers the main sources of Ziyovuddin Hazini's poems, the Holy Qur'an and Hadith, and the issues related to their artistic interpretation in ghazals. The poet's ability to use verses of the Holy Qur'an and hadiths in his own lines, that is, to use the art of quoting and talmeh appropriately, is evaluated.

Key words: Holy Qur'an, verse, Hadith Sharif, mysticism, patience, Ziyovuddin Hazini, quotation, talmeh, artistic skill

Kirish. Ma'lumki, Ziyovuddin Haziniy ijodini o'rganish va unga qiziqish shoirning hayotlik davridayoq boshlangan. Shoir merosi yuzasidan izlanishlar olib borgan olimlar Haziniy Qo'qon adabiy muhitining Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Muhyi, Nihoniy singari yirik ijodkorlar bilan bir davrda faoliyat yuritgan ulkan mutasavvuf shoir sifatida mashhur bo'lganligini ta'kidlashgan.

Asosiy qism. Ta'kidlash lozimki, Haziniy shaxsining xalq tomonidan juda sevilganligi va katta hurmat qozonganligi, ma'lum ma'noda, shoir asarlarining shuhratini ta'minlagan, deyish mumkin. Uning asarlari diniy-tasavvufiy yo'nalishdagi she'rlarning yetuk namunalaridan sanaladi. Haziniy ko'pgina she'rlarida Qur'oni Karim oyatlariga va payg'ambarimiz Muhammad Mustafo (s.a.v) hazratlarining hadislariga ishorat qilgan. Zero, Qur'on va hadislariga muvofiq, ularga hamohang holda asar bitish shoirdan yuksak ma'naviy poklik va ulkan ilmiy salohiyat talab qiladigan ijod uslubidir [3, 6 b.]. Mavlono Haziniyning ma'rifatli, fozil ijodkor va jo'shqin iste'dod sohibi ekanligini uning har bir satridan anglash mumkin. Fikrimiz isboti sifatida shoirning quyidagi baytini tahlilga tortsak:

Ki "Kulli man alayho foni" – deb, sango xabar berdi,
Bu oyat ma'nisini o'ylamaslar aksari johil.

Baytda shoir iqtibos san'atidan o'rinli foydalangan, ya'ni Qur'oni karim "Rahmon" surasining 26-oyati "Kulli man alayho foni" keltirilgan. Mazkur oyat "Yer yuzidagi barcha zot foni" degan ma'noni bildiradi. Baytdan dunyodagi barcha mavjudotlar o'tkinchi ekanligi, faqatgina ulug'lik va ikrom egasi bo'lgan Allohga boqiydir, degan mulohazalar anglashiladi. Baytda shoir johil inson masalasini ko'taradi. Haziniy nazdida barcha maxluqotlar foni ekanligini anglamagan insonlar johildir. Haziniy lirik merosining bosh manbayi Qur'oni karim ekanligini, shoirning deyarli barcha she'rlarida iqtibos sifatida oyati karimalar qo'llanilganligining asosiy sababi uning shaxsi bilan bog'liqdir, deyish mumkin.

Ta'kidlash lozimki, shoirning nasl-nasabi hazrati payg'ambarimiz Muhammad Mustafo (s.a.v)ga borib ulanishini tasdiqlovchi shajaraviy hujjatlar asl manba sifatida shoir avlodlari qo'lida saqlanmoqda. Shoir ajdodlariga mansub ikki shajaraviy hujjatda, xususan, hijriy 1287- (milodiy 1870) yilda tuzilgan nasabnomada

Shoir ota tomonidan Nabiraxoja ismli ajdodi orqali 24 nasab bilan, ikkinchi shajarada ona tomonidan ham hazrati payg'ambarimizga ulanishlari 74 va 22 muhr bilan tasdiqlangan. Qolaversa, Haziniyning payg'ambar avlodi ekanligiga ishoratlarni uning ba'zi she'rlarida ham uchratamiz. Shoir tarbiyalangan muhitga e'tibor qaratsak, u 1897-yilda qo'qonlik Hakimxon xalifaga alohida ixlos bilan qarab, u zotga murid bo'ladi. Ya'ni Hakimxon xalifani pir tutadi va tasavvuf yo'liga kiradi. Tariqat maqomlarini bosib o'tib, o'sha davrdagi Qodiriya tariqatining peshvolaridan biri – murshidi komili darajasiga yetadi. Diniy manbalarda Haziniyning karomatlari bilan bog'liq bir necha manobalar yetib kelgan. So'fiy-shoir haqida quyidagi asoslar qayd etilgan: “Haziniyning ahli tariqat bo'lishiga, pirga qo'l berishiga va o'zining ham pir darajasiga yetishiga avvalo, Haq taolo izni inoyati bilan, shu valiylik xislati sabab bo'lsa, ikkinchidan uning shajarasi, ya'ni nasl – nasabi ham muhim omil hisoblanadi [3, 3-4 b.].

Ziyovuddin Haziniyning bir qancha she'rlarida Qur'oni karim oyatlariga murojaatlarini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, “Qil, yo, rab!” radifli g'azalning 9- baytini aytish lozim:

Umidim shul erur, Qur'ondakim “Lo taqnatu” debsan,

Vafo aylab, o'zing aytgon so'zingni yod qil, yo rab!

Baytdagi “Lo taqnatu” – Lo taqnatu min rahmatulloh – Alloh rahmatidan noumid bo'lmanglar degan ma'noni bildiruvchi mazkur jumla “Qur'oni Karim”dagi “Zumar” surasining 53-oyatidan olingan. Ushbu oyatda shunday deyiladi: “Sen mening tarafimdan: “Ey o'z jonlariga isrof (jabr) qilgan bandalarim, Allohning rahmatidan noumid bo'lmang! Albatta, Alloh barcha gunohlarni mag'firat etar. Albatta, uning o'zi o'ta mag'firatli va o'ta rahimli zotdir”, deb ayt. Shuningdek, Imom Buxoriy Sa'd ibn Jubayrdan (r. a.) keltirilgan rivoyatda aytilishicha, ko'plab gunohlar qilgan bir guruh mushrik Rasullohning (s.a. v.) huzurlariga kelib: “Albatta sen da'vat qilayotgan narsa juda ham go'zal. Qani, ayt-chi, biz qilgan narsalarni yuvadigan narsa ham bormi?” deb so'rashganda Alloh taolo ushbu oyati karimani tushirgan ekan [8].

Baytda keltirilgan iqtibos asosida mahshar kuni shoir o'z gunohlarining kechirilishi uchun Parvardigori Olamga iltijo qilib, ayni jihatdan umidvor ekanligini anglash mumkin. Haziniy ushbu oyatdagi Allohning insoniyat gunohidan kechishni va'da qilganligidan alohida umidvor bo'ladi. Fikr ta'sirchanligini oshirish uchun shoir nido san'ati (yo rab)dan o'rinli foydalanganligini ta'kidlash lozim. Iqtibos asosidagi “Yig'lar” radifli g'azalining 5- baytiga ham e'tibor qaratsak:

Ki “Val yabku kasiran” ma'nisini o'ylagan odam,

Hayoti ichra kulmay, barchadin tarki vatan yig'lar.

Mazkur she'rdagi “Va-l yabku kasiran” jumlasini “ko'p yig'lasin...”, degan ma'noni bildiradi. Qur'oni karimning “Tavba” surasidagi 82- oyatidan olingan ushbu oyatda shunday deyiladi: “Bas, qilgan kasblari tufayli oz kulib, ko'p yig'lasinlar. (Ular bu dunyoda qancha ko'p kulsalar ham oz bo'ladi, oxiratda ko'p yig'lashlari turgan gap)”[8].

Haziniy ushbu bayt orqali kimki, mazkur oyati karimaning ma'nosini bilsa, hech qachon huda - behuda kulmay, ya'ni hayoti davomida yaxshi amallar bilan birgalikda, Alloh nomini zikr etib, qilgan gunohlari uchun chin dildan tavba qilib, duo qilishlari kerakligiga urg'u beradi.

Haziniy To'ra shariyatining asosiy qismida tasavvufiy g'oyalar ifodalangan bo'lib, asarlari davomida Quroni karim oyatlari bilan birga Rasululloh hadislariga ham murojaat etilganligini ham ko'rish mumkin. Shoirning she'rlarida mahshar kunidagi azob- uqubat va jazolardan kuchli hayajonlanish, qattiq vahimaga tushish, hamda Haq taoloning o'z mo'min bandalariga ato etgan cheksiz inoyatlari ham bayon etilgan. Misol tariqasida Haziniy she'rlarida ifodalangan hadislarining badiiy talqiniga e'tiborimizni qaratsak:

Gohi savhu qasd ila har kimni etma g'iybatin,

Ey birodar, pand shul: andishayi uqboni qil.

“Qil” radifli g'azalning 4-baytida “G'iybat” qilish haqidagi hadisning ma'nosini aks ettirilgan. Hadisga ko'ra, birovga qasd qilib, uning g'iybatini qilma, chunki qiyomatda buning javobi og'ir bo'ladi, degan mazmun singdirilgan. G'iybat haqida Abu Hurayra roziyallohu anhudan keltirilgan bir hadisda rivoyat qilinadi: “Rasululloh “G'iybat nima ekanligini bilasizlarmi?” deb so'radi. Sahobalar “Alloh va uning rasuli bilguvchiroqdir”, deb javob berdilar. Rasululloh “G'iybat bir birodaringning orqasidan o'zi eshitsa, yomon ko'radigan sifat bilan gapirishingdir”, dedilar. Shunda ulardan biri “Agar birodarimda men aytgan o'sha sifat bor bo'lsa ham g'iybat bo'ladimi?” deb so'radi. Rasululloh “Unda bor aybni aytgan bo'lsang, g'iybat qilgan bo'lasan. Agar sen aytgan sifat unda bo'lmasa, bo'hton qilgan bo'lasan”, deb javob berdilar. Demak, birovning aybini oshkor qiluvchi so'zni, agar to'g'ri bo'lsa ham, aytish joiz emas ekan. Chunki bu bilan g'iybat qilingan bo'ladi. Agar yolg'on bo'lsa, tuhmat va bo'hton bo'lgani uchun gunohi ham ikki hissa bo'ladi. [2]

Hadisi sharif bilan birgalikda Qur'oni karimda ham g'iybat mo'min bandalar uchun eng yomon xislat ekanligini ta'kidlangan. Alloh taolo g'iybatning haqiqiy mohiyatini Qur'oni karimda bayon etib, insonlarga shunday xitob qiladi: “...(O'zgalar aybini qidirib) josuslik va biringiz biringizni g'iybat qilmang! Sizlardan biror

kishi o'lgan birodarining go'shtini yeyishni xohlaydimi?! Uni yomon ko'rasiz-ku, axir! Allohndan qo'rqingiz! Albatta, Alloh tavbalarni qabul qilguvchi va rahmli Zotdir" ("Hujurot" surasi, 12-oyat) [8].

Haziniyning keyingi baytida ham hadis mazmuni bilan bog'liq mushohadalar aks ettirilgan:

O'ylamay har kimsa sirin, bilmayin foshi xato,
Koru bori ma'siyat etgon ishi bejoni qil.

Islomiy e'tiqodga ko'ra, g'iybat qilish, birovning obro'sini to'kish, unga ozor yetkazish mumkin emas. Shu munosabat bilan, hatto badiiy asarlarda ham g'iybat qilish va ozor yetkazish qattiq qoralangan. Rasulloh me'rojga ko'tarilganligida ham shu toifa kishilarini ko'rganliklari diniy manbalarda qayd etilgan: "Rasululloh Me'roj kechasida bir qavmning oldidan o'tdilar. Ularning tirnoqlari qo'rg'oshindan bo'lib, o'zlarining yuzlarini va kuraklarini tirnayotgan edilar. Buni ko'rib, ajablangan Rasululloh: "Ey Jabroil alayhissalom, bular kim?" deb so'radilar. Jabroil alayhissalom: "Bular odamlarning go'shtini yeydigan va ularning obro'larini to'kadigan kishilar", deb javob berdilar" (Abu Dovud rivoyati) [2].

Shuning uchun Haziniy bilmasdan har bir insonning sirini fosh qilmaslikni, bu aniq va ochiq xato ekanligini bayt mazmuniga singdirgan. Hadisi shariflarda, hatto, kimki birovning obro'yini himoya qilishi ham o'zi uchun katta naf' ekanligi aytiladi. Masalan, Abu Dardo roziyallohu anhu rivoyat qiladilar: "Rasululloh aytdilar: "Kimki bir birodarining obro'sini himoya qilsa, qiyomat kuni Alloh taolo uning yuzidan do'xaxni daf qiladi" (Imom Termiziy rivoyati) [2].

Islom dini zahirida shakllangan tasavvuf ta'limotida komil inson tarbiyasi alohida o'rin egallaydi. Komil inson hech qachon birovga ozor yetkazmaydi, birovning sirini bilishga oshiqmaydi va uni boshqalarga yoymaydi. Bu borada Amr ibn Ossdan shunday rivoyat qilinadi: "Birovga sirimni aytsam, uni fosh qilgani uchun malomat qilmayman. Qanday ham uni malomat qilay? Axir o'zim uni sig'dira olmadimku

Demak, o'z ichingda saqlay olmay siringni birovga aytdingmi, u ham birovga aytsa, sen undan xafa bo'lma. U ham senga o'xshagan inson. Payg'ambarimiz Muhammad sallolahu alayhi vasallam: "Kim senga bir gap aytib, atrofga alanglab qo'ysa bu omonatdir", deganlar. Chunki gap aytaturib xavotirlangan odam, gapimni boshqa birov eshitib qolmasin, degan ma'onda alanglab qo'ydi. Demak, bu gap sir saqlanishi lozim bo'ladi. Bu gapni sir saqlamay boshqalarga aytgan odam esa, xiyonatkoridir.

Haziniyning quyidagi baytida ham hadislardagi mazmun ifodalanganligini ko'rish mumkin:

Shod etgil har kishini bu tiriklikda mudom,
Tashla dilozorlikni, toatu taqvoni qil.

Shoirning fikriga ko'ra, har bir insonni tirikligida qadriga yetib, ko'nglini shod etmoqlik lozim. Zero, birovning ko'nglini og'ritmoq Ka'bani vayron etish bilan barobardir. Haziniy insonlarga dilozorlikni qo'yib, toat-ibodat bilan mashg'ul bo'lmoqlikni qayd etib, dilozorlikning katta gunoh ekanligiga urg'u beradi. Ayni mulohazalarni yana bir she'rida ifodalaydi:

Kishi mo'min diliga zarracha ozor yetkursa,
Qiyomat kun qolur beshak jahannamning jafosiga.

Haziniy To'raning ko'pgina she'rlarida inson ko'ngilni og'ritmaslikka chorlovchi she'rlar salmoqli o'rin egallaydi. Jumladan, yuqoridagi misralarda ham mo'minnning diliga ozor yetkazgan kishi qiyomat kuni, albatta, jahannam jafosiga duchor bo'ladi. Bejizga ko'ngil Alloh taoloning nazargohi deyilmagan. Inson qalbi ulug' taxt demakdir. Shuning uchun inson qalbiga yetkazilgan ozor Ka'ba buzilishidan-da, og'irroqdir. Haziniy mazkur baytda tanosib (mo'min, qiyomat, jahannam) san'atidan o'rinli foydalanib, fikr ta'sirchanligiga erishgan.

Ma'lumki, sabr islomda va tasavvufda alohida mavqega ega. Alloh Taoloning muqaddas kitobi Qur'oni Karimda va Muhammad payg'ambarimizning Hadisi shariflarida ham sabr qilmoqlik haqida fikrlar uchraydi. Islom va tasavvufning ko'pgina g'oyalarini kuylagan badiiy adabiyotda ham sabr bilab bog'liq talaygina she'rlar yaratilgan. Shoir Haziniy devonida ham sabr va sabr egasi bo'lmoqlik bilan bog'liq baytlar mavjud. Haziniyning quyida baytiga e'tibor qaratsak:

Xudoga bandalik shuldur, rizo bo'lsa qazosiga,
Buyursa har nechuk kulfatni, sabr etsa balosiga.

Haziniy musulmon kishi uchun sabr yuksak fazilat ekanligini, inson doim qazosiga rozi bo'lishi lozimligini, Allohndan kelgan qiyinchiliklarni sabr-u bardosh bilan yengmoqlik darkorligiga urg'u beradi. Demak, sabr deganda, avvalo, musibatga bardoshli bo'lish, Allohning taqdiriga e'tiroz bildirmaslik tushuniladi. Ayni masala Qur'oni karimdagi "Oli Imron" surasining 146-oyat ham o'z ifodasini topgan: "...Alloh sabrlilarni sevar" [8]. Sabr - mashaqqatlarga chidash, iymon taqozo qilgan ishlarni amalga oshirish, Allohning hukmiga rozi bo'lishdir. Chunonchi hazrat Abu Hurayra (r.a.) shunday deganlar: "Kimga sabr qilish ne'mati ato qilingan bo'lsa, u hech qachon savobdan mahrum qolmaydi". Chunki Alloh taolo Qur'oni karimda: "... Albatta, sabr qiluvchilarga mukofotlari behisob berilur" ("Zumar" surasi, 10-oyat) deb marhamat qilgan. Demak, inson hayoti davomida, har qanday sharoitda ham sabr va qanoat bilan yashashi zarur. Sabr barcha fazilatlarining asosidir.

Shuning uchun ham, Alloh taolo Qur'onda mo'minlarning asosiy sifatlaridan biri sabr ekanini qayta-qayta ta'kidlaydi. Ulamolarimiz fazilatlarini bir butun jasadga o'xshatishsa, sabr esa o'sha jasadning boshidir deydlar. Payg'ambarimiz (s.a.v.) ning sahobalaridan ikki kishi uchrashib qolsalar, "Val asr" surasini bir-birlariga o'qib bermasdan tarqalmas ekanlar. Unda "bir-birlarini sabrga chaqirganlar ikki dunyo baxti saodatiga musharraf bo'lishlari bayon qilingan. Haziniyning baytida ham Allohga bandalikning sharti – sabr egasi bo'lmoqlikdir, deya ta'kidlaydi. Shoir tanosib asosida kitobxonga o'z mulohazalarini ta'sirchan yetkazgan.

Ziyovuddin Haziniy she'rlari Qur'oni karim va Hadisi sharif g'oyalari asosida yaratilgan. Shoir she'rlarining har bir misrasida oyat va hadis talmeh sifatida yoritilgan. Shoir asarlari o'z davridan boshlab hozirga qadar tarbiya vositasi bo'lib kelmoqa. Haziniy asarlarini o'qib o'rganish barkamol avlod tarbiyasi uchun ahamiyatli sanaladi.

ADABIYOTLAR:

1. Abdulaxatov N. va boshqalar. *Xaziniy yurti*. – T.: Yangi asr avlodi. 2010.
2. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al- Buxoriy, *Al –jomi' as-sahih*. Arabchadan Zokirjon Ismoil tarjimasi. – T.: 1991.
3. Haziniy. *Devon*. – T.: Ma'naviyat. 1999.
4. Haziniy. *Tasadduq, yo Rasululloh*. – T.: Yozuvchi. 1992.
5. Komilov N. *Tasavvuf*. – T.: Movarounnahr. 2009.
6. Maqsudova N. *Haziniy Xo'qandiyning ma'naviy merosi*. *Central asian academic journal of scientific research*. 2022.
7. *Navoiy asrlari lug'ati*. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1972.
8. *Qur'oni karim. (O'zbekcha izohli tarjima)*. – T.: 1992.



Navoiy gulshani

РИЁВУ УЖБУ ҲАСАД ДАФЪИН ЭТ ...

Ражабова Маришат Бақоевна,

Бухоро давлат университети

Ўзбек тили ва адабиёти кафедраси доценти, ф.ф.д.

Бировки амр хилофидин айлағай иъроз,
Агар улус шаҳидур йўқ анинг киби муртоз.

Риёву ужбу ҳасад дафъин эт фано билаким,
Кетар бу дору ила мунча мухталиф амроз.

Амалға боқмаки бебахри фазл эрур яксон,
Фузайли Бармакий ўлсун, Фузайли Аёз.

Замона аҳлини бу коргоҳ аро билгил,
Зуруфеким тўладур анда мухталиф ағроз.

Ҳалоки нафс вали нутқи билки, риштайи куфр
Кесар ишига Али зулфикоридур микроз.

Замона мушкунга кофур қотти, кўз очғил,
Ки чун кўз оллидадур бўлмас айламак иғмоз.

Савод жаҳлини юб, вақт эрурки уйғонсанг,
Ки умр шомиға субҳи ажал кетурди баёз.

Фақир яшурун охиға боқмаким, ўртар
Жаҳонни, гарчи эрур бу чокин иши иймоз.

Бўлур ўлукка Навоий ҳадиси жон берса,
Нединки файз эшигини боғламайдурур файёз.

Улуғ шоир Алишер Навоий лирик меросининг мавзулар доираси ниҳоятда кенг. Шоир қайси мавзуда қалам тебратмасин, уларни юксак жамият ва унинг маънавиятли инсонларини тарбиялашга йўналтирганлигини кўришимиз мумкин. Зеро, академик Б.Валихўжаевнинг ўринли таъкидича: «Комил инсон Алишер Навоий ижодида таянч нукта бўлиб, жамиятнинг иқтисодий, ижтимоий ва маънавий ҳаётига оид барча муаммоларни ҳал қилиш унинг воситасида амалга ошади». Юқорида келтирилган ғазалда ҳам инсон хулқини гўзаллаштириш, нуксонларини бартараф қилишга қаратилган панд-насиҳатлар уфуриб турибди..

Панд-насиҳат руҳида ёзилган ушбу 9 байтли ғазал Алишер Навоийнинг “Бадойиъ ул-бидоя” (Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. I жилд. -Тошкент. “Фан”, 1987, 248-бет) девонидан ўрин олган. Ғазалда инсонларни огоҳликка чақириш, нафси амморани жиловлаш, умрни эзгу ишларга бағишлаш ғояси устиворлик қилади.

Улуғ шоирнинг жуда кўп ғазалларида дарвешларнинг шоҳ эмас, шоҳларнинг дарвешсифат, яъни давлат ва салтанатга кўнгил боғламаслигини, дарвешлардек эътиқотда собит, маънавий қудрат соҳиби бўлишини истаганлигини кўришимиз мумкин. Шундагина шоҳда мансабпарастлик ва манфаатпарастлик, худпарастликдан нишон ҳам бўлмайди.

Таҳлилга тортилган мазкур ғазалнинг дастлабки байтида эса айтилган фикрнинг тескари жиҳатини кузатишимиз мумкин. Байтдаги **иъроз** – узоқлашиш, қочиш, юз ўгириш, **муртоз** – риёзат, тақво билан нафсини тарбиялаган, тийинган одам маъноларини англатувчи сўз. Навоий таъкидича, Аллоҳнинг амру фармонида амал қилиб яшайдиган одам чин инсондир. Худо амрига хилоф иш қилишдан ўзини сақлайдиган одам, агар у халққа шоҳ бўлса ҳам, риёзату тақво (дарвешлик)да унга тенг келадигани йўқ.

Ғазалнинг иккинчи байтидаги **риё**, **ужб**, **фано**, **амроз** сўзларининг изоҳи байтнинг маъносини англашга кўмаклашида. **Риё** – кўз бўямачилик, ўзини кўз-кўз қилиш, алдаш, сохта тақводорлик; **ужб** – манманлик, такаббурлик, ўзига оро бериш; **фано** – йўқолиш; тугатилиш; **амроз** – касалликлар, “мараз”нинг бирлик шакли.

Байтда насиҳат руҳи устивор. Шоир инсонларнинг ёмон хислатлар (риёкорлик, манманлик, такаббурлик, ҳасад ва бошқалар)дан халос бўлишларининг ягона йўли - Ҳаққа чин юракдан юз ўгиришдир,- дея маслаҳат беради. Чунки инсон ёмон хислатларни йўқотиш – фаний этиш орқали, нафс ғуғулаларини енгитиш, бунинг натижасида ичдаги **амроз** – ахлоқий касалликлардан холос бўлиши мумкин.

Инсон наслу насаби, амалу мансаби билан эмас, эзгулик йўлидаги ишлари, гўзал хулқи билан шарафлидир. Шоир ғазалнинг учинчи байтида ўз фикрини асослаш учун ҳаётий мисолга мурожаат қилади. Бунинг учун машҳур дарвеш Фузайл Аёз билан Аббосий халифаларнинг машҳур вазири Фузайл Бармакийни солиштиради. Бири оддий дарвеш, иккинчиси буюк донишманд вазир. Худо олдида уларнинг қайси бири қадрли? Кимники инсоний фазли баланд бўлса, ўшанинг кадри баланд. Яъни Оллоҳ уларнинг амалу мансаби ёки танлаган йўлига қараб эмас, балки илоҳий фазлдан баҳрамандлигига қараб баҳолайди.

Ғазал ҳажвий, киноявий руҳда давом этади. Навбатдаги байтда пояма-поя баланд пардага кўтарила борган шикоят, норозилик, танқид юқори чўққига чиққан.

Инсон яратибдики, унинг вужудида эзгу фазилатлар билан бирга, ноқис хислатлар ёнма-ён яшаб келади. Улуғ шоир ғазалнинг тўртинчи байтида одамларни ажойиб бир ўхшатиш билан танқид остига олади. Замона аҳлини **зуруф** – идишларга ўхшатади. Бу идишларнинг ичи **ағроз** – ғаразлар, мақсадлар билан тўла. Яъни бу дунёдаги одамлар худди ичига турфа касалликлар тўлдирилган идишлар кабидирлар. Бу касалликлар - маънавий касалликлардир. Фиску фужур, лаганбардорлик, тилёмагарчилик, ҳасад, ғазаб, масабпарастлик... Шоир буларни барчасини битта ном – нафс дея атайди.

Алишер Навоий кейинги байтда китобхонга ана шу касалликлардан қутилишнинг йўлини кўрсатади: Нафсни ҳалок этувчи куч – бу вали инсонлар нутқи – нафаси деб бил, бу нутқ худди Ҳазрати Али каримуллоҳ қиличидай нафс риштасини кесувчи микроз яъни қайчидир.

Байтдан-байтда шоирнинг куюнчақлиги ортиб боради. У замона аҳлини хушёрликка чакиради. Олтинчи байт инсонни ғафлатдан уйғотиш, ёмон хислатлардан қутилишга чорловчи огоҳномадек жаранглаган: Замона сочингни оқартирди, кўзингни оч, нимаики кўз олдинда бўлса уни яшириб (иғмоз) бўлмайти.

Еттинчи байтда шоир ғафлат уйқусидаги инсоннинг тасвирини келтиради. Байтдаги **савод** сўзи қоралик, қора тус маъносини англатади. Лирик қаҳрамон умр шомида жоҳилликдан уйғонди. Лекин умр шомига (қоронғилигига) ажал тонги (ёруғлиги) баёз (нома)ни келтирди. Байтда шоир тазод санъати (қоронғи-ёруғ; шом-тонг) орқали лирик қаҳрамон умрининг бесамар ва мақсадсиз ўтганлигига эътиборни қаратади.

Ғазалнинг саккизинчи байтда орифона мазмунга урғу берилган. **Факр** - дунё ноз-неъматларидан кечган, илоҳ ишқида ёнган шахс. У илоҳий файзга дунё роҳатидан воз кечиб, сидқидилдан Мутлақ руҳ (Оллоҳ) сари интилади. Шоир мазкур байтда ғафлат уйқусидаги инсонга қарама-қарши қилиб факр образини қўяди. **Иймоз** – ялтираш, ёришиб кўриниш.

Фақирнинг яширин оҳини эътиборсиз қолдирма, чунки бу чақин ялтираб кўринса ҳам, аммо жаҳонга ўт солиши мумкин.

Ғазал мақдасида шоир “ўлик” деб камолга эришмаганларни назарда тутмоқда. **Файз эшиги** ҳам кўчма маънода қўлланган бўлиб, Тангри таолонинг қарами, файзи маъноларида қўлланган. **Файёз** – файз етказувчи, лутфу қарам қилувчи.

Навоий сўзлари ўлукка жон бағишлайди. Чунки Файёзи олам – Тангри таолонинг қарами, файзи эшиклари биз учун очиқ. Биз унга лойиқ бўлсак, мушарраф бўламиз.

Улуғ шоир бутун ғазал давомида ҳайратомуз тушбеҳу гўзал тамсиллар орқали инсоннинг улуғворлиги, берилган умрининг ғаниматлигини таъкидлаш баробарида, унинг вужудида макон

тутган ноқис хислатларини танқид қилади. Шоир тасвири ва танқидилар остида куйиниш, ҳасрат, алам, афсус оҳанглари яққол кўзга ташланади. Сабаби, улуғ шоирнинг асл мақсади **ИНСОННИ** номаъқул хислатлардан фориғ кўриш, унинг комиллик сифатларига эга бўлиши ғоялари ташкил қилади.

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Raxmatulloyev Murodjon Xikmatulloyevich,
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi
m.x.raxmatulloyev@buxdu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatimiz hayotini, davlatimizda ro'y berayotgan voqealarni boricha, ro'y-rost xalqqa yetkazish ommaviy axborot vositalarining vazifasi, insonning so'z va axborot olish erkinligi, jurnalistik faoliyat erkinligi kafolatlari, ommaviy axborot vositalari, mustaqillik yillarida O'zbekistonda matbuotni rivojlantirish maqsadida davlat tomonidan olib borilgan siyosat va uning natijalari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: davriy nashrlar, matbuot, gazeta, jurnal ommaviy, axborot vositalari, demokratik qadriyatlar.

Аннотация: В данной статье поставлена задача средств массовой информации донести до народа жизнь нашего общества и происходящие в нашей стране события, свободу слова и свободу информации, гарантии свободы журналистской деятельности, средств массовой информации, обсуждаются политика, проводимая государством в годы независимости в Узбекистане в целях развития печати, приводятся её результаты.

Ключевые слова: периодические издания, пресса, газета, журнал. СМИ, демократические ценности.

Annotation: In this article, the task of the mass media to convey the life of our society and the events happening in our country to the people, the freedom of speech and information of a person, the guarantees of freedom of journalistic activity, mass media, in the years of independence in Uzbekistan the policy carried out by the state in order to develop the press and its results are discussed.

Key words: Periodicals, press, newspaper, magazine. mass media, democratic values.

Kirish

Matbuot bu ommaviy axborot vositalarining bosma shakllari hisoblanib, uning tarkibiga gazeta, jurnal, almanaxlar kiradi. Matbuot - davriy nashrlar, asosan, gazeta va jurnallarni ifodalaydi (sinonimi – pressa).

Matbuot ijtimoiy ongning o'tkir va ta'sirchan vositasi sifatida kishilik jamiyatiga doimiy va faol ta'sir ko'rsatadi, jamoatchilik fikrini shakllantiradi, omma ongiga muayyan qarashlarni singdirishda qudratli g'oyaviy omil hisoblanadi. Matbuot jamiyat hayotini ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ishlab chiqarish, ilmiy-texnikaviy va boshqa yo'nalishlarini yoritadi.

Istiqlool tufayli O'zbekiston matbuoti taraqqiyotida ham sifat jihatidan butunlay yangi - demokratik rivojlanish bosqichi boshlandi. Endilikda tashkilotlar, partiyalar, uyushmalar, ayrim jamoalar, fuqarolar ham matbuot nashrlarini ta'sis etish huquqiga ega bo'ldilar. Mamlakatda matbuot erkinligini ta'minlashga imkoniyat yaratila borildi.

Adabiyotlar sharhi

Ijtimoiy hayotga tatbiqan axborot – kishilar, predmetlar, faktlar, hodisalar, jarayonlar va shu kabilar haqidagi ma'lumotlarni anglatadi. Axborotlashtirish – axborot resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanish hisobiga fuqarolar, davlat hokimiyati va o'z – o'zini boshqarish organlari, tashkilotlar va jamoat birlashmalarining axborot sohasidagi ehtiyojlarini qondirish, huquqlarini ro'yobga chiqarish maqsadida optimal sharoitlarni yaratish uchun tashkil etiladigan ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik jarayonlar majmui. Matbuot - barcha bosma mahsulotlar majmui; tor ma'noda davriy nashrlar, asosan, gazeta va jurnallarni ifodalaydi (sinonim - pressa). Matbuot ijtimoiy ongning o'tkir va ta'sirchan vositasi sifatida kishilik jamiyatiga doimiy va faol ta'sir ko'rsatadi, jamoatchilik fikrini shakllantiradi, omma ongiga muayyan qarashlarni singdirishga qudratli g'oyaviy omil hisoblanadi. Matbuot jamiyat hayotini turli (ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy texnikaviy va boshqa) yo'nalishlarida yoritadi. Matbuot XV asrning o'rtalarida Yevropada tarkib topgan. Qariyb besh asr mobaynida (ommaviy axborot vositalarining boshqa turlari-radioeshittirish va televidenie paydo bo'lgunga qadar) kishilararo ommaviy muloqotning, bilim va g'oyalar tarqatishning asosiy vositasi sanalgan. Dastlabki bosma nashrlar, kitob, bosma, kitob, risola va

varaqlardan iborat bo'lgan. XVII asrning boshlarida gazetalar keyinroq esa jurnallar tashkil topdi; XIX asrning o'rtalarida matbuot agentliklari vujudga kela boshladi. XX asrda ommaviy axborotning radioeshittirish va televidenie singari turlarining paydo bo'lishi va taraqqiy qilishiga qaramay, matbuot hamon kishilik jamiyatidagi o'z o'rnini va mavqegini tobora kengaytirib boryapti, ijtimoiy-siyosiy hayot va faoliyatning hamma tomonlariga doimiy va samarali ta'sir ko'rsatayapti. Butun dunyoda matbuotning muttasil keng tarqalib borayotgan buning isbotidir.

Mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari soni 2016 yilga nisbatan qariyb 30 foizga ortib, 1962 taga yetganligi, shuningdek, milliy axborot makonida internet nashrlarining soni so'nggi 6 yilda salkam ikki barobar ko'payib, 677 taga oshganligi alohida ta'kidlash lozim.

«Natijada davlat va nodavlat tashkilotlarining axborot manbalari yanada ortib, aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilish, odamlarni o'ylantirayotgan muammolarga tezkor munosabat bildirish, turli mavzular bo'yicha ochiq, xolis va tanqidiy fikr bilan chiqishda katta imkoniyatlar paydo bo'lmoqda», — deyilgani bejiz emas.

O'zbekistonda milliy matbuotni rivojlantirish, mustaqillikdan so'ng yangicha ruhdagi nashrlarni qo'llab quvvatlash maqsadida ko'plab qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi. Shu tufayli mutaqqillikning dastlabki yillarida matbuot nashrlarining ko'payishi va yangidan vujudga kelishi kuzatildi. Bu jarayonlarda davlat tomonidan matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlarini himoyalash va rag'batlantirish alohida ahamiyatlidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kunini belgilash to'g'risida»gi Farmoniga ko'ra matbuot va ommaviy axborot vositalarining mustaqillik g'oyalarini targ'ib etish, yangi demokratik jamiyat qurishda, aholini Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash borasidagi xizmatlarini e'tirof qilgan holda, jurnalistlar va matbuot xodimlarini rag'batlantirish maqsadida 27 iyun matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni etib belgilandi.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil

1993 yil 25 avgustdagi Prezident farmoniga ko'ra «O'zbekiston respublikasi matbuotini qo'llab-quvvatlovchi jamg'arma» tashkil topdi. Jamg'arma gazeta va jurnallar faoliyatini takomillashtirish, davriy nashrlarni chiqarish va tarqatish, shuningdek bozor munosabatlariga o'tish sharoitida jurnalistlarni ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish bilan bog'liq masalalarni hal etishda ularga ko'maklashish maqsadida tashkil etildi. Farmonga ko'ra Respublika davriy nashrlarining moliyaviy va moddiy texnikaviy bazasini mustahkamlash maqsadida jamg'armaga Vazirlar Mahkamasi zaxirasidan 1 milliard so'm ajratildi. Bu esa o'z navbatida matbuot xodimlarini rag'batlantirish va ularni har tomonlama qo'llab quvvatlashga yo'l ochdi.

Jamiyatimiz hayotini, davlatimizda ro'y berayotgan voqealarni boricha, ro'y-rost xalqqa yetkazish ommaviy axborot vositalarining vazifasidir. Ommaviy axborot vositalarining normal faoliyat ko'rsatishi uchun shart- sharoit yaratish, ularni nashr etish va tarqatish bilan bog'liq moliyaviy va texnik masalalarni yechishda, ijodkorlarning demokratik jarayonda faol ishtirok etishi uchun amaliy yordam ko'rsatish maqsadida O'zbekiston Respublikasi ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish va qo'llab-quvvatlash ijtimoiy-siyosiy jamg'armasi tashkil qilindi (1996 yil 30 avgust). Bu jamg'arma ommaviy axborot vositalari vakillarining mustaqil, o'z-o'zini boshqaruvchi, hukumatga qarashli bo'lmagan tashkiloti hisoblanadi.

Bugun kompyuter va mobil telefon jurnalistga u qayerda bo'lishidan qat'iy nazar, hatto odam yashamaydigan orolda ham o'z materialini gazeta va jurnallarga sanoqli daqiqalarda yetkazish, agar gap televidenie yoki radio haqida ketar ekan, to'g'ridan-to'g'ri efirga chiqish, internet orqali esa xalqaro tarmoqning deyarli barcha foydalanuvchilariga axborot uzatish imkoniyatini beradi. Haqiqatdan ham, hozirda zamonaviy texnologiyalarning ijtimoiy va iqtisodiy hayotga joriy etilish sur'ati (ayni shu ko'rsatkich- belgilovchi xususiyat)ga teng tezlik yo'q. Sotsiologlarning e'tirof etishicha, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy axborotlar qancha ko'p to'plansa, jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy o'sishi shuncha tezlashadi. Globallashuv jarayoni ijtimoiy hayotning barcha sohalariga ta'sir qilib, alohida mamlakatlarni jahon hamjamiyatiga bog'laydi. Natijada yangi bozorlar (kapital, valyuta bozori, sug'urta bozori va hokazo), yangi vositalar paydo bo'ladi (turli axborot tizimlari, internet, uyali aloqa)[5, 358]. Modomiki, jurnalistika shu turdagi axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tartibga solish, tahlil qilish bilan shug'ullanar ekan, shunday xulosa chiqarish mumkin: jurnalistikaning sifati qanchalik yuqori bo'lsa, u o'ziga yuklangan vazifani shunchalik to'liqroq bajaradi, jamiyat shunchalik samarali va tez rivojlanadi, davlat institutlari va hokimiyat boshqaruv vazifasini to'liqroq bajaradi, jamiyat rivoji, istiqbolini oldindan aytib, uning rejalarini ishlab chiqadi.

Bu jarayon kelgusida yanada kuchga kiradi. Maykrasoftning tashkilotchisi Bill Geyts e'tirof etganidek, yaqin kelajakda kompyuter va internet barcha uchun baravar bo'ladi va uni sotib olish darslikdan arzonroq va qulayroq bo'lib qoladi. Yangi axborot texnologiyalar bizning hayotimizda so'zsiz ijobiy rol

bajarish chog'ida nopok kishilar qo'lida buzg'unchilik g'oyalarga ham xizmat qilishi mumkin. Jamiyatni modernizatsiyalash va uning innovatsion rivojlanishini ta'minlash ijtimoiy taraqqiyot talabidir. O'z taraqqiyotini o'ylagan jamiyat mudom modernizatsiyalash va innovatsiyaga ehtiyoj sezadi, ularni o'z hayotiga joriy etish mexanizmlari va vositalarini yaradi. Totalitar tuzumdan xalos bo'lgan mustaqil O'zbekiston uchun modernizatsiyalash jarayonlari 1991 yildayoq boshlangan. Ba'zi faylasuflar fikriga ko'ra, O'zbekistonda modernizatsiyalash 1990 yil iyunda qabul qilingan Mustaqillik Deklaratsiyasi bilan boshlanadi. Chunki ushbu hujjat xalqimiz irodasi orzu-istaklarini ifoda etib, mamlakatni modernizatsiyalash hamda ijtimoiy taraqqiyotni yangi etnosiyosiy paradigmaga muvofiq ta'minlashni boshlab berdi. Modernizatsiya mohiyatan innovatsiya tomon yo'l, jamiyat hayotini, kishilar tafakkurni yangilash tomoni yo'naltirishdir. Bu jarayonlar inson kapitalini, tafakkurni rivojlantirish bilan bog'liq.

OAV o'zining ma'rifiy funksiyasiga muvofiq innovatsion ishlanmalar haqida xabarlar, ma'lumotlar, axborotlar tarqatadi. Ular har doim ham innovatsion tafakkurning yuqoridagi psixik, subyektiv jihatini nazarga olavermaydi. Bu jihatdan maxsus jurnallar va asarlarda yoritiladi. Ammo OAV dagi operativlik, ommaviylik va hozirjavoblik xabarlarini ta'sirchan, dolzarb qiladi. O'zimiz o'tkazgan savol-javoblar natijalaridan ma'lumki, ilmiy-texnik ishlanmalar va izlanishlar bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarning deyarli 62% asosiy g'oya, fikr va muammolarini ilmiy adaabiyotlar, gazeta va jurnallar, informatsion mohiyatiga ega uchrashuv, fikr almashuvva byulletenlardan oladi. Ularning fikricha, OAV dagi ijtimoiy fikrlar, taklif va tavsiyalar innovatsion izlanishlarga yo'nalish beradi, u yoki bu sohaga yangilik olib kirishga yetaklaydi. Respondentlarning 38 % mutaxassislar, olimlar chiqishini uyushtiradigan maxsus jurnallar va konferensiyalar, mazkur konferensiyalar to'plamlari, informatsion byulletenlari bugun ilmiy - texnik ishlanmalarga yo'nalish bermoqda, mutaxassislarning diqqatini innovatsion izlanishlarga qaratmoqda. Qiziqarli jihati shundaki, innovatsion izlanishlarga g'oyaviy, ilmiy va ma'naviy jihatdan tayyor mutaxassislarning 71% ni o'ttiz beshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi. Bu hol ko'rsatadiki, yoshlar, yangilikka qalbi, o'yi va fikri moyil yoshlar innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlashga tayyor ekanliklarini ko'rsatishadi. Mazkur yoshlarning aksariyati, ya'ni 86% maxsus ilmiy-texnik ma'lumotga ega, ba'zilar esa ilmiy-texnik ixtirolari uchun patent ham olishgan. Xalq so'zi gazetasida 2019-yil mobaynida ana shunday izlanishlar haqida 28 ta, Turkiston gazetasida 81 ta, Ma'rifat gazetasida 64 ta, Ishonch gazetalarida esa 48 ta maqola chop etilgan. Tafakkur jurnalida innovatsion ishlanmalarga oid 2018-2019-yillar mobaynida 6 ta, Sharq yulduzi jurnalida 2 ta, San'at jurnalida 2 ta maqola berilgan. To'g'ri ba'zi maqolalarda innovatsiya va innovatsion izlanishlar haqida ma'lumotlar sarlavhada emas, balki matn ichida keladi. Lekin savol-javobimizda qatnashgan respondentlarning 79% innovatsion tafakkurni shakllantirishda zamonaviy axborot vositalari, ayniqsa, internet, maxsus saytlar, blogerlar yetakchi o'rinda turadi. Internetdagi "G'aroyib dunyo" sayti jahondagi innovatsion ishlanmalar, goho odatiy hollarni ixtiroga aylantirgan yangiliklarni e'lon qilishi bilan ilmiy-texnik ijodga qiziqish uyg'otib keladi.

Keyingi yillarda O'zbekistonda so'z va matbuot erkinligini ta'minlash uchun ochiq maydon yaratildi. Bunday imkoniyatdan foydalanish yo'lidagi turli g'ovlar: ma'muriy, norasmiy cheklovlar deyarli olib tashlandi. Jamiyatda har kim o'z fikrini bemalol bildirishi, murojaat va e'tirozlari, taklif hamda shikoyatlarini erkin ifoda etishi uchun zarur huquqiy baza yaratildi va u takomillashtirildi. Internet, undagi ijtimoiy tarmoqlar, portallar, gazeta-jurnallar, TV va radio, xullas, axborot yetkazishning barcha vositasini, onlayn va oflayn, an'anaviy va noan'anaviy instrumentlarni qamrab oldi. Shunga yarasha insonning so'z va axborot olish erkinligi, jurnalistik faoliyat erkinligi kafolatlari tubdan mustahkamlandi, bunday huquqlarga daxl yoki qarshilik qilganlarga nisbatan tegishli javobgarlik choralari kuchaytirildi.

Xulosa va munozara

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida matbuot sohasida tuzilmaviy islohotlar jadallik bilan amalga oshirildi. Eng qiyin davrda tuzilgan O'zbekiston respublikasi matbuotini qo'llab - quvvatlovchi jamg'armasi va O'zbekiston Respublikasi ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish va qo'llab-quvvatlash ijtimoiy-siyosiy jamg'armasi matbuot va ommaviy axborot vositalarini oyoqqa turishida muhim rol o'ynadi.

ADABIYOTLAR:

1. Shavkat Mirziyoevning matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga tabrigi. https://uz.uz/uz/posts/matbuot-va-ommaviy-axborot-vositalari-xodimlariga_385149
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1993- yil 24- iyundagi "O'zbekiston respublikasi matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kunini belgilash to'g'risida"gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993, 7-son, 276-modda.

HISTORY

3. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1993- yil 25- avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi matbuotini qo'llab-quvvatlovchi jamg'armanitashkil etish to'g'risida"gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi OliyKengashining Axborotnomasi, 1993, 8-son, 307-modda (Farmon o'z kuchini yo'qotgan).*
4. *O'zbekiston Respublikasi Ensiklopediyasi. –T.: 1997.–B. 280.*
5. *Rahmatullaev T. Matbuot va demokratiya. –T.: 2002. –B 7.*
6. *O'tkir Raxmat. Matbuot hayot ko'zgusi. Xalq so'zi. 2020, 24- iyun.*

BUXORO AMIRLIGI VA ROSSIYA IMPERYASINING SAVDO-SOTIQ MUNOSABATLARINING YO'LGA QO'YILISHI

*Xakimov Jahongir Nematjon o'g'li,
Toshkent kimyo-texnologiya instituti
Shahrisabz filiali assistent o'qituvchisi
xakimov@mail.ru*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasining savdo-sotiq munosabatlarining yo'lga qo'yilishi yoritib berilgan. Bu yerda savdo-sotiq ishlarida qilingan barcha ishlari keltirilgan. Har bir Buxoro amiri Rossiya bilan bo'ladiga savdo-sotiq ishlariga alohida urg'u bergan. Chunki Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi bilan savdo munosabatlari o'ziga xos o'rin egallaydi. Shu bilan birga Rossiya Buxoro amirligi bilan XVIII asrning II yarmidan boshlab savdo aloqalarini rivojlantirishga harakat qilgan. Buxoro amirligining ahamiyati ortib bordi. Bunga birinchidan, Rossiyada rivojlanib borayotgan sanoat uchun xomashyo manbalarni topishga intilish, ikkinchidan, Osiyoda, ayniqsa, Hindistonda Angliya ta'sirining kuchayib borayotganligi sabab bo'lgan. Doniyolbiy davrida Buxoro davlatining Rossiya bilan savdo-iqtisodiy aloqalarining yangi davriga tamaltoshi qo'yilgan Amir Shohmurod davrida yuqori cho'qqisiga chiqadi. Aynan Shohmurod davrida O'rta Osiyo mintaqasida Rossiya bilan savdo aloqalar qilish bo'yicha yaqqol yetakchi o'rinni egallagan.

Kalit so'zlar: Buxoro, Rossiya, rubl, Astraxan, Shohmurod, Ernazar, XVIII, elchi, degrezlik.

Аннотация: В данной статье рассказывается об установлении торговых отношений между Бухарским эмиратом и Российской империей. Здесь всё, что было сделано в сфере торговли. Каждый эмир Бухары уделял особое внимание торговле с Россией, потому что торговые отношения Бухарского эмирата с Российской империей занимали особое место. В то же время Россия пыталась развивать торговые отношения с Бухарским эмиратом со второй половины XVIII века. Возросло значение Бухарского эмирата. Это было вызвано, во-первых, стремлением найти сырьё для развивающейся промышленности в России, а во-вторых, растущим влиянием Англии в Азии, особенно в Индии. В период Данийолбия был заложен фундамент новой эпохи торгово-экономических отношений Бухарского государства с Россией, а своего расцвета они достигли в период правления Амира Шахмурада. Именно во времена Шахмурада он занял явную лидирующую позицию в торговых отношениях с Россией в среднеазиатском регионе.

Ключевые слова: Бухара, Россия, рубль, Астрахань, Шахмурад, Эрнazar, XVIII век, посол, degrez.

Abstract: This article describes the establishment of trade relations between the Emirate of Bukhara and the Russian Empire. Here are all the things that have been done in the trade. Every emir of Bukhara placed special emphasis on trade with Russia. Because the trade relations of the Bukhara Emirate with the Russian Empire occupy a special place. At the same time, Russia tried to develop trade relations with the Emirate of Bukhara from the second half of the 18th century. The importance of Bukhara Emirate increased. This was caused, firstly, by the desire to find raw materials for the developing industry in Russia, and secondly, by the growing influence of England in Asia, especially in India. During the period of Danyolbi, the foundation stone of the new era of trade and economic relations of the Bukhara state with Russia was laid, and it reached its peak during the period of Amir Shahmurad. It was during Shahmurad's time that he took a clear leading position in trade relations with Russia in the Central Asian region.

Keywords: Bukhara, Russia, ruble, Astrakhan, Shahmurad, Ernazar, XVIII, ambassador, degrez.

Kirish. Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi bilan savdo munosabatlari o'ziga xos o'rin egallaydi. Rossiya bilan savdo aloqalar XVI asrdan ya'ni shayboniylar davridan boshlab rivojlangan. Mang'itlar davrida esa yangi bosqichga ko'tarilgan. XVIII asrning oxiri XIX asr boshlaridan boshlab Buxoro amirligining tashqi savdo aloqalarida Rossiyaning savdo shaharlari (asosan, Orenburg va Astraxan) muhim o'rin tuta boshlagan.[1:303] Shu bilan birga Rossiya Buxoro amirligi bilan XVIII asrning II yarmidan boshlab savdo aloqalarini rivojlantirishga harakat qilgan. Buxoro amirligining ahamiyati ortib bordi. Bunga

birinchidan, Rossiyada rivojlanib borayotgan sanoat uchun xomashyo manbalarni topishga intilish, ikkinchidan, Osiyoda, ayniqsa, Hindistonda Angliya ta'sirining kuchayib borayotganligi sabab bo'lgan. Doniyolbiy davrida Buxoro davlatining Rossiya bilan savdo-iqtisodiy aloqalarining yangi davriga tamaltoshi qo'yilgan.

Asosiy qism. Ernazar Maqsudov 1745-yildan boshlab, Rossiyaga bir necha marta tijorat maqsadida borib, imperator Yelizaveta Petrovna qabulida bo'lgan. Savdo ishlari bilan Xuroson va Hindistonga ham borgan. Keyinchalik Buxoro hukmdori Doniyolbiy otaliq tomonidan Rossiyaga yuborilgan 2 ta elchilik missiyasi (1774-1776 va 1779-1780) ga boshchilik qilgan. Doniyolbiy otaliq 1774-yilda Ernazar Maqsud o'g'li boshchiligidagi boshchiligidagi o'z elchilarini Rossiyaga elchi jo'natib, yaqin diplomatik va savdo aloqalarini o'rnatgan. Bu paytda u yerda Yekaterina II (1762-1797-yillar) hukmronlik qilar edi. Ikki davlat o'rtasida savdo aloqalari o'rnatilishida Ernazar elchining o'ziga yarasha o'rni bo'lgan. Ernazar elchi - Mulla Muhammad Ernazarbiy Maqsud o'g'li XVIII asrda yashab o'tgan yirik savdogar va elchi. Ernazar elchi Buxoro amirligining Rossiyaga yuborgan elchilari rahbari bo'lgan. U madrasada o'qigan bo'lib, 1745-yildan boshlab, Rossiyaga bir necha marta tijorat maqsadida borib, imperator Yelizaveta Petrovna qabulida bo'lgan. Savdo ishlari bilan Xuroson va Hindistonga ham borgan. Keyinchalik Buxoro hukmdori Doniyolbiy otaliq tomonidan 1774-1776-yillarda va 1779-1780-yillarda Rossiyaga yuborilgan 2 ta elchilik missiyasiga boshchilik qilgan. Birinchi elchilik tarkibida 64 kishi va 20 ta ozod qilingan rus asirlari bo'lgan. Ular 1774-yil 1-sentyabrda Ashtarxon (Astraxon) shahriga kelishgan va Astraxon general gubernatori P.Krechetnikov huzurida bo'lishgan. So'ngra 1775-yil 14-mart kuni Moskvaga yetib kelishgach, Rossiya imperatori Yekaterina II tomonidan rasmiy ravishda qabul qilingan. Bu elchilik natijasida Buxoro bilan Rossiya o'rtasida mustahkam savdo aloqalari yo'lga qo'yilgan, savdo karvonlari xavfsizligi uchun Emba daryosi bo'yida qal'a qurilgan. Rossiyaning chegara shaharlari: Orenburg, Astraxonda Buxoro savdogarlaridan olinadigan bojxona solig'i kamaytirilgan, ichki shaharlarda O'rta Osiyo savdogarlarining erkin harakat qilishi kafolatlangan.

Ikkinchi elchilik 1779-yilning o'rtalarida boshlangan, elchilik tarkibida 28 kishi bo'lgan. Ernazar elchi boshchiligidagi elchilar 1780-yil yanvarda Moskva va Peterburgga yetib kelishgan. Elchilik natijasida buxorolik savdogarlar Rossiyadan ko'p miqdorda mis, po'lat va cho'yan sotib olishga muvaffaq bo'lganlar. Ernazar elchi Rossiyada o'z vazifasini to'liq uddalagach, 1795-yilda Buxoroda madrasa qurdirgan. Amir Shohmurod tomonidan Mulla Muhammad Ernazarbiy Maqsud o'g'li Turkiyaga elchi sifatida yuborilgan va o'sha yerda yashab vafot etgan.

Doniyolbiy otaliqdan so'ng Amir Shohmurod taxtga kelgach, tashqi savdoni rivojlantirishda Rossiya bilan savdo aloqalariga alohida e'tibor qaratgan. Uning davrida Buxoroning Rossiya bilan savdo aloqasi o'tgan davrlarga nisbatdan sezilarli darajada kuchaydi. Buxoro savdogarlari Rossiyaga ham asosan, paxta va ipak mahsulotlarini sotish uchun olib borishgan, u yerdan esa mo'ynali mahsulotlar, sandiqlar, fabrikalarda ishlab chiqarilgan metall buyumlar, turli xil matolar va boshqa turdagi mollarni olib ortga qaytishgan. Buxoro savdogarlari Rossiyaga hind mollarni ham yetkazib turgan, u yerdan rus mollarni Afg'onistonga olib borib sotishgan. Buxoro bilan Rossiya o'rtasidagi savdo aloqalarida qozoqlar ham rol o'ynagan. Qozoqlar savdogarlarni ma'lum bir haq evaziga Orenburggacha kuzatib borishgan [2:147]. Amir Shohmurod davrida Rossiya bilan savdo aloqalari qanchalik rivojlanganligini quyidagi ma'lumotlarni ko'rib chiqamiz. O'rta Osiyo, xususan, Buxoro davlatining Orenburg guberniyasi orqali Rossiya bilan savdo aloqalari bo'yicha 1745-1774-yillar davomida to'plangan hujjatlarda ma'lum bo'lishicha, Buxorodan Orenburgga 35 yil ichida jami 5957426 rubl miqdordagi tovar kiritilgan bo'lsa, shu muddat ichida Orenburgdan Buxoroga jami 5047113 rubl miqdorda tovar olib kelingan. Endi Amir Shohmurod davridagi holatni qarab chiqamiz. Orenburg guberniyasining 1787-1796-yillardagi hujjatlarda 10 yil davomida Orenburgga O'rta Osiyodan jami 4625861 rubllik tovarlar kirgan bo'lsa, shundan, 4158316 rubllik tovar Buxoro savdogarlariga, 467545 rubllik tovar Xiva savdogarlariga tegishli bo'lgan. Xuddi shu davrda Orenburgdan Buxoroga 3680869 rubl, Xivaga esa 467545 miqdordagi tovarlar olib chiqilgan [3:83]. Bundan ko'rinib turibdiki, Amir Shohmurod davrida Buxoro O'rta Osiyo mintaqasida Rossiya bilan savdo aloqalar qilish bo'yicha yaqqol yetakchi o'rinni egallagan.

Rossiya imperiyasida hukmdorlar almashganligi sababli Amir Shohmurod Rossiya bilan diplomatik va savdo aloqalarini yanada mustahkamlash maqsadida 1797-yilda Peterburgga Polvonquli qurchi boshchiligidagi o'z elchilarini jo'natadi. Rossiyaning yangi imperatori Pavel I elchilarni yaxshi kutib olgan va ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishini ma'lum qilgan. Amir Shohmurod hukmronligidan keyin ham Buxoroning Rossiya bilan savdo aloqalari rivojlanishda davom etgan. Orenburgda 1804-yili Buxoro amirligi savdogarlarining qarorgohi qurilib, unda 20 xonadon istiqomat qilgan. Ular Rossiya bilan Buxoro amirligi o'rtasidagi savdoda muhim o'rin tutganlar. Qarorgoh ahli 1812-yilda Napoleon armiyasiga qarshi janglarda

faol ishtirok etgan. 1825-yilga kelib savdogarlar qarorgohi kengayib, xonadonlar soni 30 taga yetgan. Ularning ko'pchiligi hunarmandlar (novvoylar, savdogarlar) bo'lib, o'z mahsulotlarini shu yerda sotuvga tayyorlaganlar. Buxorodan yo'lga chiqqan karvon 2 oyda Orskka yetib borgan. Ba'zida savdo karvoni 5 mingtagacha tuyadan iborat bo'lgan. Chulkov Orenburg savdosini tahlil qilib, Rossiya Sharq mamlakatlari-O'rta Osiyo, u orqali esa Hindiston va Eron bilan savdo qilgan, degan xulosaga keladi. Uning fikricha, O'rta Osiyo va uning qo'shni davlatlar bilan aloqalarini yanada rivojlantirish uchun Rossiyada Sharq xalqlari manfaatlariga mos keladigan ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish masalasini ko'tarib chiqqan. Is'tedodli rus iqtisodchisining fikri rus savdo doiralariining manfaatlarini ifoda qilardi va Rossiyaning qo'shni Sharq davlatlariga o'zining ta'sirini ko'rsatish istagidan dalolat bergan. Chulkov ma'lumotlariga ko'ra, Buxoro, Xiva va Turkmanistondan Rossiyaga tillo, kumush, hind va boshqa mamlakat mollari, lazurit toshi (ko'k rangli qimmatbaho tosh), buxoro va sheroz qorako'li, parcha, har xil bo'z, toshlar, olmos, yoqut, lal, zumrad, darmana urug'i va boshqa tovarlar keltirilgan. Shunday qilib, Chulkovning bergan ma'lumotlari ko'rib o'tilayotgan davrda Orenburg Rossiyaning boshqa sharq davlatlari bilan savdo aloqalarida alohida o'rin eallaganligini va hattoki, Rus savdosining sharq davlatlari bilan aloqalarida asosiy savdo markazi rolini bajarganligini tasdiqlaydi. Lekin shu narsani eslatib o'tish joizki, na Chulkov va na undan oldingi mualliflarning asarlarida Orenburgga qancha miqdorda, qanday tovarlar olib kelinganligini tasdiqlovchi ma'lumotlar aniq berilmagan.

XVIII asrning oxiri va XIX sarning boshi Buxoro xonligi bilan Rossiya o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tarixida savdo va diplomatik aloqalarning kengayishini va mustahkamlanishi bilan xarakterlanadi. Bu vaqtlarda Buxoro xonligi bilan Rossiya o'rtasidagi aloqalar, asosan, ikki tarafdan: Sibir va Orenburg savdo yo'llari orqali olib borilib, Orenburg orqali bo'lgan munosabatlar ayniqsa, ahamiyatlidir [4:11]. XVIII asrning oxiridan boshlab Rossiya bilan O'rta Osiyo xonliklari, jumladan, Buxoro xonligi o'rtasidagi savdo aloqalarining rivojlanishida Orenburg savdo yo'li katta ahamiyatga ega bo'lib, Orenburg shaharining o'zi Rossiya va O'rta Osiyo savdosida ayiriboshlashning markaziga aylandi. Chunki bu vaqtlarda O'rta Osiyo savdogarlari uchun Rossiyaning ko'pgina ichki yarmarkalarida savdo qilishga ruxsat etilmay, odatda, ular o'z mahsulotlarini ko'proq Orenburgda rus sanoat mollari ayirbosh qilganlar. Shuningdek, Rossiya savdogarlari ham O'rta Osiyoga kamdan kam qatnab, Rossiyaning sanoat mollari O'rta Osiyo bozorlariga deyarli mahalliy savdogarlar vositasi bilan olib kelingan.

XVIII asrning oxirida Rossiya-Buxoro savdosining hajmini 1787-1796-yillarida Rossiya va Buxoro o'rtasida olib borilgan tovar aborotidan ko'rish mumkin. Masalan, mana shu o'n yil ichida Rossiyadan Buxoroga 3 million 680,9 ming so'mlik mol chiqarilgan bo'lsa, Buxorodan Rossiyaga esa 4 million 150,9 ming so'mlik mahsulot chiqarilgan. Bu davr ichida Buxoro va Rossiya savdosining umumiy hajmi unchalik katta bo'lmasa ham, lekin u tez sur'atlar bilan o'sib borgan. Masalan, 1787-1790-yillar davomida Orenburg orqali Buxorodan Rossiyaga o'rtacha hisob bilan yiliga 360 ming so'mlik, 1790-1793-yillar ichida yiliga 405 ming so'mlik va 1793-1796-yillarda yiliga 465 ming so'mlik mol chiqarilgan bo'lsa, XIX asrning boshiga kelganda, 1801-yilning o'zidayoq, Buxorodan Rossiyaga chiqariladigan mahsulotning hajmi 732,2 ming so'mga yetadi.[4:11]

Rossiyadan Buxoroga chiqariladigan mollarning miqdori esa 547 ming so'mgacha oshgan. Bu faktlar Orenburg orqali Buxoro bilan Rossiya o'rtasidagi savdo sotiqlik oxirgi 4-5 yil davomida avvalgi o'n yil ichidagi maksimal mol chiqarilgan yilga qaraganda yana 50 protsentga oshganligini ko'rsatadi.

Buxoro-Rossiya savdosining bunday sur'atlar bilan rivojlanishi asosan Rossiyada kapitalistik munosabatlarning o'sishi bilan bog'liq bo'lib, rivojlanib borayotgan rus to'qimachilik sanoati ko'proq O'rta Osiyo xom ashyosi paxtaga muhtoj edi. Shuning uchun ham XVIII asrning oxiridan boshlab, O'rta Osiyo Rossiya sanoatining eng zarur va eng muhim xomashiy manbalaridan biriga aylanib, paxta va yigirilgan ipdan tashqari, Rossiyaga xom teri, qorako'l, ipak, va quruq mevalar chiqarilgan. 1801-yilda Buxorodan Rossiyaga 4837 ming so'mlik yigirilgan ip chiqarilib, u umumiy savdo aborotining 68 protsentini tashkil etsa, 19.5 ming so'mlik paxta, 2 protsentini, 42.5 ming so'mlik gazlama, 5 protsentini, 101.7 ming so'mlik xom teri, 13 protsentini, 45.8 ming so'mlik qorako'l terisi, 6 protsentini, 25.7 ming so'mlik revand, 3 protsentini va qolgan boshqa xildagi mahsulotlar savdo aborotining 3 protsentini tashkil etgan. Demak, XIX asrning boshida Buxorodan Rossiyaga chiqariladigan mahsulotlar ichida yigirilgan paxta ipi bilan xom paxtani o'zi umumiy savdo aylanmasining 70 protsentini tashkil etgan. Yuqoridagi raqamlar Buxoro amirligi bilan Rossiya munosabatlari yildan-yilga yaxshi bo'layotganligidan dalolat beradi. Savdo aylanmasi esa ko'payib borgan.

Rus savdo karvoni 1803-yil, 23-iyulda Orsk krepostidan chiqib, Sirdaryoning bosh kechuviga 30 chaqirim qolganda hozok va xivaliklardan tashkil topgan talonchilik guruhlar bu kechuvning atrofiga joylashganliklarini eshitib, Buxoroga bormasdan orqaga qaytdi. Lekin qozoqlar karvonning orqasidan quvib

yetib, unga hujum qiladilar. Natijada karvonni talon-taroj etib, harbiy otryadning ko'pgina qismini, elchilikning a'zolaridan doktor Bolshoyini va elchilnik boshlig'i Gaverdovskiyning rafiqasini asir qilib, o'zlari bilan olib ketadilar [5:5-6].

Rossiyaga olib boriladigan xomashiyo ichida paxtaga nisbatan yigirilgan ipning salmogi kattaligi hali bu vaqtlarda Rossiyada ip yigiruv fabrikasi mavjud emasligini ko'rsatadi. Haqiqatdan ham 1805-yilda Rossiyada 59 ta to'quv va 5 ta gazlama bo'yash va pardoqlash fabrikalari bo'lsa-da, ammo bir dona ham ip yigiruv fabrikasi bo'lmagan. Shuning uchun ham to'qimachilik sanoatini xomashiyo bilan ta'minlashda ko'proq yarim fabrika-yigirilgan paxta ipi talab etilgan. Bu yarim fabrika mahsulotlari Rossiya va O'rta Osiyo jumladan, Buxoro savdosining asosini tashkil etgan. Bu vaqtlarda Rossiyadan Buxoroga, asosan, metal, temir, mis, po'lat, cho'yan, kumush va oltin, shuningdek, mo'yna, charm, movut va boshqalar chiqarilib, metallar Rossiya va Buxoro savdosida birinchi o'rinda turgan. 1801-yilda Rossiyadan Buxoroga 217,7 ming so'mlik oltin chiqarilgan, bu umumiy savdo aborotining 40 protsentini tashkil etsa, 112 ming so'mlik movut va boshqa xildagi to'qima mollar, 25 protsentini 83 ming so'mlik koshinli qizil buyog'i, 16 protsentini 76 ming so'mlik mo'yna, 15 protsentini 16 ming so'mlik charm, 3 protsentini va boshqa xildagi molar chiqarilgan, ular savdo aborotining 5 protsentini tashkil etgan [5:13].

O'rta Osiyoda Rossiyadan keltiriladigan metallarga bo'lgan talabning ortib borishi, asosan, bu vaqtlarda O'rta Osiyo xonliklarida iqtisodiy ko'tarilish natijasida shaharlarning o'sishi va ishlab chiqarish korxonalarining, ayniqsa, degrezlik (cho'yan quyish) korxonalarining kengayishiga bog'liq bo'lgan. Chunki O'rta Osiyo xonliklarida ishlab chiqarish ko'chlarini zaif bo'lganidan tog' sanoati tamoman rivojlanmagan bo'lib, hali mahalliy metal ishlab chiqarilmas edi. Buxoroda ishlab chiqariladigan metal buyimlar deyarli Rossiyadan keltiriladigan metallar hisobiga ishlanib, Rossiya misidan turli xil ro'zg'or buyimlardan tashqari, chaqa pul zarb qilingan. Rossiya po'lati, temiri va cho'yanidan qishloq xo'jalik asboblari, qurol-yarog'lar va boshqa buyimlar ishlab chiqarilgan. Rossiyadan oltin va kumush pul shaklida keltirilib, ulardan oltin pul-tilla va kumush tanga zarb qilingan. O'rta Osiyo bozori uchun eng kerakli va umumiy talabga sazovor bo'lgan metallarni O'rta Osiyoga chiqarish to' XIX asrning boshigacha man qilingan edi. Ammo O'rta Osiyo xonliklari bilan Rossiya o'rtasidagi munosabatlarning yuksalib borishi chor hukumatini 1801-yildan boshlab mazkur bozorga metal chiqarish uchun ruxsat berishga majbur qildi. [5:13] Garchi Rossiya va O'rta Osiyo o'rtasidagi savdo aloqalari jonlanib borayotgan bo'lsada, lekin uni normal holda olib borilishiga xonliklarni o'zaro olib borgan feodal urushlar va savdo yo'llaridagi talon-tarojliklar anchagina to'sqinlik qilgan. XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshida savdo yo'llaridagi notinchlik avvalgidan ham kuchaygan.

Buxoro amiri Haydarning Rossiya imperatori Aleksandr I ga yozgan xatida, Rossiyaga qarshi fransuzlarning hujumi boshlangan vaqtlarda Buxoro savdogarlari qozoqlarning talonchilik guruhlaridan talon-taroj etilganligi to'g'risidagi xabar bayon qilingan. XIX asrning boshiga kelganda Buxoro-Rossiya savdo aloqalarining borgan sari yuksalishi natijasida, birinchi navbatda savdo yo'llarining xavfsizligini taminlash va savdo munosabatlarini yanada mustahkamlash bu ikki davlat o'rtasidagi diplomatik aloqalarning asosiy vazifalaridan biriga aylangan. 1797-yildayoq Orenburg general-gubernatori Baron Ingelstrom O'rta Osiyo xonliklari bilan savdo munosabatlarini kengaytirish va ularni normal holda olib borish uchun karvon yo'llarini xavfsizligini ta'minlashda savdo karvonlarini O'rta Osiyo bozorlariga doimiy suratda harbiy soqchi bilan kuzatishni, mahalliy O'rta Osiyo savdogarlari uchun Rossiyaning ichki yarmarkalarida savdo qilishga ruxsat etilishini va Orenburgda O'rta Osiyo bozorlarini muntazam o'rganuvchi rus savdo muassasalarini barpo etishni taklif qilgan [5:13].

O'rta Osiyo bilan savdoni rivojlantirish maqsadida XIX asrda chor hukumati mahalliy O'rta Osiyo savdogarlariga Rossiyaning ichki rayonlarida va rus yarmarkalarida, birinchi navbatda Nejegorod yarmarkasida savdo qilish uchun ruxsat bergan. Buxoro va Rossiya savdo aloqalarining yuksalishi bilan bu ikki davlat o'rtasidagi diplomatik munosabatlar ham tobora mustahkamlanib borgan. 1804-1808-yillarda Buxoro xonligidan Rossiyaga Miralouddin, 1816-yilda hamda 1819-yilda Mirza Muhammadyusuf qo'rchiboshi boshliq elchiliklar yuborilgan. Rossiya ham Buxoro xonligi bilan aloqalarni muntazam olib borish uchun Buxoroga o'z elchi va missiyalarini yuborgan. Masalan, 1803-yilda Goverdovskiy, 1809-yilda Abdulnosir Subhonqulov elchilari va 1820-yilda A.F.Negri boshliq katta diplomatik missiya yuborilgan. XIX asr o'rtalari – XX asr boshlarida Buxoro amirligida dehqonchilik va chorvachilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq mamlakat iqtisodining asosiy tarmoqlari hisoblangan. Ayniqsa savdo-sotiq masalalariga kata e'tibor qaratgan. [5:14]

XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshida Buxoro xonligi bilan Rossiya o'rtasida olib borilgan diplomatik munosabatlar, asosan, ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va ularni normal holda va muntazam olib borishga qaratilgan. XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshida Buxoro bilan Rossiya munosabatlari to'g'risida keltirilgan bu qisqa ma'lumotlardan quyidagi xulosaga kelish mumkin:

1) Rossiyada sanoatni rivojlanishi va uning xomashyoga bo'lgan talabining ortishi bilan xomashyo manbai va sanoat mollarinin bozori sifatida O'rta Osiyoning ahamiyati oshgan;

2) Rus hukumati O'rta Osiyo bilan savdo aloqalarini kengaytirish uchun harakat qilib, XIX asrning boshida Rossiyadan O'rta Osiyo bozorlariga metal chiqarishga va mahalliy O'rta Osiyo savdogarlariga Rossiyaning ichki yarmarkalarida savdo qilishga ruxsat bergan;


3) O'zaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi uchun bu vaqtlarda asosiy to'sqinliklardan biri Qozog'iston cho'llaridagi talonchilik bo'lib, Rossiya bu talonchiliklardan savdo karvonlarini mudofaa etish uchun birinchi marta karvonlarni harbiy otryad bilan kuzatishni uyushtirgan; XIX asrning 30-50-yillarida Buxoro xonligi bilan Rossiya o'rtasidagi munosabatlar qayt qilinar ekan, avvalo, bu munosabatlarning asosini tashkil etgan iqtisodiy aloqalar va ularning umumiy holati ustida biroz to'xtab o'tish lozim. Bu vaqtlarda Buxorodan Rossiyaga chiqariladigan mahsulotlarining asosi: paxta, yigirilgan ip va mahalliy to'qima ip gazlamalardan iborat bo'lib, paxta bilan yigirilgan ip Buxoro eksportining 25 protsentini, ip gazlamalar ham 25 protsentini tashkil qilgan. Bulardan tashqari, Buxorodan gilam, har xil mo'ynalar va quruq mevalar chiqarilgan. Buxorodan Rossiyaga chiqariladigan mahsulotlarning umumiy hajmi 1837-1839-yillar uchun berilgan ma'lumotlar bo'yicha, yiliga o'rta hisob bilan, 264 ming so'mdan to 3.550 ming so'm orasida tebranib turgan bo'lsa, Rossiyadan Buxoroga keltirilgan mahsulotlarning umumiy hajmi yiliga, o'rta hisob bilan olinganda, 1.180 ming so'mdan to 1 600 ming so'mgacha yetib borgan edi.

Xuddi shu vaqtlarda Rossiyadan Buxoroga chiqariladigan mahsulotlar, asosan, to'qima ip-gazlamalar, movut, charm; metallardan: mis, temir, cho'yan, metal buyumlar, oltin va bo'yoqdan iborat bo'lgan. N.Xanikovning bergan ma'lumotlariga qaraganda, Rossiyadan Buxoroga 1830-yilda 1 million 834 ming 571 so'm 80 tiyinlik mol chiqarilgan bo'lsa, 1840-yilga kelganda Buxoroga olib kelingan rus mahsulotlarining umumiy hajmi 3 million 283 ming 654 so'mgacha oshib borgan edi.[7:171] XIX asrning 30-40 yillari davomida Rossiya va O'rta Osiyo xonliklari o'rtasidagi savdo aloqalarining yangi xarakterli holatlaridan biri: bir tomondan, O'rta Osiyodan Rossiyaga olib boriladigan mahsulotlar ichida paxtaning hajmi yigirilgan ipga nisbatan ancha oshgan, ikkinchi tomondan, Rossiyadan O'rta Osiyo bozorlariga olib kelinadigan mollarning orasida tayyor mahsulotning, jumladan to'qima ip-gazlamalarning solishtirma og'irligining asta-sekin orta borishidan iborat edi. 1834-1840-yillar ichida Rossiyadan O'rta Osiyoga olib kelingan mahsulotlar umumiy hajmining 50-60 protsenti tayyor mahsulotdan iborat edi. XVIII asrning oxiriga kelganda Buxoro Samarqand ham savdo-sotiq markazi hisoblangan. Bu haqida Samarqand tarixi asarida quydagilar ta'kidlagan: "XVIII asr oxiriga kelib Samarqand bozorlarida Hindiston, Rossiya, Xitoydan turli buyumlar keltirilar. O'z navbatida Samarqand ham shu mamlakatlarga qog'oz, olachadan tayyorlangan choponlar, sopol buyumlar, quruq meva, qorako'l teri, ot-ulovlar yetkazib berardi. XIX asrning birinchi yarmida ichki va tashqi savdo yanada o'sganligi tashlanadi. Shaharda Karvonsaroylar va do'konlarning ko'payganligi ana shundan dalolat beradi. [6:285]

Qisqacha **xulosa** qilib shuni aytishim mumkinki, amir Shohmurod davrida Buxoro va Rossiya o'rtasida yaxshi munosabatlar yo'lga qo'yilgan. Bu davlatlar oldindan yaqin munosabatda bo'lsada Shohmuroda davriga yangi pog'onaga ko'tarildi. Ayniqsa savdo-sotiq masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Ikki davlat o'rtasida savdo-sotiq munosabatlarning yaxshi yo'lga qo'yilgan. Buxoro amirligi davrida Rossiya bilan savdo qilish ikki tarafni ham qoniqtirgan. Bizda tayyor mahsulotga bo'lgan ehtiyojni qondirgan bo'lsa, Rossiya esa mahsulotlarini sotadigan bozor yaratgan va sanoati uchun xom ashyo manbasi sifatida xom ashyolarni olib ketgan. Bu bilan ikki tomon o'z manfaatlari yo'lida savdo-sotiqni rivojlantirib borgan.

ADABIYOTLAR :

1. Eshov B. *O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi*. Toshkent: 2002.
2. *Записки о Бухарском ханстве. Отчёты П.И.Демезона и И.В.Виткевича*
3. Михалева Г.А *Узбекистан в XVIII первой половине XIX века: ремесло, торговля и пошлины*. – Т.: 1991.
4. Muhammadjonov A. R. Ne'matov T. *Buxoro va Xivaning Rossiya bilan munosabatlari tarixiga doir ba'zi manbalar*. – T.: 1967.
5. Мейендорф Е .К. *Путешествие из Оренбурга в Бухару*
6. *Самарқанд тарихи.1-том.Ўзбекистон ССР.Фан нашриёти*. – Т.:1971. .
7. Ханыков Н. *Описание Бухарского ханства*. СПб., 1843.



**"SCIENTIFIC REPORTS
OF BUKHARA STATE
UNIVERSITY"**

The journal was composed
in the Editorial and
Publishing Department of
Bukhara State University.

Editorial address:

Bukhara, 200117
Bukhara State University, main
building, 2nd floor, room 219.
Editorial and Publishing
Department.
[https://buxdu.uz/32-buxoro-
davlat-universiteti-ilmiy-
axboroti/131/131-buxoro-davlat-
universiteti-ilmiy-axboroti/](https://buxdu.uz/32-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/131/131-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/)
e-mail:
nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Printing was permitted
29.04.2023 y. Paper format
60x84,1/8. Printed in express
printing method. Conditional
printing plate – 35,30.
Circulation 70. Order № 30.
Price is negotiable.
Published in the printing house
"Sadriddin Salim Buxoriy" LLC
Address: Bukhara,
M.Ikbol street, 11